

R. RAJABOV

**TARIX FANINING
METODOLOGIK
ASOSLARI**

*Murodova
Libary
Murodova
02.11.2014*

R. RAJABOV

TARIX FANINING METODOLOGIK ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5AII060I – tarix o'qitish metodikasi mutaxassisligi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

**TOSHKENT
«ISTIQLOL»
2013**

UO'K: 94(575.1)

KBK: 63.3

R-11

Taqrizchilar:

t.f.d. G'.Temirov, t.f.n., dots. X.Raupov

Mazkur darslikda tarix fanining metodologiyasi asoslarining shakllanishi, uning rivojlanish bosqichlari, tarixiy bilimning mazmun-mohiyati, tarix fanining tamoyillari, tarixiy jarayonlar tahlil qilinadi. Tarixni bilishning metodlari va tamoyillari ko'rsatiladi. Darslikda tarix fani metodologiyasi bo'yicha jahon fanida e'tirof etilgan olimlarning ilmiy konsepsiyalari to'g'risida ma'lumotlar ham beriladi.

Tarix fanining yangi tarmoqlari bo'lgan madaniy antropologiya, tarixiy informatika fanlarining vazifalari aniqlashtiriladi. Kursni to'la o'zlashtirish maqsadida talabalar uchun mavzu bo'yicha tayanch iboralar, takrorlash savollari, mustaqil ishlar mavzulari hamda foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi.

Darslik oliy o'quv yurtlarining tarix o'qitish metodikasi talabalari (magistrantlari)ga mo'ljallangan bo'lib, undan tarix fani o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

63.3
R-11

Rajabov, R.

Tarix fanining metodologik asoslari: darslik / R. Rajabov. —
Toshkent: Istiqlol, 2013. — 296 b.

UO'K: 94(575.1)

KBK: 63.3ya73

ISBN 978-9943-308-54-1

© Istiqlol nashriyoti, 2013

KIRISH

Tarix fani metodologiyasi tarixiy bilim va falsafiy-tarixiy tafakkurning uzoq rivojlanishi natijasida aniq tarixiy tadqiqotning nazariy asosi sifatida shakllandi. Aniq tarixiy voqealar va jarayonlarni o'rganish hamda daliliy ashyolarning to'planishi turli metodologik muammolarni qo'yish va tahlil qilish uchun zamin yaratdi. Aniq tarixiy tadqiqotning amaliyoti metodologik muammolarni qo'yishning asosi bo'ladi, ular uning zaruriyatlari, ehtiyojlari va natijalarining nazariy ifodasidir. Metodologik muammolarni qo'yish faqatgina aniq tarixiy tahlildan kelib chiqmaydi. Muammoni bunday qo'yish tarix fanining mohiyati va uning vazifasini mushohada qilishga intilish bilan va umuman, tarix nima, degan tushuncha bilan bog'liq. Bu tushuncha insoniyat borlig'ining tarixdagi mazmuni va vazifasi, muammolari, insonning mohiyati, inson tabiati muammolari bilan bog'langan.

Tarixning xususiyati va mohiyatini ilmiy bilish sohasi sifatida aniqlashga urinish, tarixiy tasvirning ilk tongidayoq uning maqsad va vazifalarini shakllantirish eng fundamental metodologik muammolardan biri — xolisiylik muammosining shakllanishiga olib keldi. Shuningdek, tarixiy tasvirni asoslashga intilish va uni tabiiy-ilmiy tadqiqotlar va voqelikni anglashning badiiy shakllari bilan ijtimoiy muhit hodisalari tabiatini nazariy mushohada qilishga, tarixiy bilish mexanizmlari to'g'risidagi tasavvurlar, obyekt va subyektning nisbati to'g'risidagi qarashlarning shakllanishi va rivojlanishiga yordam berdi.

Tarix butun ko'lami va yaxlitligi bilan inson tafakkurining mevasidir. Tarix — ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik tuyg'ularini vujudga jamlab, ular o'rtasida beayov, yuzaki qaraganda ko'z ilg'amas, idrokka sig'mas ziddiyatlar, juda murakkab va anglab yetish qiyin hissiyotlar mahsulidir. Tarixning haqiqati — hayot haqiqatining mahsuli, hayot haqiqati esa inson ma'naviy-ruhiy

kechinmalarining mahsuli, deyish mumkin. Zotan tarix inson va insoniyat hayotining majmuasi, uning ifodasi va mazmun-mohiyatidir.

O'tmish tarixning haqiqatini tiklashni milliy tarix fanini yangilamasdan turib amalga oshirib bo'lmaz edi. Shuning uchun tarixni eskicha o'rganish metodologiyasi va metodidan voz kechish zaruriyati tug'ildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ijtimoiy fanlarda umrini o'tab bo'lgan metodologiya va metoddan voz kechish va bu sohada jahon fani to'plagan boy tajribadan foydalanib, tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirish tomon yo'l tutildi.

Hozirgi zamon tarix fani va uning metodologik muammolari, xalqlar va davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni manbalarga tayangan holda xolisona yoritish uchun tarixiy taraqqiyot jarayoniga sivilizatsiya nuqtayi nazaridan yondashish (ijtimoiy yondashuv) zaruriyati tug'ildi. Tarixni yoritishda tarixiy shaxslarning o'rni, davlatchilikning tashkil topishi va inqirozi, tarix fanidagi bir yoqlamalik, tarixiy taraqqiyot jarayoniga sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashuvdan voz kechish boshlandi. Tarix fani, tarixiy bilim mazmun-mohiyati muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish asosida tarixchi va faylasullar tarix fani metodologiyasi asosi bo'lgan turli konsepsiya va ta'limotlarni yaratdilar. Tarix fani metodologiyasi sohasida bu yutuqlarni ijobiy o'qib-o'zlashtirish va tarixiy tadqiqotlarda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu darslik zamonaviy jahon tarix fani erishgan va e'tirof etilgan tushuncha va tamoyillar asosida tayyorlangan.

1-MAVZU.

TARIX FANINING METODOLOGIK ASOSLARI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

1. Metodologiya tushunchasi.
2. Tarix fani metodologiyasi tushunchasi.
3. Tarix fani metodologiyasi asoslari fanining maqsad va vazifalari.

1. **Metodologiya tushunchasi.** Metodologiya nima va u nima uchun kerak? Hozirgi ensiklopediya ma'lumotlarida metodologiya-ning bir necha tushunchalari keltirilgan. *Metod* — faoliyat usullarini boshqaradigan qoida, norma va mezonlardir.

1) Metodologiya — yunoncha «metod» — *usul*, «logiya» — *tuzilma to'g'risidagi ta'limot*. Faoliyat metodlari va faoliyat vositalarini mantiqiy tashkillashtirish demakdir. Metodologiya atamasi miloddan avvalgi IV asrda Aristotel asarlarida uchraydi.

2) Metodologiya — bu nazariy va amaliy faoliyatni qurish va tashkillashtirish usullari va tamoyillar tizimidir.

3) Bu tizim to'g'risidagi ta'limot, metod nazariyasi.

Metodologiya — bu unga tegishli metodlar to'plami/Fan metodologiyasi ilmiy bilimning tuzilmasi va rivojlanishini tadqiq qiladi. Ilmiy tadqiqot vositalari va metodlarini tadqiq qiladi. Uning natijalarini asoslash usullarini tadqiq qiladi. Ilmiy bilishni amalga tatbiq qilishning mexanizm va shakllarini tadqiq qiladi.

4) Metodologiya — bu bilishning ilmiy metodi to'g'risidagi fan. Boshqacha aytganda, boshqa fanlar kabi tarix fanida ham qo'llanadigan metodlar to'plamidir. Bu ma'lum tushunchalardan metodologiya faoliyatini tashkil etishdir.

E'tirof etilgan metodologiya tushunchasi quyidagilarni tashkil qiladi:

— tadqiqotning obyekti va predmetlarini (obyektning turli tomonlarini) tasvirlash;


- o'rganish maqsadlarini aniqlash;
- muammo va masalalarni qo'yish;
- qo'yilgan muammolarning manbalarini ochish;
- tadqiqot muammolarini tarixshunoslik nuqtayi nazaridan asoslash;
- vositalar tasviri (bilishning belgilash yo'llari metodlari);
- bilimning o'zini tasvirlash yoki tadqiqotda foydalaniladigan definitsiyalar.

Biz agar metodologiyani faoliyatni tashkil etishdagi fan deb qaraganimizda tashkil qilish yoki «tashkilot» tushunchasining mazmunini quyidagicha ko'rib chiqamiz:

Tushuncha bo'yicha tashkilot — bu:

1. Ichki tartibga solinganlik. O'z tuzilishi bilan ma'lum darajada differensiyalashgan va avtonom qismlarining o'zaro harakatining kelishilgani;
2. Butunning qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning tashkil topishi va mukammallashishiga olib boradigan jarayonlar yoki faoliyatlarning mosligi;
3. Ba'zi dastur yoki maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum bir qoida va tartiblar asosida harakat qiladigan kishilar guruhi.

Yuqorida aytilganlarga asoslangan holda metodologiyani quyidagicha tasavvur qilamiz:



Shu tarzda quyidagi metodologiya tuzilmasini ko'rish mumkin:

1. Faoliyat tavsifi:

- alohidaliklari;
- tamoyillari;
- shart-sharoiti;
- faoliyat normasi.

2. Faoliyatning mantiqiy tuzilmasi:

- subyekt;
- obyekt;
- predmet;
- shakllar;
- vositalar;
- metodlar;
- faoliyat natijasi.

3. Faoliyatning vaqtinchalik tuzilmasi:

- fazalar;
- bosqichlar;
- faoliyat bosqichlari.

Demak, metodologiya mustaqil fan bo'lib, amaliy, nazariy bilimlarga asoslanadi. Metodologiya fanining quyidagi tamoyillari mavjud:

- O'rganish maqsadlarini aniqlash;
- Tarixiy tadqiqotning obyekt va predmetlarini (obyektning turli tomonlarini) tasvirlash;
- Muammolar va vazifalarni qo'yish, qo'yilgan muammolar manbalarini ochib berish;
- Bilish metodlarini o'rganish usuli yoki tasviri, tadqiqotda foydalaniladigan bilishning o'zini tasvirlash;
- Tadqiqotning muammolarini tarixshunoslik nuqtayi nazaridan asoslash;

Yangi davrdan boshlab (XVI – XVII asrlar) metodologik g'oyalar faqat falsafada emas, balki jadal rivojlanayotgan mexanika, fizika, kimyo, tarix va boshqa fanlar doirasida ham rivojlandi. Metodologiya atamasi ikki asosiy ma'noga ega: fanda ma'lum usul va metodlarning qo'llanilishi; bu tizim to'g'risidagi ta'limot, metodning umumiy nazariyasi, harakatdagi nazariya.

Metodologiya — metodning umumiy nazariyasi falsafada, fanda kashf etilgan metodlar, vositalar va usullarni umumlashtirish va ishlab chiqish zaruriyati bilan shakllandi. Tarixan dastlab metodologiyani muammolari falsafa fani doirasida ishlab chiqildi. Suqrot va Aflotunning dialektik metodi, F. Bekonning induktiv metodi, R. Dekartning ratsional metodi, G. Gegel va K. Marksning dialektik metodi, L. Gusserlning fenomenologik metodi shular jumlasidandir. Shu sababli hozirgacha metodologiya falsafa va uning gnoseologik (bilish) nazariyasi va dialektika bilan yaqin aloqada.

Metodologiya dialektikadan ko'ra ma'lum ma'noda «keng» bo'lib, nafaqat umumiy, balki metodologik bilimning boshqa darajalarini ularning o'zaro aloqasi, modifikatsiyasini o'rganadi. Bilish nazariyasi sifatida metodologiya bilishning shakl va metodlarini o'rganib qolmay, bilish tabiati muammolari, bilishning amaliyotga munosabati, bilish subyekti va obyekti, bilishning imkoniyatlari va chegaralari, uning haqiqiyliги mezonlarini va h.k. o'rganadi. Bundan tashqari metodologiya gnoseologiyadan ham «kengroq», uni faqat bilish metodi qiziqtirmay, inson faoliyatining boshqa shakllari ham qiziqtiradi.

Mantiq (logika) fani metodologiya bilan yaqin aloqada, tayyor bo'lgan bilimning tuzilmasini bayon etilganlarning aniq mazmuni va fikriy xulosalardan cheklangan holda ramzlar va formulalar tilida uning formal aloqalari va unsurlarini tavsiflashga asosiy e'tiborni jalb qiladi.

Bilish nazariyasi fan metodologiyasi asosida yotadi. Bilish nazariyasi mavjud bo'lmasa, ilmiy tafakkur tamoyillari tizimini va uning metodlarini asoslab bo'lmaydi. Aslida bilish nazariyasi bizning ongimiz, bizning bilimimizga uning aprior, empirik unsurlariga bergan e'tibor-ahamiatni belgilaydi. O'sha tub asoslarga asosan biz uni huquqiy va umumahamiatli deb tan olamiz. Bizning tarqoq tasavvurlarimiz uchun birlashtirilgan ahamiatga ega bo'ladi. Bizning umumiy va ayrimlik to'g'risidagi bilimlarimizga qo'shib qo'yadigan o'sha ilmiy qiymat bo'ladi. Shu bilan birga yuqoridagi muammolarning boshqa yechimiga ko'ra biz mohiyatan boshqa emas, o'sha tamoyillarni qabul qilamiz. Demak, ularda shartlangan fan metodlari qabul qilinib, tegishli metodologiya quriladi. Shunday

qilib, fan metodologiyasi nazariy-bilish nuqtayi nazaridan quriladi. Bilish nazariyasi uzoq vaqt bir tomonlama qurildi. U faqat tabiiy bilimlarni e'tiborga oldi va faqat «tabiatni» o'rganishga qarab qoldi. Keyingi vaqtda esa bilish nazariyasi yangi soha — tarixiy bilish nazariyasi bilan boyidi. XVIII asrning oxiri XIX asrdan boshlab mutafakkirlar tarixiy bilimning mantiqiy tuzilmasiga e'tibor bera boshladilar.

Fan tarzida metodologik mulohazalar odatda buyuk kashfiyotlar orqasidan borgan. Chunki ilmiy ijodiyot metodologiya tomonidan yaratilmaydi. Fan ham birdaniga yuzaga kelmaydi. Uning keyingi rivoji uning metodologiyasining ishlanish darajasiga bog'liq bo'lmaydi. Bu yerda metodologiyaning fan rivojlanishidagi o'rni emas, balki fan uchun ahamiyati to'g'risida so'z boradi. Amaliy nuqtayi nazardan fanning metodologiyasi mantiqan uning xulosalari, uning tizimli yaxlitligi orqasidan boradi.

Metodologik mushohada bo'lmasa, asosiy tushunchalar o'ziga xos an'analarga suyanadigan bo'lib qoladi. Ular umuman aniqlanmaydi yoki noto'g'ri anglanadi. Qat'iy ishlab chiqilmagan atamalar mavjud bo'lmasa, u har bir tadqiqotchi tomonidan turlicha tushuniladi.

Bizning tafakkurimizdagi har qanday sohada ko'proq birlik, izchillik va kelishuvchanlik hosil qilinsa, metodologiyani o'rganish bizning xulosalarimizni o'zimiz va boshqalar uchun yanada ishonchli qiladi. Faqat asoslarning yaxlitligi, birligi yoki asosiy qarashning saqlanganligi birlashishda, izchillik va xulosalarning o'zaro kelishuvi bo'lganda ularning o'zimiz va boshqalar uchun haqiqatan ishonchli bo'lishini ta'minlash mumkin.

2. Tarix fani metodologiyasi tushunchasi. Tarixiy tadqiqot metodologiyasi tarixchi va faylasuflarning e'tibor beradigan obyektidir. Tarix fani metodologiyasi nazariy va amaliy faoliyatni qurish va tashkil qilish usullari, tamoyillari tizimi to'g'risidagi ta'limot tushunchasini bildiradi.

Nazariya — oldingi faoliyatning natijasi. Uning asosiy funksiyasi — tushuntirish. Haqiqatni, qonunlarni, sabablarni izlash maqsadida oldindan aytish. Obyektning mohiyati, qonuniyatlarni aks ettiradigan tizimdir. Bu tizim ma'lum predmetning mohiyat-

mazmunini ochish muammosini yechishga qaratilgan. Nazariya voqelikni aks ettirib o'zgaradi. U ko'chib o'tadi va har qanday ilmiy metod ma'lum bir nazariya asosida ishlab chiqiladi. Nazariya bilim sohasida fanda qonuniyatlar va jiddiy aloqalar to'g'risida yaxlit tasavvur beradi. Nazariy bilim amaliyotda tizimlashadi, buyumlashadi va obyektivlashadi. Nazariya va metodning bir-biriga o'xshashligi mavjud. Ular o'zaro bog'liq bo'ladi.

Boshqa fanlar kabi tarix fani ham o'z nazariya va metodologiyasiga ega. Tarix fanida nazariya deb asosiy g'oyalar tizimiga aytiladi. Tarixning nazariy-metodologik asoslari fan sifatida fanda xos bo'lgan qonuniyat va tamoyillardir. U tushuntirish apparati va bilish metodlariga ega.

Tarix fani metodologiyasi asoslari o'z tadqiqoti va o'ziga tegishli o'rganish metodlariga ega. U tarix bilimining asoslarini mushohada qiladi. Bundan tashqari, u tarixiy tushunchalarning asoslangan tizimini ishlab chiqishga yordam beradi. Maxsus tadqiqotlar bunday tizimni bera olmaydi. Ular faqat u uchun material tayyorlaydi. O'zaro kelishilgan tarixiy tushunchalar tizimi tarixiy bilishning asosiy tamoyillarini ko'rib chiqadi va shakllantiradi. Hamda ularni metodik jihatdan ochish yo'li bilan ko'rib chiqadi. Buni butun tarix fani ichida yanada izchil tadqiqot o'tkazish orqali amalga oshirish mumkin.

Tarix fani metodologiyasi qo'shimcha tushunchalardan foydalanadi. Tushunchalardan foydalanmasdan turib, metodologiyaning tuzulmasini qurish, metodning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin emas. Tarix metodologiyasi umumiy maqsaddan tashqari, o'ziga xos vazifa — tarixiy bilimni asoslashga harakat qiladi. Chunki har qanday bilim o'zini mavjudligining mantiqiy jihatdan shartlaydigan bilimning asosiy tamoyillariga keltirishi lozim. Bu tarixiy bilim ham tegishli. Tarixiy bilim faqat o'zi bilan shartlanmagan. Shu sababli u o'zidan hosil bo'ladigan tamoyillar, ya'ni qoidalarni ishlab chiqadi. Ular asosiy qonun-qoidalar bilan qo'shilgan holda bizning tajribalarimizni tarixiy qarashda o'rganish imkoniyatini beradi. Tarixiy bilim tizimli yaxlitlikni hosil qiladi. Tamoyillar va metodlar o'rtasidagi bog'liqlik bilan metodologik fan sifatida tafakkurning ma'lum bir materialiga ma'lum bir qarashni beradigan

tafakkur metodini aniqlaydi. Shu tarzda tarix fanining metodologiyasi o'z metodining umumiy ahamiyatini kuchaytiradi.

Bilishning tamoyil va metodlari yuzasidan tafakkur qilishning ahamiyatini intivituist olimlar kamsitishga harakat qiladilar. Ular tarixiy bilim va uning genezisi asoslari o'rtasidagi farqlarga jiddiy e'tibor qaratmaydilar. Ularning ayrimlari har bir tadqiqotchi ma'lum tamoyillardan foydalanadi, deb fikr yuritadi. Ular ish jarayonida tadqiqot materiallarini rivojlantiradi. Metod maxsus ilmiy ish jarayonida rivojlanadi. Xususiy rivojlanish bilan uni asoslashni almashtirish mumkin emas. Bunday asoslashlarni ma'lum metod asosida yotadigan va uni mantiqan oqlaydigan umumiy tamoyillarni faqat metodologik mushohadalar yo'li bilan oqlash mumkin. Ularning ahamiyatini aniq bilish tadqiqotchining ilmiy tafakkurini boshqaradi.

Bilish nazariyasi va uning genezisdagi bunday tushunchlarning mavjudligini metodologik mushohada raqiblari intivituistlar ilmiy ijodiyotda ilmiy metodga nisbatan qo'llaydilar. Ularning fikricha, ijodiy tasavvur yaratilmaydi. Ilmiy metod intuitiv yaratiladi. Uni asoslash uchun alohida mushohadalarga muhtoj bo'ladi. Ijodiy tasavvur hech qanday metodologiya bilan yaratilmaydi. Ulardan metodologiyada to'g'ri yoki noto'g'ri foydalanish mumkinligi mezonlari to'g'risida tushuncha hosil bo'ladi. Yetarli ijodiy tasavvurga ega bo'lmagan odam haqiqiy tarixchi-olim bo'la olmaydi. Tarixchi olim o'zidan uzoq bo'lgan, ba'zida o'zini odatdagi holatidan begona bo'lishi kerak. U ong holatini qayta tiklashi lozim. O'z zamon-doshlarida u bir-biriga begona bo'lgan g'oyalarni qo'shib tasavvur qilishlari shart. U inson kechinmalarini his qilishi uchun qizg'in temperamentga ega bo'lishi kerak. Inson hayotining turli xil ko'rinishlari bilan qiziqishi uchun o'zi qiziqqan hodisani his qilishi, begona qiziqish manfaatlariga chuqur cho'mishi, ularni o'ziniki qilishi va hokazo.

Aksincha, u o'zida dalillarni tushuntirish uchun u yoki bu darajada dadil gipotezani tasavvur qilishi lozim. Bunday ijodiyotsiz tarixchi qandaydir bir yaxlit yirik tarixiylikni qura olmaydi. Tarixchida o'zining shaxsiy individual ijodiyoti mavjudligi — bu dalildir. Uni hech qanday tarixiy metod bilan yaratish mumkin emas.

Shu bilan birga tarixchi tadqiqotning ma'lum tamoyil va metodlaridan foydalanadigan o'sha asoslarini anglashi lozim. Tarixchi-olim intuitiv-sintetik metodlarning natijalarini tan olishi kerak. Uning asosida aynan qanday tamoyillar yotadi va uning ahamiyati qandayligi, tadqiqot natijalari, metodlarini qayta tekshiradi. Bunday metod bilan ishlaydigan tarixchi, ko'pincha, ilmiy tahlilga suyanadi. U o'z qurilmasini to'la tugallashidan oldin tarixchi-rassom roldan chiqib, tarixchi-olimning kamtarin o'rnini oladi. Tarixchi-olim o'z qurilma tasavvurlarini tizimli ravishda boshqarish va nazorat qilishga harakat qiladi. U o'z maqsadiga intuitiv-sintetik devyatsiya (tus) bilan emas, balki ilmiy-sintetizm qurilma yo'li bilan borishga harakat qiladi.

Metodologiyani o'rganish nafaqat fanning qurilishi uchun amaliy qimmatga ega, balki uning rivojlanishi uchun ahamiyatlidir. Umumiy kashfiyot individual ijodiyotning mahsuli bo'lsa-da, tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirishda kim ma'lum obyektning metodlari bilan tanish bo'lsa, u katta yutuq, ham oz kuch sarflab, faqat «intuitsiya, sezgi», sog'lom fikr yuritgandan ko'ra samarali yakunlashga keladi. Kim metodologiya bilan tanish bo'lsa, ko'nikmaga ega bo'lsa, u ilmiy tadqiqotda ishonchli ilmiy natijaga erishadi. Metodologiyani bilish asosiy nuqtayi nazarni anglashga yordam beradi. Ushbu yo'nalishdagi mushohadani mustahkamlaydi. Tadqiqotning borishiga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchini uning temperamenti tortib ketishidan jilovlab, yo'lga solib turadi. Shu bilan birga tadqiqotchi (ayniqsa, boshlovchi yosh tadqiqotchi) faqat nazariy pishitilgan metodga suyangan holda, o'z tafakkurida zaruriy tejamkorlikka rioya qilishga majbur bo'ladi. Ilgari o'rganilgan mustaqil qarashni qidirishga ortiqcha kuch sarflashdan tiyib turadi.

Ishning umumlashgan metodi ham o'zaro kelishuvni yengillashtiradi. Tarixchilar o'rtasida o'zaro yordamning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Boshqalarning tadqiqotiga ishonchini orttiradi va unga hamma narsani faqat o'zi amalga oshirishidan qutqaradi. Boshqalar amalga oshirgan tadqiqot natijalaridan umumiy foydalanish shart-sharoitini yaratadi. U boshqalarning olgan natijalaridan foydalanish uchun ishlab chiqilgan metodologik ko'rsatma-mezonlardan foydalanadi, ularga rioya qiladi. Shunday qilib, tarix

metodologiyasini bilish tarixchiga tarixiy dalillarga nisbatan boshqalarning xulosalarini tizimli, ularning metodlari asosida tekshirishda imkon beradi. Bunday tekshirishdan keyin olingan qoniqarli natijalarga ko'ra ular metodologik ma'noda to'g'ri bo'lgani uchun xulosalarga tayanadi. Tarixning tushuncha apparati mavjud. Bu tushuncha apparati uchun qator kategoriya, tushunchalar hamda tarixiy qonuniyatlar xizmat qiladi. Mumtoz tarixnavislikda tarixiy jarayon tarix qonunlari bilan belgilanadi.

Tarix fani metodologiyasining bazaviy, asosiy kategoriyalari tarixiy dalil, tarixiy manba hamda tarixiy vaqt va tarixiy kenglik bo'ladi. Tarixning fundamental muammosi tarixiy dalil, tarixiy manbaning tabiati, savolidir. Ularga qanday javob berish tarixning fan sifatida nazariya va metodologiyasiga bog'liq bo'ladi.

Lekin XX asr boshlarida G. Zummelning tarix nazariyasi bo'yicha tadqiqotlari va avstriyalik mantiqshunos K. Gedelning formal tizimlar to'liq bo'lmasligi tamoyili ochildi. Natijada bir qator tarixchilar xolisliyk va kelajakni aytib berishga da'vo qiladigan mumtoz falsafiy-tarixiy doktrinalar vaqti tugadi deb e'lon qildilar. Ba'zi tadqiqotchilar tarixiy bilimning xolisliyki uchun yangi asoslarni izladilar. Ular tarixga individuallashgan, kulturologik ger-menevtik yondashuvlarni kuchaytirdilar. Tarixchilar uzoqlashgan tarixiy davr va Yevropa xalqlarining madaniy o'ziga xosligiga e'tiborni qaratdilar. XX asrning 60-yillaridan boshlab esa bu induvidiallashgan yondashuv chuqur tushkunlikni boshdan kechirdi.

Mashhur rus tarixchilaridan biri A. Y. Gurevich shunday yozgan edi: «Tarixchi o'z vaqtining bolasi, uning asarlari o'z davrining izlarini izlab bormasligi mumkin emas. O'tmishni yaqin o'tmish kabi hamda eng uzoq o'tmish kabi ko'rish oxir-oqibatda tarixchi ijod qilgan tarixiy vaziyat tusini oladi va istiqbol o'zgaradi. Ushbu o'zgarish «tarixning boshlanish hisob nuqtasi»ning o'zgarishiga hamda tarixning yangicha sifatga ega bo'lishiga olib keladi va yangi bahoga sazovor bo'ladi. Oqibatda qayta mushohada qilish u yoki bu darajada butun tarixiy jarayonni qamrab oladi, tarixiy bilish metodologiyasi o'zgaradi».

XX asrda dunyo miqyosidagi tub burilishlar tarixning jamiyatdagi o'rnini o'zgartirdi. Qachonlardir hayot o'qituvchisi

69
bo'lgan fan jamiyatdan begonalashdi. Natijada jamiyatning ishonchini yo'qotdi va o'zining ijtimoiy mavqeyini pasaytirdi. XX asrning 90-yillariga kelib mavjud tarix metodologiyasi vaqtning chaqirig'iga mos javob topa olmadi. XX asrning halokatli yo'qotishlarida klassik tarixshunoslikning an'anaviy asoslari yemirildi. Dunyo aqlga muvofiq, uni aqlan tushunish mumkin. Tarixiy taraqqiyotning progressiga ishonish esa uning qonuniyatlarini tarix fani tomonidan tushunishi nafaqat hozirni tushunish, balki kelajakni ham oldindan aytish tarix metodologiyasining asosi bo'lib qoldi. Shu vaqtgacha mavjud tarix metodologiyasining tushkunligi bilan bir vaqtda eski dunyoning o'rniga qurilayotgan yangi inshootga mos ravishda yangi tarixning shakllanish jarayoni bormoqda. Uning asosida tarixning yangi ijtimoiy mavqeyini izlash bilan bog'langan tarix fanini tub nazariy-metodologik qayta qurollantirish yotadi. U hamma narsani biladigan siyosiy faoliyatga nuqsonsiz rahbarlikdan keng ijtimoiy-madaniy fanga aylanmoqda. Shu jihatdan o'tmishni bugun bilan bog'lab, ijtimoiy ong uyg'unlashtiriladi. Yangi tarix fani tez o'zgarib borayotgan dunyoda insonga uning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Shartlanadigan ba'zi mustahkam tayanch nuqtalarini namoyon qiladi. Uning maqsadi tadqiqotchilarni tarix metodologiya tafakkurining hozirgi holati bilan tanishtirish, tarix fanining tabiati to'g'risidagi va uning jamiyat hayotidagi o'rnini ochib berish. Bu kursga tegishli ravishda tarixiy bilimning o'ziga xosligi, tarixiy haqiqatning tabiati, tarix fanining asosiy kategoriyalari va tarixiy bilimning tamoyillari tavsiflanadi. Tarixning hozirgi zamon bilan o'zaro munosabati va shundan kelib chiqib tarix fanining ijtimoiy funksiyalari ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor tarix fanini insonparvarlashtirish, uning hozirgi holati eng muhim tavsifi sifatida alohida e'tibor beriladi.

Tarixning bilish nazariyasida metodologiya ma'lum bir faoliyatning aniq maqsadlari va yo'nalishlarini belgilaydigan falsafiy tamoyillar va umumiy qoidalarning majmuasi sifatida chiqadi. Tarixiy bilish metodologiyasining asosiy vazifalaridan biri manbada belgilangan va belgilanmagan bilimlarga ega bo'lish hisoblanadi. Tarix fani metodologiyasi kursining predmeti tarixiy bilimning ichki tuzilishi tadqiqi, uning ijtimoiy muhitini bilish munosa-

batining tuzilish usullaridir. Uning boshqa bilish shakllaridan farqi va o'xshashlik tomonlari ham mavjud.

Tarix metodologiyasi tarixiy jarayonning mohiyatini bilish maqsadida to'plangan ma'lumotlarni tizimga solish, talqin qilish, o'timish to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirish vositalari va mezonlarini ishlab chiqish demakdir. Tarix fani metodologiyasiga yagona qarash mavjud emas. Chunki tarixiy taraqqiyot jarayoniga, jamiyat va tabiatga qarashlarning turli xilligi tarix metodologiyasini turlicha talqin qilishga olib keladi.

Fan metodologiyasi asosiy va hosil qilingan ikki asosiy vazifani ko'zlaydi. Birinchisi — fan o'z ahamiyatiga ega bo'ladigan asoslarni yoki uning tamoyillarini aniqlash, ikkinchisi — fanning har qanday sohasida nimanidir o'rganadigan metodlar to'g'risida tizimli ma'lumot berish. Tarix fani metodologiyasi ham boshqa fanlar kabi o'z muammolarini qo'yadi. U shunga tegishli ravishda tarixiy bilim nazariyasi va tarixiy tafakkur metodlari to'g'risidagi ta'limotni tashkil qilgan ikki qismdan iborat bo'ladi.

Tarixiy bilish nazariyasi tarixiy bilim tamoyillarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Tarix qanday nazariy bilish nuqtayi nazaridan bizning tajribamiz ma'lumotlarini o'rganadi? Tarixchi tarixiy qurilmalardan sabab-oqibat va maqsadga muvofiqlik tamoyillariga qanday ahamiyat berishi lozim? Tarixchining material tanlovini o'tkazish asosi bo'lgan tarixiy bahoning mezoni qanday? U «evolutsiya», «progress», «regress» va boshqa tushunchalardan qanday mazmunda foydalanadi va h. k?

Tarixiy bilish nazariyasida turli tarixiy maqsadlar qo'yilgan. Tarixiy materialni o'rganish asosida tarix fani qanday mazmunga ega bo'ladi? kabi savollar mavjud.

Tarixiy mushohada metodlarini normal-mantiqiy jihatlariga alohida e'tibor beriladi. Tarixiy tafakkur metodlarini o'rganishga yaroqli bo'lgan tahlil va sintez, deduksiya va induksiyaning tarixiy tadqiqotdagi o'rni to'g'risida tushuncha hosil qilinadi.

Manbashunoslik metodologiyasi tamoyil va usullarni belgilaydi. Ularning yordamida tarixchi o'ziga tanish manbalar bilan o'zini qiziqtiradigan dalil haqiqatan ham mavjud bo'lgan yoki bo'lmagan deb tasdiqlashi mumkin bo'ladi. Tarixiy qurilma metodologiyasi

shunday tamoyil va usullar to'g'risida fikr yuritadi. Uning asosida tarixchi haqiqatan mavjud bo'lgan o'tmish, tarixiy jarayon yoki o'tmishda sodir bo'lgan tarixiy voqea qanday sodir bo'lishini tushuntiradi. Shu asosda tarixiy borliqni quradi.

Tarixni o'rganish metodlari tamoyillarga emas, ish qoidalariga asoslangan holda o'rganiladi. Ammo bu jarayon obyekt xossalaridan yaqin qaramlikda bo'lgan tamoyillarga asoslanmaydi. O'rganilayotgan tamoyil va texnik qoida bir-biridan tubdan farq qiluvchi tushunchalardir. Tamoyil o'zida haqiqatni aniqlash yo'li bilan o'zining asoslashini tanlab qo'yadi. Texnik qoida esa asoslanmaydi, balki ish usuli ko'rinishida shakllanadi.

Hozirgi kunda tarix fanini o'qitish metodologiyasida ham yangilanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. XX asrning 50-yillaridan yangi ilmiy texnika inqilobi yangi texnologiyalar erasini boshlab berdi. 90-yillarda esa kommunistik mafkuraning inqirozi natijasida dunyo siyosiy xaritasida ko'plab o'zgarishlarning yuz berishiga sabab bo'ldi. Yuz bergan bu o'zgarishlar tarixga va tarixiy taraqqiyotga yangicha qarashlar, konsepsiyalarni shakllantirishni taqozo qildi. Bu tarix metodologiyasining oldiga metodologiyani yangilashdek o'ta muhim vazifani qo'ydi. Ayrim metodologik muammolarni yechishni talab qildi. Tarix fani metodologiyasining tubdan yangilanishi tarixga yangicha qarashlarni shakllantirish ehtiyojini tug'dirdi.

XX asr oxirida G'arbiy Yevropa va AQSHda tilshunoslik va adabiyotshunoslik ta'siri ostida tarix fanida yangi oqim — postmodernizm («poststrukturalizm» yoki «lingvistik burilish») keng tarqaldi. Bu tarixshunoslik yo'nalishi uchun tarix faniga, tarixchi kasbiga, «paradigmalar» almashuviga an'anaviy qarashlarni reviziya qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Bu ilmiy yo'nalish vakillari tarix fani uchun odatdagi, an'anaviy hol bo'lgan tarixiy haqiqatni bilish maqsadi sifatida tushunishni shubha ostiga oldilar. Bu yo'nalishning ba'zi tarafdorlari bunday masalani muhokoma qilish imkoniyatini umuman inkor qiladilar. Ularning fikricha, tarixiy va adabiy asarlar o'rtasida jiddiy farqlar yo'q. Shoir yoki yozuvchi o'z asarini yaratganidek, tarixchi ham tarixiy matnni erkin ijod qiladi. Postmodernistlar fikricha, ular badiiy adabiyotda mavjud bo'lgan ritorika qoidalariga bo'ysunadigan

tarixchining matni — bu hikoya qiluvchi narrativdir. Bu yoʻnalish mantigʻiga koʻra, tarixning har qanday talqini yashash huquqiga ega va tarixchining subyektiv qarashini ifodalaydi. Bu yoʻnalishning gʻoyalari va metodologiyasining tizimli amalga oshishi mumtoz tarix fanining metodologik asoslari buzilishiga olib keladi.

Tarixchilar oʻrtasida zamonaviy tarix fanida voqeaviy tarix ustuvor boʻlishi kerakmi yoki qonuniyatlar va sintezni izlashmi degan masalada qizgʻin munozara bordi.

Jahon tarixi fani tarixning yangi nazariyasi va metodologiyasi izlash, yangi tarixiy sintez, aniq tarixiy materialni falsafiy-nazariy umumlashtirish jarayonini boshdan kechirmoqda. Shuningdek, tarix fanida yaqin kunlarga markistik konsepsiyaning tarixiy bilishda yagona va universal tushunchasi sifatidagi qarashdan voz kechish ijobiy hol boʻldi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab professional tarixchilar va gumanitar fanlar mutaxassislari tarixiy bilimning tushkunligi toʻgʻrisidagi fikrni ayta boshladilar. Zamonaviy gʻarb tarixshunosligi metodologiya, metodlarni «texnik» qoʻllash yoki «tarix falsafasi» bilan cheklanadi.

XX asrning 90-yillarida tarix fanining koʻpgina daʼvolaridan voz kechildi. Jumladan, tarixiy jarayonning xolisliyi, tarix qonunlarini ochish qobiliyati, kelajakni aytib berish va hokazo. Natijada tarix metodologiyasida ham oʻzgarishlar ehtiyoji paydo boʻldi. Shu bilan birga ilmiy bilish jarayonida tarixchining roli tushunarli boʻldi. Asr oxirida ilmiy-metodologik yondashuvlarning koʻpligi plyuralizmning bilish strategiyasini aniqlash vazifasi birinchi oʻringa chiqdi. Shunga mos ravishda tarixiy bilish nazariyasi alohida ahamiyat kasb etdi. Qator olimlarning fikriga koʻra, u ilgari tarix falsafasida tegishli oʻrinni egalladi. Tarixni bilish nazariyasi sohasida hozir olib borilayotgan tadqiqotlar tarix fani asoslariga tegishli masalalarni fundamental kategoriyalari: tarixiy dalil, tarixiy vaqt va kenglik, tarixiy qonuniyatlarni ochdi.

Tarixiy tadqiqotlarning yangi yoʻnalishlari paydo boʻldi. Unga «Madaniyatlar dialogi», «Mikro tarix», «Makro tarix», tarixiy-antropologik yondashuv kiradi. Tarix fanining taraqqiyoti hozirgi davrda metodologiyada yangi yoʻnalish va yondashuvlarni izlash

bilan birgalikda davom etmoqda. Jahon tarixi fanida ijtimoiy tarix bilan intellektual, mental tarixlar o'rtasidagi nisbat o'zgarmoqda.

Tarixni fan sifatida jamiyat to'g'risidagi fanlar tizimi va jamiyat hayotidagi o'rni yanada aniqroq tushunildi. Tarixiy bilim sohasida haqiqiy inqilob yuz berdi deb aytish mumkin. Chunki bu inqilob natijasida tarixiy materializm bilan bog'langan tarix fani taraqqiyoti bosqichiga yakun yasaldi: Ijtimoiy yondashuv tamoyili (partiya-viylik, sinfiylik). Kommunistik mafkuraning inqirozi natijasida dunyo siyosiy xaritasidagi o'zgarishlar tarixiga, tarixiy taraqqiyotga yangicha qarashga olib keldi. Bu tarix metodologiyasining oldiga o'ta muhim vazifalarni qo'ydi va ayrim muammolarni yechishni talab qildi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan tarix fani nazariyasini o'zgartirish sohasida qiyinchilik bilan ilk qadamlar tashlandi. Ayniqsa, vatan tarixini o'rganishda, uni o'rganishning metod va metodologiyasini o'zgartirishda tub burilishlar yuz bermoqda.

3. Tarix fani metodologiyasi asoslari fanining maqsad va vazifalari. Tarix fani metodologiyasi asoslari fanining predmeti tarixiy bilimning ichki tuzilishining tadqiqi, uning ijtimoiy muhitini bilish munosabati, uning tuzilish usullari deyish mumkin. Tarix metodologiyasi tarixiy jarayonning mohiyatini bilish maqsadida to'plangan ma'lumotlarni tizimga solish, talqin qilish, o'tmish to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirish vositalari va mezonlarini ishlab chiqish demakdir. Tarixiy taraqqiyot jarayoniga, jamiyat va tabiatga qarashlarning turli xilligi tarix metodologiyasini turlicha talqin qilishga olib keladi.

Bizning tarix fanimiz keyingi 20–30 yil ichida jahon tarixi fani metodologiyasi to'plagan nazariy va amaliy tajribadan xabarsiz qoldi. Hozirgi kunda tarix va tarix metodologiyasi sohasidagi e'tirof etilgan mumtoz asarlarni chuqur va har tamonlama tahlil qilish va o'zlashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Eng asosiysi tarix tafakkuri taraqqiyotidagi yangi an'analarni tadqiqotlarda qo'llash, yangi yondashuvlar asosida tarixiy tahlil, insoniyat amaliyotini chuqur va boshqacha ko'rishiga imkon beradigan yangi metodlarni aniqlash dolzarb vazifadir. Jahon tarixi fani erishgan yutuqlardan xabarsiz

qolish, o'zgarmaslik taraqqiyot darajasidan orqaga qolishga va milliy tarix fanimizning qoloqligiga olib keladi.

Tarix fani metodologiyasining qurilishi, tarixiy bilim, tarixiy nazariyaning muammolarini ko'rib chiqish, tarix o'rganish metodlari, metodologiyasining genezisi muammolarini tahlil qilish; Tarixiy jarayonning yangi nazariyalari; ularning asosida obyekt tushunchasi, tarixiy dalil, tarixiy bilim manbalarini, epistemologik asoslarini tahlil qilish. Shuningdek, hozirgi kunda tarix fani nazariyasi va metodologiyasini tubdan o'zgartirish, tarixiy manbalar tahlili tizimini qayta qurish, tarix fani tushunchalari apparatini o'zgartirish, jahon tarixi fani metodologiyasining asosiy yo'nalishlari mazmun-mohiyatini tushunish va uning yutuqlarini o'zlashtirib, amalda tatbiq qilish vazifasi turadi.

Tarix fani metodologiyasi asoslari fanining vazifalari:

1. Tarixiy bilish metodlarining tizimi to'g'risida bilim berish.
2. Tarixiy tadqiqot metodologiyasi va metodlari to'g'risida bilim hosil qilish.
3. Tarixiy tadqiqot metodologiyasining tamoyillarini ijodiy qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, hozirgi tarixiy bilish paradigmatlarining epistemologik ildizlarini aniqlash hamda tarixiy jarayonning global nazariyalarini epistemologik tahlil qilish.
4. Tarixiy manbalar, dalillar muammolari bo'yicha adabiyotlardan mustaqil foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.
5. Tarixiy jarayon nazariyalari bilan ularning qurilish uslublari to'g'risida bilim berish.
6. Tarixiy jarayon nazariyalari epistemologik asoslarini tadqiq qilish uquvini shakllantirish.
7. Istoriosofiya muammolari bo'yicha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash malakasini hosil qilish.
8. Tarix fanining nazariy-metodologik muammolarini o'rganishning hozirgi holati to'g'risida tushuncha hosil qilish.

Tayanch iboralar: Metod, Aristotel, bilish nazariyasi, mantiq, metodologik g'oyalar, tarix fani metodologiyasi, tarixning nazariy-metodologik asoslari, tarixiy bilim, tarix fanining asosiy kategoriyalari, tarixiy dalil, tarixiy manba, tarixiy vaqt, tarixiy kenglik,

tarixning fundamental muammosi, tarix fani metodologiyasi asoslari fanining maqsadi, fanning vazifasi, istoriosofiya, manbashunoslik metodologiyasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Metodologiya tushunchasiga izoh bering.*
2. *Metod nima?*
3. *Metodologiya tushunchasi tamoyillarini aniqlang.*
4. *Tarix fanining metodologik asoslari kursi nimani o'rganadi?*
5. *Tarix fanining metodologik asoslari vazifalarini aniqlang.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Metod va metodologiya tushunchasi.*
2. *Metodologiyani shakllantirish tarixi.*
3. *Tarix fani metodologiyasining maqsadi.*
4. *Tarixiy bilishda metodning o'rn.*
5. *Tarix fani metodologiyasi fan sifatida.*

BIRINCHI QISM

TARIXIY BILISHNING GENEZISI VA TARAQQIYOTI

2-MAVZU.

TARIXIY ONG TUSHUNCHASI.

TARIXIY ONG VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH

1. *Tarixiy ong tushunchasi.*
2. *Tarixiy ongning shakllanish jarayonida mifologiya va yozma manbalar.*
3. *Milliy o'zlikni anglash jarayonida tarixiy ongning o'rni.*
4. *Tarixiy ong va milliy ongning dialektik birligi.*
5. *Mustaqillik davrida tarixiy ongning o'sishining milliy o'zlikni anglashdagi ijobiy o'rni.*

1. Tarixiy ong tushunchasi. Tarix fani metodologiyasi to'g'risida fikr yuritishdan oldin uning vujudga kelishiga sabab bo'lgan tarixiy ong, tarixiy xotira, ilk tarixiy bilimning genezisi to'g'risida to'xtash lozim. Chunki shakllangan tarixiy bilimning mazmun-mohiyatini tahlil qiladigan tarix metodologiyasining ibtidosi tarixiy ongdir.

Tarixiy bilim insoniyatning shakllanishi davridan va keyingi tarixiy taraqqiyoti jarayonida to'planib boradi. Insoniyatning shakllanishi bosqichida dastlab u ko'zga ko'rinmaydi. O'sha davrdan boshlab kishilik jamiyati bu bilimlardan o'z amaliy faoliyatida foydalanib kelmoqda. Tarixiy ong tushunchasi — tarix falsafasining bosh mavzusidir. Insoniyatning tarixiy ongi uzoq yo'lni bosib o'tgan o'z genezisiga ega. Uning shakllanishi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan birgalikda bordi. Ijtimoiy ong siyosat, mafkura, huquqiy ong, axloq, din, fan, san'at, falsafa shakllarida mavjud bo'ladi. Lekin tarixiy ong ijtimoiy ongning turli xil shakllarida uning bir unsuri, bir parchasi sifatida chiqadi. Ularning rivojlanishining xilma-xilligi tabiat va jamiyat evolutsiyasining har xilligi bilan belgilanadi.

Tarixiy ong falsafiy tushunchadir. Tarixchi bu tushunchaning mohiyatini ochishdan oldin falsafiy dunyoqarash to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. «Falsafiy dunyoqarash kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari to'g'risida ma'lumot beradi». Shu bilan birga dunyoqarash insonning dunyoni ma'lum darajada tushunishi, anglashi, bilishi, baholashi va shular asosida amaliy o'zlashtirishidir. U insonning dunyoni bir butun yoki turli-tuman holda ko'rishi, idrok etishi, tasavvur qilishi va uning dunyodagi o'z o'rni va rolini belgilashi hamdir. Ana shu falsafiy dunyoqarashning bir unsuri jamiyat taraqqiyoti rivojlanishining o'tmish holatini ko'z oldimizda gavdalantiradigan tarix falsafasi yoki tarixiy ongdir.

Tarixiy bilim doimo jamiyatning o'zini anglashi omillaridan biridir. Eng muhimi uni faqat tarixiy istiqbolda tushunish mumkin. Shaxs ongida fuqarolik his-tuyg'usi uyg'onishi uchun, tabiiyki, u o'z ildizini uzluksiz izlash bilan doimo mashg'ul bo'ladi.

Tarixiy ong genezisi to'g'risidagi qarashlarda ko'pgina tadqiqotchilar Yevropa an'analari bilan chegaralanib qoladilar, xolos. Vaholanki, tarixiy ongning dastlabki kurtaklari insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshigi — Sharqda paydo bo'lgan. Qadimgi Sharqda paydo bo'lgan mifologiyada ilk adabiy matnlar, huquqiy hujjatlarda tarixiy ongning unsurlari mavjud edi. Qadimgi Misrda Nil daryosining toshqini Sirius yulduzining ko'rinishi bilan bog'liqligini o'rganishlari, vafot etganlar jasadining mo'miyolanishi, Bobildagi munajjimlarning kun-u tun osmon jismlari harakatini kuzatishlari, ikki daryo oralig'ida turli ijtimoiy, siyosiy yozuvlar yozilgan sopol buyumlar qadimgi sharq kishisida tarixiy ong shakllanganidan dalolat beradi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealarning belgilanishi tarixiy ong shaklining paydo bo'lish omillaridan biri hisoblanadi. Bu shakllar orasidagi uzviy aloqadorlik, izchillik va alohida kishilarning ma'lum vaqt mobaynidagi faoliyatlari natijasidir. Qadimgi Sharqda, keyin esa Yunoniston va Rimda urug'-jamoachilik munosabatlarining buzilishi va yunon shahar-polislarining vujudga kelish jarayoni yuz berdi. Aynan shu davrda iqtisodning o'sishi turli xalqlar o'rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalarning kuchayishiga olib keldi. Moddiy va

ma'naviy madaniyatning yuqori pog'onalarga ko'tarilishi, tarix va vaqt muammosi haqidagi tushunchalar paydo bo'la boshladi. Bu omillar tarixiy ong genezisining obyektiv asosi bo'ldi. Antik davrda tarixiy ongning shakllanish jarayonlari davomiy bo'ldi. Ammo u haqiqiy bilim darajasiga chiqa olmadi. Shunga qaramasdan, bu sohada birinchi qadamlar tashlangan edi.

Ijtimoiy taraqqiyot natijasida tarixiy ong ham boshqa ijtimoiy ong shakllari kabi predmetli-amaliy faoliyatdan ajralib chiqdi. Ijtimoiy mehnat bir qadar yuqori darajaga ko'tarildi. Shu jumladan, sinfiy jamiyat shakllandi. Natijada tarixiy ong predmet-ashyoviy, ishlab chiqarish, siyosiy faoliyat bilan bevosita bog'lanmagan holda rivojlana boshladi. Jahon xalqlarida bu jarayon bir tekis va bir vaqtda sodir bo'lmadi.

Yozilgan tarixiy voqea-hodisalarning kelajakda tajriba sifatida kerak bo'lishi haqidagi mulohazalar tarixiy qiziqishning rivojlanishiga yana bir turtki bo'ldi. Xuddi shunday qadimgi yunon tarixchisi Fukidid ham o'zi yozib qoldirgan urushlar tasviri tajribasi kelajakda qo'llanilishi mumkin deb o'ylagan edi: «В прошлом, особенно в более или менее завершенных его комплексах и фрагментах, можно было усмотреть нечто такое, чего нельзя было увидеть при прямом и непосредственном восприятии данного момента-современности и что, естественно, вызывало острый исторический интерес. В этом можно предположить, и заключается источник данного феномена».

Albatta, mif, epos, Xammurapi yoki Solon qonunlari va boshqalarni tizimsiz deb bo'lmaydi. Lekin ular tizimsiz bo'lib, parchalar bilan cheklangan. Demak, miloddan avvalgi X asrdayoq tarixiy ongning obyektiv shakllanishi uchun tarixchilar ilk qadam tashlaganlar. Ular asarning qimmatini saqlashga harakat qilganlar. Shuningdek, tarixiy ong (tarixiy bilim) boshqa ong shakllaridan ajralib chiqdi. Shu vaqtdan boshlab tarixiy ongning muhim ichki tavsifi amaliy haqiqat tomon yo'naltirildi. G'arb dunyosida tarixiy jarayonni ilmiy-nazariy va falsafiy tahlil qilishga sharq dunyosiga qaraganda birinchi bo'lib amal qilina boshlandi. Buning natijasi o'laroq tarix falsafasi fani vujudga keldi. Shu sababli insoniyat tarixiy taraqqiyoti yevrosentrizm qarashi orqali tushuntirildi. Sharq dunyosi

ilk sivilizatsiyalarida mavjud bo'lgan tarixiy ong unsurlari nazardan chetda qoldi. Yevropa hududida bunday tarixiy ong unsurlari Sharqdan keyin paydo bo'ldi. Sivilizatsiyalar taraqqiyoti jarayonida tarixiy ong tahlili birinchi va ustuvor o'ringa chiqarildi.

G'arb an'anasiga ko'ra, Gerodot asari birinchi tarixiy asardir. Lekin Fukididning Peloponnes urushlari haqidagi asarini tarixchilar dunyoda birinchi ilmiy tarix deb e'tirof etishadi. Tarixiy dalillarni aniq bayon qilish, haqiqatga intilish Fukidid asarining asosiy fazilatidir. Albatta, Gerodot asarida ham, Fukidid va Ksenofont asarlarida ham tarixiy haqiqatning aniq konsepsiyasi yo'q. Ammo haqiqatni bayon qilish ehtiyoji va talabi aniq sezilib turadi: «Возможно, именно циклизм, непреодолимая бесконечность повторения, — вот что делало для античности малопривлекательным, углубленное исследование исторического процесса».

Tarix fanining jamiyat taraqqiyoti va millatimizning o'zligini anglashdagi nufuzli o'rniga M. Behbudiy, A. Fitrat XX asr boshlarida o'z asarlarida atroflicha ahamiyat bergan edilar. Ular tarix fanini, ayniqsa, millatimiz tarixini o'rganishga da'vat qildilar. M. Behbudiy shunday yozgan edi: «Hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil bo'lish uchun o'z vatani va o'z tarixini o'rganish da'vati bilan chiqish lozim». Jadidlar milliy o'zlikni anglashda tarix fani, tarixiy ong, tarixiy xotiraning muhim o'rin tutganligini tushungan edilar.

Avliyo Avgustinning «Millatni uyg'otish uchun uning tarixini uyg'ot» degan mashhur iborasi hozirgi kunda Prezidentimiz I. A. Karimov boshchiligidagi hukumatimizning o'zbek xalqi tafakkurini yuksaltirishdek oliyjanob ishlarida tom ma'noda o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi kunda tarixiy ong ilmiy tadqiqotlarning eng muhim, dolzarb masalalaridan biridir. Uning milliy o'zlikni anglashdagi o'rne, ularning o'zaro uyg'unligi muammosini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Har qanday xalq, millat, elat birlashuvida milliy qadriyatlar va o'z-o'zini anglash muhimdir. Rus tarixchisi Klyuchevskiy milliy qadriyatlar orqali o'z-o'zini anglash va shu asosda o'z hayotini qurish muhim o'rin tutishini ta'kidlagan edi: «Начто может при-

годится изучение исторических сочетаний и положений, когда-то, и для чего-то сложившихся той или другой стране, нигде боле не повторимых и не предвидимых?.. Мы хотим исполнить заповедь древнего оракула-познать самих себя, свои внутренние свойства и силы, что-бы по ним устроить свою жизнь».

Inson va insoniyat tarix zanjirining bir bo'lagi hisoblanadi. Tarixiy ong o'ziga mansub bo'lgan millatning kichik bir qiyofasi sifatida shakllanishida salmoqli o'ringa egadir. Xalq, millat o'z qadrini, o'z-o'zini anglay olmasa, yetuk tarixiy ongga ega bo'lmasa, u mahdud bo'lib qolaveradi. Uning ijtimoiy-siyosiy holati zaif, mo'rt bo'ladi.

Hozirgi kunda millatimiz tarixiy ongini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston mustaqillikning birinchi kunlaridayoq o'tmish tarixiy taraqqiyotining haqiqatini tiklash boshlandi. Milliy tarixning yoritilmagan sahifalarini o'rganish tomon muhim qadam tashlandi. I. A. Karimov shunday ta'kidlagan edi: «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi».

Individ faoliyatida xotira qanday ahamiyat kasb etsa, jamiyat hayotida tarixiy ong ham xuddi shunday ahamiyat kasb etadi. Xotira faoliyati tufayli inson ko'rgan va eshitganlarini saqlash va uzatish qobiliyatiga ega. Inson xotirasini yo'qotar ekan, shaxs sifatida o'z-o'zini anglay olmaydi. Natijada uning shaxsi parchalanib ketadi. Bunday misollar keltirar ekanmiz, bundan qaysidir ma'noda individual xotira tarixiy ong o'xshashligi sifatida gavdalanishi mumkinligini ko'ramiz. Xotira tarixiy ong unsuri sifatida gavdalanadi.

Tarixiy ong ijtimoiy ehtiyojni qondiradigan muhim omildir. Bu xalqning madaniy, ijtimoiy-etnik o'z-o'zini anglash uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi. Boshqalardan farqli o'laroq, tarixiy ong alohida yaxlitlik sifatida milliy o'zlikni anglash demakdir.

Tarixiy ong va uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'rganishda, albatta, tarixiy va milliy ong shakllanishi muammolarini o'rganish,

tahlil qilish kerak. Lekin har qanday milliy-ma'naviy o'zlikni anglash sho'rolar davlatida shovinizm va millatchilik deya baholandi. Bunday ishga qo'l urish uchun barcha yo'llar yopib qo'yildi. Tarixiy o'tmishimizni tizimli o'rganish esa o'z o'rnini topmadi. Ammo har qanday xalqning, millatning milliy, tarixiy ongi qash-shoqligicha qolishi mumkin emas. U jamiyat va insoniyat taraqqiyoti bilan birgalikda boyib borishi kerak.

Endilikda Yevropa tarixiy tafakkuri to'plagan bilimlar zahirasi o'zlashtirila boshlandi. Milliy tarixiy tafakkurni rivojlantirish, milliy tarixiy ong, tarixiy xotiraning genezisini ilmiy-falsafiy tahlil qilish payti keldi. Bu sohada ilmiy qarashlar, yo'nalishlar, maktablar shakllanishi zarur.

«Hozirgi kunda o'zbek olimlarining kuch-g'ayratlari bilan tariximizning ko'pdan-ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, Temuriylar davri, XIX asr oxiri — XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuningdek, o'tmishimizni «oqlash» vazifalari umuman olganda bajarib bo'lindi. Hozir esa, asosiy vazifa tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirishdan iboratdir».

Prezidentimiz I. A. Karimovning: «Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan Sharq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissalar sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. O'tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta'sir ko'rsatmoqda» degan so'zlari hozirgi kunda tarixiy ongning milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati naqadar katta ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda tarixiy ong tushunchasi va uning tuzilmasi, tarix va tarixiy bilim haqidagi turli konsepsiyalar va yondashuvlar, ijtimoiy taraqqiyot natijasida uning rivojlanishi, tarixiy ongning milliy o'zlikni anglashdagi o'rni, tarixiy ong va milliy ong mushtarakligi va mustaqillik sharoitida uni amalga oshirish omillari haqida keng mushohada qilinmoqda.

2. Tarixiy ongning shakllanish jarayonida mifologiya va yozma manbalar. Ong epistemologik tahlil obyekti sifatida bizning ko'z oldimizda alohida matnlar ko'rinishida aks etadi. Bilimlar, yo'l-yo'riqlar, baholar, umumiy qarashlar matnlarda ifodalangan holda

ijtimoiy guruhlarning boyligi hisoblanadi. Kishilarning u yoki bu darajada ma'lum bir zamon va chegaralarda o'z faoliyatining umumiyliigi, xo'jalik yoki til birligi bilan barqaror guruhlari mavjud bo'la boshlaydi. Tarixda bosib o'tilgan, har bir davrga mansub avlodlar tomonidan hosil qilingan tasavvur va tushunchalar, bilimlar, ma'naviy meroslar va qarashlar yangi davr avlodlari dunyoqarashining asosiy tayanchi bo'ladi.

Jamiyatda tegishli shart-sharoitlar paydo bo'lishi bilan asosiy ijtimoiy, iqtisodiy muhit shakllanib, guruhlar, qatlamlar paydo bo'ladi. Ijtimoiy ong ijtimoiy guruh va sinflarga molik bo'ladi. Rivojlanayotgan jamiyatda shaxs individuallashib, jamoaga o'zini qarama-qarshi qo'ygan bir paytda ijtimoiy ongning alohida parchalari (misol uchun, Hammurapi, Drakon qonunlari) individual muallif bilan bog'lanishi mumkin. Ammo shu jamoaguruhning ma'naviy, ruhiy, iqtisodiy manfaatlarini qondira olmasa va unga zid bo'lsa, sekin-asta o'z ahamiyatini yo'qotib boradi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida ushbu jamiyatda mavjud bo'lgan professional guruhlar (jumladan, kohinlar, harbiylar, davlat xizmatchilari va boshqalar)ning ajralib chiqishi, muhim ijtimoiy funksiyalarning alohida bo'lishi qachonlardir yagona bo'lgan ijtimoiy ongning alohida shakllarga bo'linishi oqibatidir. Xuddi shu davrda siyosiy va huquqiy ong ham rivojlana boshlaydi.

O'tmishdan qolgan juda ko'p matnlarning tahlillari sinfiy jamiyat shakllanishi jarayonida diniy, huquqiy, sinfiy, siyosiy, badiiy va ma'naviy ongning mavjudligidan darak beradi. Bunda ijtimoiy ongning ana shu shakllarida tarixiy ong unsurlarining zarralarini ko'rish mumkin. Chunki ijtimoiy ongning barcha shakllari insoniyat tarixi bosqichlari quchog'ida shakllanadi va rivoj topadi. Bunda tarixiylik va tarixiy onglilik bu shakllarning asl, tub mohiyatiga yetishda katta ahamiyatga ega. «Jahon tarixi bu ruhiy g'oya: tabiatning makonda ko'rinishi kabi umuman ruhning vaqtda ko'rinishidir». Gegelning bu fikrini tarixiy ongni falsafiy jihatdan belgilash deb baholash mumkin. Tarixiy ongning shakllanishi uzoq vaqtni o'z ichiga oladi. Tarixiy bilimlar ijtimoiy ongning muhim funksional tuzilishi tarkibidagi asosiy unsurlardir.

Faylasuf N. A. Berdyayev: «Tarixiy bilim va tarix falsafasi o'z gnoseologiyasiga va o'z bilish nazariyasiga ega bo'lishi kerak», degan fikrni bildirgan edi.

Dastlab inson o'zining hayoti davomida ahamiyatli bo'lgan voqea-hodisalarni o'z xotirasida saqlab qolishga harakat qilgan. Chunki bu ahamiyatli hodisa o'zining va uning kelajak avlodining hayotida qaytarilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda saboq vazifasini o'tashi mumkin edi. Ilk tarixiy bilim etnos-xalqning o'zini, o'z urug'ining huquqini, urf-odat, an'analarini saqlab qolish va asoslashga xizmat qiladigan asosiy hayotiy omil edi. Sharq xalqlari, urug'-qabila va elatlar mifologik va qahramonlik eposlari va alohida afsonalarida, sulola ertaklarida tarixga qiziqish, tarixiy ong o'z aksini topdi. Shumerliklarning Gilgamesh haqidagi eposi, hindlarning «Maxobxorot» va «Ramayana» dostonlari, sak va massagetlarning «Shiroq», «To'maris» afsonalari shular jumlasidandir. Bu mifologik manbalar qadim o'tmish tarixiy ongining o'ziga xos ko'rinishi, uning ma'naviy shart-sharoiti edi. Buyuk nemis shoiri I. Shelling aytganidek, mifologiya insoniyat tarixining ibtidosidir.

Biz mifologiyani tarixiy ong rivojlanishining ibtidosi deb qarar ekanmiz, mifologiyaning genezisi haqida ham qisqacha to'xtalib o'tamiz. Mifologiyani tarixiy ongning ilk shakllaridan biri deb hisoblash mumkin. Mifologik nuqtayi nazardan afsonalar yolg'on va inson fantaziyalarining o'yini deb tushunilmaydi. Mashhur faylasuf A. F. Losev mifologiyani nazariy tahlil qilar ekan, uni voqelikning va ongning bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlaydi: «Когда греки не в эпоху стойкизма и упадка религии, а в эпоху расцвета религии и мифа говорили о своих многочисленных Зевсах или Аполлонах, когда некоторые племена имеют обычай надевать на себе ожерелье из зубов крокодила для избежания опасности утонуть при переплытии больших рек, когда религиозный фанатизм доходит до самоистязания и даже до самосожжения, то весьма невежественно была бы утверждать, что действующие тут мифические возбудители есть не больше как только выдумка, чистый вымысел для данных мифических субъектов. Это не выдумка, но наиболее

яркая и самая подлинная действительность. Это — совершенно необходимая категория мысли и жизни.

Mifologiya ibtidoiy ongda voqelikning in'ikosi hisoblanadi. Bu in'ikos qadimgi zamonga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodida yaqqol gavdalanadi. Afsonalar insoniyat tarixining turli bosqichlarida paydo bo'ladi. Ular tabiat va jamiyatning turli xil hodisalarini umumlashtirishga intilish natijasidir. Mifologiya qadimgi davr jamiyati dunyoqarashining o'ziga xos shaklidir. Faylasuf N. A. Berdyayev mifologiya tarixiy ongning ilk ko'rinishi ekanligini quyidagi so'zlarda tasdiqlaydi: «Миф есть в народной памяти сохранившийся рассказ о происшествии, совершихся прошлом преодолевающий грани внешней объективной фактичность и раскрывающий фактичность идеальную субъект — объективную».

Antik davrning mashhur faylasuflaridan biri Arastu jamiyatning o'tmish taraqqiyotining asosiy voqea-hodisalari sabablarini tushuntirishga uringan edi. Uning fikricha, har qanday falsafiy mushohadaning sababi noma'lumlik oldidagi ajablanish va hayratga tushish edi. Jamiyatning tarixiy ongi tushunchasi bilan, odatda, tarqoq shakllangan barcha ko'p xillik yoki fan yaratgan shakllar nazarda tutiladi. Ularda jamiyat o'tmishi anglanadi. Jamiyat o'z harakatini vaqt bo'yicha qayta ishlab chiqarishni qamrab oladi. Tarixiy ongni «tarqoq» deb tushunishga kelganda, bu so'z tushuntirishga muhtojdir.

Ijtimoiy ong shakllari tarqoq holda shakllanadi. Chunki **birinchidan**, ular borliqning tegishli tuzilmalariga taalluqli. **Ikkinchidan**, ular inson xohish-irodasidan mustasno shakllanadi yoki ma'lum ong shakllarini yaratish, jamiyatni boshqarish usullari bo'lgan qoidalar, mezonlar, yo'riqnomalar tarzida shakllantiriladi.

Qadimda aniq bir odam tuzgan matnlar mavjud emas. Hatto afsona, ertak, qadimgi urf-odatlar, diniy marosimlar, qahramonlik dostonlari yozilgan ilk yozma matnlar shunday qoida, mezon va yo'riqlar mavjud bo'lmagan davrdan boshlab shakllangan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, er. avv. I ming yillikda hozirgi O'zbekiston hududida yashagan qadimgi ajdodlarimiz tomonidan

boy xalq og'zaki ijodi shakllantirilgan. Xalqning qahramonona o'tmishi, orzu-umidlarini ifodalovchi eposlar turli xalqlarda turlicha ko'rinishda, hajmda va turli nomda yuritilgan. Masalan: o'zbek xalq dostonlari, rus bilinalari, ukrain dumalari va boshqalar shular jumlasidandir.

Xalq eposining eng qadimgi namunalari ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'ldi. Ularning asosiy mazmuni insonning mehnat jarayoni va qabilalarning o'zaro to'qnashuvini aks ettirishdan iborat edi. Bu narsa hozir ko'pgina arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ov tasvirlari, tosh qurollar, uy-joylar va boshqa qurollar vositasida jang qilayotgan kishilar epos-dostonlarini ana shunday tasvirda qiyoslash orqali tasdiqlanadi.

Epos-dostonlar avlod-dan-avlodga og'zaki yetkazish natijasida o'tib keladi. Bu, albatta, bir tomondan matnni xotirada saqlashni, boshqa tomondan uni aniq qayta tiklashni talab qiladi. Bu hol alohida kishilarning matnni xotirada saqlash qobiliyati, malakasining shakllanishiga olib kelgan. Natijada doston, eposlarni aytish bilan shug'ullanadigan alohida kishilar paydo bo'lgan. Sharq mamlakatlarida bunday kishilarni baxshi, jirov, g'arbda laerd deb atashgan. Yaqin-yaqinlargacha turkiy xalqlarda mashhur baxshilar qadimdan qolgan epos-dostonlarni to'y-tomoshalarda biror musiqa asbobi yordamida, boshdan oxirigacha aytar edilar. Albatta, bunday matnlarni yodlash o'ziga xos kuchli xotira va mashaqqatli mehnatni talab qiladi. «Yozuv paydo bo'lgunga qadar, tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalarni saqlovchi va yig'uvchilar asosan donishmand yoki oqsoqollar edi. S. Skribner va M. Koulning ta'kidlashicha, bunday muhim xotirani saqlovchining o'limi uning avlodlari uchun katta kutubxonaning yonib ketishi bilan barobar edi».

Matnni ijrochidan ijrochiga yetkazish turli qo'shimcha, to'ldirish, o'zgartirishlar, tushunilishi qiyin bo'lgan joylarni tushirib qoldirish yoki yengil tushunchalarga almashtirish bilan yonmayon kechgan. Ijtimoiy xotiraning hayotiyiligini faqat og'zaki matnlar orqali amalga oshirish sharoitida undan foydalanish juda qiyin edi.

Gomerning «Illiada»sini jo'r bo'lib, qo'shiq qilib aytish uchun ikki hafta, «Maxobxorot»ning to'liq aytilishi uchun to'rt oy, Xitoy

eposlari, o'zbek xalq dostonlarini kuylash uchun har biriga sal kam bir yil kerak edi.

Og'zaki matnning axborotni ashyoviy tashuvchisi sifatida bo'lishi tarixiy ongning mustaqil shakl sifatida kristallashuvi va ajralishi uchun o'tib bo'lmaydigan to'siqlarni yaratdi.

Tarixiy ong dastlab jamiyat va tabiat qonunlarini anglashning mohiyati sifatida yuzaga chiqdi. Tabiat va undagi sir-asror, voqea-hodisalarning o'rganilishi, tabiat bag'rida jamiyatdagi voqea-hodisalar undagi kishilar xatti-harakatini anglashga olib keldi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida amaliy ehtiyojlar sababli tabiat qonunlariga qiziqish, ularni kuzatish kuchli edi. Bobildagi Xalday kohinlari makedoniyalik Iskandarga 1903 yil mobaynida osmon yoritgichlarini tekshirib borganliklari va 832 oy hamda 373 ta quyosh tutilishini aniqlaganliklarini aytgan edilar. Qadimgi Bobil, Misr, Hindiston va Xitoy, Turonda miloddan avvalgi III—I ming yilliklardayoq olam, jamiyat va inson shaxsi o'rtasida bog'liqliklar yoki qandaydir yaxlitlik mavjudligi, insonning bu yaxlitlikning mohiyatini aniqlash, bilishga urinishini bu hududlarda vujudga kelgan xalq og'zaki ijodi namunalari, turli tarixiy qo'lyozma va qarashlarda ko'rish mumkin.

Tarixiy taraqqiyot va ma'naviy qadriyatlar jamg'arila borishi bilan faqat obyektiv borliqni anglashgina emas, balki jamiyat to'g'risidagi bilimlar yoki ongni anglash zaruriyati tug'iladi. Bu jarayon, odatda, «o'zligini anglash», «refleksiya» atamasi bilan belgilanadi. Inson doimo borliq, jamiyatni bilishga va o'zining jamiyatdagi o'rnini anglashga urinib kelgan.

«O'zligini anglash» tushunchasi jamiyat taraqqiyotining o'rta asrlar so'nggi bosqichida, yangi va eng yangi davrlarda shakllana boshladi. Yevropa an'analarida bunday tushuncha Suqrot davridan tarqaldi.

Ijtimoiy-tarixiy voqelikning bayon qilinishida aniq shakllantirilgan qoidalarining yo'qligi haqiqat va uydirmalar ajratilmagan holda ijtimoiy-tarixiy voqelikni bayon qilishga sabab bo'ldi. Aniq shakllantirilgan qoidalarining yo'qligi, haqiqat va uydirmani bir-biridan ajratish mezonlari, voqealar va vaziyatlar determinatsiyasi, aloqasi va izchilligini belgilashning yo'qligi tarixiy ong taraqqiyotida

tarqoq bosqichning asosiy xususiyatlari sifatida ko'rinadi. Qadimdan tarqoq bo'lsa ham tarixiy qiziqishning shakllana borishini Aflo-tunning quyidagi so'zlaridan ham ilg'ab olish mumkin: «О по-дословной героев и людей ... о заселении колоний, о том, как старину основывались города, — одним словом, они с особенным удовольствием слушают все рассказы о далеком прошлом».

Ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir tarixiy davr voqea-hodisalari, vaziyatlar ko'p vaqt o'tmay afsona, ertak, eposlarda o'z aksini topadi va ijodkor tomonidan bevosita tasvirlanadi. Davr ijodkorlari ko'p hollarda ertak va afsonalarni o'z davri ruhi bilan sug'ordilar. Misol uchun, mashhur «Shohnoma» dostoni O'rta Osiyo va Eron xalqlarining bir necha ming yillik davri tarixini o'z ichiga oladi. Muallif Firdavsiy bu yerda voqealar tavsifini o'tmish xalq og'zaki ijodiyotiga asoslangan holda bayon qilgan. Asarda xronologik izchillik yo'q. O'tmishning ayrim voqea-hodisalari epizodlardagina o'z aksini topadi. Bunda tarixiy jarayon va tarixiy davr to'g'risida aniq tushuncha yo'q. Tarixiy ongning ilk ko'rinishidagi yana bir mavhumlik — bu voqea va hodisalarning sababiyatli bog'lanishini tushuntirish zaif ifodalangan. Sababiyatli bog'lanish, tushuntirishga urinish hollari uchrasa ham, ular shaxsiy yoki mifologik xususiyatlarga ega va ijtimoiy xususiyati sezilarsiz darajada.

O'tmishga qiziqish ijtimoiy, siyosiy tus kasb etmay, axloqiy qarashlar, dono qaror va hukmlar, yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurash saboq, tarbiya beruvchi fikrlar bilan cheklanib qolgan. Bunday bayon qilish shakllari tarixiy jihatdan hali mo'rtroq edi. Ularda ko'pincha xayoliy obrazlar ko'proq ijobiy ahamiyat kasb etgan. «Ибо мечтать всегда была легче, чем мыслить».

Bu vaziyat tarixiy ongning ilk genezisi davriga xosdir. Belinskiy ta'riflaganidek: «Xalq poeziyasi, dostonlari uning tarixi bilan bog'liq. Poeziyada ham, tarixda ham xalqning sirli ruhiyati mujassamlashgan. Shu sababli uning tarixini poeziya bilan, poeziyani esa tarix bilan tushuntirib berish mumkin». Tarixiy ong genezisi juda qiyinchilik bilan asta-sekin kechdi. Dastlab o'tmish voqealari izchilligini bayon qilish yoki muhokama qilish uchun tayyor shart-sharoit, maxsus matnlar yo'q edi. Dastlabki tarixiy

ong unsurlari afsona, doston, ertak, epos, rivoyat kabi xalq og'zaki ijodiyoti namunalarida namoyon bo'ladi. Faqat yozuvning paydo bo'lishi bilan bu jarayon birmuncha tezlashdi. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyotini Vinkler quyidagicha ifodalagan edi: «Писменной традиции должен был предшествовать длительный период, в течении которого научились формулировать мысли для передачи ее в письменной форме и затем ее излагать».

Ijtimoiy taraqqiyot natijasida yozuvlar turli hududlarda, turli davrlarda shakllandi. Eng qadimgi yozuv miloddan avvalgi IV— III ming yilliklarda shakllangan shumer hamda elam yozuvlari edi. Miloddan avvalgi II— I ming yilliklarda qadimgi Mesopotamiya, Eron, Hindiston, O'rta Osiyo, Xitoy va Sharqning boshqa hududlarida; Yunoniston va Rimda mil. avv. I ming yillikda yozuv paydo bo'ldi. Miloddan avvalgi I ming yillikda turli yozuvlarning paydo bo'lishi natijasida tarixiy ongning shakllanishi uchun qulay shart-sharoit yuzaga keldi. Ilk bor yozuv uchun an'anaviy tosh, yog'och o'rniga ancha qulay qog'oz, pergament kashf etildi va foydalanila boshlandi.

Dastlab sinfiy jamiyatning ilk davrida odamlar ijtimoiy-iqtisodiy hayot uchun eng zarur bo'lgan muhim ma'lumotlar: xo'jalik, harbiy, siyosiy, diniy, huquqiy marosim ma'lumotlarini yozib bora boshlaganlar. Uch tilda yozilgan mashhur «Xammurapi qonunlari» (mil. av. II ming y.), «Vedalar» (mil. av. II— I ming y.) qadimgi Mesopotamiya va Hindiston xalqlarining yozma yodgorliklaridir.

Qadimiy yozuvlarning shakllanishi va rivojlanishida Markaziy Osiyo qadimgi xalqlarining ham o'z o'rnini bor. Sharq mamlakatlari qatorida eng qadimiy namunalarni o'lkamizda yashagan ajdodlarimiz ham yaratganligi fanda aniqlangan. Xorazm tuprog'ida joylashgan Qo'yqirilganqal'a xarobalaridan topilgan sopol idishlarga o'yib yoki tush bilan bitilgan oromiy tilidagi yozuv mil. av. I ming yillikka oid. Bundan tashqari, Xorazmshohlar poytaxti Tuproqqal'ada kashf etilgan milodning III asriga mansub arxiv hujjatlari, Nisodan topilgan hamda eramizdan avvalgi I asrga oid Parfiya arxivi hujjatlari O'rta Osiyo xalqlarining ilk antik zamondayoq

savodli bo'lganini isbotlaydi. «Afsuski, kommunistik mafkuraning «qudratli» kuchi va sotsialistik tuzumning «afzallig»ni ko'rsatish uchun yaqin vaqtlargacha O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbeklar ham butunlay savodsiz bo'lgan, degan fikrlar ilgari surildi».

G'arbda miloddan avvalgi VIII asrda finikiyaliklar yozuvi asosida yunon yozuvi paydo bo'ldi. Yozuv juda sekinlik bilan bir necha ming yillar davomida takomillashuv jarayonini boshidan kechirdi. Misol uchun, miloddan avvalgi IV ming yillik oxirida paydo bo'lgan Misr yozuvining rivojlanishi va takomillashuvi jarayoni mil. av. XIII asrga kelib tugadi. Dastlab piktografik belgilar (mil. av. IX ming yillik), petrogliflar (mil.avv. VII ming yillik o'rtalari) va nihoyat 24 ta oddiy belgilardan iborat alifboli yozuv darajasigacha (mil. avv. X asr) rivojlanish bosqichini bosib o'tdi.

Og'zaki matnni yozib olish tarixiy ongning shakllanishida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuvning paydo bo'lishi tarixiy ongni «ongli» ravishda shakllantirishga sabab bo'ladigan, sifat jihatidan yangi bir mazmun va shakl yuzaga keldi. Bu jarayon tarixiy ong genezisini tezlashtirib yubordi. Bunga sabab bo'lgan omil hayotning turli sohalari bo'yicha yozuvga asoslangan bitiklarning paydo bo'lishi edi. Dunyoga mashhur O'rxun-Enasoy yozuvlariga turkiy xalqlarning bitiklari sifatida turkiy xalqning o'zligini anglash tomon harakatining bir ko'rinishi deb qarash mumkin.

Poetik asosdagi shakldan prozaga o'tilishi voqea-hodisani xotirada saqlash emas, balki uni matnda qayta o'qish imkonini beradi. Chunki prozaik matnning o'qilishi osonroq edi. Matnni tahlil qilib, o'tmish bosqichiga begona bo'lgan yo'l-yo'riqlarni aniqlash yangi mazmun—tarixiy ong tuzilmasida tarixiy bilimning ajralib chiqishiga sabab bo'ldi. Shu davrdan boshlab tarixiy bilimlar tarqoq emas, balki ongli ravishda shakllana boshladi. U endi ma'lum bir qoida, qonun, mezon, bir so'z bilan aytganda, tarixiy ratsionallikdan kelib chiqadigan bo'ldi. Tarixiy ratsionallik—bu tarixchi rioya qilishi kerak bo'lgan obyektiv shart-sharoitni hisobga olishni taqozo qiladigan tushunchadir.

3. Milliy o'zlikni anglash jarayonida tarixiy ongning o'rni. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida tarixiy ong evolutsiyasi yaqqol

ko'rinadi. Ijtimoiy amaliyotni o'rganish jarayonida inson o'z-o'zini anglaydi. Shunday sifatda o'z ijtimoiy hayotining xilma-xilligini, uning munosabat va aloqalarini har tomonlama anglashga harakat qiladi. «Muayyan tarixiy davrda yashayotgan ayrim kishilar ongning rivojlanishi, o'zining tarixiy hayotini ijtimoiy-iqtisodiy tuzum bilan tafsiflanadi. Bu tuzum tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog'liq bo'lib, ular bilan belgilanadi. Shuning uchun bilim doimo tarixiydir. Hamma narsani bilish nisbiy, chunki u tarixiy sharoitga bog'liqdir. Lekin bu tarixiy nisbiy bilimda mutloqiy haqiqat ko'rinishida umumiylik bordir».

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyat to'g'risidagi o'z bilimlarida faqatgina obyektiv hodisa, voqea, yakka faoliyat va ijtimoiy jarayonlarnigina belgilab qolmaydi. Balki o'zining jamiyatda tutgan mavqeyiga ko'ra bu hodisalarga o'z bahosini beradi. Ijtimoiy taraqqiyotda tarixiy ong insonning tarixiy o'rmini isbotlashga urinadi. «Конечный смысл мироздания или конечный смысл истории является частью человеческого предназначения. А человеческие предназначение есть следующие: исполнится в качестве человека. Стать человеком!» Haqiqatan ham, inson o'z hayoti davomida o'z-o'zini anglashga harakat qiladi va «men», «biz», «kim» degan savollarga javob qidiradi. Insonning butun aqlan va jisman barkamol davri ana shu savolga javob topishga sarflanadi. «Inson boshqa mavjudotlardan farq qilib, ongga, o'z-o'zini anglash qobiliyatiga egadir. Shu tufayli ilmga intilish o'z hayotining maqsad va mazmunini bilishga tirishishdir. Go'zallik yaratishga, har tomonlama barkamol bo'lishga urunish barcha davr va millat kishilariga xos bo'lgan umuminsoniy, boqiy fazilatdir. Bu umuman inson mohiyatiga xos narsa bo'lib, u bu yorug' olamda nima uchun yashayotganligini anglashga, kelajagiga zamin hozirlashga intiladi».

Har bir xalq, millat o'z-o'zini anglab yetgan taqdirdagina u haqiqiy millat bo'lishi mumkin. Turk mutafakkiri Ziya Ko'kalp: «Qavmlar birdaniga millat holiga erishmaydilar, dastavval ijtimoiy hayotning odatdagi chaqaloqlik davrini o'z boshlaridan kechiradilar» deya o'sha qavmlarning millat bo'lib jipslashishi oson kechmasligini e'tirof etgan edi.

Kishilarning ijtimoiy ongida o'zlari yashab turgan jamiyatning milliy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy munosabatlari o'z aksini topadi. Har bir millat o'z turmush tarzi, ma'naviy-madaniy borlig'iga ega. Milliy borliq ularning hayotining ajralmas qismini tashkil etadi. Ijtimoiy ongning milliy o'z-o'zini anglash deb ataladigan ijtimoiy ong sohasining paydo bo'lishi, rivojlanishini tashkil etadi.

Milliy o'zligini anglash millatning shakllanishi shart-sharoitlarini va chuqur o'zgarishlar jarayonlarini aks ettiradi. Milliy o'zligini anglash millatning ijtimoiy, jumladan, xalqaro munosabatlarda egallaydigan obyektiv milliy manfaatlarini ifodalashga qaratilgan. «Люди делают свою историю вовсе не затем, чтобы шествовать по заранее начертанному пути прогресса, и не потому, что должны повиноваться законом какой-то отвлеченной эволюции. Они делают ее, стремясь удовлетворит свои нужды». Xo'sh, bu qanday ehtiyoj? Albatta, bu milliy borliqqa kirish ehtiyoji, tarixiy bilimlardan o'z-o'zini milliy jihatdan anglashda oladigan ma'naviy ozuqa sifatidagi ehtiyojdir. Hamda yetilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muammolarni yechish ehtiyojidir.

Millat va mamlakat hayotida shunday o'zgarishlar va burilishlar bo'ladiki, goh ichki evolutsion taraqqiyotning yuzaga qalqib chiqishi, goh ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar hosilasi, goh tarixdan pishilib yetilgan muammolarning yechimi tarzida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy maqsad, natija va hosilalarning bosh va oxirida xalq turadi. Xalq bu natijalarga vorislik qiladi, keyingi o'zgarish va istiqbol umrini belgilovchi maqsadlar asosida o'z hayotini qaytadan quradi. Ma'naviy an'analar, milliy qadriyatlar, ijtimoiy tajribalar millatning o'zligini anglash va tasdiqlash vositalaridir.

Mamlakatimiz prezidenti I. A. Karimovning: «Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda» degan iborasidan hozirda, shu kunda milliy qadriyatlar, milliy iftixor, milliy o'zlikni anglashda tarixiy ongning vositachi sifatidagi o'rni naqadar muhimligini payqash mumkin. «Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkaning, davlat hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi».

Ma'lumki, zamonlardan zamonlarga, ajdodlardan avlodlarga moddiy, madaniy, ma'rifiy-ma'naviy boyliklar, ajoyib an'analar meros bo'lib o'tadi. Shu bilan birga sho'rolar davridan bizlarga o'z qadriga yeta bilmaslik, tarixiy gumrohlik, ruhiy tushkunlik, milliy parokandalik, ma'naviy qashshoqlik, ona tili bo'yicha chalasavodlik singari ijtimoiy illatlar meros bo'lib qoldi. Bu illatlar o'z tabiatiga ko'ra uzoq yashovchan bo'ladi. «Xalqning ruhan tushkunligi, ongning zaharlanganligi eng og'ir ma'naviy darddir. Bular millat uchun o'ta xavfli, ularning davosi esa shu xalq ruhiga ruhan, ongiga aqlan ta'sir ko'rsatish, ma'naviyat omillari ila malham qo'yishdir».

Mustaqillik millatimizning qaddini rostdash imkoniyatini berdi. Mustaqillikka erishgandan so'ng tarixiy ong, tarixiy xotirani qayta tiklash va rivojlantirish asosida milliy o'zhgimizni anglash, milliy ma'naviyatimizning o'sishi va rivojlanishi uchun chinakam sharoit va qulay imkoniyatlar vujudga keldi. Milliy uyg'onish, keng qamrovli o'zgarishlar davri boshlandi.

4. Tarixiy ong va milliy ongning dialektik birligi. Milliy o'zligini anglash tuyg'usi o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyatidir. Milliy o'zligini anglash tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan g'ururlanishdir. Millatga mansublik o'ta nozik va ayni paytda juda murakkab holatdir. Kishi zarur bo'lganda hayotidagi jamiki ne'matlardan hech og'rinmasdan voz kechishi mumkin. Biroq hech kim milliy mansubligidan tonolmaydi. Uni xohlagan paytida istagancha, xohlaganicha o'zgartira olmaydi. Rus olimi N. A. Berdyayev millatning mazmun-mohiyatini shunday ifodalaydi: «Национальность есть индивидуальные бытие вне которого невозможно существование человечества она заложена в самых глубинах жизни, и национальность есть ценность, творимая в истории, динамическое задание».

Millatga mansublik hislati insonning qon-qoniga, ming bir hujayrasiga singib ketadi. Buni anglamaganlar g'arib va bechoradir. Milliy o'zligini anglash tuyg'usining yana bir jihati shundaki, u shaxsning eng avvalo qaysidi millatga mansubligi, uning keng imkoniyatlaridan quvona olish fazilatigina emasdir. Balki yashab turgan zaminga, fuqaroligi dahldor bo'lgan mamlakatga munosabat belgisi hamdir. «Каждый народ борется за свою культуру и за

высшую жизнь в атмосфере национальной круговой поруки. И великий самообман-желать творить помимо национальности».

Aytish mumkinki, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi va uni e'zozlashga intilish ma'naviy ehtiyoj mahsulidir. Bu ma'lum bir qadar tarixiy ongga ega bo'lgan shaxsga tegishli bo'ladi. Milliy o'zligini anglash tuzilmasi juda murakkab va har xil darajaga ega. Uning birlamchi va asosiy zarrasini ma'lum bir etnosga mansublik tashkil etadi. Etnik qarashlar, odatlar, ko'nikma, o'zini tutish normalari kabi kundalik ongning tarkibiy zarralari tor ma'noda milliy o'zlikni anglashni bildiradi. Milliy o'zlikni anglash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Etnik birlikning ongi va boshqa millatga munosabati;
2. Milliy qadriyatlarga sodiqlik;
3. Ijtimoiy davlatchilik birligi;
4. Vatanparvarlik;
5. Milliy jipslashuv.

Milliy o'zligini anglash jarayonida tarixiy ong muhim o'rin tutadi. Yuqorida aytilganidek, tarixiy ong millatning o'zligini anglashini asoslovchi bosh omillardan biri. Har bir xalq, millat «Biz kim?» degan savolga javob topishga harakat qilgan va o'z tarixiy ongi, tarixiy bilimi va fani taraqqiyoti darajasida bu muammoni hal qilishga harakat qilgan. Arman olimi Kaltsoxchyan milliylikning kuch-qudratini shunday baholaydi: «Человек силен и обеспечен только в обществе; но чтобы общество в свою очередь было сильно и обеспечено, ему необходима внутренняя, непоредственная органическая связь-национальность. Даже и тогда, когда прогресс одного народа совершается национально. Иначе нет прогресса. Когда народ поддается напору чуждых ему идей и обычаев, не имея в себе силы перерабатывать их силою собственной национальности в собственную же сущность-тогда он гибнет политически».

Tarixiy ong millatning o'zligini anglashda muhim o'rin tutadigan, ajdodlardan kelajak avlodga o'tadigan xotira vazifasini bajarib keladi. Xotira—millatning o'tmishi to'g'risidagi uzuq-yuluq ma'lumotlar bilan bir qatorda, izchil ma'lumotlarni ham to'playdi.

Fikrimizning dalili sifatida biz turkiy xalqlar, milliy ong genezisi to'g'risidagi bilimlarning shakllanish jarayoniga bir nazar tashlaymiz. Dastlab Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi II—I ming yillikda yashagan qabilalar to'g'risida xalq og'zaki ijodiyoti, diniy tasavvurlar va etnografik ma'lumotlar tahlil qilingan. X—XI asr adabiy-tarixiy asarlarida (Firdavsiy, Yusuf Xos Hojib, Bayhaqiy) «Turkiston» so'zi keng qo'llanilgan. XVIII—XIX asrlarda esa «Turkiston» so'zi ijtimoiy-siyosiy va adabiyot fanlarida markaziy o'rin tutadi.

XVI asrdan boshlab tarixiy adabiyotda turkiy xalqlarning kelib chiqishi, uning siyosiy tarixi to'g'risida mushohada qilina boshlandi (Abulg'ozixonning «Shajarayi turk» asari).

Biz tarixiy ongning turkiy xalqlarda rivojlanishi bosqichlarini diqqat bilan ko'zdan kechirganimizda, ularning etnos, millat sifatida shakllanish jarayoni tarixiy bilimlarda muntazam ravishda gavdalantirib borilganini ko'ramiz. Bu jarayon XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadidchilik harakatining buyuk namoyondalari qalamiga mansub qator tarixiy asarlarda o'z ifodasini topgan. Bu namoyondalardan biri Abdulla Avloniy sof turkiy ona tilimiz haqida quyidagicha kuyinib gapirgan edi: «Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamoq bir tarafda tursin, kundan-kun unutmoq va yo'qotmoqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy-forsiy ulangan, ilmoq qilib bir chetiga rus tilini ham yopishtirmoqdadurmiz ... Bobolarimizga yetishgan va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas?! O'z uyimizni qidirsak, axtarsak yo'qotganlarni toparmiz. «Yo'qolsa yo'qolsin, o'zi boshimga tor edi», deb Yevropa qalpog'ini kiyib kulgi bo'lmoq zo'r ayb va oriyatdir».

Ular turkiy xalqlarning boy tarixiy o'tmishini tahlil qilgan holda, mustaqil davlat tuzish mumkinligi, bu uchun siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy yetuklik mavjudligi g'oyasini ilgari surdilar. Ammo dastlab podsho chor Rossiyasi, keyin bolsheviklar bunga yo'l bermadilar. O'tmish sho'ro davrini tahlil va mushohada qilsak, totalitar tuzum puxta ishlangan reja asosida ma'lum maqsadni ko'zlagan holda o'zbek xalqining milliy-tarixiy ongidan uning shavkatli o'tmishi, buyuk davlatchilik an'analari, qadimiy boy madaniyatini millat xotirasidan o'chirish kabi g'arazli maqsadni

amalga oshirganining guvohi bo'lamiz. Bu millatning tarixiy xotirasidan uning tarixining shonli sahifalari, davlatchilik an'analari, milliy ozodlik qahramonlari, buyuk davlat arboblari va ma'naviyat allomalarining faoliyatini unutishga olib keldi. Bu holatning sayozlashuvi, turg'unlik holatini keltirib chiqardi.

Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: «Bugun asrlar davomida ezilgan, kamsitilgan, sha'ni va g'ururi yerga toptalgan el-yurtimizning ezgu niyatlariga erishdik. Mustaqil davlat quryapmiz. Davlatimizning qanchalik tez ulg'ayishi, kuch-quvvat ato etishi, dunyo hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi, avvalambor, xalqimiz ma'naviy saviyasi, g'ururi va faxri nechog'lik yuksak bo'lishiga bog'liqdir. Ana shuni inobatga olgan holda, yangi jamiyat barpo etmoqchi bo'lib, asosiy yo'nalishlardan biri sifatida xalqimiz tarixini, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash vazifasini qo'ydik».

Milliy o'zligini anglagan kishi, eng avvalo, o'z millati o'tmishini yaxshi bilgan, uni qadrlay oladigan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar va holatlarda boyitib boradigan komil insondir. Turli millatlar turli sharoitda o'ziga xos ruhiy va ma'naviy fe'l-atvorga ega bo'lganligi sir emas. Shuning uchun ham turli mintaqada yashayotgan xalqlar turlicha yashash tarziga, bir-biriga o'xshamagan urf-odatlariga ega bo'lishgan.

Ma'lumki, bizning milliy qadriyatlarimizning juda ko'p qismi islom an'analari bilan bezatilgan. Sho'rolar davridagi dinga salbiy munosabat, diniy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan milliy an'alarimizning ham rivojlanishida g'ov bo'ldi.

Faqatgina mustaqillik yaratgan keng imkoniyatlar tufayli ming yillar mobaynida xalqimiz ongiga o'rnashgan, turmush tarziga aylangan, butun aqidalarga, ruhiy va ma'naviy kechinmalariga jo bo'lgan islom diniga munosabat keskin o'zgardi. Jumladan, 70 yil mobaynida xurofot, bid'at deb atalgan islom dini ma'rifatparvar va yuksak ma'naviyatga yetaklovchi qudratli g'oya ekanligi e'tirof etildi. Komillikka da'vat etuvchi ulug' ajdodlarimiz nomi tiklandi. Jumladan, Imom al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xoja Axror va boshqa o'nlab allomalarning ilmiy merosi qayta tiklandi.

Sho'rolar davrida asrlar mobaynida tildan-tilga ko'chib, avlodlar davomiyligi va vorisiyligini saqlashda oltin halqa bo'lgan afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, topishmoq va latifalar zo'ravonlik bilan yo'q qilindi. «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Hasanxon», «Nurali», «Sherali» kabi dostonlar, milliy qo'shiq va laparlar g'oyaviy jihatdan zararli deb topilgan edi. «Alpomish» dostoni alohida muhokama qilindi. Go'yoki unda xonlar va beklar sha'niga hamd-u sanolar o'qilarmish, bosqinchilik va zo'ravonlik tashviq qilinar emish, diniy ohanglar, ilohiy kuchga ishonish, ilohiyotning mavjudligi kabi g'oyalar targ'ib qilinar emish.

Vaholanki, o'zbek dostonlarining ko'pchiligi xalqning tarixiy o'tmishini aks ettiradi. Asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan dostonlardagi tarixiy faktlar xalqning ijodiy xayolidan o'tib umumlashtirilgan. «Alpomish» dostonini olib qaraydigan bo'lsak, «uning g'oyaviy mazmunini yarim ko'chmanchi o'zbek elatlarining ilk feodalizm davrida ijtimoiy va oilaviy-maishiy turmush tarzida patriarxal-feodal munosabatlar hukmronlik qilgan bir vaqtda turmush xususiyatlarini belgilab bergan».

Tarixiy ongning milliy o'zlikni anglashdagi ta'siri mafkuraga ham bog'liq. Zero, tarixiy ong va mafkura bir-biridan ajralmasdir. Tarixiy ong genezisi va shakllanishi, uning millatga qanchalik ta'siri ijtimoiy ongni ushlab turadigan mafkuraga bog'liq. Tarixiy ong va mafkura bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Ba'zida biri ikkinchisiga rag'batlantirish vazifasini o'tasa, ba'zida birinchisining tormozlanishiga olib keladi. Misol tariqasida tariximizning sho'rolar tuzumi davrini olib qaraylik. Har qanday ongimiz va shuurimizga mafkuraviy jihatdan asosiy da'vogar bo'lgan kommunistik mafkura tarixiy ongning ijobiy rivojlanishi va o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tarixiy ong esa milliy o'zlikni anglash bilan uyg'unligini yo'qotdi. Millat o'z qadriyatlaridan, o'z an'analariidan, qolaversa, o'zligidan ayrilib, milliy nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, mafkuraga aylanish darajasiga borib qoldi. Xo'sh, hozirgi jamiyatimizda mafkura yo'qmi? Albatta, bor. Lekin bu mafkura millatni ko'tarishga harakat qiluvchi—mustaqillik mafkurasidir.

Sho'rolar zamonida mafkura borasidagi eng katta yo'qotish shundan iborat bo'ldiki, mafkura faqat sinfiy bo'ladi, u milliy

bo'lishi mumkin emas, deb hisoblandi. Buning natijasida o'zbek millatining milliy ongi, dunyoqarashi, milliy g'ururi, iftixori sustlashdi. Faqat istiqlool sharofati bilangina milliy o'zligimizni anglash uchun keng imkoniyatlar ochib berildi. Xalqimizning o'tmishi va tarixi o'ziga qaytarib berildi. Zero, «xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi».

Yaqin o'tmishda milliy tarixiy bilimlarning kamsitilishi mohiyati jihatidan soxtalashtirilgan kommunistik mafkuraning xalq ommasi orasida keng tarqalishiga olib keldi va bu, o'z navbatida, millatning millat sifatida birlashuvida, shaxsning milliy o'zligini anglash, tarixiy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida, tarixiy ongning o'sishiga yo'l qo'ymay, tarix metodologiyasi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tarixiy ongni shakllantirish sohasida, uni soxta uydirma va yolg'onlar bilan to'ldirish, o'zbek millatining ming yillar davom etgan o'ziga xos taraqqiyoti to'g'risida xalq ongida salbiy xotira hosil qilishga qaratildi. Millatimizning o'tmish siyosiy, madaniy taraqqiyotida o'zining hayotbaxsh hissasini qo'shgan buyuk vakiliarning tarixiy faoliyati kamsitilib, ularni millatimizning tarixiy ongidan o'chirishga urindilar. Taniqli akademik I. Mo'minov ana shunday urinishlarga zarba berib, sho'rolar imperiyasi iskanjasiga qaramay, Amir Temur faoliyatiga xolisona baho berdi. «Uning salohiyati totalitar tuzumining qora ro'yxatiga kirgan va ta'qiqlab qo'yilgan mavzularga qo'l urishdek ilmiy jasoratida aks etdi». I. Mo'minov «Amir Temurning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli» to'g'risidagi o'zining mashhur asarini yaratdi.

Yurtboshimiz Islom Karimov Toshkentda Amir Temur haykalining ochilishiga bag'ishlangan nutqida (1993-yil 31-avgust): «Mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeyini munosib o'ringa qo'yish imkoniyatidan mahrum edi. Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutmishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragida milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini singdirish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi», deya ta'kidlashida

millatning o'zligini anglashda tarixiy ongning o'rni qanchalik darajada yuqori ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Sho'rolar davrida maktablarda milliy tariximizni o'rganishga e'tibor susaydi. Bunday tarixiy bilim berish xalqimizni o'z tarixidan uzoqlashtirdi, tarixiy xotirasi va tarixiy ongining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. XX asrning 80-yillarida respublika oliy o'quv yurtlarida o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatgan ediki, respondentlarning yarmi o'zbeklar uchun milliy tarixiy bo'lgan biror-bir voqeani yetarli darajada ayta olmaganlar.

Tarixiy ongning rivojlanishiga jiddiy zarar keltirgan yana bir hol — bu millatning tarixiy me'morchilik obidalari va moddiy yodgorliklaridan begonalashtirish bo'ldi. Mamlakatimizda juda ko'plab tarixiy obidalar bo'lib, ular 30 mingdan ko'proqni tashkil etgan. Tarixiy ongni shakllantirish bo'yicha maktab davridan boshlab tarixiy me'morchilik obidalariga qiziqtirish, ularni asrab-avaylash, ularning tarixini chuqur o'rganish, ularga bo'lgan hurmat kabi ko'nikmalar shakllantirilmadi. Ko'plab me'moriy obidalar buzib tashlandi, qolganlari qarovsiz holatga keldi. O'zbekiston Respublikasi Qo'lyozmalar institutida 10 ming qo'lyozma va eski bosma kitoblar, Sharqshunoslik institutida 18 ming Sharqning qimmatli va o'rta asrlar allomalari asarlari saqlanmoqda. Ammo bularning juda oz qismigina o'rganilib, jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan.

Buning sababi o'n yillar davomida qadimgi qo'lyozmalarni o'qiydigan mutaxassislar umuman tayyorlanmadi. Faqatgina istiqlolni sharofati bilan Fanlar Akademiyasining 50 yildan ortiq bo'lgan tarixi mobaynida Akademiyaning haqiqiy a'zosi Islom Karimov tashabbusi bilan fundamental ilmiy tadqiqotni qo'llab-quvvatlash akademiya jamg'armasi tuzildi.

«O'zini oqlamagan ateistik tarbiya olib borilishi tufayli milliy ma'naviyatimizga juda katta zarar yetkazildi. Ko'p hollarda dinga qarshi kurash dindorlarga qarshi kurash bilan ongli ravishda almashtirib kelindi. Dunyoda tan olingan islom ta'limotining ulkan daholari bizning vatandoshlarimiz ekanligidan endilikda haqli ravishda faxrlanamiz, ularning ulkan meroslaridan foydalanishimiz mumkin». Zero, «Tarixiy, madaniy meroslar o'rganilgan, qadri-

yatlar baholanganda shaxs, millat, jamiyat manfaatlari, talablariga mos kelishi, foyda berishi aniqlanadi. Inson o'zining ijtimoiy munosabatlari jarayoniga tortilgan narsa va hodisaning o'zi uchun qadrfi tomonlarini ajrata biladi. Mazkur qadriyatlarimizsiz ularning teran tarbiyasi, mustaqil shaxs, mustaqil millat, vatan axloqini shakllantirish qiyin».

Tarixiy ongning rivojlanishiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatgan yana bir omil— bu o'zbek tilining o'rniga juda uzoq yillar davomida rus tilining majburiy ravishda jamiyat hayotining hamma sohalariga kiritilishi bo'ldi. Rus tili davlat, ishlab chiqarish, turmush, siyosat va munosabatlarning boshqa shakllarida asosiy o'rin egalladi.

Lekin turkiy tilimiz turli davrlarda, turli mamlakatlarda (Xorazmda Qutb Xorazmiy, Sulaymon Boqirg'oniy, Rabg'uziy; Rum elidan Jaloliddin Rumiy, Nasimiy; Ozarbayjonda Hoqoniy) qo'llab-quvvatlanib, boyitilib borildi. O'z vaqtida V. G. Belinskiy shunday ta'kidlagan edi: «Hatto bir xalqning progressi boshqa xalqdan o'zlashtirish orqali amalga oshirilsa ham, milliy rivojlanish amalga oshiriladi. Aksincha, progress bo'lmaydi».

Ammo bu o'zlashtirish jarayoni milliy merosga zarar yetkazish yo'li bilan amalga oshirilsa, uning tuzilishidan ahamiyatga molik o'ziga xos zarralari buzib olinsa, etnik qadriyatlar boshqa begona jism unsurlari hisobidan qisqartirilsa, bunday hollarda nafaqat madaniyatning o'zaro boyishi, balki millatning o'z qiyofasini yo'qotishi yuz beradi. Bu millatning ma'naviy-ma'rifiy va oxir-oqibat jismonan qashshoqlashib, zaiflashuvi va boshqa etnosga qaram bo'lishiga olib keladi. Yuqorida aytilganlardan xulosa qilgan holda, mafkura qanday shakl va mazmunga ega bo'lishidan qat'i nazar, tarixiy ongga salbiy yoki hayotbaxsh ta'sir qilishining guvohi bo'lamiz. Rus mustamlakachiligi va totalitar tuzum sharoitida milliy o'zlikni anglash, milliy uyg'onish uchun asosiy omillardan bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri tarixiy ongning rivojlanishiga yo'l qo'yilmadi. Millatning tarixiy ongini batamom yo'q qilish mumkin emas. U yoki bu zarralarda u har qanday sharoitlarda ham saqlanib qoladi. Tarixiy xotirani qandaydir bir vaqt davomida zo'ravonlik yo'li bilan yoki mafkuraviy tazyiq ostida susaytirish mumkin, xolos. Ammo uni xalq ongidan umuman o'chirib bo'lmaydi. Tarix fani

metodologiyasi ham kommunistik mafkuraning tazyiqi ostiga tushib qolib, hatto uning unsurlari ham rivojlanmay qolgan edi. Millatimizning ilg'or ziyolilari, jadidchilik namoyondalari buni yaxshi anglab yetgan edilar. O'rni kelganda imkoniyat darajasida qarshilik ko'rsatgan ham edilar (A. Fitrat, M. Behbudiy, M. Abdu-rashidxonov va boshqalar).

5. Mustaqillik davrida tarixiy ongning o'sishining milliy o'zlikni anglashdagi ijobiy o'rni. SSSRning parchalanib ketishi natijasida mustaqil milliy davlatlarning vujudga kelishi har bir millat, xalqning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar, shart-sharoitlarni yaratdi. Bungacha jamiyat uzoq tarixiy davrda o'ziga xos ijtimoiy karaxtlik holatida bo'lib, tarixiy ong va shu bilan birga bilimlar ham markscha dunyoqarash asirligida qoldi. Bu davrda milliy tarixiy ong, o'zligini anglash o'rnini kommunistik g'oya, kommunistik mafkura egalladi. Shu sababli endilikda eski tuzumni takomillashtirish yoki rekonstruksiya qilish emas, balki eski jamiyatni buzib tashlash, milliy va ma'naviy qadriyatlarni angalay oladigan, ularga keng yo'l ochadigan jamiyat qurish millat uchun amaliy va obyektiv ehtiyoj bo'lib qoldi. Shuning uchun ham: «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oya, ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi».

O'zbekiston uchun eski tuzumning o'rniga yangi demokratik huquqiy jamiyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning bu yo'nalishda rivojlanishini ikki qudratli omil—davlat mustaqilligi va milliy o'zlikni anglash jamiyatimiz taraqqiyotini rivojlantirishning asosiy tayanchidir. Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning XI sessiyasida shunday degan edi: «Mustaqillik iqtisodiyotni, ijtimoiy sohalarni, jamiyat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, islohot qilishga katta turtki berdi. Faqatgina istiqlolning hayotbaxsh zaminida yangi demokratik qadriyat ildiz otishiga, inson haq-huquqlari va uning erki, asosiy boyligi bo'lgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatiga mos keladigan yangi zamonaviy, siyosiy, xo'jalik va jamoa tuzilmasi qaror topishiga

imkon berdi. Hayotimiz va umumiy xonadonimiz milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umum e'tirof etilgan demokratik mezonlarga monand qilib qurishdek tarixiy imkoniyatlarga ega bo'ldik».

Yuzlab madaniy-tarixiy obidalar qayta ta'mirlandi. Yuzlab allomalarimiz tavalludlari nishonlanib, ularning boy merosini tizimli o'rganish yo'lga qo'yildi. Bu, o'z navbatida, xalqimizning milliy o'zligini anglashi, tarixiy ongi va xotirasining o'sishida muhim o'rin tutadi.

Milliy o'zligini anglash — bu yuqorida aytib o'tilgan omillarning o'zaro munosabatining oqibati bo'ldi. Buning sababi shuki, faqat ma'lum bir tarixiy vaziyat va sharoitlardagina milliy o'zlik, milliy tuyg'u uyg'onishi va harakatga kelishi mumkin.

«Xalqimizning ma'naviy poydevori, davlatimizning tayanchlari juda qadimiy va mustahkam. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimiz azaliy an'analari, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim».

Davlat mustaqilligi va milliy o'zlikni anglash kabi bunday dialektikaning mohiyati shundan iboratki, bu huquqiy asosda milliy mustaqil davlatchilikning o'rnatilishi, xalqning milliy ongini yuksaltirish jarayonini intensivlashtirish qiladi va xalqning o'zligini anglashining ko'rinishi va yuksalishi jarayonini tezlashtirib, kishilarni yagona tarixiy taqdir va ma'naviy yaxlitlik negizida birlashtiradi.

Milliy o'zlikni anglash moddiy kuchga aylangan holdagina millat yaxlitligi va birligini ifodalaydigan ma'naviy to'lqin vujudga keladi. Tarixiy nuqtayi nazardan O'zbekiston uchun bunday jarayonlar yangi emas edi. Qachonki sho'rolar hokimiyati o'rnatilgandan o'zbek xalqining ijtimoiy etnik birlik sifatida o'z milliy davlatchiligini yaratish imkoni vujudga kelgan edi. Lekin totalitar tuzum har qanday milliy davlatchilik g'oyasiga zarba berib, sobiq SSSR miqyosida milliy taraqqiyotga imkon bermaydigan tartib-qoidani o'rnatdi. Milliy siyosatda butun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotni baynalmilallashtirish yetakchi o'rin tutdi.

Milliy o'zlikni anglash, qayta yuksalish, milliy mustaqil davlatchilikning mustahkam poydevorini yaratish milliy tarixiy ongini tiklash orqali amalga oshirilishi mumkin. Tarixiy xotira va millatning

tarixiy shonli o'tmishi har bir kishining ijtimoiy ongida milliy g'urur va faxrni mustahkamlaydi, o'tmish avlodlar qahramonona faoliyati oldida milliy tuyg'u kuchayadi.

O'zbekistonning mustaqil suveren davlat mavqeyini olishi uning haqiqiy o'z tarixiga qaytish imkonini yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning: «Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljishida hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga ega», degan so'zlari bu fikrning yaqqol dalilidir.

Respublika olimlari o'zbek millatining kelib chiqishi, o'zbek davlatchiligi tarixi bo'yicha ko'p jildli ilmiy asarlar yaratishga, sho'rolar davrida ta'qiqlangan olim, yozuvchi, shoirlar va boshqa O'rta Osiyo mutaffakkirlarining ilmiy-tarixiy me'rosini qayta o'rganishga kirishishdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish» to'g'risidagi qaroridan keyin ko'p xayrli ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish bo'yicha Respublika ijtimoiy-ilmiy kengashi tavsiyasiga ko'ra 3 ijodiy guruh kitob bo'yicha faoliyat olib bordi. Jumladan, dastlabki kitob mamlakatimizga chorizm istilosini (1850—1917-yillar) yoritsa, keyingi kitob sho'rolar davrini (1917—1991-yillar) qalamga oladi. Va nihoyat 3 kitob zamonaviy mustaqil O'zbekiston tarixini qamrab oladi. Milliy o'zligini anglash va tarixiy ong dealektikasini ilmiy va nazariy jihatdan asoslaydigan ilmiy tadqiqotlar olib borilishi kerak. Hozirgi kunda milliy o'zligini anglash tarixiy taraqqiyotning mahsulotidir. Uning asosida o'ziga xos milliy birlik va o'z tarixini shakllantirish g'oyasini anglash yotadi. Hozircha jamiyatshunoslik fanida bu holatning mazmuni va xarakteri to'g'risida yagona bir fikr yo'q.

Madaniy-ma'rifiy dunyoqarashimiz tarixi, uning asosiy yo'nalishlari tarix falsafasi nuqtayi nazaridan yana yagona bir metodologik asosda ilmiy-nazariy jihatdan qayta tiklanishga muhtoj va Prezidentimiz aytganidek: «Ma'naviyatni mustahkamlashga mehnat va

mablag'ni ayash— bu o'z kelajagini yo'qotish demakdir». Tarixiy ong va milliy o'zlikni anglashning dialektik birligi jamiyatning ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy hayotida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Millatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun mustahkam podevor bo'lib xizmat qiladi.

2. Millatning o'z tarixiga, ma'naviy merosiga qiziqishning oshishi, o'zining qad-qomatini tiklab «Men o'zbekman» deya mag'rur irodasini mustahkamlab, boshqa ilg'or millatlar qatoridan o'zining munosib o'rnini topish uchun kuch-qudrat to'plashga yordam beradi.

3. Insoniyatning umumiy tarixi, mazmunini tushunish, uning birligi, yaxlitligi va xilma-xil shaklda ekanligi asosini topish, uning progressiv harakati inson va insoniyatning barkamol bo'lishiga ishonch-e'tiqodni yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadi.

Tayanch iboralar: falsafiy dunyoqarash, tarixiy ong, ijtimoiy ong, genezis, Gerodot, mifologiya, ijtimoiy-tarixiy voqelik, epos, tarixiy bilim, Shelling, Gilgamesh, «amorf massa», broun harakati, analogik jarayon, an'anaviy madaniyat, sirius yulduzi, milliy o'zlikni anglash, kommunistik mafkura, «Alpomish», «Go'ro'g'li», tarixiy-ma'naviy qadriyat, millat, yagona milliy til, Turkiston, progress, etnik birlik, milliy qadriyat, etnik qarash, ma'naviy saviya, tarixiy ong.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tarixiy ongga ta'rif bering.
2. Tarixiy bilim deganda nimani tushunasiz?
3. Mifologiya tarixiy ongning unsuri sifatida.
4. Tarixiy ongning unsurlarini ko'rsating.
5. O'zbek xalqi etnosi tarixiga oid ilk mifologik manbalarni ayting.
6. Milliy o'zlikni anglash nima?
7. Milliy o'zlikni anglash nimaga xizmat qiladi?
8. Tarixiy ong va milliy ongning dialektik birligini ko'rsating.
9. Milliy tarixiy ong nima?
10. Mustaqillik davrida tarixiy ongning rivojlanishidagi tub o'zgarishlarni ayting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tarixiy ong va tarixiy xotira. ✓
2. Qadimgi va o'rta asrlarda tarixiy ongning shakllanishi va rivojlanishi.
3. Yangi davrda tarixiy ong.
4. Tarixiy ongning shakllanishida yozma manbalarning o'rni.
5. Milliy o'zlikni anglashda tarixiy ongning o'rni.
6. Yaqin o'tmishda milliy tarixiy ongning turg'unlik holati va sabablari.
7. Mustaqillik sharoitida tarixiy ongning rivojlanishida tub burilish.
8. I. A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarining milliy tarix fani metodologiyasi rivojidadagi o'rni.

3- MAVZU.

TARIX FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1. *Tarix fanining rivojlanish bosqichlari.*
2. *Tarix fani tarmoqlari.*

1. Tarix fanining rivojlanish bosqichlari. Tarix fanining shakllanishi insoniyatning qadimgi davridan boshlanadi. Odamlar o'z o'tmishlarini doimo qayta tiklashga harakat qilganlar.

Qadimgi dunyoning tarixiy tasavvurlari dastlab tarixiy voqealarni rivoyat va afsonalar bilan to'ldirib tasvirlash ko'rinishida bo'ldi. Miloddan avvalgi VII—VI asrlarda yaratilgan Misrning «Ikki og'ayni», «To'g'ri va Egri» kabi ertaklari, «Izida va Osiris haqida», «Gor bilan Set janjali», «Halokatga uchragan kema haqida hikoya», «Sinuxet hikoyasi» kabi rivoyat, afsona, ertak va hikoyalari diqqatga sazovordir.

Milloddan avvalgi IV ming yillikda Mesopotamiya adiblari «Emesh va Etana», «Etananing parvozi», «Dunyoning yaratilishi», «Agushayya haqida doston», «Gilgamesh haqida doston», «Adana haqida doston», «Xo'jayinning qul bilan suhbati» kabi ko'plab doston, afsona va hikoyalar qoldirishgan.

Qadimgi Sharq davlatlarida yaratilgan dostonlar, rivoyatlar, ertaklar, pand-nasihatlarni xalqning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari natijasida Misr, Mesopotamiya adiblari qaysidir bir usulda yozishga harakat qilganlar. Misrda yaratilgan «Halokatga uchragan kema haqida hikoya»da podsho konlariga qilingan mashaqqatli sayohat haqida so'z yuritiladi. Hikoya qilinishicha, «sayyohlar dengizda dahshatli dovulga duch keladilar. Dovul ularni ruh oroliga uloqtirib tashlaydi. Orolde ulkan ilon qiyofasida oliyjanob podsho yashar ekan. Ilonshoh sayyohlarni yaxshi qabul qiladi. Ularga ko'p oltin, kumush, fil tishlari, xushbo'y narsalar, it va maymunlar berib, Misrga kuzatib yuboradi».

Misr adiblari mavhum olamni tahlil qilishda kohinlar, xudolar, hukmdorlar mavqeyini boʻrtirib koʻrsatishga harakat qilganlar. Mesopotamiyada yaratilgan «Gilgamesh» dostoni Mesopotamiya adabiyotining eng nodir asarlaridan biri hisoblanadi. Dostonda dunyo toʻfoni haqidagi afsona ham mavjud. Gilgameshning otasi Ut Naniyetning donishmandlik xudosi Ea maslahati bilan qanday qilib kema yasaganligi, shu kemaga tushib, toʻfon vaqtida omon-eson qolganligi haqida hikoya qilinadi.

Mesopotamiyalik adiblar davlat boshqaruvida hukmdorni oliyanob, vatanparvar boʻlishini orzu qilganlar. Hukmdorni shu ulugʻ sifat xislatlariga xudolar koʻmak beradi, deb ishonganlar.

Miloddan avvalgi VIII asrda Yunonistonda «Gerakl», «Dedal va Ikar», «Argonavtlar», «Iliada va Odissey» kabi afsona, dostonlar va rivoyatlar yaratildi. Yunon adiblari rivoyatlar orqali hukmdorlarning boshqa hududlarga olib borgan urushlari, iloh bilan suhbatlari, xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini yetkazib berishga harakat qilganlar. Misr, Mesopotamiya va Yunonistonda shakllangan rivoyat, afsona va hikoyalarni tarixiy asar deb boʻlmaydi. Adiblar tarixiy asar yozishga harakat qilmaganlar. Haqiqiy tarixiy asar yozish miloddan avvalgi V—IV asrlarda Yunonistonda vujudga keldi. Gerodot (tarix otasi), Fukidid, Polibiy tarixni umumiy yozishga urinishgan.

Miloddan avvalgi 490—424-yilda Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida yashab oʻtgan Gerodot tarixiy asarlar yozib qoldirgan. U «Yunon—Eron urushlari tarixi» va koʻp jildli «Tarix» kitobi muallifidir. Gerodot: Ellinlar va boshqa xalqlarning ulugʻ ishlari nom-nishonsiz qolib ketmasin, deb bu maʼlumotlarni toʻpladi. Gerodotning kichik zamondoshi Fukidid ham «Tarix» asarini yozib qoldirgan.

Miloddan avvalgi 384 — 322-yillarda yashab ijod etgan Arastu-ning «Siyosat», «Metodika» kabi asarlari diqqatga sazovordir. Gerodot, Fukididlar oʻz tarixiy asarlarini yozishda ilk bor maʼlum bir metodikaga, ilmiy metodga asoslanganlar. Ularning asarlarini ilk tarixiy asarlarning bir koʻrinishi deb hisoblash mumkin. Gerodot va Fukidid asarlari maʼlum bir qonun-qoidalarga asoslangan. Shuningdek, ularning maʼlum metodga asoslanishi bu asarlarning

ilmiy metodik qiymatini oshiradi. Kosmologik an'ananing o'z-garmasini izlash tendensiyasiga qarshi o'laroq, tarixchilar Gerodot (mil. av. 484—425) va Fukidid (mil. av. 460—400) kosmologik spekulatsiyalardan ko'ra, ko'proq tajribaga tayanadilar va o'z-garuvchini tadqiqot obyektiga aylantiradilar.

Ular ma'lum vaqt va joyda ro'y bergan voqea-hodisalar haqida hikoya qiladilar. Mifologik voqea-hodisalar vaqtga doir va jug'rofiy bog'lanishlardan mahrum edi. Gerodot va Fukidid nisbatan ochiq ko'zga tashlangan sabablar—psixologik omillar va davlatlar o'rta-sidagi kuchlar nisbati yordamida o'tmishdagi voqea-hodisalarga izoh topishga urindilar. Albatta, Gerodotning dunyoni tushinishida ilohiyot ma'lum o'rin egallar edi. Ammo u tarixiy hodisalarni ko'zdan kechirishda hisobga olish zarur bo'lgan taqdir, bashorat qilib bo'lmaydigan narsa sifatida qatnashdi».

Bu tarixchilarning asarlarida ilmiy fikrlash usuliga o'tish shakllanganligini bildiradi. Aksariyat yunon naturfaylasuflariga qarshi o'laroq, Gerodot bilan Fukidid dunyo taraqqiyotini muhim tad-qiqot obyekti sifatida ko'zdan kechiradilar. Bu bilan ular mavjud o'zgaruvchan reallikni kuzatish va tavsiflashdan iborat bo'lgan ilmiy tadqiqotning empirik idealiga deyarli yaqinlashmaganlar. Bu tarixchilar barcha o'zgarishlar ortida yashirinuvchi doimiy unsurga doir ratsional va ko'pincha tekshirib bo'lmaydigan chayqovlar bilan shug'ullanmadilar.

Qadimgi Rim-Italiya o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Qadimgi Italiyada ko'plab tarixchilar yetishib chiqqan. Ularga: Tit Liviy, Polibiy (umumiy tarixni yozishga uringan), Yuliy Sesar, sitsiliyalik Diodor, Iosif Flaviy, Korneliy Tatsit, Appian, Dion Kassiy, Katon, Varron va boshqalarni kiritish mumkin. Tit Liviy 142 jilddan iborat «Rimning ta'sis qilingandan keyingi tarixi» nomli asar yozgan. Miloddan avvalgi I asrda tarixchi Dionisiy «Qadimgi Rim yodgorliklari» nomli tarixiy asar yozgan. Milodiy 54—120-yillarda Korneliy Tatsit o'zining «Tarix» kitobida 68—69-yillardagi fuqarolar urushi va Flaviylar sulolasi davri tarixini bayon qilgan. Milodiy 155—235-yillarda yashagan Dion Kassiy «Rim tarixi» asarida o'z zamonida bo'lgan tarixiy voqealarni bayon qilgan.

Mashhur Rim imperatori Yuliy Sezar «Galliya urushlari» va «Fuqarolar urushi haqida» kabi tarixiy asarlar muallifidir.

Qadimgi dunyo tarixchilari tarixiy voqea-hodisalarni sayohat qilganlaridan so'ng yoki o'z ko'zlari bilan ko'rgan voqealar orqali bayon qilishga harakat qilganlar. Boshlanishda tarixchi vazifasini yozuvchilar bajarganlar. Ular ilk tarixiy asoslar ta'siri ostida bo'lishgan. Asosan, notiqlik san'ati uslublari bilan aloqada tarixning qoidalari bilan adabiy tasvirlash va tarixiy stil kabi metodlar to'g'risida fikr yuritadilar. Ular tarix metodologiyasi to'g'risida emas, «tarix yozish san'ati»ni tasavvur qiladilar. Uni notiqlik yoki poetik san'at bilan birga tasvirlaydilar. Tarixga bunday qarash vaqt o'tishi bilan o'zgardi. Renessans davriga kelib gumanistlar mumtoz qadimgi davrni ilmiy o'rganishga kirishdilar. Gumanistlarning siyosiy fanlar va madaniyat tarixiga qiziqishlarining o'sishi bilan ahvol o'zgardi. Shunda tarix metodologiyasi notiqlik san'ati va poetikadan farq qilib, ilmiyroq tusga kirdi va mustaqil ahamiyatga ega bo'ldi.

Qadimgi davr yozuvchilari insoniyat o'tmishini fanga begona qandaydir bir maqsad ko'rinishida bayon qildilar. Boshqacha aytganda, o'quvchilarni qandaydir fikrlarining to'g'riligiga ishon-tirdilar. Har holda badiiy-adabiy bayon qilish talablariga bo'ysunishga majbur edilar. Shu bilan birga kimnidir ishon tirish san'ati notiqlik san'ati bilan yaqin bog'liq edi. Estetik talablarni qondirish uchun tarixchilar bayon qilishning sun'iy usullarini qo'llaganlar. Misol uchun, o'quvchilarning diqqatini ushlab turish uchun o'z qah-ramonlarini nutq so'zlashga majbur qilganlar (Fukidid) yoki har xil chekinishga yo'l qo'yganlar. Bu «tarix yozish san'ati»ni nafaqat axloqchining nasihatlati bilan, balki notiqlik san'ati yoki Sharq san'ati bilan qarindosh qildi.

Aslida tarixiy asar va tarixiy hikoya usullari to'g'risidagi mu-shohadalarning qadimgilari aynan notiqlik va shoirlilik san'ati trak-tatlarida saqlanib qoldi. Misol uchun, Sitseron o'z mushohadalarida «tarix yaratish predmetini o'rganishni talab qiladi» deb ko'rsatdi. Rimlik taniqli notiq Lukian tarixchidan siyosiy donolik va voqeani bayon qilish san'atini talab qildi. Uning fikricha, tarixchining hikoyasi tasodifan to'plangan hikoyalar bo'lmasligi kerak. Uning

ipi uzluksiz bo'lishi, uning unsurlari ham o'zaro mahkam aloqada bo'lishi, oqimi esa tabiiy va tez bo'lishi lozim. Shu bilan birga Lukian tarixchiga tarixiy shaxslarni maqtash va qoralashga, o'z qahramonlariga qisqa va mo'tadil ifodalarda nutq so'zlashga va shu tarzda o'z notiqlik san'ati kuchini ko'rsatishga, o'rni kelganda (misol uchun, jangni tasvirlashda) poetik san'atga murojaat qilishga ruxsat beradi.

Bunday yo'nalish keyin ham, uyg'onish davrida ham davom etadi. Bu davr ijodkorlari klassik qadimgi davr yozuvchilari ta'siri ostida bo'lib, o'z ustozlari talablarini yanada oshirib, ba'zida tarixchini notiq yoki shoir san'atidan ham kam ajratdilar. Bunday o'xshatish tarixiy hikoya yoki qurilma qoidasini bayon qilishda uzoq saqlanib qoldi. Tarixchilar san'at deganda tarixni yozish san'atini tushundilar. Misol uchun, XV asrda Fanton tarixchilarni notiqqlar deb tanlab, keyingi yuz yillikda tarixiy bilimga poetik tus beradi. «De Seribinda historia» nomli asarida tarix fanining fazilatları, hikoyasi deb e'tirof etadi. Ko'pchilik tarixchi san'ati bilan notiq san'ati o'rtasida tabiiy aloqa borligini aytdilar.

Mumtoz qadimiyat yozuvchilari bizga tarix tasvirining ko'p namunalarini qoldirdilar, lekin uning tuzilishi, metodlari to'g'risidagi fikrlar juda tarqoq edi. Shu sababli ularni notiqlik san'atiga tegishli bo'lgan asarlardan ko'proq qidirishga to'g'ri keladi. Shunga qaramasdan bunga o'xshash asarlarni tuzuvchilar, misol uchun, Sitseron va Lukian kabi olimlar tarixchidan haqiqiylik va xolisliyni talab qiladilar. Buyuk voqealarni o'rganishda tarixchi kishilarning niyatlarini baholashlari lozim. Ularning faoliyatlari yuz bergan vaziyatlarni aniqlashlari kerak. Voqealarning sabablarini tushuntirishlari va ularning odamlar donoligi va dovyurakligiga bog'liqligi va tasodiflariga qaramligini tushunishlari, buyuk odamlarning belgilashlari, inson hayotini yengil va badiiy shaklda tasvirlashlari lozim. Lekin ular poeziya va tarixning maqsadlari ham har xilligini ta'kidlagan edilar.

Uyg'onish davrida antik madaniyatga qiziqish kuchayib, tarixiy metodning rivojlanishida yangi davr boshlandi. Manbashunoslik metodologiyasining rivojlanishi, ayniqsa, tarixiy tanqid ta'siri ostida, fanga o'xshash tarixni badiiy adabiyotdan ajralishi boshlandi.

Tarixning siyosiy-huquqiy fanlar bilan aloqasiga e'tibor qaratila boshlandi.

O'rta asr davri tarixiy tafakkurida jamiyat taraqqiyoti ilohiylik nuqtayi nazaridan talqin qilindi. Barcha tarixiy asarlarda diniy dunyoqarash yetakchi o'rin tutdi. Xalq ommasi tarbiyalangan o'rta asr dunyoqarashining xususiyatlaridan biri diniy asketizm edi. Asketizm ta'limotiga ko'ra, yer yuzidagi hayot insonning o'zi va uning gavdasi gunoh va yovuzlikning mujassamlangani, dinga ishonuvchi insonning burchi—narigi dunyodagi, ya'ni oxiratdagi eng a'lo hayotga o'tish tayyorgarligini ko'rish uchun yerdagi azob-uqubatlardan o'z jonini asta-sekin xalos etishdan, insoniy «havaslar» bilan to'xtovsiz kurashdan iborat edi. «O'rta asrlar davrida asketizm diniy hukmronlikning eng yaqqol ifodasi edi. Insonning tabiat kuchlari ustidan hokimligi hali uncha takomillashmagan edi. Ijtimoiy munosabatlar esa keskin ziddiyat va krepostnoylik asosiga qurilgan bo'lib, xalq ommasi doimo azob-uqubat chekar, «lom-mim» deb ovoz chiqarmas, qo'rquv va vahimada kun kechirar va oxiratdagi jannat—arshi a'lo haqida xayol surar edi». Ilohiy Avgust (354—430-yillar) o'zining providensial konsepsiyasida tarixiy jarayonning borishini xudo irodasiga bog'liqligi to'g'risida fikrlarni aytib o'tgan.

O'rta asrlarda o'lkamizda tarix fani yuksak darajada rivojlandi. Bu davrda yashab o'tgan quyidagi tarixchilarni sanab o'tish lozim: Buxorolik tarixchi olim Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari (880—950), Al-Xorazmiy (783—850), Abu Rayhon Beruniy (973—1048). Ularning mashhur tarixiy asarlari: «Tarixi Xorazm», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Xorazmning ajoyib kishilari» va h. k. Temuriylar davri tarixchilari Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Hofizi Abro'ning «Zubdat at-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Fosih Havofiyning «Mujmali Fasihiy», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'dayn va majmuai bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqishi o'rni va ikki azim daryoning quyilish joyi»), G'iyosiddin Alining «Amir Temurning Hindistonga qilgan g'azo urushi», Mirxondning yetti jildli «Ravzat us-safo» («Poklik bog'i») asari, Xondamirning «Makorimul axloq», «Habib as-siyar» asari, Mirzo

Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» asari va boshqa tarixchilarni ko'rsatish mumkin. XVI—XVII asrlardan o'lkamizda qator tarixiy asarlar yaratildi. Ulardan Abulg'azi Bahodirxonning (1644—1663) «Shajarayi turk va mo'g'ul», «Shajarayi tarokima» asari, Hofizi Tanish Buxoriyning (XVII asr) «Abdullanoma» asarlari. Bu davrlarda Iroq, Suriya, Misr, Eron, Hindiston, Xitoyda tarix sohasida ko'plab asarlar yaratildi.

Yevropada uyg'onish davri (o'rta asrlarning yangi davrga o'tish davri)da diniy mafkuraga antik madaniy meros qarama-qarshi qo'yildi. O'tmish yodgorliklariga qiziqish kuchaydi. Natijada o'tmish tarixini yoritish to'g'risida ilk tadqiqot metodlari paydo bo'ldi.

«XII—XIII asrlarda cherkov jamiyatda mafkuraviy rahbarlikni rasman o'z qo'lida tutib turgan va hatto uni ayrim shakllarda kuchaytirgan edi. Ammo ayni vaqtda, bu davrda Yevropadagi cherkovdan tashqari va hatto qisman unga qarshi madaniyat ham rivojlandi. Shahar adabiyoti o'zining antifeodal va realistik an'analari bilan tarkib topdi. Dunyoni ilohiy tushuntirishga qarshi keskin chiqishlar jamiyatda diniy mafkuraning zo'ravonligidan ozod qilish yo'lida boshlangan jarayon edi. XIV—XVI asrlarda Yevropada uyg'onish davrining yangi madaniyati — insonparvarlik (gumanizm) oliy darajaga erishdi. Bu madaniyat ochiq ifodalangan dunyoviy madaniyat edi.

Insonparvarlarning ko'pchiligi cherkovning diniy masalalariga butunlay beparvolik bilan qaradilar. Insonparvarlarning maydonga kelishi keyingi o'rta asrlarda Yevropa jamiyatidagi eng progressiv peshqadam tabaqalarga cherkovning ta'siri yo'qolganligi to'g'risida darak berar edi».

XIV—XV asrlarda Florensiyadagi gumanizm arboblariidan biri Leonardo Brukini (1369—1444) edi. U o'zining 12 kitobdan iborat «Florensiya tarixi» nomli asarini yozib, unda XIV asrda bu shaharda yuz bergan ijtimoiy harakatlarga katta e'tibor beradi. Yirik tanqidchi, faylasuf, tarixchi va filolog Epikurning muxlisi Lorenzo Valla (1407—1453) Florensiya gumanistlari bilan yaqin aloqada edi.

Lorenzo Valla papa kuriyasining bir qancha hujjatlari (shu jumladan, mashhur Konstantin sovg'asi) soxta ekanligini isbot qildi. Bu vakillar papa kuriyasiga qattiq nafrat bilan qarardi. Hatto

butun davlatni sekulyarizatsiya qilish loyihasini ham ishlab chiqqan edi. Valla Tavrot matnini ilmiy jihatdan tanqid qilishni ham boshlab berdi. XIV—XV asrlardagi boshqa tarixchi Flavio Biondo «Rim imperiyasining qulashidan boshlanadigan tarix» (410-yildan 1410-yilgacha bo'lgan davr) nomli umumlashtiruvchi katta asar yozdi. Bu asarning qimmatini shundaki, Biondo asl ma'nodagi o'rta asr davrini eng keyingi davrdan ochiq-oydin qilib, eng keyingi o'rta asrni yangi tarixning alohida davri deb qaradi. Makiavelli «Hukmdor» asarida jamiyat taraqqiyoti jarayonida odamlarning kurashi sabablaridan biri mulkiy, ya'ni iqtisodiy sabab deb tushuntirdi. Makiavelli «Florensiya tarixi» (1520—1526) tarixiy asarida o'z ikkilanishlari sababini ko'rsatadi. U o'z idealini respublika tuzilishida ko'rdi. O'z ona shahrining tarixi misolida Florensiya respublikasi na o'zining ichki birligini ta'minlamadi, na Italiyani birlashtira olmadi degan xulosa chiqaradi.

Yevropada insonparvarlikning keng mafkuraviy oqimi doirasida XV asrdan boshlab insonparvar tarixshunoslik rivojlandi. Insonparvar tarixchilar tarixda ilohiylikning o'rnini qisqartirdilar, unga dunyoviy tus berdilar. «Tarix — kishilar faoliyatining natijasi» deb tushuntirilib, voqealarga ratsional jihat berildi. Insonparvar tarixshunoslik o'rta asrlarda tarixni «to'rt monarxiya bo'yicha (Ossur-Bobil, Midiya-Fors, Yunon-Makedon, Rim) davrlashtirish o'miga uch davr «Qadimgi», «O'rta asrlar» va «Yangi davr tarixi»ga bo'ldilar. Insonparvar tarixshunoslik tarixga ilmiy bilimni olib kirdi. Bu tarix metodologiyasining boshlanishi edi. Ular tarixni alohida shaxslar faoliyatining natijasi deb qaradilar. Siyosiy voqealar faqat bayon qilindi. Insonparvar tarixshunoslikning vatani Italiya edi. Italiyada ilk burjuaziya ishlab chiqarish munosabatlari shakllanganligi sababli insonparvar tarixshunoslikning asosiy yo'nalishlari ham shu yerda shakllandi. Jan Bodenning fikricha, tarixda geografik omil ta'sirini yengib bo'lmaydi. Aqlli qonunlar va unga asoslangan davlat geografik muhitining noqulay shart-sharoitlarini yumshatish mumkin. Bodenning tarixda «progress» tushunchasi Makiavellining sikl, Gvichhardining tarixiy pessimizmiga qarshi turadi. Ulardan farq qilgan holda, Boden hozirgi davrni faqat yovvoyilik va varvarlik emas, balki fanlarning rivojlanishi, odamlarning geografik dunyo-

qarashi, san'atning takomillashuvi jihatidan antik davrdan ustunligini ta'kidladi. F. Bekonning «Genrix VII tarixi» asari 1621-yilda yozilgan. F. Bekon Angliya qiroli Yakov I Styuartning uzoq yillar vaziri bo'lgan edi. Uning asarida absolyut monarxiya bo'lgan Tyudorlar sulolasi ulug'lanadi.

Falsafa fani ta'siri ostida mualliflar o'z fanlari to'g'risidagi tushunchani kengaytirdilar va chuqurlashtirdilar. Uning maqsad va metodlari qurilishini tegishli ravishda qo'yishni o'zgartirdilar. Nihoyat keyinroq olimlar bilish nazariyasidagi yagiliklarni e'tiborga olib, tarixiy bilimning asosiy maqsadini yanada aniqroq tushunishga yaqinlasha boshladilar. Shundan so'ng ular tarix metodologiyasini ishlab chiqishga kirishdilar.

Tarixiy bilim yangi davr boshlanishida shakllanayotgan burjuaziya tomonidan jamiyatda hukmron bo'lish uchun ishlatila boshlandi. Ingliz monarxiyasi va dvoryan aslzodalar ham tarixiy o'tmishdan o'z foydalari uchun asos qidira boshladilar. Jamiyatda tarixga qiziqish kuchli bo'lsa-da, tarix hali ilmiy bilim sifatida shakllanmagan edi. XVII asrdan boshlab jamiyatda qadimgi klassik tarixga qiziqish boshlandi. Klassik tarix hali adabiyotdan ajralmagan holda antik mualliflar asarlariga sharhlar berdi.

XVII asrning birinchi choragida universitet markazlari Angliyada Oksford va Kembrij, Shotlandiyada Aberdin, Glazgo, Edinburg, Irlandiyada Dublin edi. Bu universitetlarda tarixiy bilim olish klassik tillar, falsafa va adabiyotni o'rganish orqali egallanar edi. Universitet o'qituvchilari tarkibini ruhoniylar tashkil qilar edi. Ingliz burjua inqilobi arafasida qirolning buyrug'i bilan Oksford va Kembrijda fuqarolik tarixi professorlik kafedralari tashkil qilingan edi. XVII asrda tarixiy bilim ikki yo'nalishga ega edi. Birinchi yo'nalishga «tarix»—tarixiy hikoya didaktik mazmunga ega bo'lgan siyosiy normativ edi. Bunday to'plamlarning mualliflari og'zaki an'ana, xronika, zamondoshlarining esdaliklari va guvohliklarini manba qilib oldilar. Bunday to'plamlar har xil uydirma va fantaziyalarga to'la edi.

XVII asrda bir necha marta chop qilingan R. Xolinshedning «Angliya tarixi» nomli tarixiy to'plami mashhur bo'ldi. Tarixiy siyosiy to'plamlarda buyuk shaxslarning hayoti, tarixiy voqealar

yetakchi o'rin egalladi. XVII asr o'rtalaridan boshlab bu yo'nalishdagi tarixiy bilimda o'rta asr Angliyasining davlat va ijtimoiy muassasalarning tarixi o'rganila boshlandi. Antikvar bilan shug'ullanishning asoslarini XVII asrda J. Leland, U. Kemden, J. Stoular yaratdilar. XVII asr oxirida Londonda ingliz qadimshunoslari Yelizaveta antikvarlar jamiyatini tashkil qildilar. Bu jamiyat qadimiy ashyolar yig'ish va chop etish bilan shug'ullandi.

Angliyada Independentlar—Respublika tarafdorlarining ko'zga ko'ringan arboblardan biri Jon Milton «Ikonoiores», «Ingliz xalqining himoyasiga» nomli publitsistik asarlarida parlament siyosatini qo'llab-quvvatladi. Restavratsiya davrining mashhur tarixchisi Gilbert Borne «Angliya cherkovi islohi tarixi», «Mening davrim tarixi»; Jon Lokk «Diniy sabr to'g'risida», «Hukumat to'g'risida ikki traktat» asarlarini yozdi. Jon Lokk jamiyatning paydo bo'lishini tahlil qilib, birinchi o'ringa mulk masalasini qo'ydi.

U o'zining «Traktat»larida xalq suvereniteti va xalqning tiraniyaga qarshi kurashi huquqini asosladi. Lokk Styuartlar mutlaq hukmronligini qoraladi. U XVII asr o'rtalaridagi inqilobning haddan tashqari holatlarini qoraladi. Xullas, yangi davr ba'zi G'arbiy Yevropa tarixchi va faylasuflari tomonidan xudo jamiyat tarixi ijodkori g'oyasi inkor qilindi.

XIX asrning birinchi yarmida tarixiy tafakkur va tarix fani ma'rifatparvarlik asridan ko'ra yangi shart-sharoitlarda rivojlandi. Buyuk fransuz inqilobi Fransiyadagi eski feodal tartiblarni yo'qotdi. U boshqa Yevropa mamlakatlaridagi feodalizmga bevosita kuchli zarba berdi. Bu davrda Angliyada boshlangan sanoat inqilobi yangi tuzum uchun texnik baza yaratdi. Angliya, Fransiya va AQSHda burjuazianing hali to'la siyosiy hukmronligi o'rnatilmagan edi. Shu sababli ko'pgina mamlakatlarda eski tuzumga qarshi turli xil liberal harakatlar mavjud edi.

XIX asr boshlarida Yevropa madaniyatida asta-sekin yangi, mazmunan ziddiyatli va keng g'oyaviy badiiy oqim—romantizm shakllandi. Romantizm badiiy ijodiyotning barcha sohalariga kirib bordi. Ijtimoiy fikr jamiyat to'g'risidagi fanlarga kuchli ta'sir qildi. Ana shu madaniyat oqimida XIX asr o'rtalarigacha yetakchi o'rin tutgan tarixshunoslikdagi romantik yo'nalish shakllandi.

Tarixshunoslikda romantik oqim bilan birga uning klassik shaklda ma'rifatparvarlikning ba'zi an'analarini rivojlantirgan oqim va maktablar mavjud edi. Lekin ular romantizm bergan yangilikni qabul qila olmas edi.

«Romantik tarixshunoslikning bosh pozitiv xususiyati tarixiylik bo'lib, tarixiy jarayon taraqqiyotini alohida kishilarning ongli irodasiga bog'liq bo'lmagan qarash edi».

XIX asr ilmiy tafakkurining ajratib turadigan belgisi sifatida tarixiylik ijtimoiy hodisalarni genetik tahlil qilish, ularning taraqqiyotini boshlanishidan eng yuqori bosqichgacha va tushkunlikkacha aniq o'rganishni talab qildi.

Romantik tarixshunoslikning o'ziga xos belgisi tarixiylikdan kelib chiqadi. Tarixiy jarayonning organik taraqqiyoti butun insoniyatning yalpi taraqqiyotda emas, balki alohida xalqlar va mamlakatlarning aniq tarixida ko'rinadi. Ma'rifatparvarlar turli xalqlar tarixida, eng avvalo, umumiylik, universallikni izlagan bo'lsalar, romantik tarixshunoslik har bir milliy tarixning alohida o'ziga xos belgilarini aniqlashga harakat qildi. Bu alohidalikni romantik tarixshunoslik har bir millatga xos bo'lgan «xalq ruhi» bilan bog'ladi. Ana shunga mos ravishda milliy madaniyat va milliy davlatning taraqqiyoti kelib chiqdi. «Xalq ruhi» g'oyasini ma'rifatparvarlar (Monteske, Volter) ratsional metodologiya doirasida ilgari surgan edilar.

Romantik tarixshunoslar tarixga mavhum ratsional yondashishni yengib o'tishga urinib, har bir tarixiy davrning o'ziga xos belgilarini uning milliy va geografik belgilanganligi bilan aks ettirishga katta ahamiyat beradilar. Ular o'tmishda yashagan odamlarning ma'naviy tuzilishlarini takrorlanmas alohidalikda qayta tiklashga harakat qilar edilar. Shu sababli XIX asrning birinchi yarmida ayrim tarixchilar o'rganiladigan davrga kirib ketish, «his qilish», «ular bilan birgalikda kechinmalarni his qilish» tamoyillarini qo'lladilar. Romantik adabiyot uchun bayon qilish metodining go'zalligi va hayotiyligini stillashtirish xos edi.

XIX asrning birinchi yarmida tarixiylik metodining ijtimoiy fikrdagi tantanasi tarix fanining ta'siri va ijtimoiy rolining o'sishiga olib keldi. U «asr fani»ga aylandi. Shu davrda tarixchining mehnatida

asta-sekin ixtisoslashish jarayoni boshlandi. Tarixshunoslik umumiy bilishning alohida sohasi bo'lib, «nafis til»dan ajralib chiqdi. Bu davrda Yevropa va AQSHda tarixshunoslik jamiyatlari, muzeylar, jurnallar tashkil etildi. Arxiv hujjatlarini saqlash takomillashtirildi. Qator mamlakatlarda fundamental ko'p jildli tarixiy manbalar chop etila boshlandi. Jumladan, Germaniyada 1826-yildan hozirgacha chop etilayotgan «Germaniya tarixiy yodgorliklari», Fransiya 1835- yildan Fransiya tarixi bo'yicha chop etiladigan hujjatlar (400 jilddan ko'proq chop etilgan), Italiya (Turin)da 1836-yildan «Vatan tarixi yodgorliklari», AQSHda 1832—1861 yillarda 38 jildli «Amerika davlat hujjatlari» chop etildi.

Tarixiy hujjatlarga bo'lgan bunday jiddiy e'tibor ular ustida ishlash usullarini takomillashtirish ehtiyojini tug'dirdi. Shu sababli XIX asrda nemis tarixchisi L. Ranke tarixiy manbalarning ilmiy tanqidi uchun zarur bo'lgan, bir qator muhim qoidalarni o'zida aks ettirgan tarixiy-tahliliy usulni ishlab chiqdi. Bu davrda jamiyatning bilimli kishilari o'rtasida tarixga qiziqish kuchayib ketdi. Tarixchilarning asarlari matbuotda keng muhokama qilina boshlandi. Mashhur tarixchilar: F. Gizo, F. Glosser, T. Granovskiylarning qiziqarli ma'ruzalari katta auditoriyalarni egalladi. Adabiyotda yangi janr—tarixiy roman paydo bo'ldi (A. Dyuma, F. Kuper, M. Rid va boshqalar).

XIX asrning birinchi o'n yilliklarida romantizm bilan birga ba'zi yozuvchi va tarixchilar tarixga konservativ yondashdilar. Misol uchun, E. Byork Angliyada, L. Tik, Flegel Germaniyada, L. de. Bonald Fransiya fransuz inqilobi va ma'rifatparvarlikning merosiga tanqidiy hujum uyushtirdilar. Ular ma'rifatparvarlarning inson aqlining cheksiz imkoniyatlari, ratsional ilmiy bilish kabi fikrlariga tarixga providensial-mistik qarash, ilohiylikning yetakchilik fikri hamda aql ustidan intiutsiya va his-tuyg'uning ustunligini qarama-qarshi qo'ydilar.

O'rta asrlarda ma'rifatparvarlarning keskin salbiy baholariga qarshi konservativ romantiklar «ritsarlar va avliyolar davri» o'rta asrlarni ideallashtirdilar. Bu davr jamiyatning tartibga solingan davri, oliyanob ritsarlik va patriarxal urf-odatlar oliy ma'naviy qadriyatlar manbayi sifatida yagona xristianlik davriga qarama-qarshi

qo'yildi. Shuningdek, inson, shaxs va inson huquqlari konsepsiyasi, jamoa shartnomasi va xalq suvereniteti g'oyalari keskin tanqid qilindi. Romantizmning klassik mamlakati Germaniya edi.

German tarixshunosligida an'anaviylik g'oyasi «huquqning tarixiy maktabi»da to'la o'z aksini topdi. K. F. Savini, K. F. Eyngorn va u bilan L. Ranke maktabining tarixiy konsepsiyasi shakllandi. Angliyada konservativ romantik g'oyalarning darakchisi taniqli publitsist E. Biork chiqdi. U 1790-yil «Fransuz inqilobi to'g'risida fikrlar» pamfletini e'lon qildi. Bu asar XIX asr konservativ ijtimoiy fikriga katta ta'sir o'tkazdi. Keyinchalik romantizmning bu yo'nalishiga o'sha davr tarixshunosligi vakillari g'oyaviy jihatdan yaqinlashdilar.

XIX asrning 20-yillarida liberal tarixshunoslik yuksak rivojlandi. Ular nazariy jihatdan ma'rifatparvarlarning g'oyalarini romantizmning eng hayotbaxsh g'oyalari bilan sintez qilishga harakat qildilar va jamiyatning taraqqiyotida progress maqsadida islohotlarning zarurligini tan oldilar. Ular o'rta asrlar tarixini qunt bilan o'rgandilar. O'rta asrlar liberal tarixchilari uchun zamonaviy Yevropa millatlari va davlatlarining shakllanish davri— «uchinchi toifa»ning tug'ilishi va uning feodalizmga qarshi kurashi davri edi. Fransiya liberal tarixshunosligi ma'lum yutuqlarga erishdi. XIX asrning 30-yillarida restavratsiya davri tarixchilarining tarixiy maktabi shakllandi (O. Terri, F. Gigo, F. Mine, A. Ter).

XVIII asr boshlarida Fransiyada shakllantirilgan graf Bulevilening dvoryan tarixiy konsepsiyasini Graf F. D. Monlozye (1755—1838) o'zining «Fransuz monarxiyasiga asos solinganidan bizning kunlargaacha» nomli tarixiy siyosiy traktatida davom ettirdi. XIX asrning 30—40-yillarida yuzaga kelgan yangi ijtimoiy- siyosiy sharoitda restavratsiya davriga xos bo'lgan dvoryanlar va liberal burjuaziya boshliq uchinchi toifa vorislari o'rtasida qarama-qarshilik o'z ahamiyatini yo'qotdi. Bu davrda sobiq uchinchi toifa ichida ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklar va g'oyaviy kurash birinchi o'ringa chiqdi. Mayda va o'rta burjuaziya, ziyolilar, hunarmandlar va ishchilarga suyanagan holda respublikachilik-demokratik harakat keng tarqaldi.

G'oyaviy hayotda sotsialistik va kommunistik g'oyalar paydo bo'ldi. XIX asrning 30—40-yillarida Fransiya liberal tarixiy maktabiga yaqin bo'lgan tarixchilarning dunyoqarashlari va siyosiy nuqtayi nazarining mazmuni o'zgardi. Ular Iyul monarxiyasini so'zsiz qo'llab-quvvatladilar va rasmiy tarixchilarga aylandilar. Ulardan ba'zilar Gizo, Tyer Iyul monarxiyasi o'rnatilishi bilan tarixda sinflar kurashi tugaydi, deb o'yladilar.

XIX asrning 40—50-yillarida Oksford universitetida «yurisprudensiya va yangi tarix maktabi» shakllana boshladi. Uning yaratilishi tarixchi olim T. Arnoldning islohotchilik faoliyati bilan bog'liq edi. Bu maktabda siyosiy fikr tarixi, davlat va jamoat muassasalari tarixi fanlari o'qitilgan. Tarixiy bilimlarni takomillashtirishning zaruriy sharti bo'lgan manbalarning bu davrda ko'plab to'planishi kuzatildi. Bu davrda Angliyada tarixiy manbalarni to'plashda alohida kolleksionerlar, antikvar va arxeologik jamiyat a'zolari, kutubxona va muzeylar muhim o'rin tutadi. XIX asr o'rtalarida ularning soni 25 dan ortiq edi. Ularning ba'zilar nemis tarixchilari K. Nibur va L. Ranke ishlab chiqqan manbalar tahlilining ilg'or metodikasi ta'sirini o'zlarida his qildilar.

Manbalarga nisbatan qiziqishning kuchayishi arxivlar to'g'risida g'amxo'rlik qilishni talab qildi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida tarixchilar nemis falsafasining tushunchalari va K. Nibur, L. Ranke ning manbalar ustida ishlash metodikasini qabul qildilar. Manbalarga tanqidiy yondashuv asosida o'tmish tarixiy manzarasini qayta tiklashga harakat qildilar.

Tarixiy progress tushunchasi jamiyatning ma'naviy-axloqiy normalarini takomillashtirish va jamiyat ma'naviyatining o'sishi bilan qiyoslandi. 1838- yilda T. Karfaylning «Fransuz inqilobi» nomli tarixiy asari chop etildi. 1841-yilda T. Karlayl «Qahramonlar, tarixda qahramonlarni sharaflash va qahramonlik» mavzusida ma'ruza o'qidi. Bu ma'ruza 1844 -yilda alohida kitob bo'lib chiqdi. «Tarix—bu buyuk kishilarning tarjimayi holidir. Buyuk kishilargina tarixni yaratadilar. Butun davrlar ular ijodiyotining mahsulidir. Tarixiy jarayonning buyuk ijodkorlari rolini «Haqiqiy zodagonlar» o'ynaydi. Xalq ommasi buyuk kishi qo'lida tilsiz quroldir. Qahramon

jamiyatni inqilobdan qutqaruvchi bo'lishi kerak. Inson, hozircha, inson bo'lib qolarkan, kromvellar va napoleonlar hamma vaqtda bo'laveradi», deb ta'kidlaydi T. Karlayl.

Germaniyada XIX asr boshlaridan tarix fani rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. 1803-yilda Geydelberg universitetida tarix bo'limi ochildi. 1819-yil Frankfurt shahrida qadimgi german tarixi manbalarini o'rganish jamiyati tuzildi. Bu jamiyat o'z jurnalida nemis arxivlaridagi manbalar to'g'risida ma'lumotlar chop qila boshladi. «Germaniyaning tarixiy yodgorliklari» nomli mashhur seriya chop etila boshlandi va hozirgacha bu seriya davom etmoqda. XIX asrning 40-yillarida Germaniyada 44 ta tarix jamiyati bor edi. Birinchi umumgerman tarixchi va filologlarining yig'ilishi 1846-yilda tashkil etildi.

Yirik nemis tarixchisi, faylasufi Leopold Ranke (1795 — 1886) tarix fani metodologiyasiga o'z hissasini qo'shdi. U ilmiy faoliyati davomida O'rtayer dengizi mamlakatlari tarixi, Rim papalari tarixi, reformatsiya davri nemis tarixi, urushlar va xalqaro munosabatlar tarixi bo'yicha ko'p jildli asarlar yozdi. L. Ranke 85 yoshida «Umumiy tarix»ni yozishni boshlab, uni XV asrgacha davom ettirib, to'qqiz jildini tayyorlashga ulgurdi. Olim o'z tarixiy qarashlarida ratsionalizمنى inkor qilib, tarixni diniy konservativ sharhlash tarafdori edi. Uning fikricha, tarixiy jarayon ilohiy boshorat bilan aniqlanadi.

L. Ranke tarixchi voqealarni bayon qilishda xalqaro maydondagi kuchlar nisbatiga e'tibor berishi, muhim voqealarni mezon qilib olishi zarur deb hisobladi. Rankening tarixshunoslik taraqqiyotidagi asosiy xizmati tarixiy manbalarning tanqidiy metodikasini shakllantirishi bo'ldi. U tarixni bilishni, obyektiv tarixiy haqiqat mavjudligini va uning empirik bilish vositalari bilan o'rganish mumkin ekanligini tan oldi. Ranke ilk manbalarni qiyosiy tahlil qilish orqali tarixiy tadqiqotni asoslashni talab qildi.

XIX—XX asrlar oralig'ida tarixiy maktablarning parchalanishi yuz berdi. Ferdinand Shlosser asarlarida lingvistika yangicha tizim va sinxron tushunish asosida yaratildi.

XIX asrning oxirida Karl Marks (1815—1885) tarix faniga yangi yondashuv, ya'ni insoniyat taraqqiyoti tarixini formatsiyalarga

bo'lib o'rganishni olib kirdi. K. Marks tarixiy taraqqiyot jarayonini iqtisodga, pulga bog'ladi. Tarixni tahlil qilishda sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashdi.

Birinchi jahon urushi oqibatlarini tarix fanidagi ko'pgina qoidalarini yemirdi. Mavjud sivilizatsiya va madaniyatning mo'rtligini ko'rsatdi. Tarixiy progressning olg'a harakatiga shubha uyg'otdi. Unga ishonch, kelajakka e'tiqod susaydi. Umidsizlik kayfiyati kuchaydi. Buning ustiga siyosiy-iqtisodiy tushkunliklar, inqiloblar, dunyoda birinchi sotsialistik davlatning paydo bo'lishi tarix faniga o'z ta'sirini o'tkazdi. XX asrning 20—30-yillari oraliqida davrning dolzarb savollariga javob berishga urinib, butun tarixiy jarayonning yalpi nazariyalarini yaratishga yoki o'tmish bilan tarixiy qiyoslashlar, tarixiy tadqiqotning yangi soha va muammolarini tadqiqot sohasiga kiritishga urindi. Tarixiy jarayonning alohida tomonlari axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy qarashlar hamda tarixning mazmuni savoliga qiziqish kuchaydi. Tarixning yaxlitligi, qadriyat sifatidagi salmog'i shubha ostiga olindi. Osvald Shpenglerning (1880—1936) «Yevropa quyoshining so'nishi» (2 jild, 1918—1922) asari tarix mohiyatiga qarashni o'zgartirdi. Shpengler konsepsiyasida madaniy-tarixiy sikl bilan lokal madaniyatlarning yopiqqligi tamoyili g'oyasi yotadi. Muallif tarix, arxeologiya, etnografiya, filologiya, san'at-shunoslik va boshqa fanlarning tahliliga tayanib, an'anaviy tarixning chegaralarini kengaytirdi va yevrosentrizmning asossizligini ko'rsatdi.

Shpengler konsepsiyasiga tashqi ko'rinishdan o'xshash tarixiy taraqqiyot nazariyasini Arnold Toynbi (1889—1975) o'zining «Tarixni tushunish» (1934—1939) nomli 12 jildli asarida yaratdi. U jahon tarixiy taraqqiyotini mustaqil mavjud bo'lgan yopiq rivojlanadigan lokal sivilizatsiyalar orqali g'aydalantirdi va jahon tarixi yaxlitligi g'oyasini ilgari surdi.

Ikki urush oraliqida jahon tarixida ma'lum bir ziddiyatlar paydo bo'ldi. Pozitivizmdan ko'ngli qolgan tarixchilar o'tmishni bilish mumkin emasligini e'lon qildilar. Amerika tarixshunosligining taniqli vakillari Charlz Bird (1874—1948) va Karl Bekker (1873—1945) tarixiy bilim har qanday ilmiylikdan xoli, deb ta'kidladilar. Ular «Tarixni yozish—e'tiqod ishi» (Ch. Bird), «Har bir kishi

o'ziga tarixchi» (K. Bekker) deb uqtirdilar. Ularning fikricha, tarixchi o'tmish dalillarini o'z g'oyalaridan va o'z davrlari qarashlaridan kelib chiqqan holda yaratadi va subyektiv ijod qiladi. Ingliz tarixchisi Rejenald Kollingvud (1889—1943) bunga o'xshash g'oyani targ'ib qildi. Uning uchun «butun tarix— tafakkur tarixi» edi. «Etik-siyosiy maktab» rahbari Benedikt Kroche (1866—1952) «Har qanday tarix zamonaviy tarixdir» deb takrorlar edi (Italiya).

Qator tarixchilar tarixni aynan fan sifatida qayta tiklash va yangilash zarurligini tushunib, eskirgan pozitivizmga qarshi chiqdilar. Ulardan Mark Blok (1886—1944) va Lyusen Fevr (1878—1956) 20-yillar oxirida «Iqtisodiy va ijtimoiy tarix» jurnalini tashkil qildilar. Bu jurnal umumlashtiradigan tarixiy tahlilni qurishga yo'naltirilgan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qiyosiy tahliliga, tarixiy hayotning psixologik tomonlariga, tarix va geografiyaning sinteziga e'tibor jalb qilindi. An'anaviy hikoya qilish tarixi o'rni muammo-tarix qo'yildi. Bunday yondashuvda tarixchi manbalarga qul bo'lmay, matnlarga qaram bo'lmasdan, ilmiy muammoning faol yaratuvchisiga aylanar edi.

30-yillar oxirida Vena to'garagi asosida neopozitivizm o'zining asosiy tushunchalarini shakllantirdi. Fransuz, ingliz va AQSH tarixshunosligi jadal rivojlandi. Bu davrning umumiy an'anasi miqdoriy tarix va u bilan bog'langan iqtisodiy tarixning shakllanishi edi. Miqdoriy tarix narxlar harakatini XIV asrdan XIX asrgacha qamrab olgan uzoq davrni uzun statistik qatorlar ko'rinishidagi ilmiy tarixning yaratilishi bilan o'z taraqqiyoti uchun turtki oldi. Iqtisodiy tarix bo'yicha bu davrning mumtoz asari fransuz olimi Fransua Semian (1873—1935) yaratgan «Uzoq muddatli iqtisodiy tebranishlar va jahon tushkunligi» asari edi. Iqtisodiy tarixning shakllanishi jarayonida bu davrda ijtimoiy tarix fani ham shakllana boshladi.

Yangi tarixiy maktablardan biri «Intellektual tarix» maktabi paydo bo'ldi. Bu davrda markscha tarixning boshqa yo'nalishlar bilan kuchli qarama-qarshiligi ko'rinadi. Ikki urush oralig'i davri XIX asr tarixshunosligidan zamonaviy tarix faniga o'tishning ziddiyatli bir davri edi.

XX asrning ikkinchi yarmida tarixshunoslikda nazariy asoslar, metodlar va metodikaning jiddiy yangilanishi yuz berdi. Bu belgilar «yangi tarix fani» deb nom olgan yo'nalishda o'z aksini topdi. Asr oxirida jahon tarixi fanida tafakkur va amaliyotda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Tarixchilar tarixni an'anaviy tushunishdan voz kechib, boshqacha yoza boshladilar. Endi ularning diqqat markazida mashhur tarixiy personajlar, tuzilmalar, jamiyat taraqqiyoti jarayonlari emas, alohida kishilarning ekzistensial kechinmalari chiqdi. Endi ular shakllanayotgan yangi sotsiomadaniy tarixning bosh obyekti bo'lmoqdalar.

2. Tarix fani tarmoqlari. Tarixiy bilim o'z taraqqiyoti davomida uzoq yo'lni bosib o'tdi. Dastlab tarixiy bilimning unsurlari mifologiyada o'z aksini topdi. Keyinchalik yozuvning paydo bo'lishi bilan ilk tarixiy bilim unsurlari ayrim tarixiy manbalarda uchray boshladi. Bundan tashqari ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy ehtiyojlar ayrim jamiyat hayoti uchun zaruriy voqealarni yozib qo'yilishiga olib keldi. Bular keyinchalik yilnoma shaklini oldi. Qadimgi Sharqda siyosiy jarayonlar ham ko'p hollarda belgilab qo'yiladigan bo'ldi. Qadimgi Misr, Xett Ossuriya podsholari annallari, Bobil qonunlari, Hind qonunlari, davlat boshqaruvi to'g'risidagi matnlarda tarixiy ma'lumotlar uchraydi.

Yunon-Rim dunyosida ellinizm davrida tarix asarlari paydo bo'ldi. Lekin bu davrda yozilgan biror-bir asar «tarix» deb nomlanmadi. O'rta asrlar, yangi davrda, Sharq va G'arb dunyosida qator tarixiy asarlar yaratildi. Yangi davrdan boshlab tarix fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Jahon tarixini yaratishga harakat qilindi (Volter). Eng yangi davrdan boshlab tarix fani ta'limning barcha bosqichlarida o'qitila boshlandi. Tarix fani to'g'risida metodologik tadqiqotlar tizimli olib borila boshlandi.

Tarix fanining tili boshqa tabiiy-ilmiy fanlardan farq qilgan holda qat'iy tartibga solingan va aniq belgilangan atamalarga ega emas. Tarix fanining atamaları va tushunchalarini shartli uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Yozma manbalarning atama va tushunchalari;

2. Turli xildagi tarixiy materiallarni tizimlashtirish uchun foydalanadigan atamalar va tushunchalar (misol uchun, kapitalizm, sivilizatsiya va boshqalar);

3. Nafaqat tarix fanida, balki boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda ijtimoiy hodisalarni belgilash uchun ishlatiladigan tushuncha va kategoriyalar.

Boshqa fanlar kabi tarix fani o'z rivojlanish jarayonida qismlarning ixtisoslashuvi boshlandi va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Zamonaviy tarix alohida bo'limlar, sohalar, yordamchi tarix fanlari va maxsus tarix fanlariga bo'linadi. Alohida qismlarning ixtisoslashuvi darajasi har xil, bu ularni bir necha guruhlariga bo'lish imkonini beradi.

Birinchi guruh jamiyat tarixi, umuman o'rganiladigan bo'lim va sohalar (jahon tarixi). U qismlarga bo'linib o'rganiladi.

Jamiyatning obyektiv rivojlanish jarayonini hisobga olgan bu qismlarning ajratilishi jahon tarixini o'rganishga qulaylik tug'diradi va bunday bo'linish tarixning bo'lim va sohalarini mustaqil fanlarga bo'linishiga olib kelmaydi. Tarixiy tahlil davrlar, geografik kengliklar tamoyili, kompleks muammolar hamda insoniyat tarixining alohida tomonlari va hodisalarini o'rganish asosida amalga oshiriladi.

Jahon tarixi ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi tarix, o'rta asrlar tarixi, yangi tarix va eng yangi tarixdan iborat. Bularning barchasi, o'z navbatida, yana davrlarga bo'linadi. Jumladan, o'rta asrlar tarixi ilk, o'rta, rivojlangan o'rta asrlar davrlariga ajraladi. Hududiy tarix tarixiy jihatdan bog'langan turli katta hududlar tarixi—geografik kenglik tamoyili asosida ajratiladi (Yevropa tarixi, Amerika tarixi, Yaqin va O'rta Sharq tarixi, Osiyo va Afrika mamlakatlari tarixi).

Insoniyat jamiyati tarixining alohida tomonlarini o'rganish tarix fanining qator sohalarini vujudga keltirdi. Iqtisodiyot tarixi, harbiy san'at tarixi, sanoat tarixi, diplomatiya tarixi, din tarixi, fan tarixi, siyosat tarixi va h. k. Tarixning turli bo'lim va sohalariga bo'linishi shartlidir. Alohida hududlar, mamlakatlar tarixi davrlar va bosqichlar bo'yicha ham bo'linadi. Tarixning qadimgi davri qadimgi Sharq, qadimgi Yunon, Rim tarixiga bo'lib o'rganiladi. Bunday ajratish tarixning fan sifatida shakllanish jarayonida yuzaga keldi.

Bunday ko'rinishda jahon tarixi, uning qismlari, erishgan yutuqlari va ularni umumlashtirish asosida bilishga imkon beradi.

Tarix fanining ikkinchi guruhini yordamchi tarix (yoki maxsus fanlar) tashkil etadi: xronologiya, sfragistika, metrologiya, arxeologiya, paleografiya, geneologiya, numizmatika, geraldika, toponimika va h. k. Ularning ilmiy tarixiy fan sifatida ajratilishi va rivojlanishi tarix fanining o'zi uchun tadqiqotni o'z metodikasini ishlab chiqish zaruriyati bilan shartlangan edi. Shu maqsadda yordamchi tarix fanlari manbalar tabiati, ularning jamiyat rivoji jarayonini aks ettirish darajasini tadqiq qiladi. Manbalar turi, ularning miqdori, saqlanish darajasini belgilaydi.

Tarix fanining tarkibiy qismi sifatida ikki fan—arxeologiya va etnografiya mustaqil o'rinni egallaydi. Tarix fanining aynan rivojlanishini tarixshunoslik, tarixiy yozma manbalarni manbashunoslik fani o'rganadi. Alohida guruhni aralash fanlar tashkil etadi. Fan taraqqiyotining ehtiyojlari bu fanlarning ajralib chiqishiga sabab bo'ldi. Tabiatshunoslik tarixi va uning bo'limlari (kimyo, fizika va boshqalar), texnika tarixi va huquq tarixi, iqtisodiy ta'limotlar tarixi va h. k. Tarix fan sifatida rivojlanish jarayonida uning metodi va metodologiyasining fan sifatida shakllanishi tabiiy ravishda yuz berdi. Chunki tarixning boshqa fanlar kabi o'z metodi va metodologiyasi bo'lishi uni uzluksiz va tizimli o'rganishning samarali omili bo'ldi.

Bugungi kunda tarix fanida juda ko'p yangi yo'nalishlar, qismlar, bo'limlar yuzaga keldi (Antropologik tarix, madaniy antropologiya, strukturalizm antropologiya, yangi sotsial tarix).

Tayanch iboralar: Tarixiy bilim, etnos, Gegel, L. Fevr, tarixiy ratsionallik, bilish metodi, tarixiylik tamoyili, xronologiya metodi, xolisliylk tamoyili, statistik metod, shovinizm, ijtimoiy yondashuv, gumanistik, mantiqiy yondashuv, formatsiya nazariyasi, empirik bilish, «Germaniyaning tarixiy yodgorliklari», konstitutsiyali monarxiya, Leopold Ranke, Shlosser, strukturalizm, Fransuz inqilobi, liberal tarixshunoslik, Djon Milton, naftis til, Flavio Biondo, idealistik konsepsiya, providensial konsepsiya, romantik tarixshunoslik, sinxron metod.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Tarix fanining rivojlanish bosqichlarini ko'rsating.*
2. *Bosqichlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?*
3. *Tarixshunoslik maktablarining rivojlanish bosqichlari qaysilar?*
4. *XIX asr tarix maktablari haqida nimalarni bilasiz?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Tarix fani genezisining asosiy bosqichlari.*
2. *XVIII asrda tarix fani taraqqiyoti.*
3. *Romantik tarixshunoslik.*
4. *Tarixshunoslikning milliy maktablari.*
5. *Markscha tarixshunoslik.*
6. *Tarix fani tarmoqlari.*

4- MAVZU.

TARIX FANI METODOLOGIYASINING SHAKLLANISH TARIXI

1. *Tarix fani metodologiyasining shakllanish bosqichlari.*
2. *Antik va o'rta asrlar davri.*
3. *XVIII — XIX asrlarda tarix metodologiyasi.*
4. *XX asr tarix metodologiyasining xususiyatlari.*

1. Tarix fani metodologiyasining shakllanish bosqichlari. Tarix metodologiyasi taraqqiyotining quyidagi bosqichlari mavjud:

Birinchi bosqich: XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmi. Bu davrda tarix metodologiyasi fan sifatida shakllana boshladi. Uning asoslari yaratildi. Metod, tarix nazariyasi bo'yicha birinchi asarlar paydo bo'ldi. Bu davrga kelib tarix fan sifatida oyoqqa turdi. Natijada tarix fani metodologiyasi asoslari bo'yicha qator asarlar yaratildi. Bu asarlarda metodologiyaning poydevori qo'yildi. Tarix fani metodologiyasining dolzarb muammolari bo'lgan tarixiy manba, tarixiy jarayon muammolari bo'yicha ustuvor yo'nalishlar o'z aksini topdi.

Ikkinchi bosqich: XIX asrning ikkinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bu davrda metod, metodologiya bo'yicha ilmiy-nazariy asoslangan konsepsiyalar, ta'limotlar vujudga keldi. Tarix fanining mazmun-mohiyatini ochib berish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich: XX asrning boshlaridan XX asrning 50-yillari birinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bu vaqtda metodologiya, uning barcha muammolari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borildi. Bu davrda bir necha maktablar, konsepsiyalar shakllantirildi. Ular ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslangani uchun e'tirof etildi («Annallar maktabi», «lokal sivilizatsiyalar nazariyasi», «madaniy

antropologiya», «strukturalizm» va boshqalar). Bu maktab va konsepsiyalar hozirgi kunda ham o'z o'rniga ega. Shu bilan birga ayrim konsepsiyalar shakllanishi natijasida ularning fan metodologiyasi va amaliyotdagi ta'siri kuchayib ketdi (Markscha ta'limot, sotsialistik g'oyalar).

To'rtinchi bosqich: XX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning to 90-yillarigacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi. Bu davrda tarix fani rivojlanishi natijasida uning yangi tarmoqlari paydo bo'ldi. Uning mazmun-mohiyatida tarixiy-falsafiy va metodologik tahlil yangi bosqichga ko'tarildi. Tarix metodologiyasining dolzarb muammolari bo'lgan metod, manba, dalil tushunchalari bo'yicha qizg'in bahs-munozaralar, bir-biriga qarama-qarshi ziddiyatli qarashlar yuzaga keldi. Ayrim konsepsiyalarning tarix metodi va metodologiyasiga ta'siri kuchaydi. Buning natijasida metodologiyada turg'unlik, sokinlik yuz berdi (Marksistik metodologiya). Ammo bu tazyiq XX asrning 90-yillarigacha davom etdi. Oxir-oqibatda 90-yillar boshlarida marksistik tarix metodologiyasi halokatga yuz tutdi. Bu davrda yana tarix faniga nisbatan ishonchsizlik kuchayib, uni fan sifatida inkor qilish kuchaydi.

Beshinchi bosqich: XX asrning 90-yillaridan hozirgi kungacha. Bu davrning boshlanishi tarix fanining tushkunligi, metodologik plyuralizm bilan ajralib turadi. Shunga qaramasdan, tarix metodologiyasida yangi qarashlar va yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bu davr jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar ham tarix metodologiyasiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada tarix fanida yangi yo'nalishlar, metodologiyada yangi qarashlarning shakllanishiga olib keldi. Yangi qarashlar va yo'nalishlar tarix fani mazmun-mohiyatining tadqiqida jiddiy burilish bo'ldi. Tarix metodologiyasining fundamental muammolari bo'yicha plyuralistik fikrlar kuchaydi. Fundamental muammolar bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar ko'p hollarda tarix fanini fan sifatida kuchaytirishga xizmat qilmadi. Tarix metodologiyasining rivojini bunday bosqichlarga bo'lish albatta nisbiy.

2. Antik va o'rta asrlar davri. Ilk davrda yozuvchilar antik davr yozuvchilarining mumtoz asarlari ta'siri ostida tarixni badiiy-tarixiy tasvirlash qoidalari va tarixiy uslubning metodlari to'g'risida

fikr yuritdilar. Ular tarix metodologiyasi emas, «tarixni yozish san'ati»ni ko'zda tutdilar. Uni notqlik va poetik san'at bilan aloqada ko'rdilar. Tarixga bunday qarash uyg'onish davridan boshlab o'zgara boshladi. Gumanistlar mumtoz qadimiyatni ilmiy o'rgana boshladilar. Shuningdek, ularning siyosiy tarix va madaniyat tarixiga qiziqishlari ortdi. Ana shunda notqlik san'ati va poetikadan farq qiladigan tarix metodologiyasi fan tusini ola boshlab, mustaqil o'ringa ega bo'ldi. Shundan so'ng falsafa ta'siri ostida tarixchilar o'z fanlari to'g'risidagi tushunchani chuqurlashtirib va kengaytirib, uning vazifalari va metodlarining ko'rinishini o'zgartira boshladilar. Nihoyat yana keyinroq bilish nazariyasi sohasida yangi oqimlar e'tiborga olindi. Tadqiqotchilar tarixiy bilimning asosiy maqsadlarini aniq tushunishga yaqinlasha boshladilar. Natijada ular nomotetik yoki ideografik qarashdan tarix metodologiyasini ishlay boshladilar.

Antik yozuvchilar bizga tarixning tasvirini ko'p qoldirdilar, lekin uning qurilish metodlariga oid kam fikrni qoldirdilar. Bunday fikrlarni ko'proq notqlik san'ati bilan bog'langan to'plamlardan qidirish lozim bo'ladi. Bu to'plamlar mualliflari Sitseron va Lukian tarixchidan haqiqat va xolisiylikni talab qildilar. Sitseron har bir tarixchi amal qilishi zarur bo'lgan qoidani shakllantirdi: buyuk faoliyatlarni o'rganishda tarixchi odamlarning niyatlarini baholashi, ularning faoliyati yuz bergan sharoitlarni aniqlashi, tasodiflarga hamda inson donoligi yoki jasoratiga bog'liq holda voqealarning sabablarini tushuntirish, mashhur odamlarni belgilash, inson hayotini yengil va badiiy shaklda belgilash. Lukian poeziya va tarixning maqsadlari boshqa, poeziya voqelik bilan bog'lanmagan, tarix esa aksincha, o'ylab topilgan bezatishlarga muhtoj emas deb ta'kidlaydi. Ammo o'sh vaqtda ko'pgina tarixchilar o'tmishni fanga yot bo'lgan maqsadlarda bayon qildilar. Boshqacha aytganda, o'quvchilarni ba'zi fikrlarni qabul qilish mumkin emasligiga ishonitirdilar. Ular badiiy-adabiy hikoya qilish talablariga bo'ysunishlari lozim edi. Shuningdek, kimnidir ishonitirish san'ati notqlik san'ati bilan bog'liq edi. Tarixchilar estetik talablarni qondirish uchun bayon qilishning sun'iy usullariga tayandilar. Ular misol uchun o'z qahramonlarini nutq so'zlashga (Fukidid) majbur qildilar yoki

o'quvchining e'tiborini tortadigan turli chekinishlarni qo'lladilar. Bu hol «tarix yozish san'ati»ni axloqshunosning nasihatlari va notiq yoki shoirning san'ati bilan o'xshash bo'lishga olib keldi.

Tarixni bayon qilish usullari va tarixiy hikoya to'g'risidagi ilk fikrlar aynan notiqlik va poetik san'at to'g'risidagi asarlarda saqlanib qoldi. Misol uchun, Sitseron «tarixni yaratish predmetini o'rganishni», uni baholash va «bayon qilish san'atini» talab qiladi deb ko'rsatgan edi. Uyg'onish davri yozuvchilari, ko'pincha, antik yozuvchilar ta'siri ostida bo'lib, o'z o'qituvchilarining talablarini ko'pirtirib, ba'zida tarixchi san'atini notiq yoki shoir san'atidan kam farqladilar. Bunday tarzda aralashtirish tarixiy hikoya yoki qurilma qoidalarini bayon qilishda uzoq vaqt saqlanib qoldi. Tarixchining san'ati deb tarix yozish san'atini tushundilar va bunday san'at notiq yoki shoir san'ati bilan aralashtirib yuborildi. Misol uchun, XV asrda Fanton tarixchilarni notiqlar sifatida tan oladi. U tarixiy bilimga poetik xususiyatni beradi va shu qarash ta'siri ostida «tarix yozish» qoidasini bayon qiladi. XVI asrda Viperano o'zining «Tarix to'g'risida» asarida tarixiy qurilma, faoliyatlarni ochiq va ajoyib hikoya qilishga taqaydi va unda nutqlar va chekinishlarga yo'l qo'yadi. Notiqlik san'ati qoidalari bo'yicha asarga o'xshatadi. Rimlik notiq professor Maskardi 1630-yilda tarix to'g'risida katta hajmli traktat yozdi. U tarixchi san'ati va notiq yoki shoir san'ati o'rtasidagi tabiiy aloqani o'rnatadi. Foss 1623-yilda tarix san'ati to'g'risida yozgan asarida tarixchi uchun «nutqlar» va «chekinishlar»dan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. XVI asrning oxirida «Tarix to'g'risida» asarining muallifi Lemuan tarixchi shoir bo'lishi lozim deb ta'kidlaydi va tarixchi poetik qobilyati bo'lmasa tarixiy hikoyada o'tmishning badiiy tasvirini bera olmaydi, deb ko'rsatadi. Bunday qarashdan tarixiy qurilma metodologiyasini, tabiiyki, «tarixni yozish san'ati» qoidalariga taqash va uni notiq yoki shoir san'ati bilan bog'lash mumkin edi.

Uyg'onish davridan olimlar antik davr matnlari, ularning tahriri, mumtoz adabiyot qoldiqlari bilan qiziq boshladilar. Tarixiy metodning rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Bu tarix metodologiyasiga bag'ishlangan to'plamlar tarixshunosligini ilmiy

bayon qilishning boshlanishi edi. Bu yo'nalishning muxlislari tarix metodologiyasini «tarixiy asar yozish san'ati» va tarixiy uslubning ritorik-poetik qoidalari bilan ba'zida aralashtirdilar. Lekin ko'p olimlarning ilmiy kayfiyatlari mustahkamlana boshladi. Foss o'zining ma'lum traktatida alohida ilmiy fan ikropixini ajratadi. Bunda tarix to'g'risidagi tushunchani aniqlaydi va manbalarining haqiqiylikini qay tarzda o'rnatish va xatolardan qochish to'g'risidagi qoidalar to'plamini beradi. Yana shuningdek, unda davlat tarixida qanday bosqichlarni ajratish, tarixiy hikoyani qay tarzda tuzish, qanday uslubiy qoidalarga rioya qilish beriladi.

Keyinchalik ilmiy tarzdagi tarixni badiiy adabiyotdan ajratish manbashunoslik metodologiyasining rivojlanishi, ayniqsa, tarixiy tanqidning o'ziga xos xususiyatlari ta'siri ostida yuz berdi.

3. XVIII – XIX asrlarda tarix metodologiyasi. Yangi davrda manbalarining haqiqiylik va to'g'riligiga bo'lgan talabning kuchayishi tarixiy tanqidning talabi edi. Bu notiqlik va poetik san'atning uslublariga zid kelishi mumkin edi. Misol uchun, Rapen hikoyada nutqlardan foydalanish uning haqqoniylik talabiga zid ekanligini ko'rsatdi. Shu boisdan ularga o'ta ehtiyot bo'lib yondashish zarur. U chekinishlarga qarshi chiqdi. Shu qarashdan Dalamber tarixchidan haqiqatga ashaddiy sodiqlikni talab qilib, o'quvchilar, tarixchilar o'z qahramonlari uchun to'qigan nutqlarni qahramonlarning o'zlariga tegishli deb ishongan tarixchilar xafa bo'lar edilar, deb ta'kidlaydi. U bunday usullarni tarixiy hikoyada foydalanishga qarshi chiqadi. U hikoya qat'iy haqqoniylik bilan farq qilishi lozim deb hisoblaydi. Bunday talablar ilgari tarixchilar foydalangan poetik erkinliklarga qarama-qarshi edi.

Tarixchilar davlatlarning ichki hayotiga kuchli qiziq boshladilar. Ular tarixni ma'lum millatning xususiyati bilan aloqada o'rganishni yo'lga qo'yishga urindilar (J. Boden). Tarixni huquq va siyosiy fanlar bilan aloqada o'rganishni (Boduen XVI asrda, keyinchalik Volter va Vegelin), madaniyatni umumiy tarix bilan birga o'rganishni (Lemuan, Volter va boshqalar) taklif qildilar. Ular nafaqat pragmatik bayon qilishga (Rapen va boshqalar), balki insoniyatning madaniy rivojlanish jarayoniga (Gerder va boshqalar) ko'proq e'tibor bera boshladilar.

XVII arda tarix metodologiyasi Mabilon, Konring va boshqalarning maxsus asarlarida rivojlana boshladi. O'sha davrdagi Lengle va Mablining traktatlarida tarix metodologiyasini fan sifatida tushunish, asosan, tarixni o'rganish metodlari yanada rivojlangani ko'rinadi. Lengle manbashunoslik metodologiyasiga, Mabli tarixiy qurilma metodologiyasiga e'tiborni qaratdi.

XVIII asr boshlarida olimlar ba'zi tarixiy manbalarning haqiqiyligiga shubha bilan qaradilar. Bu, o'z navbatida, bir necha tarixchilar tomonidan tarixiy bilimlarning haqiqiylik darajasini aniqlashga urinishlari va ulardan foydalanish usullarini ko'rsatish edi. Tarix metodologiyasi bo'yicha mualliflardan biri F. Lengle aynan shunday maqsadni ko'zladi. Muallif o'z asarida tarix metodologiyasining qoidalarini shakllantiradigan tamoyillarni aniqlaydi. U metodologik tamoyillarni tarix texnikasi qoidalari bilan rejalashtiradi. Bundan tashqari, tarixning ratsional (muqaddas tarix, qadimgi va yangi tarix hamda tarixning alohida sohaları siyosiy va madaniy tarix bilan) oqilona tanishish usullarini bayon qiladi.

Lengle manbashunoslik metodologiyasiga ko'p e'tibor beradi. Ba'zi xil manbalar (misol uchun, xartiyalar, yozuvlar, medallar) tarixiy dalillarga yoki hozirgi harakatlarga yaqin turadi. Ularga tushuntirishni topish mumkin. Boshqalari esa, ularda tasvirlanadigan dalillardan uzoq turadi (misol uchun, bu, ko'pincha, memuarlarda kuzatiladi). U tarixiy talqinga to'xtalmay, e'tiborni yordamchi tarix fanlari—geografiya, xronologiya, din va axloq fanlariga qaratadi. Lengle asarining metodologiyaga bag'ishlangan qismining asosiy mazmuni tarixiy haqiqatning asoslarini bayon qilish. Bu, asosan, shaxsiy kuzatish, shubha uyg'otmaydigan hujjatlarga asosiy e'tiborni qaratadi va ishonchga molik shaxslarning guvohligiga alohida e'tibor beradi.

U tarixiy manba muallifining haqiqatni bayon qilishiga ta'sir qiladigan shart-sharoitlarni hisobga oladi. Nusxa va asl hujjat va uning nusxalari o'rtasidagi farqni ajratadi. Lengle asarida tarixiy qurilma metodologiyasiga e'tibor bermaydi. Lekin tarix vazifasini umumiy tushunishdan kelib chiqqan holda u tarixiy qurilmani odamlar faoliyatlari va niyatlari o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini o'rnatishga taqaydi. Uning so'zlariga ko'ra, tarixni o'rganish,

demak, bu odamlarning motivlari, fikrlari va hissiyotlari, uning faoliyatining barcha yashirin prujinalariga, uning ruhining turli burchaklariga kirishdir. Nihoyat so'ngida uning ruhini egallaydigan barcha orzularni bilishdir. Qisqasi, o'zini va boshqalarni bilish, deb tushunadi.

Ana shunday fikr, albatta, S. Realning to'plamida ham uchraydi. Lengle uning fikrini chop etdi. S. Real ba'zida kam ahamiyatli sabablar muhim oqibat (voqea)larga olib keladi, insonning faoliyati uning huzur-halovatini doimo yomon istagida yotadi, ko'pgina ezgu harakatlar hamma vaqt ham ezgulik bilan boshlanmagan, jamoatchilik fikri odamlarning faoliyatiga, hatto ulardan eng aqlli harakatini boshqaradi degan fikrlarni aytadi.

XVIII asr oxiridagi tarixchilardan biri G. Mabli «Tarix yozish san'ati» asarida tarix metodologiyasiga fan tusini berishga harakat qildi. U, asosan, tarixiy qurilmaning ilmiyroq usullarini yaratishga urindi. Haqiqatan, tarix fanining yangi talablariga binoan Mabli tarixiy metodning ilmiy uslublarini ilmiy tushunishga yaqinlashdi. Tarixchi hikoyaning haqqoniyligiga urinishi lozimligini tan olib, asar muallifi o'quvchini o'ziga tortish maqsadi bo'lgan notiq yoki shoir bilan to'g'ri ko'rsatmalar berishga majbur bo'lgan. Go'yoki guvoh bo'lgan tarixchi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Shu bilan birga muallif tarixchidan tabiiy huquq va siyosatni bilishni talab qiladi. Buning natijasida u boshqaruvning boshlanishi va shakllari, hukumatlar faoliyati va boshqalarni to'g'ri baholashi mumkin. Mabli shu jihatdan tarixchiga qurilmaning yaxlitligiga rioya qilishni tavsiya qiladi. Ma'lum millatning huquqi, qonunlari va boshqaruvini o'rganishni maslahat beradi, ularga batafsillikni bog'laydi.

Mabli o'zining «Tarix va uni yozish san'ati» to'g'risidagi asarlarida tarix fanining bosh maqsadining ma'lum bir tushunchasiga kelmadi. Shu sababli tarixiy qurilmaning vazifalarini tushunishda sezilarli taraddudga tushadi. Uning fikricha, nomotetik umumlashtiruvchi ma'noda tarix axloq va siyosatning maktabi bo'lishi lozim. Ana shu qarashdan tarixiy dalillar oqimiga tahlil qilish lozim, lekin ularga to'liq bo'ysunish kerak emas. Siyosiy qarashdan qaraganda, agar u «davlatlarning barqarorligi yoki halokatining asosiy sabablari to'g'risida, jamiyat hayotiga ta'sir qiladigan

sabablar, ularning harakatini tezlashtiradigan yoki sekinlashtiradigan ko'rsatmalar bersa, unga nisbatan qiziqish tug'iladi.

Shunga ko'ra, tarixiy qurilmaning vazifasi tarixiy jarayonning umumiy qonuniyatlarini ma'lum darajada o'rnatish fikri kelib chiqadi. Mabli bu qarashda turib qolmadi, balki tarixiy qurilmaning yangi uslublarini oldindan his qildi. Xalq ommasiga ta'sir o'tkazadigan odam to'g'risida fikrlash uchun uning fikricha bu odam mansub bo'lgan millatning xususiyatini unutmaslik lozim. Uning xarakterini belgilaydigan, tashkil etadigan asos, unga hukmron bo'lgan ezgulik yoki uning bosh aybini aniqlash lozim. Shunda uning tavsifini va undan jamiyatga uning ta'sirini, o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish lozim. Mabli tarixiy yaxlitlik qurilmasining uslublariga to'xtab qolmaydi. Uning fikricha, tarixchi o'zining qurilmasida yaxlitlikni saqlashi, tarixga hal qiluvchi ta'sir qiladigan muhim ishlarni tan olishi lozim. Shu bilan birga, Mabli tarixiy qurilmani eskicha tushunishning ba'zi bir o'ziga xos tomonlarini saqlab qoladi. Uning fikricha, tarix «nutq»larsiz saboq bermaydi.

Mablining «Tarix yozish san'ati» asaridan so'ng tarix metodologiyasida jonlanish boshlandi. Yilnoma va hujjatli ashyolarni o'rganish sohasida tarixiy metodlarni ilova qilish bo'yicha maxsus tadqiqotlar, asarlar paydo bo'ldi. Jumladan, Sletser va Gattererlarning asarlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. XVIII asr oxirida S. Shyonemann butun bir «Tarix fanlari ensiklopediyasi»ni chop etadi. Ikki o'n yillikdan keyin Vaksmut tarix metodologiyasi bo'yicha yangi umumlashtiruvchi asar yozdi.

Shu bilan birga yangi davrning ba'zi yozuvchilari hali ham eski an'analar ta'siri ostida «tarix yozish san'ati» to'g'risidagi fikrlarga katta ahamiyat berdilar. Shunday qarashdan Mablining eng yaqin vorisi deb R. Donuni aytish mumkin. U 1819-yil tarix metodologiyasi bo'yicha o'z ma'ruzalarini Fransiyada taniqli o'quv yurti Kollej de Fransda o'qishni boshladi. Tarixiy tanqidni chetda qoldirib, asarlarining qolgan barchasini tarixiy qurilish metodologiyasiga bag'ishladi va unga tarixiy hikoya qilishning usullari to'g'risida o'z tushunchalarini qo'shimcha qildi.

Donu eski yo'nalish vakili, qadimiyatlar mumtoz maktabi, Bekonning eksperimental falsafasi va XVIII asr ma'rifatparvarlari

muxlisi edi. U hech qanday ideal va apriori qurilgan tarixni tan olmaydi. Ammo Kantning insoniyatning umumiy tarix-g'oyasini olqishladi. U romantizm va eklektizmga salbiy qaradi. Kuzen va Gironing tarix to'g'risidagi qarashlariga qarshi kurashdi.

Donu tarix to'g'risida ancha tumanli tushunchaga ega. U o'zining qarashlarini tarixiy tasvirga qo'yiladigan axloqiy va estetik talablar ta'siri ostida shakllantiradi. Tarix uning fikricha, «xususiy faoliyatlar va ayniqsa ommaviy hodisalar to'g'risida hikoya»; u bir xalqning, bir jamiyatning taqdirlerini, bir yoki bir necha asrlarning manzarasini beradi; u sarguzashtlarni, inqiloblarni qayd qiladi. Ularning muhitida insoniyat zoti tarqaldi, sivilizatsiyalashdi yoki axloqiy yemirilishga duch keldi. Muallif sujet tanlovi estetik tanlovga qaram bo'ladi degan tushunchaga soya soldi. Tarixchi tanlaydigan sujet yaxlitlik va har xillikka ega bo'lishi lozim. U monotoniya bilan emas, mukammallik bilan ajralib turishi lozim.

Muallif yana tarixiy bilimlarning axloqiy va siyosiy fanlar uchun ahamiyatini o'rganadi. Donu tarixiy tanqid va tarixiy qurilmaning uslublarini bayon qiladi. Aynan kenglikda va vaqt bo'yicha dalillarni joylashtirishni o'rganadi. Keyin esa «tarix yozish san'ati»ga o'tadi. Muallif axloqiy, siyosiy fanlar sohasida «aniq metodlarni» qo'llashdagi yutuqlarni e'tirof etib, tarix bilan bu fanlar o'rtasidagi aloqani ko'radi. Lekin o'zining bu asarida faqat «tarix to'plami» uslublarinigina bayon qiladi. Donu tarixni badiiy bayon qilishga alohida e'tiborni qaratadi. O'zi tasviriaganini kam asoslaydi, tarixchi o'zining ilmiy bayonini badiiy tasvir bilan almashtirishga majbur bo'ladi. Shu bilan birga tarixiy izlanish predmetlari axloqiy xususiyatga ega bo'lib, sof va nozik shakllarni, ba'zida boy bo'yoqlarni talab qiladi. Nihoyat tarixning o'zi rang-barang va mukammal bo'lishi lozim.

Donuning asari tarix metodologiyasining keyingi rivoji uchun ahamiyatli bo'ldi va uning muammolarini yanada aniqlashtirdi. U ilmiy-tarixiy qurilmaning tamoyil va metodlarini o'rnatmadi. U faqatgina tarixiy asarlarni yozish uchun qoidalarini hamda tarixiy-adabiy, badiiy tasvir va uslubning qoidalarini aniqlaydi. Aslida, Donu tarixchilar falsafiy tizimlar bilan tanish bo'lishlarini aniqlagan edi. Donu ularning eng asosiy idealistik, realistik yoki

«eksperimental» yoʻnalishlarini bayon qiladi. U Kantning insoniyat tarixini tizimga solishga urinishini olqishlaydi, baribir bunday qurilmalarga salbiy qarab, «eksperimental metod»ni afzal koʻradi.

Falsafaning tarix metodologiyasiga taʼsiri XVIII asr oʻrtalarigacha sezilarli emas edi. Ammo keyingi yuz yil davomida esa sezilarli mustahkamlandi. Aslida, Dekart oʻz ratsionalizmi bilan tarix va uning tasodiflariga qiziqishni his qilmadi. Bekon ham bunday holni keskin oʻzgartira olmadi. U fanlarni turkumlash bilan shugʻullandi. Turkumlashda tarixga oʻrin berdi. Tarixiy bilimni xotiraga qaram qilib qoʻydi. Tabiiyki, bunday nazariyalar tarix fanining rivojlanishiga taʼsir oʻtkaza olmas edi. Tarixchilarning oʻzlari ham tarix metodologiyasini surib qoʻyib, faqat materialni oʻrganishning metodlari toʻgʻrisida, yanada koʻproq tarixiy hikoya usullari toʻgʻrisida mushohada qildilar. XVIII—XIX asr oʻrtalarida falsafa fani taraqqiyotining muhim lahzalari tarix metodologiyasida tez oʻz taʼsirini koʻrsatdi. XIX asr davomida ikki bosqichga shunday qarash mumkin. Aynan eng keksa falsafiy tizimlar koʻproq nemis idealizmi bilan bogʻlangan gʻoyalar taʼsiri vaqti va bilish nazariyasi sohasidagi eng yangi oqimlarning tarix metodologiyasiga taʼsir vaqtidir (ikkinchi davr).

Bu davrlarning birinchisi Leybnis, Kant va Gegelning ayrim taʼsir ostida tarix metodologiyasini qurishga urinishlaridan biri boʻldi. Buning misoli sifatida Xladeniy, Vaksmut, Gervinus va Droyzenlarning asarlarini koʻrsatish mumkin.

M. Xladeniy dastlab tarixiy bilish nazariyasiga ilohiyotshunoslik va diniy-tarixiy qarashdan qarab, keyin esa «tarixni bilish»ga nazariy bilish qarashidan mushohadaga oʻtdi. U haqiqatni bilishda bizning tafakkurimiz maʼlum qoidalarga rioya qilishi lozim deb taʼkidladi. Umumiy tushunchalar oʻrtasidagi mantiqiy aloqa va haqiqatda yuz bergan dalillar orasidagi tarixiy aloqa har xil degan tushunchani ilgari surdi. Tarixda keyingini oldingidan mantiqiy chiqarib boʻlmaydi. Biz umumiylikdan xususiylikni chiqarganimizdek, aksincha, tarixchining vazifasi qanday tarzda u oʻtmish toʻgʻrisida uning keyingi sifatida bilishini hal qilishi lozim. Shunday qarash ostida Xladeniy tarixiy bilish predmetining alohida tomonlarini aniqlashga harakat qiladi.

U tarix deb voqelikda yuz bergan hodisa va bizning u to'g'risidagi tasavvurimiz tushuniladi, deya ta'kidlaydi. Tarixiy bilimning obyekti «mavjud bo'lgan yoki yuz beradigan narsadir». Xladeniy tarixning bunday obyektni yanada tor ma'noda tushunishga urinadi. Tarixchi dunyoda yuz bergan o'rganishlar va o'zi ko'riladigan o'zgarishlar to'g'risida «tarixiy hukm» chiqaradi. Har qanday o'zgarishni unga tegishli «subyekt» taxmin qiladi, o'zgarish subyekti bo'lishi mumkin. U turli ahamiyatga ega yakka mavjudot bo'lishi mumkin (Misol uchun, Amir Temur yoki biror-bir tarixiy shaxs, lekin yig'ma ma'nodagi shaxs (misol uchun, ijtimoiy-siyosiy hayot)). Tarixiy hukm bir qism subyektni bilishda, bir qism undagi o'zgarishlar tarkibida bo'ladi. Tarixchi bu alohida olingan o'zgarishlarni o'rganish bilan cheklanib qolmaydi. U qator o'zgarishlarni ko'radi va bu tarix deyiladi. Bunday tushunchalarni qurishda tarixchi uning ba'zi a'zolari ustida amalga oshirilgan kuzatishlar asosida qilingan xulosalarni butun guruhga ko'chiradi. Shu bilan birga ko'pchilik «individual vaziyatlarni» tushirib qoldiradi. Ko'pincha, favqulotda qilmishlar va voqealarga e'tiborni jalb qiladi. Bunda ularning qaysi birini tanlaydi, qaysi biri «adolatli» yoki qaysi biri «adolatsiz» bo'lishiga qarab, tarix o'z ko'rinishini oladi.

Xladeniy tarixni o'rganish bo'yicha o'zining tushunchalarini aytdi. U birinchi bo'lib manbashunoslik metodologiyasini asoslashga harakat qildi. U voqealarni o'z fikricha, kim uni kuzatishidan qat'i nazar, tushunarli qilib ochib berishga urindi. Ammo bu voqealar to'g'risidagi bilimlarga nisbatan bunday deb bo'lmaydi. Xladeniy manbalarining asosiy turlarini uch guruhga ajratadi.

Xladeniy o'z asarida tarixiy qurilma usullari to'g'risida tushuncha beradi. Tarixiy dalil nima, uning qanday ko'rinishlari borligini aniqlashga urinadi. Dalillar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini o'rganish to'g'risida fikr yuritadi. Shu bilan birga ularni psixologik mazmunda tushunadi. Tarixchi, uning so'zlariga ko'ra odamlar va ularning iroda, harakatlariga bog'liq bo'lgan, ma'lum oqibatlarga olib keladigan voqealarni o'rganadi. Shu qarashdan dalillar sabablari, ularning o'zaro qaramligi va aloqasini tadqiq qiladi. Xladeniyning bu asaridan so'ng tarix metodologiyasida ilgari

surilgan muammolar ishlab chiqilmadi. Faqatgina Y. Vaksmut ularni yangicha izohlashga urinib ko'rdi.

G. Hegel g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni, o'z metafizikasida tarix falsafasini rivojlantirdi. Hegel dunyo tarixini o'rganishga nisbatan o'zining dialektik usulini qo'llashga urindi. Hegelning fikricha, dunyo tarixi progressiv jarayonlar, u qarama-qarshiliklar kurashi orqali rivojlanadi. Dunyo tarixida boshlang'ich nuqta dunyoviy ruhning rivojlanishidir. Erkinlikni anglash uzluksiz bo'ladi. Dunyoviy ruh yaxlit olingan insoniyatdir. Insoniyatning mavjudligi ana shu dunyoviy ruhda ko'rinadi.

Gegel tarixni buyuk shaxslar emas, balki tarix o'z qahramonlarini yaratadi, jamiyat taraqqiyoti hukmdorlarning faoliyati natijasi emas, balki obyektiv qonuniyatlarga bo'ysungan va uni ilmiy bilish mumkin deb hisoblagan edi. Hegel tarixning bunday ichki qonuniyatlari erkinligini anglashni progress deb qaradi.

Gegelning fikricha, tarixiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi ijtimoiy ongdir. Hegel ta'limoti bo'yicha tarix qadimgi Sharqdan boshlanadi. Erkinlik ham shu yerda birinchi tug'ilib, keyin despotiyalar tomonidan bo'g'ilgan. So'ng dunyoviy ruh Elladaga siljib, erkinlik qadriyat sifatida anglanadi. Lekin jamiyatning ayrim toifasi vakillarigina haqiqiy erkin bo'ldilar. Hegel erkinlikning uchinchi davrining boshlanishini xristianlik dini paydo bo'lishi va uning germanlarga tarqalishi bilan bog'ladi. Shunday qilib, Hegel tarixning mazmunini davlatda aks etgan «aniq erkinlik» himoyasi ostida tabiiy qulchilikdan haqiqiy insoniy turmushga tomon uzluksiz harakatdir deb baholaydi. U insoniyat tarixidan urushlarni yo'q qilish mumkin emas, deb hisobladi. Urush mutlaq yovuzlik yoki tasodifiy voqea emas. Davlatning sog'lomligi tinchlik vaqtida emas, uning har bir a'zosi bu davrda alohida yashaydi. Urushda davlat tizimi, uning alohida unsurlari, aloqalarining mustahkamligi sinab ko'riladi. Hegel o'z tarixiy fikrlarini bayon qilishda davlatlar o'rtasidagi urushga monelik qilmaganligini ko'ramiz. Hegel davlat qurilishida eng yaxshi shakl konstitutsiyaviy monarxiya deb hisobladi. U Germaniyada siyosiy tarqoqlik sharoitida kuchli markazlashgan davlatni yoqlab chiqdi. Hegel xususiy mulkchilikni himoya qildi,

inqilobiy to'ntarishlarni qabul qilmadi, yuqoridan o'tkaziladigan islohotlarni yoqlab chiqdi.

V. Vaksmut Kant va uning izdoshlari ta'siri ostida edi. U 1820-yilda «Tarix nazariyalari tajribasi» nomli hajmi qisqa bo'lsa-da, boy mazmunga ega asarini chop etdi. U «tarix nazariyasi»ni «tarixiy san'at nazariyasi»dan farqlaydi. «Tarixiy fan» yoki unga «tarix nazariyasi»ni kiritib, u to'g'risida tizimli tushuncha hosil qiladi. Tarixiy san'at nazariyasi tarixiy materialga ishlov berish usullari ta'limotini bayon qiladi. Boshqacha aytganda, tarixchi o'z subyektiv bilimni tadqiqot yo'li bilan «insoniyat ruhi mulki»ga aylantiradi va uni badiiy asarga uzatadi. Shunday qarashdan Vaksmut tarix fani nazariyasini tushuntiradi. Uning bosh obyekti (tabiiy fanlar obyektiga qarshi) — asosan, odamni davlatdagi hayot shart-sharoiti amalga oshiradigan «inson erkinlik harakati», shuningdek, vaqt va makonda ko'rinadigan uning erkinligiga nisbatan tabiat makon va zamonda ko'rinadi hamda tarixchi nigohiga tushadi. Shunday tarzda Vaksmut tarix metodologiyasining eng muhim muammolarini qisqacha bayon qildi. Uning asari tarix metodologiyasi uchun uzoq vaqt o'z ahamiyatini yo'qotmadi.

Vaksmutning asari paydo bo'lganidan so'ng tarix metodologiyasi uzoq vaqt sokin holatda turdi. Gegelning «Tarix falsafasi» tarixiy jarayonni tushunish va tarix metodologiyasini qurishda o'z ta'sirini o'tkazdi.

U. Gumbolt tarixchining vazifasini g'oyalar to'g'risidagi ta'limot qarashidan tushuntiradi. U o'z asarini Skillerning tarixchi va shoirning vazifasini qiyoslagan izohidan ta'sirlanib yozdi. Gumboltning fikricha, tushunish «umumiylik ma'lumotini yangi —xususiylikka qo'llashdan iboratdir». Tarixiy tushunishning qiyinligi shundaki, tarixchi yuz bergan voqelikning ichki mazmunini tarqoq yakka ma'lumotlar bo'yicha o'zining hissiy qabul qilishiga ko'ra xulosa chiqarishi lozim. Tarixchi shoir ijodiy tasavvur qilganidek ularni tushunadi. Shunday tarzda tarixchi o'zida yig'ilgan bir butunlikni qayta ishlaydi va uni shaklga soladi. Bu nazariyaga mos ravishda tarixchi o'zida yuz bergan voqeani o'rganish uchun unda hukmron bo'lgan, lekin bevosita o'zi qabul qilmaydigan g'oyani tushunishi lozim. Lekin u voqealarni o'zidan bilishni xotirasida tutishi lozim. Tarixchi o'zi

bilishi mumkin bo'lgan ayrim tarqoq materialga ehtiyotlik bilan murojaat qilib, undan qandaydir bir yaxlitlik hosil qilishi kerak. Uning markaziy nuqtasida turibgina tarixiy dalillar orasidagi haqiqiy aloqani tushunishi va tasvirlashi mumkin. Bunday qurilish ishi shaklning haqiqatiga yetish uchun rassomning ijodi g'oyasi bilan o'xshab ketadi, deb ta'kidlaydi Gumbolt.

Gervinus va Droyzen ham shu ta'limotga maftun bo'lib, o'z asarlarini yaratdilar. Gumbolt o'zining mazmunli maqolasida Kant ta'siri ostida paydo bo'lgan va Gegel tomonidan ulug'vor tizimga solingan g'oyalar to'g'risidagi ta'limot qarashidan tarixchining vazifasi to'g'risida fikr yuritadi. Shuningdek, Gumbolt Skellerning tarixchi va shoirning vazifasini qiyoslaydigan bir luqmasi ta'siri ostida o'z maqolasini yozdi. Tarixchi o'zi olishi mumkin bo'lgan parchalarga ehtiyot bo'lib qarab, undan qandaydir yaxlitlikni qurishi lozim. Faqat uning markazida turib, u tarixiy dalillar o'rtasidagi haqiqiy aloqani tushunishi va tasvirlashi mumkin.

Gervinus Gumboltning ajoyib mushohadalarini maqtaydi va undan g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni o'zlashtiradi. U tarixda qandaydir dunyoviy reja mavjudligi, tarixda erkinlik va zaruriyat o'rtasidagi kurash to'g'risida fikr yuritadi. Tarixchi uning fikricha, tarixiy voqelikda topiladigan g'oyani o'rganayotganini unutmasligi lozim. Tarixchining vazifasi bizning tajribamiz ma'lumotlariga ko'ra, bizga tasodif bo'lib ko'rinsa-da, buyumlarni dunyo voqeligida ko'rishlari lozim va ularning bir-biriga haqiqiy munosabatini izlashi shart.

Gervinus tarix metodologiyasi, uning biror-bir bo'limi to'g'risida tushuncha bermaydi. O'z asarida u faqat tarixchilar o'tmishni badiiy tasvirlash yo'li bilan «ichki yaxlitlik»ka erishish uchun shart-sharoitlarni belgilaydi. Shunday bilish estetik, birlashtiruvchi tushunchalar tarixiy adabiyotning eng asosiy turlarini belgilaydi. Tarixiy bayon qilish oddiy geneologiyadan boshlanadi. Keyin xronika (asosan, voqealarni yozish)ga, undan so'ng odamlarning xatti-harakatlarini tushuntiradigan memuarlarga, bu, o'z navbatida, pragmatik tarixga olib boradi.

Tarixchi tarixiy kombinatsiyalarga intilishi lozim. Insoniyatni harakatga keltiradigan kuch deb hisoblagan, uning tarixining maq-

sadi bo'lgan g'oyalar mohiyatini o'rganishi lozim. Tarixchi butun tarixning o'ziga olgan, uning ichki yaxlitligini ta'minlaydigan, ularning paydo bo'lishi, g'alabaga va hukmronlikka intilishi, yangi g'oyalar ta'siri ostida yo'q bo'lishiga sabab bo'ladigan kuchlarning harakati orqasidan kuzatadi. Oqibatda tarixchi g'oyalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishiga qarab dalillarga ahamiyat beradi. Shu qarashdan tarixchi dalillarni «guruhlab», u o'z asariga «eng go'zal yaxlitlik» beradi, deb ta'kidlaydi Gervinus.

Shu tarzda Gervinus o'z asarida tarixiy qurilmaning g'oyalari va nazariyalari to'g'risidagi ta'limotni qo'llaydi. Ammo u o'z nazariy bilish qarashlarini kam aniqlashtiradi.

I. G. Droyzen 1857-yildan Berlin universitetida tarix metodologiyasidan ma'ruzalar o'qiy boshladi. U bir qadar Gegel ta'limoti ta'siri ostida edi. I. G. Droyzen ma'lum bir tizimni o'zi uchun o'zlashtirmadi va yangisini yaratmadi. U metafizikaga moyil bo'lib, bir-biriga uyg'unlashmagan qoidalarini bayon qildi. Droyzen o'tmishdoshlariga o'xshab g'oyalar to'g'risidagi ta'limotga asoslanadi. Ularning boshiga mutlaq yaxlitlik g'oyasini qo'ydi: «Biz faqat xudoda tarixni ko'rishimiz mumkin». U g'oya tushunchasi ostida «axloqiy kuchlarni» tushunadi. Ular ijtimoiy hayotning ma'lum bir muntazam shakllarini paydo qiladi, jonlantiradi (oilalar, davlat, xalq va h. k.). Demak, u tarixdagi g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni, uning hodisalarini ijtimoiy-tarixiy tadqiqotlar bilan qo'shishga harakat qiladi. G'oya yakkalikda qay miqdorda amalga oshirishiga qarab, tarixchi shunday qarashdan yakkalikni yaxlitlikka munosabatini tushunadi va uni tasvirlaydi. Keyin esa uning umumiy ko'rinishlarini o'rganadi.

Shunday qilib, XVIII asr o'rtalaridan falsafa tarix metodologiyasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsata boshladi. 1870-yillargacha barcha eng muhim tarix metodologiyasi asarlarida o'z aksini topdi. Shu bilan bir vaqtda falsafaning o'zi bilish nazariyasiga e'tibor bera boshladi. Tarix metodini ham ilmiy metodlar qatoriga qo'shishga to'g'ri keldi. 1870-yillar oxiri 1880-yillar boshlarida tarix metodologiyasiga yaqin aloqada bo'lgan bo'limlar paydo bo'ldi. Bunday tushunchalar Vundt va Sigvartlarga tegishli. Taniqli olim Vundt o'zining metod to'g'risidagi ta'limotida ongning birligi tushun-

chasini e'tibordan chetda qoldiradi. Alohida fanlarni ularning obyektlari har xil bo'lgani uchun tarqoq «mantiqlari» to'g'risida fikr yuritadi. Vundt o'zining alohida fanlar metodologiyasining qurilmasida birgina obyektни qarash mumkin bo'lgan turli xil bilish nuqtayi nazarining har xilligiga e'tibor berib qolmay, ularning obyektlarining yoki ular o'rganadigan «jarayonlarning» har xilligiga e'tibor beradi. Shu jihatdan muallif formal-konstruktiv fanlardan tashqari tabiat to'g'risidagi va ruh to'g'risidagi fanlarni farqlaydi. Ruh yoki psixologiya kabi umumiy fan ruh to'g'risidagi qolgan fanlarning qurilishi asosida yotishi lozimligini ta'kidlaydi.

«Psixologiya mantig'ini» bayon qilganidan so'ng muallif ijtimoiy (sotsiologiya, siyosiy iqtisod, huquq) fanlarni va «tarix fanlari mantig'ini», boshqacha aytganda, filologiya va tarixni ko'radi. U tarixni individuallashtirishdan ko'ra umumlashtiruvchi qarashdan qaraydi. Muallif psixologik tamoyillarni tarixiy jarayonlarni tushuntirishga ilova qiladi. U tarixiy taraqqiyotning umumiy shart-sharoitlari to'g'risida, tarixda uni qo'llashda maqsadga muvofiqligi tamoyili to'g'risida va psixologik mazmunda, tarix qonunlari to'g'risida gapiradi. Aslida tarix fani amaliy psixologiya tarixining eng umumiy qonunlari, psixologiya qonunlarining ozginasidir.

Vundt «tarix qonunlari» to'g'risidagi o'z tushunchasiga vaqt o'tishi bilan jiddiy cheklashlar kiritdi; tarixiy qonun faqatgina tarixiy hayotning qandaydir bir omili faoliyatiga nisbatan shakllantiriladi, tarixiy voqelik to'g'risida bir tomonlama tushuncha beradi. Omillarning murakkab kombinatsiyasini nazarda tutganda, «aniq tarixiy qonun» umuman yagona qonun ma'nosini oladi. U mavhumlashgan o'sha yagona tarixiy oqimni qo'llash kuchiga ega bo'ladi. Shunday qilib, Vundt tarixga umumlashtiradigan qarashni individuallashtirilgan bilan murosaga keltirishga harakat qiladi. Lekin yuqorida keltirilgan fikrda u juda keng ma'noda qonun atamasidan foydalanadi. Qonun to'g'risidagi tushunchani uni voqelikka tatbiq etish tushunchasi bilan qo'shib yuboradi. Boshqa xil tushunchalar bilan Vundt tarixchi birgina dalillar bilan ish ko'radi, ularga qo'llaniladigan qonunlar to'g'risida so'zlash imkoniyatidan mahrum, faqat ularni psi-

xologik talqin qilish bilan cheklanib qoladi, deb tan olishga majbur bo'ladi. U tarix obyektni aniqlashga taraddudlanadi, tarix doirasini cheklaydi. Uning taxminicha, insoniyatning umumiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatmaydigan yovvoyi xalqlarni yoki tarixini tarixchi emas, antropolog, etnolog va xalq psixologiyasi o'rganadi.

Tarixiy aloqa (tarixda sabab-oqibatning maxsus ko'rinishi) aynan nimadan iborat ekanini Vundt kam tushuntiradi. Ko'pincha, o'z teleologik qurilmalarida qonun to'g'risidagi umumiy tushunchadan foydalanadi. Vundt o'z asarining maxsus bo'limlarida tarixni o'rganish metodlarini bayon qiladi. Asosiy bilish maqsadlarini ulardan foydalanishda aniqlamaydi. Tarixiy tanqidning bosh usullari va talqiniga yuzaki e'tibor beradi. U tarixiy qurilmaning metodlari tavsifiga kam e'tibor beradi.

Sigvartning bu asari sohada birmuncha zamonaviyroqdir. U ko'proq nazariy bilishda tanqidiy qarashda turadi. Tabiiy fanlar metodologiyasini o'rganadi. Psixologiya, tarix metodologiyalariga ko'p yangilik kiritadi. Sigvart tabiiy bilish metodologiyasini tushunmasdan psixologiya va tarixga ko'chirishga qarshi chiqadi. Tarix metodologiyasi sohasida u dalillar to'g'risida fikr yuritadi.

Shu tarzda Vundt va Sigvart o'zlarining mantiqiy umumiy kurslariga tarix fani tamoyillari va metodlari to'g'risidagi ta'limotlarni olib kirdilar. Biroq uning vazifalari to'g'risida ular turli xil qarashlarda turdilar: Vundt — umumlashtiruvchi, Sigvart esa individuallashtiruvchi. Umumlashtiruvchi qarashdan tarixchi L. Burdo o'zining asarini yozdi. Uning fikricha, tarix fani «ijtimoiy» va «umumiy qonunlar»ni shakllantirishi lozim («O'xshashlik va izchillik qonunlari, progress qonunlari»). Buning uchun u doimiy takrorlanadigan dalillarni statistik kuzatish metodidan foydalanib, o'z umumlashtirishlarini insoniyat o'tmishi va kelajagiga tarqatishi lozim, degan fikrni ilgari suradi. Burdo o'z asarida tarixiy bilish obyektni evolutsiya qarashidan aniqlaydi. Tarix «tafakkur taraqqiyoti» to'g'risidagi fan, u «hayvonlar podsholigini» emas, tafakkur faoliyati bilan, tafakkur yo'naltiradigan yoki o'zida uning ta'sirini his qiladigan dalillar bilan tavsiflanadigan «odamlar

podsholigini» o'rganadi. Burdoning fikricha, ilmiy-tarixiy qurilishning vazifasi inson duch keladigan doimiy metamorfoza qonunlarini shakllantirishdir. Tarix fanining vazifasi «tafakkur qobiliyati bilan tavsiflanadigan buyuk jamoa mavjudotini», insoniyat tarixini hikoya qilishdir.

E. Friman shunga o'xshash fikrni empirik umumlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan xususiy formulada bayon qildi. U 1872-yilda ma'ruza bilan chiqib, «Tarixning yaxlitligi» g'oyasini rivojlantirdi. U o'rganilayotgan davrni insoniyat tarixiy taraqqiyotining butun bir davriga nisbatan munosabatini e'tiborga olgandagina uni tushunish mumkin, deb qat'iy turib oldi. Muallifning fikricha, bu tamoyil muhim ahamiyatga ega. Hech bo'lmaganda uni yevropa xalqlari tarixiga nisbatan qo'llash mumkin. Shu bilan birga Friman o'z fikrini asoslamadi. Tarix metodologiyasini qurish uchun undan kam foydalandi.

Rus adabiyotida bunday fikrni N. I. Kareyev ilgari suradi. U «tarix falsafasi» qonunlarini izlash bilan shug'ullanmaydi, faqat umum-insoniyat tarixining yagonaligi va uning muntazamligi masalasiga kelganda yo'naltiradigan g'oya va birlashtiradigan tamoyil bo'lmasa dalillarni tanlash ham, guruhlashtirish ham mumkin emas, «tarixni baholash uchun tarixchi istoriosofiya mezonidan, boshqacha aytganda, falsafiy o'lchovdan foydalanishi lozim» deb ta'kidlaydi.

U progress tushunchasini o'rganishga harakat qiladi. «Tarixiy progress nazariyasi» tajribasini beradi, uning umumiy qonunini shakllantirishga urinadi. Bilish nazariyasi sohasidagi turli oqimlar, ayniqsa, Kant, Mill, Vendelband va Rikkert asarlari ta'siri ostida tarix metodologiyasi muammolariga qiziqish kuchaydi. Tarixni fan sifatida umumlashtiruvchi yoki o'tmish to'g'risidagi bilimni yakkaolovchi fan sifatida ikki keskin qarama-qarshi fikrlar rivojlandi. V. Vindelband Kantning muxlisi edi. Uning fikricha, tarix umummajburiy qadriyatlar to'g'risidagi fandir.

Tarixga umumlashtiruvchi nazarda bo'lgan Ten, Lamprext, Breyzin va boshqalar, ayniqsa, tarixni aynan shu ma'noda tizimli

bayon qilishda tushungan olim Lakombdir. Uning fikricha, tarix sotsiologiyadan farq qilmaydi. Tarix inson sodir etadigan hodisalarni o'rganishi lozim. Ular o'zaro va umuman ma'lum bir makon va zamon chegaralarida o'xshash bo'ladilar. Lakomb tarixiy metod to'g'risida gapirib, uning asosiga psixologiyani qo'yadi.

Berngeym tarixiy bilimga umumiy tavsif beradi. Asosan, uning tarixni o'rganish obyektiga qaramligi—insonning maqsadni ko'zlaydigan faoliyatini nazarda tutgan holda tarixiy dalillarni psixologik tushuntirishga katta e'tibor beradi. Oqibatda tarix ommaviy yoki jamoaviy hodisalarni o'rganish bilan cheklanib qolmaydi. U tarixiy jarayonda alohida shaxslar va voqealarning o'rnini e'tiborga olishi lozim. Tarixiy voqealarning sabablarini aniqlash bilan shug'ullanib, tarixchi tarixiy jarayon yakka va jamoa kabi ikki omilning o'zaro harakati ekanligini bilishi lozim. Muallif tarix faniga shunday ta'rif beradi: tarix makon va zamonda kishilarning rivojlanishini cheklangan dalillari, ularning ijtimoiy mavjudot sifatida psixologik sababiyatli aloqa xarakteri mavjud bo'lgan nisbatda «o'rganadi» va «tasvirlaydi». Tarixning o'rganish obyekti—inson ijtimoiy mavjudot sifatida ma'lum davr va zamonda harakat qiladi. Boshqacha aytganda, madaniyatning qoldiqlari (bevosita yuz berayotgan voqelikdan qolgan va saqlangan hamma narsa) va rivoyatlar (o'tgan hamma narsa to'g'risida bevosita bizga uzatiladi) o'rtasidagi farqni o'rganadi.

E. Meyer «Tarix fani tamoyillari» to'g'risida fikr yuritadi. Uning fikricha, tarixchilar haqiqatan sobiq yagona dalillarni aniqlashga harakat qiladilar. U tarixiy dalil deb o'zining paydo bo'lishi bilan faoliyati to'xtab qolmaydigan, keyingi vaqtda ham harakat qiladigan dalilni tushunadi. Meyer notarixiy tarixiy progressga borayotgan xalqlar to'g'risida madaniy, siyosiy tarix, madaniyat tarixida «Individual omillarning o'rne», «Umumiy omillarning siyosiy tarixdagi o'rne» to'g'risida fikr yuritadi. Shuningdek, u tarixchi o'rganayotgan davlat va davlatlar tizimi, tarixiy metod, tarixiy tanqid, tarixiy tasvir, tarixiy manbalar (yodgorliklar, qonun hujjatlari, rivoyatlar) to'g'risida so'z yuritadi.

Tarix metodologiyasi bo'yicha yangi tadqiqotlarga nisbatan Langlua va Senobos e'tiroz bildirib, ular o'zlarining qisqa yo'riqnomasida tarixiy bilish nazariyasi to'g'risida emas, balki tarixni o'rganish metodlari hamda tarixiy tadqiqot texnikasi haqida fikr yuritadilar va tushuncha beradilar. Go'yoki tarixiy tadqiqot qoidasini uqtiradilar.

L. Danilevskiyning fikricha, tarixchilar, ko'pincha, tarixiy bilishning tamoyil va metodlarini texnik qoidalar bilan aralash-tiradilar. U Langlua va Senobosni tarix har qanday fan kabi kuzatishga asoslangan, kuzatishdan foydalanib qandaydir ilmiy xulosaga kelishlariga hech qanday huquqqa ega emas, atigi boshqa kuzatishlarning tasdig'i yo'li bilan bu juda yomon qilingan kuza-tishdir deya uqtiradi.

Yana bir tadqiqotchi Lendler o'zining «Tarix falsafasi» asarida tarixda barqarorlik va o'zgarishlar to'g'risida fikr yuritib, tarixiy jarayondagi «jamoaviy» va «individual» omillarga e'tiborni qaratadi. Har qanday shakllanish individual, tarixiy oqim esa jamoaviydir, deb taxmin qiladi. Shu qarashdan tarixiy jarayon tarixiy omillar («omma», «buyuk omillar», g'oyalar) to'g'risida eng muhim tarixiy guruhlarini (xalqlar, millatlar) tavsiflaydi. Ulardan mongollar, somiylar va hind-germanlarga asosiy e'tiborni jalb qiladi. Bundan tashqari, u xalqlar, davlatlar, cherkov va tarixiy tadqiqotlarni va madaniy, ijtimoiy-siyosiy ko'rinishlarda o'z tushunchasini beradi. Tarix metodologiyasi bo'yicha bir qator ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Mono o'zining «Tarixda metod» maqolasida «tarix— bu jamoa psixologiyasi» deb e'tirof etib, tarixchining eng oliy vazifasi «o'tmishni tiriltirishdir» deb e'lon qiladi.

Mononing fikricha, tarixning ideal maqsadi «insoniyat hayoti, vaqtlarini uning yaxlitligida rekonstruksiya qilishdir». Tarixiy dalil tabiatning har qanday boshqa hodisalariga o'xshab, o'zidan oldin o'tgan dalilda o'z sababiga ega. Ushbu qarashdan dalillarni tushuntirish, kombinatsiya qilish va umumlashtirish mumkin. Mono tarixchiga inson faoliyatida individual ijodiyotni ko'rib va belgilab bo'lmaydigan ulushini farqlash majburiyatini qo'yadi. Shu jihatdan Mono tarixiy bilim obyekti to'g'risida mushohada qiladi. Tarix «doimiy unsurlarning insoniyatga nasliy yo'l bilan o'tadigan an'ana,

ko'nikma, taqlid qilish kabi tarixiy jarayonlarga uzluksizlik tusini beradigan obyektni o'rganadi».

U tarixda tahlil va sintezning bir qadar batafsil tavsifini beradi. «Manbalar tahlili» va «dalillar tahlili» «tahlil» deb tushuniladi. Manbalarning uch asosiy turi ajratiladi: asarlar (yilnomalar, adabiy asarlar), rasmiy hujjatlar, yodgorliklar. Manbalarning haqiqiyligi tanqidi to'g'risida juda qisqa tushuncha beriladi. Mono «sintez» deb «tarixiy qurilish va umumlashtirishni», baholash deb psixologik talqin va tarix falsafasini tushuntiradi. «Qurilish» dalillarni baholash bilan yaqin aloqada turadi. Psixologiya tarixda sezilarli o'rin tutadi, chunki tarixchi odamlarning harakati bilan ish ko'radi. Odamlarning harakati esa o'ziga xos imo-ishoradir. Ular bilan tarixchi ularning vositasida ichki hayot qay darajada bilinishiga qarab qiziqadi.

4. XX asr tarix metodologiyasining xususiyatlari. XX asrning 30-yillarida pozitiv metodologiya amalda ko'pchilik tarixchilar uchun faoliyat quroli bo'lib qolaverdi. Ammo u o'z umrini yashab bo'lgan edi. Metodikada manbalar tanqidi texnikasida va dalillar tahlilida u yuqori darajada formal kulminatsiya cho'qqisiga chiqdi va yanada rivojlanish zahirasini tugalladi. Lekin pozitiv tarixshunoslik yangi davr ruhi va talablariga javob bermaydigan tasvirlovchi, muammosiz fan bo'lib qolaverdi. Klassik pozitivizm o'rniga neopozitivizm keldi. Pozitivizm atamasini ilk bor O. Kont fanga olib kirdi. Pozitivizm (lot. positivus—*ijobiy*) ijobiy dalillarga suyanib, o'zini materializm va idealizm qarashlaridan yuqori qo'yadi. Jamiyatga materialistik qarashni rad qiladi, obyektiv jamiyat qonuniyatlarini inkor qilib, tarixning borishini inson irodasiga taqaydi. Uning go'yalarini Vena universitetining fizik va faylasuflarini birlashtirgan Vena to'garagi shakllantirdi. To'garak tashkilotchisi Morits Shlek (1882—1936), faol a'zolari Otto Neyrat (1882—1945), Rudolf Karnap (1891—1970) va ayniqsa, Lyudvig Vitgenshteyn (1889—1951) mashhur «Mantiqiy-falsafiy traktat» (1921) asarining muallifi edi. Vena to'garagi neopozitivizmning qator asosiy tamoyillarini shakllantirdi. Bu tamoyillar bir necha qoidalarni tan olishga asoslangan edi:

Barcha ijtimoiy hodisalar tabiat va tarix uchun umumiy, universal bo'lgan qonunlarga bo'ysunadi (**Naturalizm**).

Ijtimoiy-tarixiy tadqiqot metodlari tabiiy fanlar metodlari kabi aniq, qat'iy va obyektiv bo'lishi lozim (**Sientizm**).

Inson yurish-turishining subyektiv jihatlarini aslida bevosita kuzatib bo'lmaydigan ongning tahlili bilan emas, balki ochiq qilmishlar va yurish-turish bilan tadqiq qilish mumkin (**Bi-xeviorizm**).

Barcha ilmiy tushunchalar, farazlar va tasdiqlar empirik protseduralar va amaliy tekshirishlar asosida o'rnatilishi lozim (**Verifikatsiya**).

Sotsiologiya va tarix baholash fikrlaridan va har qanday mafkuradan xoli bo'lishi lozim (**Metodologik obyektivlik**).

XX asr sovet tadqiqotchilari metodologiyasi asosida ham tarixiy materializm yotar edi. XX asrning ikkinchi yarmida tarix fani metodologiyasining rivojlanishida ikki bosqichni— 40—50-yillar va 60—80-yillarni ko'rsatish mumkin. Birinchi bosqichda metodologik yondashuvlar va tadqiqot metodlari, yo'nalish va maktablar ko'p bo'lsa-da, metodologiyada tarixni yagona, noyob hodisalar to'g'risidagi fan deb tushuntiradigan ideografik yo'nalish salmoqli o'rinni egalladi. Bu metodologiyaning milliy tarix maktablariga ta'siri bir xil bo'lmadi.

XX asrning 50-yillari oxiridan boshlab ilmiy texnika inqilobining keng tarqalishi tarixiy bilimda siljishlarga sabab bo'ldi. Tabiiy va aniq fanlarning jamiyatshunoslik fanlariga ta'siri, sotsiologik va siyosatshunoslik tadqiqotlari, tarixiy demografiya, tizimli tilshunoslikning rivojlanishi tarixchilarni miqdoriy metodlar xil-lashgan modellarga, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar tahliliga e'tiborni kuchaytirishlarni shart qilib qo'ydi. Tarixni o'rganish metodlari va vazifalarini qayta mushohada qilishga, tarixning ixtisoslashuv yo'lidan borishga olib keldi.

Bu «yangi tarix fani»ning (lot. skientia—*fan*) shakllanishida ko'rindi. Tarixni tabiiy fanlarga qarshi qo'yish ularning qat'iy umumiyligi tushunchasi bilan almashdi. Fanlararo metodlar, ijtimoiy va qisman tabiiy fanlarning metodlarini o'zlashtirish tarixni yangilashning bosh yo'li deb e'lon qilindi.

Tarixiy bilishning yangi metodologiyasini izlashda neokantchilik dunyoqarashining raqiblari lingvistikada ishlab chiqilgan strukturalizmga murojaat qildilar. Neokantchilik XIX asrning ikkinchi yarmida Germaniyada vujudga kelgan (vakillari Libman, Lange, Renue, Avlen). Neokantchilik Marburg (Kogen, Natorp, Kassirer) va Baden (Vendelband, Rikkert) maktablarida to'la shakllandi. Bu yo'nalish tabiiy va ijtimoiy fanlarni I. Kantning amaliy va nazariy tafakkur to'g'risidagi ta'limoti asosida qarama-qarshi qo'yish, ijtimoiy voqelikni ilmiy bilish mumkin emasligi va faqat normativ-teleologik asosda qarash mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Strukturalistlar masalaning yechimini bilish jarayonidan subyektivlikni iloji boricha yo'qotishni, birinchidan, tadqiqot obyektining tegishli tanlovida, ikkinchidan, bilish jarayonida yangi metodlarni qo'llashda ko'rdilar. Ular subyektiv holatlardan xoli «ongsiz tuzilmalar» deb nomlanadigan kategoriyani ajratdilar. Ular iqtisodiy munosabatlar, urf-odat va an'analar, miqlar, e'tiqodlar va h. k. tadqiqot jarayonini o'zidan subyektiv unsumni bartaraf qilishning boshqa usuli sifatida tarix faniga tabiiy fanlar metodlarini tatbiq qilishni taklif qildilar. Ijtimoiy tuzilmalarni tadqiq qilishning bosh obykti sifatida ilgari surib, yangi metodologiya ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, ijtimoiy hayot hodisalarini o'rganish imkoniyatini yaratdi. Bularning barchasi tarixiy tadqiqotlar hajmini kengaytirdi. Yangi tarixiy fanlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

«Yangi tarix fani»ning yangi mavzularga chiqishi tarixiy tadqiqot metodikasini ham o'zgartirdi. Miqdoriy tahlil va fanlararo yondashuv uning sezilarli unsurlariga aylandi. Ularning asosiy qo'llash sohalari iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tarix bo'ldi. Yangi tarix fani 40—50-yillarda ideografiyaga xos bo'lgan subyektivlik va irratsionallikning ko'rinishlarini bartaraf qilishga erishdi. U tadqiqotning miqdoriy metodlarga tayanib, ommaviy manbalar, statistik seriyadagi minglab bir xil dalillarni tahlil qildi.

Hozirgi kunda insoniyat taraqqiyoti tarixi bo'yicha jahon fanida mavjud bo'lgan yangi nazariya va konsepsiyalar to'g'risida tushuncha beradigan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni o'zbek tiliga tarjima qilish, metodologiyada tegishli o'zgarishlar qilish ehtiyoji mavjud. Zamonaviy jahon tarixi metodologiyasi fani bo'yicha

yangi tushunchalar va atamalarning ilmiy nazariy asoslangan izohli adabiyotlari nashr etilishi zarur. Hozirgacha milliy tarixshunoslik fani tarixiy jarayonni ilmiy tahlil qiladigan konseptual qarashlarga ega emas. Bu tarix fanini o'qitish va o'rganishda qiyinchilik tug'diradi.

Mustaqillik sharofati bilan tarixiy tadqiqotlarga metodologik yondashuv Prezident I. A. Karimovning «Milliy o'zligini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umum-bashariy qadriyatlari ideallaridan ajralib qolish mumkin emasligi va bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish, kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir», degan ko'rsatmalaridan kelib chiqadi. Bu ko'rsatmalar quyidagi vazifalarni belgilaydi: «Tarix va hozirgi zamon voqealiklariga murojaat qilish bizning ijtimoiy tafakkurimizdan hayotni idrok etishning mavhum va aqidaparastlik qoliplarini yengib o'tishni, mustaqil fikr yuritish va ro'y berayotgan hodisalarni baholay olish qobiliyatini talab qiladi». Keyingi yillarda qator chet el tarix maktablarida umuminsoniy qadriyatlarga katta e'tibor bilan qaramoqdalar.

Tayanch iboralar: *Senobos, tarixiy bilim obyekti, dalillar tahlili, progress, markscha ta'limot, sotsialistik g'oyalar, konseptual, sintez, tarixiy tanqid, tarixiy tasvir, tarixiy manbalar, individual, tarix nazariyasi, konsepsiya, annallar maktabi, metodologik plyuralizm, traktat, tarixni yozish san'ati, Mabli, Burdo, Gervinus, Gegel, L. Danilevskiy, Kant, Mill, Vindelband, pragmatik, dunyoviy ruh, Vundt, tarixiy qonun, tarixiy aloqa, E. Meyer, bilish nazariyasi.*

Takrorlash uchun savollar:

1. Tarix fani metodologiyasining rivojlanish bosqichlarini ko'rsating.
2. Yangi davrda shakllangan tarix fani metodologiyasining unsurlarini ayting.

3. *Gegelning tarixning mazmuni to'g'risidagi tushunchasini izohlang.*
4. *XIX asrda tarix fani metodologiyasi rivojlanishining asosiy xususiyatlari nimada edi?*
5. *XX asr tarix fani metodologiyasining o'ziga xos xususiyatlari qaysilar.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Tarix fani metodologiyasining rivojlanish bosqichlari.*
2. *Yangi davrda tarix fani metodologiyasining fan sifatida shakllanishi.*
3. *XIX asr tarix fani metodologiyasining mazmun-mohiyati.*
4. *XX asr tarix fani metodologiyasida asosiy konsepsiyalar.*

5- MAVZU.

MADANIY ANTRPOLOGIYA. TARIXIY INFORMATIKA

1. *Madaniy antropologiya.*
2. *Tarixiy informatika.*
3. *Kliometrika.*
4. *XX asr tarixshunosligida modernizm an'analarining ko'rishlari spektri.*
5. *Model tushunchasi. Tarixiy hodisalarni modellashtirish.*

1. Madaniy antropologiya — turli xalqlarda jamiyatning madaniy jihatdan hayotiyligini o'rganadigan fan. Madaniy antropologiya irqnlarni tasvirlash bilan shug'ullanadigan jismoniy antropologiyadan, insonning tabiatini o'zi belgilaydigan, inson hayotining o'ziga xos tomonlarini o'rganadigan falsafiy antropologiyadan farq qiladi. Bu fan turli xalqlarning ijtimoiy muassasalarini o'rganadigan ijtimoiy antropologiyaga yaqin turadi. Madaniy antropologiya ijtimoiy gumanitar fanlarning metodlaridan foydalanadi. Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash uchun zamonaviy matematik apparatdan foydalanadi va bundan tashqari maxsus metodlar (kinoga olish, intervyuning alohida usullari) dan foydalaniladi.

Madaniy antropologiyaning vazifasi mavjud madaniyatlarning tili, urf-odatlarini, ijtimoiy normalari, yurish-turishlari, psixologiyasi, o'zaro madaniy faoliyati, madaniyat dinamikasi, madaniyatlarning kelib chiqishi, ularni tushunishni o'rganadi. Sotsiologiya bilan birgalikda ijtimoiy muassasalar va ularning madaniy funksiyalarini, yaxlit va qismlarini, dinamikasini, uning o'z-o'zini tashkillashtirishini va adaptatsiyasini; ijtimoiy hodisalarni, keng qamrovli asosda yotadigan qandaydir ajratishga urinish (strukturalizm) hamda tilining tafakkurga, individ qadriyatlar tizimiga madaniyatning ta'sirini, falsafiy masalalarini o'rganadi.

Tor ma'noda «madaniy antropologiya» G'arbiy Yevropa va ayniqsa, Amerika antropologiyasining XX asr boshlari va o'rtalaridagi yetakchi maktablarini belgilash uchun ishlatiladi. Bu ilmiy yo'nalishning asoslari Fr. Boas tomonidan yaratilgan.

E. Sapir, A. Kreber, R. Benedikt, M. Midl, M. Xerskovits madaniy antropologiyaning ~~eng~~ taniqli vakillari hisoblanadi. ~~Runing~~ = shakllanishiga psixologiya (psixozanaliz), tarix falsafasi va eng avvalo, Boas va uning izdoshlarining empirik tadqiqotlari ta'sir ko'rsatdi. Bu fanda asta-sekin maxsus bo'limlar: etnolingvistika, okkulturatsiya (madaniyatni qabul qilish), etnomuzeologiya, ibtidoiy san'atni o'rganish va shunga o'xshashlar paydo bo'ldi.

Madaniy antropologiyaning falsafiy asoslari ~~da~~ tasvirlaydigan asosiy belgilardan ~~biri~~ ~~evolutsionizmni inkor qilishdir.~~ Antropologiyada XIX asr ma'rifatparvarlik davrida vujudga kelgan progressning olg'a harakati har bir jamiyat o'z taraqqiyotida ma'lum bir bosqich (faza)larni bosib o'tishi lozim degan tushuncha ustuvor ahamiyatga ega. Turli ijtimoiy-falsafiy oqimlar ibtidoiydan monoteizm kabi yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiya; urug'chilik, quldorlik, feodal, kapitalistik, kommunistik jamiyat bosqichlarini ajratdilar. Fr. Boasning tadqiqotlaridan boshlab bu tushuncha chekina boshladi. Bir madaniyat o'zining takrorlanmas yo'liga, faqat o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot mazmuniga ega tushunchasini tan olish boshlandi. Bu yondashuv jamiyatlarni «ibtidoiy» va murakkabga ham bo'ladi.

Madaniy antropologiyaning yana bir belgisi — ilmiy haqiqat qarashidan, etnomarkazlashuvdan qochish, baho berishdan, subyektiv talqinlardan tiyilish, begona madaniyat voqeligini uning o'zini qarashiga qarab tadqiq etilayotgan madaniyatga «kirib ketish» va h. k.

Madaniy antropologiyaning uchinchi o'ziga xos belgisi madaniyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tadqiqotiga alohida e'tibor berilishidir. Yana bir ilgari suriladigan muammo — madaniy yaxlitlik yoki madaniy me'yorlar orasidagi ichki moslikdir. R. Benedikt «mavzu yaxlitligi» tamoyili bo'yicha integratsiyaga e'tiborni qaratadi. Boshqacha aytganda, madaniyatning turli unsurlarida bir yo'nalishdagi o'zaro orientatsiyani ko'rsatadi. Misol

uchun, Zuni hindulari jamiyati barcha mazmunda yagona ruhda tavsiflanadi: bu metodologik, aqliylik, konservatizm. Qadriyatlar tizimida qo'shni Preriyadagi hindularda hissiy chegara bilmaslik, agressivlik yuqori darajada baholanadi. Ruhan har xil bo'lgan madaniyatlar bir xilda hayotga qobiliyatlidir.

Antropologiya tushunchasi 1870-yillar boshlarida paydo bo'ldi. Antropologiya fani 1979-yildan AQSHdagi Rochester Universitetida, 1984-yildan Oksford Universitetida o'qitila boshlandi. Turli xalqlarda, turli davrlarda moddiy va ma'naviy madaniyatning turli xilligini tushuntiradigan asosiy yondashuvlar paydo bo'ldi.

~~Shu bilan bir vaqtda madaniy antropologiya o'rganadigan muammolarga qat'iy qaraydi~~ ^{Ma'lumot beradigan} ~~qat'iy qaraydi~~ ^{Ma'lumot beradigan} Demokrit, Tit Lukretsiy Kar antroposotsiogeneznining ilk konsepsiyasini shakllantirgan edilar. Ijtimoiy-psixologik va siyosiy hodisalarning tabiiy-geografik shartlanganligi g'oyasini Gippokrat ilgari surdi. Tarixchi Tatsit ehtimol birinchi etnograf bo'lgandir. U sivilizatsiyaga varvarlikni qarshi qo'ydi. Sivilizatsiyaga axloqning yemirilishi xosligini ko'rsatdi.

XVI—XVIII asrlarda buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Yevropada dunyo to'g'risidagi ma'lumotlarning ko'payishi antropologiyaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Piyetro Martira, Mishel de Monten, Jan Jak Russo va Deni Didrolarning «ibtidoiy xalqlar»ning ijtimoiy tuzumini ideallashtirgan «baxtli yovvoyi» konsepsiyalari keng tarqaldi.

XIX asrda Fergyusson, Kondorse, Tyurgoning tarixiy progress, nemis madaniyat tarixchisi Gerder hamda «mifologiya maktabi» g'oyalari antropologiyaning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

XIX asrda insoniyat madaniyatining oddiy shakllardan yanada murakkab shaklga o'tishi ^{qaraydigan} ~~qaraydigan~~ chiziqli evutsionizm paydo bo'ldi. Uning vakillari Jeyms Frerer, Lyusen Levi Bryul mustamlakalardagi tub joy aholining «ibtidoiy» jamiyatlarini tanqid qildilar.

Zamonaviy antropologiyada ilmiy qimmatga ega bo'lgan funksionalizm XX asr boshlarida paydo bo'ldi. U etnografik bilimlarning ko'p to'planishi, etnograf ishida dala metodini Bronislav Malinovskiyning qo'llashi bilan bog'liq. «Ibtidoiy» xalq-


larning madaniyati yaqindan qaralganda odatdan tashqari g'oyat murakkab va xilma-xilligi yaqqol ko'rindi. Funksionalist olimlar Bronislav Malinovskiy, Alfred Radkliff Braun madaniyatga bir-biri bilan o'zaro funksional aloqalarda bo'lgan normalar, qadriyatlar, marosimlar, urf-odatlarining to'plami sifatida qaradilar.

2. Tarixiy informatika. Tarixiy informatika bilim sohasi sifatida 1980—1990-yillarda bilimning amalda barcha sohalarini qamrab olgan global axborotlashuv sharoitlarida, informatika va tarixiy tadqiqotlar tutashgan joyda paydo bo'ldi. Bu vaqtda «sohaviy» informatika iqtisodiy, ijtimoiy tadqiqotlarda, huquqshunoslik kabi barcha boshqa qator bilim sohalarida paydo bo'ldi.

Tarixiy informatika atamasining o'zi 1990-yillarda ikki xil mazmunda ishlatila boshlandi. XX asrning so'nggi yillarida shaxsiy kompyuter muntazam mukamallashib bordi. Natijada samarali va o'ziga tortadigan, yangi bilimni ishlab chiqish bilan bog'langan intellektual mehnat quroli va uning taqdimoti barcha sohalariga kirib keldi. Shu jumladan, tarixni o'rganishdagi o'rni borgan sari oshib bordi.

(Bu vaqtda jahon tarixnavisligida bir necha o'n yillar davomida kliometrik tadqiqotlar olib borildi. Mashina o'qiydigan arxivlar va ma'lumotlar bazasini yaratish tajribasi yuzaga keldi. Tarixiy tadqiqotlar uchun statistik dasturlar paketlari yaratila boshlandi.

Shu tarzda genetik tarixiy informatika tadqiqotlarda miqdoriy metodlardan tizimli foydalanish bilan mahkam bog'landi. U tax-



minan XX asrning 50—60-yillari oralig'ida kliometriy (kliometrika) yoki kvantativ tarix nomini oldi.

Zamonaviy tarixiy informatika taraqqiyotining yo'nalishlari:

1. Tarixchilar uchun informatika;
2. Kompyuter manbashunosligi;
3. Kliometrika (kompyuter);
4. Tarix ta'limotida axborot texnologiyalari.

3. Kliometrika. Kliometrika (kliometrika — so'zma-so'z «tarixning o'Ichovi») 1960-yillar atrofida paydo bo'ldi. Tarixiy tadqiqotlarda miqdoriy ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha tizimli yo'nalish shakllana boshladi. Uni iqtisodiyot tarixi bo'yicha mutaxassislar o'z fanlari rivojlanishidagi yangi yo'nalishni belgilash uchun fanga kiritdilar. 1960-yillarda tarixchi-kliometrikalarning birinchi birlashmalari hamda tarix bo'yicha birinchi bazalar va mashina o'qiydigan ma'lumotlar arxivi paydo bo'ldi.

Tarixchi-kliometrikalarning birinchi birlashmalari. 1965-yil AQSHda ijtimoiy fanlarda miqdoriy metodlarni qo'llash bo'yicha komissiya tuzilgan. Uning homiyligi ostida mutaxassislarning seminarlari o'tkazilgan. Diskreativ statistika qo'llash yo'li bilan yozilgan ishlar chop etilgan.

Universitetlararo konsorsium va sotsial tadqiqotlar instituti siyosiy fanlar markazi AQSHning 210 ta universitetini birlashtirdi. Bu universitetlarda kliometrik tadqiqotlar o'tkazilgan. Fransiyada 1960-yillarda tarixchi-kvantifikatorlarning birlashmasi markazi bo'lib «Annalar» tarixiy-ilmiy jurnali xizmat qildi.

Tarixiy tadqiqotlarda miqdoriy metodlarni tizimli qo'llash 1950—60-yillar oralig'ida bir vaqtning o'zida AQSH va SSSRda boshlandi. Kliometrika yoki kvantativ tarixning shakllanishi shart-sharoitlari o'ziga xos kompleks sifatida berilgan. Kliometriya taraqqiyotining texnologik, ilmiy, axborot shart-sharoitlari yuzaga keldi.

1960-yillar kliometrik tadqiqotlar boshlandi. 1970—1980-yillar oralig'ida tarixiy tadqiqotlarda kliometrikadan keng ko'lamda foydalanish boshlandi. 1980—2000-yillar oralig'ida tarixiy informatikaning rivojlanishi bilan kliometrik tadqiqotlarda yangi bosqich boshlandi.


Kliometrik tadqiqotlar tarixni qat'iy ilmiy fanga aylantirish g'oyasi belgisi ostida rivojlanish tusini oldi. Tarixchi kvantativlar o'z ishlarida ijtimoiy fanlarning metodlaridan foydalanish yo'lini tutdilar. XX asr tarixshunosligida bu an'ana tarixiy modernizm nomini oldi. Taxminan o'n yillar ichida tarixshunoslikda modernizm an'anasining butun bir ko'rinishi shakllandi.

Kliometriklar o'z tadqiqotlarini «yangi iqtisodiy», «yangi ijtimoiy» va «yangi siyosiy» tarix deb atadilar. Bu atamalar ular tomonidan tarixiy dalillarni ratsional-mantiqiy tushuntirishga yo'naltirilgan ilmiy, xolisiy tarix sinonimlari sifatida ishlatildi. U «eski», voqeaviy-tasviriy va subyektiv tarixga qarama-qarshi qo'yildi.

Kliometrika keng ma'noda: kvantativ tarix (ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy); tor ma'noda: iqtisodiy nazariya va kliometriyaning tarixiy jarayonlar va hodisalarni tasvirlash va tushuntirish demakdir.

Eng yangi maxsus adabiyotda kliometrikaning sinonimi sifatida uchraydigan tarixiy kompyuter atamasi baribir tor ma'nodagi aniqlashtirishdir.


Tarixiy kompyuter



Tarixiy tadqiqotlarda miqdoriy metodlarni qo'llash imkoniyatini o'rganish predmeti sifatida tarixiy borliqning o'ziga xos tavsiflariga asoslanadi. Bu atamani ko'p xillikda belgilash tarixning interpretatsiyasida tadqiqotning turli metodlarini qo'llash maqsadga muvofiqligidan darak beradi.

Miqdoriy tahlil va matematik modelashtirish zamonaviy tarix fani metodlari tizimi sirasiga tadqiqotni tasvirlash metodlari bilan bir qatorda kiradi.

Tarixiy borliq



O'ng tomonda berilgan tarixiy borliqni belgilash tarixchi-tadqiqotchini alohida tizimlar va tizim ostining tuzilmali unsurlarini o'rganishga hamda tizimning ichki va tashqi funksional aloqalarini aniqlashga yo'naltiradi. Bu tadqiqotning tarixiy-tizimli metodlari uchun xos bo'ladi. Undan foydalanish tarixiy voqelikni o'rganishning tasviriy tahlil va miqdoriy metodlarining hamohangligida ko'proq samarali bo'ladi. Miqdoriy metodlar tizimning turli unsurlarining o'zaro aloqalari qalinligini o'lchash imkoniyatini beradi. Oqibatda u asosiy, eng ahamiyatli va ikkinchi darajalilarni aniqlashga ham yordam beradi.

Shuni unutmaslik kerakki, tarixiy manbalarda (ayniqsa, yangi va eng yangi davrda) ma'lumotlarning bir qismi so'z tasvirida berilmay, son ko'rsatkichlari to'plami bilan beriladi. Ulardan ma'lumotni samarali olish (hodisaning tavsifi uchun ahamiyatli bo'lgan)ni faqat miqdoriy metodlarni qo'llash bilan amalga oshirish mumkin.

Tarixiy tadqiqotda miqdoriy tahlil

— O'rganilayotgan tabiiy hodisaning uni olingan miqdor tavsiflari tizimlari asosida mohiyat-mazmunli tahlil.

— Foydalanilayotgan tarixiy manbalarning axborotligini o'stirish vositasi bo'lishi mumkin. Asarda undagi bir qism ma'lumotlar sonli (statistik) ko'rsatgichlar bilan ifodalangan va narrativ (so'z-tasvirli) hujjatlar bilan ishda.

— So'nggi holatda narrativ yoki undan olingan ma'lumotlarni formallashtirish amalga oshiriladi.

Matematik modellash

— Tarixiy tadqiqotda yuqori darajada formallashtirish va mavhumlashtirishning yuqori darajasini aks ettiradi.

— Tarixiy voqealar va jarayonlarni o'rganishda tizimli yondashuvga asoslanadi.

— O'rganilayotgan tarixiy borliqda aniqlangan tizim va tizim osti tuzilmalarning funksiyalarini tahlil qilish maqsadini ko'zlaydi.


Tarixiy voqea

— Boshqa voqealarda qaytarilmaydigan, faqat o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan individual (yagona xususiyatli) voqelik.

— Har bir tarixiy voqeada umumiy va alohida belgilarga ega belgilarning to'plami uni tizim sifatida qarashga imkon beradi.

— Tarixiy voqeada umumiylik va xususiylikning yaxlitligi odam faoliyatining turli xillari va ko'rinishlari bilan tashkil topadi. Odamlarning turli xil tarixiy vaziyatlarda harakati uchun xos bo'ladi.

Tarixiy jarayon



Tarixiy tadqiqotning tasviriy metodlari

Tarixiy genetik

Tarixiy genetikning rivojlanishini tahlil qilishga qaratilgan, uning sababiyatli-oqibatlari, aloqalari va bosqichlarini aniqlashga qaratilgan.

Tarixiy qiyosiy

- Voqelik mohiyatini boshqalar bilan qiyoslash yo'li orqali tavsiflanadi.
- Umumiy va takrorlanadigan (qonuniyatli) va aloqadorlik aniqlanadi.
- O'xshashlik asosida umumlashtirish imkoniyatini beradi.
- Imkoniyati cheklangan taraqqiyot dinamikasini o'rganish uchun cheklangan imkoniyat.

Har ikkala metod narrativ manbalar bilan an'anaviy ishlash orqali cheklangan.

Tarixiy tipologik

— O'rganilayotgan voqealar to'plamini turkumlaydi, unga kiradigan tiplarni ajratgan holda;

— Tipologiya jiddiy belgilar kompleksi asosida tiplashtiradi, ko'pincha, miqdoriy ifodalangan holda;

— Ko'p o'ldiruvchi turkumlash: KM dan foydalananda samarali;

— Qo'llash chegarasi qo'yilgan masala xususiyati, manbalar axborot samarasi bilan belgilanadi, tarixiy dinamikani o'rganish uchun samarasiz.

Ularning samaradorligi miqdoriy metodlar bilan hamohangligi orqali oshadi.

Tarixiy tizimli


— Tarixiy voqeani tizim sifatida tushunishga asoslangan, uning yaxlitligi, barqarorligi, yetuk darajasi bilan aniqlangan;

— Voqelikni tuzilmali tahlil qilishga yo'naltirilgan va uni funktsional tahlil qilishga yo'naltirilgan;


— Tizimlarni o'rganishga, KM dan samarali foydalanishga asoslangan;

— Qo'llash chegaralari: taraqqiyot jarayoni o'rganish uchun foydasiz, o'rganilayotgan obyektni haddan tashqari formallashtirish bo'lishi mumkin.

4. XX asr tarixshunosligida modernizm an'alarining ko'rinishlari spektri.



«Yangi iqtisodiy» tarix 1960-yillarda amerikalik tarixchilarning ko'pgina tadqiqotlari bilan belgilanadi. Sovet kliometrikleri ham, asosan, agrar tarix muommolari va milliy bozor taraqqiyoti tarixi bo'yicha ish olib bordilar.



C

Yangi sotsial» tarix XX asrning 60 -yillarida «Annalar» maktabi fransuz tarixchilari tomonidan faol ishlab chiqildi.

O'sha yillardagi kliometrik tadqiqotchilarning eng yorqin tadqiqoti Le Rua Ladurining «Langedok dehqonlari» asari edi. U ommaviy demografik manbalar asosida hududning «total» tarixini yoritishdan iborat edi. Natijada Laduri aholi dinamikasi va oziq-ovqatlarga baholar, uzun sikllar o'zaro aloqalari statistik tahliliga asoslangan «odamlarsiz» tarixni keltiradi. Kliometrik «bum» yillari turli mamlakat tarixchilarining bir qismi miqdoriy metodlarni keng spektridan foydalanish bo'ldi. Tarixiy hodisalarni model-lashtirish Amerika va Sovet tarixshunosligida kliometrik tadqi-qotlarning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Bu davrning banklari va ma'lumotlar bazasi muammoli yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'ldi. U yoki bu ilmiy masalaning yechimi aniq matnda yaratildi. Ulardan eng vakolatlisi «Fila-delfiyaning sotsial tarixi» loyihasi edi.

1970 – 1980-yillar o'rtasi kliometrik «bum»

«Yangi sotsial» tarixni o'rganishning asosiy muammolari

Alohida hududlar, davlatlar miqyosida tarixiy geografik jarayonlarni o'rganish

Ommaviy ma'lumotlar asosida mentalliklar tarixini o'rganish

Industriyashtirish va urbanizatsiyada sotsial jarayonlarni o'rganish

Etnik va irqiy tuzilmalarning rivojlanish an'analari va barqarorligining tadqiqoti

Makrodarajada jamiyat-dagi sotsial munosabatlar tuzilmasini o'rganish

Kichik oila evolutsiyasining mikrodarajada kishilik munosabatlarini o'rganish

«Bum» davrida milliy kliometrik maktablar shakllandi. Zamonaviy tarixshunoslar ulardan eng ahamiyatlilar deb amerika, fransuz, sovet, nemis maktablarini hisoblaydilar.

«Yangi siyosiy» tarix u yoki bu tarixiy vaziyatda siyosiy elitaning harakatlarini o'rganishga yo'naltirilmadi. U siyosiy statistikaning ommaviy ma'lumotlari asosida odamlarning katta va kichik guruhlarining siyosiy yurish-turishlarini tadqiqot qilishga yo'naltirildi.

- Hokimiyat tuzilmalariga saylovlarda ovoz berish natijalari.
- Petitsiyalar, siyosiy qog'ozlar.
- Vakillik muassasalarida siyosiy fraksiyalar ovoz berishi natijalari.
- Partiya funksiyalari, deputatlar va amaldorlarning anketa materiallari va xizmat ro'yxatlari.

«Yangi siyosiy» tarix tadqiqotlarining asosiy muammolari

Saylovlarda ommaning xatti-harakatlarini o'rganish

Siyosiy tushkuntiklar vaqtida ommaning o'zini tutishini o'rganish

Partiya —siyosiy guruhlar-ning shakllanish meza-hizm-lari va ularning o'zini tutishini o'rganish

Partiya funk-sionerlarining yurish-turishini o'rganish

Funksiyalar va amaldor-larning siyosiy koryerasi trayektoriyasi tadqiqoti

5. Model tushunchasi. Tarixiy hodisalarni modellashtirish. Tarixiy hodisalarni modellashtirish — tarixiy tadqiqotlarda miqdoriy metodlardan foydalanishning yuqoriroq va murakkab darajasi. Shu bilan birga u yoki bu tarzda o'tmishni tushuntirib berishga yordam beradigan tarixiy hodisa yoki jarayon modeli yaratiladi.

1970 – 1980-yillarda modellashtirishning ikki ko'rinishi aks etgan: o'lchovli va imitatsion (dalillarga qarshi). Modellashtirishning

birinchi tipidan 1970–1980-yillarda sovet kliometristlari, ikkinchi tipidan xorij kliometristlari foydalanganlar. Kliometrik «bum» o'tgach, tarixiy modellashirishni qo'llash sohasi toraydi. U, ko'pincha, iqtisodiy tarix mutaxassislari tomonidan foydalaniladi.

«Model» atamasini izohlashning ba'zi variantlari

Obyektning mohiyatini ifodalashni mavhumlashtirish, obyektga o'xshash, kvazi-obyekt. (Kovalchenko)

O'ziga xos mavhumlashtirish, nazariy mavhum tafakkur va xolisiy voqelik o'rtasidagi oraliq bo'g'in.


Modellarning funksiyasi tadqiqot va evristik bo'lishi mumkin, redutsiya qiladigan, oddiylashtirilgan, tushuntiradigan, boshqaradigan va umuman — tadqiqotni formallashtiradigan, ko'pincha, modellar nazariyasi ustidan ko'priq qurish uchun qo'llaniladi. (P. Doorn)

Voqelikning oddiylashtirilgan qurilmasi, taxmin qilindigan ahamiyatli munosabatlarni umumlashgan shaklda ko'rsatish (Charli I. Xettet)

Fenomenlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tasvirlash yoki oldindan aytish uchun foydalaniladigan umumlashgan konstruksiya (Xanneman)

Turli talqinlarga ko'ra model:

- Nazariy mavhumlik.
- O'rganiladigan obyektning ahamiyatli tomonlarini qayta tiklaydi yoki imitatsiya qiladi.
- Uning ichki va tashqi aloqalar tizimiga ega bo'lgan ma'lum bir tuzilma sifatida tasavvur qilishga yordam beradi.



Tadqiqotchi tomonidan mavhum-mantiqiy (so'zli) model-lashtirish bosqichida o'zaro aloqalar tizimini aniqlash, keyin esa tarixiy hodisaning matematik modeli formula va koeffitsientlar yordami bilan tasvirlanadi. Bu hodisaning belgilangan ahamiyatli tomonlarining o'zaro aloqalari o'zaro harakati va tiqilinchligining darajasini keyin belgilash uchun zarur.

Aks etadigan — o'lchovli modellar:

Modellashtirishning birinchi tipi aks ettiruvchi — o'lchovchi model 1960–1980-yillarda sovet kliometrikleri orasida keng e'tirof etilgan.

Bunday modellardan, asosan, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni o'rganish uchun foydalanilgan. U sovet marksist tarixshunosligining hodisalarning ichki mohiyatini tadqiq qilishga; harakatlantiruvchi kuchlarning tahliliga; tarixiy taraqqiyotning qonuniyatlari va o'ziga xos tomonlariga e'tiborni qaratganlarida aks ettiradi.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlarning tuzilmasini modellashtirish qachonlardir K. Marks «Kapital» ustida ish jarayonida taklif qilingan tamoyillarga tayanadi.

Tayanch iboralar: *Madaniy antropologiya, urf-odatlar, ijtimoiy normalar, madaniyat dinamikasi, etnomuzeologiya, etnolingvistika, okkulturatsiya, monoteizm, strukturalizm, tarixiy progress, monoteizm, mifologiya maktabi, chiziqli evolutsionizm, strukturali metod, K. Levi Stross, M. Fuko, J. Lakon, R. Bart, manifestatsiya, tarixiy informatika, kliometriya, model, miqdoriy tahlil.*

Takrorlash uchun savollar:

1. *Madaniy antropologiya tushunchasini izohlang.*
2. *Madaniy antropologiya taniqli vakillari konsepsiyalarini bayon qiling.*
3. *Zamonaviy antropologiya o'ziga xos xususiyatlari.*
4. *Tarixiy informatika deganda nimani tushunasiz?*
5. *Zamonaviy tarixiy informatika taraqqiyotidagi yo'nalishlarni ayting.*
6. *Kliometrika nima?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Madaniy antropologiya genezisi.*
2. *Miqdoriy tahlil va matematik modellashtirish.*
3. *Tarixiy genetik tahlil.*
4. *Kliometriyaning asosiy maktablari.*
5. *Model tushunchasi va uning tarixiy tadqiqotda qo'llanilishi.*

IKKINCHI QISM

TARIX FANINING NAZARIYASI VA METODI MUAMMOSI

6-MAVZU.

TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONINING ILMIY TALQINLARI

1. *Jahon sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotini o'rganish.*
2. *Tarixiy taraqqiyot jarayoni qonuniyatlarini o'rganish.*

1. Jahon sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotini o'rganish. Tarix fan sifatida ko'p bo'g'inli hisoblanadi. Barcha insoniyat taraqqiyotini o'rganish (umumjahon tarixi), uning alohida bosqichlari (qadimgi dunyo tarixi, o'rta asrlar va shunga o'xshash), alohida mamlakatlar, faoliyat turi yo'nalishlari (iqtisodiyot tarixi, san'at, fan, urushlar va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Tarix fanlari piramidasining cho'qqisi — bu tarix falsafasidir. U jahon va lokal sivilizatsiyalar taraqqiyotidagi qonuniyatlar va an'analarni aniqlashga yordam beradi. Turli xalqlarning o'sish va tushkunlik sabablari, hozirda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning tarixiy ildizlarini tushunish, kelajakda ularning o'zgarishini oldindan ko'rishga yordam beradi. Shu bilan birga o'tmishni o'rganish, butun dunyo taraqqiyotini ilmiy bilish, ijtimoiy ongning hozirgi tushkunlik holatini bartaraf qilishning, tarixga yangi qarashning shakllanishi va kelajak taraqqiyot istiqbollari birlashning kuchli omili bo'ladi.

XX asrning mashhur tarixchisi Fernan Brodelning quyidagi xulosasini inkor etishlik qiyin: «Men istardimki, ijtimoiy fanlar sohasidagi mutaxassislar tarixda bilish va tadqiqotning faqat vositasini ko'rsinlar. Bugungi kun o'zining yarmidan ko'prog'i bilan o'jarlik qilib yo'qotishga urinilayotgan o'tmish hukmronligi

ostida turgan emasmi? O'tmish o'z qonuniyatlari, o'zining o'xshashliklari vositasi bilan bugungi kunni har qanday jiddiy tushunish uchun zarur kalit emasmi? Bu kalitdan foydalanaylik!» Haqiqatan o'tmish tarixni o'rganishning asosiy sabablaridan biri jahon taraqqiyotining hozirgi va kelajakdagi o'zgarishlarini bilish va zaruriyat bo'lsa, ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Siklik dinamika nazariyasi, tarixiy sikllar tushunchalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu o'tmish, hozir va insoniyat kelajagini besh ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga, noaniq uzoq boshlanish (ibtidoiy jamoa tuzumi) va nihoyasiz tugallanish (kommunistik formatiya) an'anaviy bo'linishdan voz kechishga imkon beradi. Tarixning sanog'i neolit sivilizatsiyasidan boshlab olib boriladi va doimo davriy o'sib boradigan tezlik bilan almashinadigan dunyo sivilizatsiyalarining epitsentrlari, ya'ni markazlarining almashinuvi bilan lokal sivilizatsiyalarning notekis to'lqinli tarzdagi taraqqiyoti sifatida tasavvur qilinadi. Bu an'ana kelajakda ham saqlanib qoladi. Shu nuqtayi nazardan XIX asrning oxiri XX asrning boshlanishi industrial sivilizatsiyadan post industrial sivilizatsiyaga o'tish davrini tashkil qiladi. Shu bilan birga o'tish davrlariga xos bo'lgan qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi, alg'ov-dalg'ovlik, yangi jamiyatning paydo bo'lish azoblari bu davrning hamrohi bo'ladi.

Tarixiy bilish qarashidan tarixiy jarayon tushunchasini shunday izohlash mumkin. Jarayon ma'lum bir tarixiy vaziyat sharoitida tarixiy voqealarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'z kulminatsiyasiga yetgach, yemirilib yo'q bo'lishini o'z ichiga olgan lahzalari yoki bosqichlar izchilligidir.

Tarixiy jarayon dinamikasiga yangi yondashuvning unsurlari o'tmishda taniqli jamiyatshunos olimlar N. D. Kondratyev, A. L. Chijevskiy, A. Toynbi, F. Brodel, N. A. Berdyayev va P. Sorokinlar tomonidan ishlab chiqilgan. Lekin utilitar mafkuraviy doktrinalar hukmronligi yangi yondashuvga tanilish va tarixni o'qitishda keng tarqalishga imkon bermadi. Eski hukmron mafkuralarning yemirilishi tarixiy jarayonning yangi paradigmatlarini o'zlashtirish uchun yo'l ochdi.

2. Tarixiy taraqqiyot jarayoni qonuniyatlarini o'rganish. Tarixning asoslari insoniyat urug'ining boshlanishiga kelib taqaladi.

Inson ongi shakllanganidan boshlab asosiy voqealarni xotirada saqlab qolish va keyingi avlodlarga hayot saboqlarini uzatish zaruriyati tug'ildi. Bu ijtimoiy genotipning saqlanib qolishiga yordam berdi. Haqiqat voqealar, afsonalar, rivoyatlar va ertaklarda aks etdi. Bunday afsonalar, rivoyatlar, ertaklar adabiy shaklga kiritildi.

Yozuvning paydo bo'lishi bilan tarixiy dalillar loy taxtachalar, ibodatxona va piramida devorlari, papiruslarga yozildi. Bu hukmdorlar yoki kohinlarga yoqadigan tarzda afsona va rivoyatlar bilan to'ldirilgan bayon qilish manbasi edi. Tarix fani qadimgi Sharqda turli tarixiy ma'lumotlar parchalarining yuzaga kelishi bilan boshlanib, qadimgi Yunonistonda birinchi tarixchilar Gerodot (er. av. 481 – 425-yillar), Fukidid (er. av. 460 – 390-yillar); qadimgi Rimda Tit-Liviy, Tatsit, Plutarx va boshqalarning tarix sohasiga bag'ishlangan asarlari bilan yangi sifat kasb etdi. Bu davrda ko'p jildli tarixiy tadqiqotlar paydo bo'ldi (Polibiyning 40 kitobdan iborat «Umumiy tarix» asari). Ushbu ilk tarixiy asarlarda voqealar bayon qilindi yoki ularni tushuntirishga harakat qilindi. Ular tarixiy jarayon qonuniyatlari, voqealarning ichki mantig'ini aniqlashga hamda zamondoshlari uchun tarixdan saboq oladigan foydali tomonlarini e'tiborga olishdi. Xalqlarning tarixida bir xil bosqichlarning qaytarilish fikri, siklik doiraviy aylanishlar g'oyasi ilgari surildi. Xitoy tarixchisi Sima Szyan (er. av. 145 – 86-yillar) o'zining «Tarixiy esdaliklar» asarida jamiyat tarixini yopiq doiraviy aylanish sifatida izohladi.

Eramizning I ming yilligi oxiri II ming yillikning boshlarida tarix fanining shakllanishida ikkinchi yirik qadam tashlandi. Bu davrda O'rta Osiyoda tarix fani sohasida bir qator mashhur asarlar yaratildi.

A. Narshaxiyning «Buxoro tarixi», qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning (973—1048-yillar) «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida tarixiy jarayonni tushunishda qimmatli fikrlar ilgari suriladi. Abu Rayhon Beruniy tarixiy taraqqiyotda katta tarixiy sikllar g'oyasini bayon qildi. Tunislik arab olimi Ibn Xaldun (1332–1436-yillar) o'zining «Saboqli namunalar kitobi» to'plamida tarix falsafasini rivojlantirib, tarixiy sikllar g'oyasini ilgari surdi.

Keyinchalik uygʻonish va maʼrifatparvarlik davrida tarixiy taraqqiyot jarayonini ilmiy tahlil qilishga qator olimlar Viko, Bolen, Makiavelli, Bruni, Grotsiy, Volter, Russo, Monteske, Kondorse, Karamzin va Pogodinlar oʻzlarining munosib hissalarini qoʻshdilar.

XVIII asrning oxirida tarixda genetik yondashuv gʻoyasi ilgari surilgan edi. Nemis faylasufi Iogann Gotfrid Gerder (1744 — 1803-yillar) oʻzining «Insoniyat tarixi falsafasida gʻoyalar» asarida shunday degan edi: «Insondagi barcha insoniylik uning hayotidagi hamma majburiyatlari bilan bogʻlangan. Tarbiya maʼnaviy genezis orqali ota-onalar, oʻqituvchilar, doʻstlar bilan bogʻlangan. Xalqlar va xalqning ajdodlari bilan bogʻlangan... Inson urugʻining tarbiyasi— bu genetik va organik jarayon; genetik jarayon anʼanalarni uzatish tufayli; organik jarayon uzatilgan anʼanalarni oʻzlashtirish va qoʻllash bilan amalga oshiriladi». G. Gerder tarixiy jarayonlarni zonalarga, yaʼni toʻntarishlar yoki inqiloblar oraligʻida tuzilgan kosmik hajmdagi davrlar, yer va insoniyat tarixidagi ulkan oʻtishlar zonalariga ajratdi. U yana bunday toʻntarishlarning hayotbaxsh taʼsirlarini shunday taʼkidlaydi: «Koʻl botqoqlikka aylanmasligi uchun suv sathidagi toʻlqinlar zarur boʻlganiday, insoniyat urugʻiga yoʻqotishlar kerak. Insoniylik dahosi oʻz qiyofasini abadiy yangilaydi. Abadiy xalqlarda, avlodlarda, qabilalarda yangidan tugʻiladi va gullab-yashnaydi».

Tarix fanida haqiqiy toʻntarish XIX asr oʻrtalarida yuz berdi. Uning asosiy mazmuni tarixiy progressning qonuniyatlarini aniqlash, bu fan predmeti doirasining kengayishi, falsafa, siyosiy iqtisod, arxeologiya bilan chambarchas bogʻlanib ketishi boʻldi. Tarix qonuniyatlariga yangi qarashning shakllanishi G. Hegel va K. Marks, L. Morgan va F. Engels, O. Terri va F. Gizo, O. Kant va G. Shpengler, S. Solovyev va N. Chernishevskiylarning ilmiy faoliyatlarini natijasi boʻldi.

Zamonaviy falsafaning asoschilardan biri Georg Vilgelm Fridrix Hegel (1770—1831-yillar) tarixshunoslikning uch koʻrinishini ajratdi: bizga antik tarixchilar qoldirgan boshlangʻich bayon qilingan tarix; insoniyat yoki mamlakatlar taraqqiyotidagi davomli davrlarni umumlashtirish, tarixiy asarlarni tanqidiy tahlil qilish yoki abstraktsiyalar yordami bilan voqealar tasvirini beradigan

reflektiv tarix; falsafiy tarix — uning yordami bilan bizning dunyoda aql hukmronlik qiladi, umumjahon — tarixiy jarayoni aqlli amalga oshiriladi; aql uning mazmuni, nihoyasiz qudrati, absolyut, oxirgi maqsadi deb belgilaydi. Umumjahon tarixini Hegel «Ilohiylikning ifodasi, uning oliy obrazlarida ruhning absolyut jarayoni», «o'sha bosqichlar qatorining ifodasi, qachonki uning yordamida u o'z haqiqatini amalga oshirsa, o'zini anglashga yetib boradi» (o'sha joyda. C.78.). Tabiatda abadiy doiraviy aylanish kuzatiladi: «Faqat ma'naviy sohada yuz beradigan o'zgarishlarda yangilik paydo bo'ladi...» «Qachonki davlat va huquq paydo bo'lganda tarix dunyoda aql amalga oshishi vaqtidan boshlanadi» (o'sha joyda. C.83.). Hegel umumjahon tarixining boshlanishida aqlni mutlaqlashtiradi, ma'rifatli davlatda aqlni amalga tatbiq qilishni yuqori qo'yadi va tarixda subyektiv omilning ahamiyatini yuqori ko'taradi.

XIX—XX asrlar oralig'ida tarixiy materializm (markscha tarix maktabi) yuzaga keldi va tarix jamiyat taraqqiyotida moddiy ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining ustuvorligi to'g'risidagi sotsiologik chizmalar asosida qurildi.

Marksizmning tarixiy jarayonni tadqiq qilishga obyektivlik, uning ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiy munosabatlar bilan mahkam aloqasini ko'rsatishi tarix faniga qo'shilgan yirik hissidir. K. Marksning sanoat inqiloblari va dastlabki kapital jamg'arish bosqichlari, F. Engelsning fan tarixi va insoniyat jamiyatining boshlanishi birinchi bosqichlariga oid tadqiqatlari ana shunday yondashuvning yorqin namunalaridir. K. Marksning tarix falsafasiga qo'shgan hissasini fransuz tarix maktabining yetakchisi F. Brodel shunday tan oldi: «Marksning dahosi, uning tafakkuri kuchining siri shundaki, u birinchi bo'lib uzoq muddatli tarixiy istiqbolga asoslangan haqiqiy ijtimoiy modellarni yaratdi». Lekin zamonaviy tajriba shuni ko'rsatdiki, bu modellar tarixiy progressning ma'naviy omillarini orqaga surdi, sinfiy antagonizmlar rolini ko'pirtirdi va soxta marksistlar tomonidan totalitar tuzumlarning ko'nglini topish, ularning mafkuraviy ehtiyojlari uchun foydalanildi.

Lekin tarixga tarixiy taraqqiyot sikllarining almashinuvi sifatida qarash, unda inson, madaniyat, fandagi o'zgarishlar yetakchi

rol o'ynashi to'g'risidagi yondashuvlar asta-sekin rivojlanib bordi. O'z taraqqiyotida murakkab fazalarni boshidan kechiradigan lokal sivilizatsiyalarning madaniy, tarixiy tiplari to'g'risidagi g'oya tarqala boshladi.

Turli sivilizatsiyalar taraqqiyotining tuzilishi bo'yicha o'xshash sikllar g'oyasi 1918-yilda Osvald Shpengler tomonidan «Yevropa quyoshining so'nishi» asarining chop etilishi bilan keng tarqaldi. U o'z jadvallarida hent (Misr), antik va g'arb madaniyatlari taraqqiyoti bosqichlarini taqqoslab, ulardagi ko'pgina umumiylikni topdi. Tarixiy jarayonning yarim siklligi g'oyasi ham unga tegishli: «Har bir madaniyat har biri ilk, lahza, har bir ko'tarilish va turg'unlik, uning ichki zaruriy darajalaridan va davrlaridan har biri ma'lum bir, doimo teng, hamma vaqt davriy qaytayotgan davomiylik ramzining hamma vaqt ahamiyatliligiga mavjud bo'ladi... Barcha madaniyatlarda siyosiy, ma'naviy va badiiy shakllanish ritmiga 50 yillik keskin ajralib turgan davr nima ahamiyatga ega. Yoki barokko, gotika, buyuk matematika, attika plastikasi, mozaika tasviriy san'ati, galiley mexanikasining 300 yillik davri. Har bir madaniyat uchun bir ming yillikda hayotning ideal davomiyligi nimani bildiradi ...» (57. C. 55.). Lekin Shpengler jahon tarixining bosqichlari umumiyligini inkor qildi. Har bir madaniy-tarixiy tipning hayotiy sikliga qandaydir o'ziga xos, mustaqil, alohida holda qaradi.

Har bir xalqning taqdirida fazali hayotiy siklning mavjudligini N. A. Berdyayev quyidagicha belgilaydi: «Agar tarixda xalqlar taqdiri, jamiyat taqdiri, insoniyat madaniyat taqdirini olganda, barcha madaniyatlar, bu hamma jamiyatlar va barcha xalqlar o'z taqdirida o'zining turli davrlari — tug'ilish davri, bolalik, ulg'a-yish, oliy gullab-yashnash va nihoyat qarilik, bukchayib qolish, so'nish va o'limni boshidan kechiradi. Barcha buyuk milliy madaniyatlar va barcha jamiyatlar bu keksayish va o'lish jarayoniga duch kelganlar» (6. C. 151.).

Ingiliz tarixchisi A. Toynbi o'zining 12 jildlik «Tarixiy tadqiqot» asarida lokal sivilizatsiyalarning doiraviy aylanish nazariyasini o'ta asosli qilib ishlab chiqdi. U 2 ta yopiq sivilizatsiyani ajratdi. Ularning har biri o'z taraqqiyotida o'sish, genezis, tushkunlik,

o'lim bilan tugaydigan yemirilish bosqichlarini bosib o'tadi. A. Toynbi ilk sivilizatsiyalarning paydo bo'lishidan o'tgan vaqt 6 ming yildan kam bo'lmagan deb ko'rsatadi. Toynbi to'rtta parallel rivojlanayotgan va qisman kesishadigan «bog'lam» madaniyatlarning uch avlodi bo'yicha ajratdi: minoy-ellin-g'arb; minoy-ellin-pravoslav; minoy-suriya-islom; shumer-hind-hinduzm. Sivilizatsiyalar evolutsion tipdagi dinamik tuzilmalar sifatida tasavvur qilindi. Ular turli taqdirga ega bo'ldilar. Bu sivilizatsiyalarning 21 tasidan 14 tasi halokatga yuz tutdi, qachonki ular orqaga qaytdilar.

Toynbining g'oyalari L. N. Gumilevning tarixiy va etnografik asarlarida rivojlantirildi. U 40 yakka etnoslarning hayotiy siklini tadqiq qilib, etnogenezning bir yarim ming yil davom etadigan, bir-birini izchil almashtiradigan fazalarni o'z tarkibiga olgan etnogenez aylanishini keltirib chiqardi: inkubatsiya davri (yangi etnos shakllanayotgan vaqt); passionar ko'tarilish; akmatik faza; buzilish; inersiya; obskuratsiya, regeneratsiya; relik. Fazalar faol, otashqalb shaxslar — passionariylarning soni va faoliyatining natijalari bo'yicha farq qilinadi. Biroq ularning tarqalishining o'zi kosmik energiyaning quyuqligi bilan belgilandi. Tarixiy progressning birinchi manbayi insondan tashqarida qoldi (18. c. 328.).

Jamiyatning siklik dinamika tarixini tadqiq qilishning yana bir yo'nalishi olimlar A. Chijevskiy, N. Kondratyev, P. Sorokin, I. Shumpeterlar faoliyati bilan bog'liq. A. L. Chijevskiy 1924-yil «Tarixiy jarayonning fizik omillari» tadqiqotida tarixiy voqealarning dinamikasi, siklik quyosh faolligining tebranishlari ta'siri ostida yuz berishini asoslab berdi.

N. D. Kondratyev konyukturaning katta sikllari nazariyasini keng holda bayon qilib, kapitalistik xo'jalik dinamikasining to'liqsimon holatini tavsifladi. Iqtisodiy konyukturaning uzoq muddatli tebranishlari texnik ixtiro va kashfiyotlardagi, ishlab-chiqarish texnikasi va siyosiy hayotdagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Siklik dinamaning qonuniyatlarini bilish u yoki bu mamlakatning xo'jaligining o'sishi yoki tushkunhgining umumiy an'analari, narxlar harakati an'analari, xo'jalikning tashkiliy tuzilishidagi

o'zgarishlar, xalqaro vaziyatning murakkablashuvini oldindan ko'rish va tushkunliklarini yanada asosli bashorat qilishga imkon beradi. Sikllar nazariyasiga ijtimoiy-iqtisodiy bashoratning ishonchli quroli sifatida qaraldi.

N. D. Kondratyevning asosiy g'oyalari amerikalik taniqli iqtisodchi Yozef Shumpeterning 1939-yilda chop etilgan «Iqtisodiy sikllar» nomli ikki jildlik asarida statistik asoslanib, rivojlantirildi. Iqtisodiy dinamikadagi o'rta muddatli va uzoq muddatli (Kondratyevning) to'liqsimon tebranishlar rivojlanishidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berib, Shumpeter tebranishlar asosini innovatsiyalar to'liqida ko'rdi. Ularning ostida nafaqat ixtirolar, texnik takomillashtirishlarni, balki tarixiy progressning asosiy omillari bo'lgan ehtiyojlar, talablar, moddalar, tashkilotlar shakllarining o'zgarishini ko'rdi.

Pitirim Sorokinning «Ijtimoiy va madaniy dinamika» (1937—1941) fundamental 4 jildlik asarida ikki ming yil davomidagi jamiyat siklik dinamikasi puxta tadqiq qilingan. Sorokin ijtimoiy-madaniy dinamaning eng muhim omili u yoki bu dominant madaniy yuqori tizimning yemirilishi deb hisobladi. U madaniyatning tushkunligini tavsiflab berdi.

«Urushlar va inqiloblar yo'qolmaydi, aksincha, XX asrda mislsiz darajaga yetadi. Ilgarigidan ko'ra muqarrar va yanada dahshatli bo'ladi. Demokratiyalar tushkunlikka uchraydi. O'rnini despotiyaga, uning barcha ko'rinishlariga bo'shatib beradi. Madaniyatning ijodiy kuchlari so'nadi va halok bo'ladi» deb bashorat qildi. Uning fikricha, «tushkunlik bir vaqtning o'zida g'arb madaniyati va jamiyatining barcha bosh muassasalarini qamrab oladi. Bu san'at va fan, falsafa va din, huquq va axloq, turmush tarzi va odatlar, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot shakllari. Tushkunlik so'nggi to'rt yuz yilda g'arb madaniyati va jamiyatining asosiy shakllarini yemirilishidadir».

Ikkinchi jahon urushidan keyin tarix falsafasining rivojlanishiga qo'shilgan muhim hissa — bu nemis tarixchisi Karl Yaspersning (1883 — 1969) «Tarixning ibtidosi va uning maqsadi» asarining (1948-y) chop etilishi bo'ldi. Tarixiy vaqt hisobini er. avv. III ming yillikdan boshlab, Yaspers zamonaviy insonni uning ma'

naviy dunyosining yaxlitligida shakllangan davr — «Tayanch vaqt»ni ajratdi. Jahon tarixining bu yoshini er. avv. 500-yillar atrofiga olib borish mumkin. Er. avv. 800-yillar bilan er. avv. 200-yillar oralig'ida borgan o'sha ma'naviy jarayonga taqash mumkin. O'sha vaqtda tarixda eng keskin burulish yuz berdi. Hozirgacha mavjud bo'lgan odamning tipi paydo bo'ldi. Bu vaqtni biz qisqacha os vaqti deb aytamiz. Os (tayanch) vaqtda keyinchalik aql va shaxs deb ataladigan kashfiyot yuz berdi. (63. C. 32—35, 37, 39). Ana shu qoidalar asosida Yaspers tarixgacha va tarixning yangi chizmasini davrlashtirishni ko'rsatdi.

Tarix falsafasidagi rivojlanishning yangi davri, uning siklik xususiyatini anglashda 1929-yilda fransuz tarix maktabi «Annalar»ning tashkil etilishi bo'ldi. Bu maktabga Mark Blok va Lyusen Fevr boshchilik qildilar. Ular miqdoriy tarix, demografik statistika va narxlarning siklik dinamikasining statistik tadqiqotiga jiddiy e'tibor berdilar. Bu tadqiqot yirik tarixiy voqealarni siklik oziq-ovqat tushkunliklari, davriy demografik turg'unliklar bilan o'zaro bog'liqligini ochdi. Yevropa iqtisodiy konyukturasining sikllari har xil turlari ko'p asrlik yoki yuz yillik, yarim asrlik, o'n yillik va yil davomida mavsumiy tebranishlarini aniqlashga yordam berdi. Bu tarixiy jarayonning qonuniyatlarini o'rganish fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhim omil bo'ldi.

Bu tadqiqotlarning eng mahsuldor yo'nalishi urushdan keyingi davrdagi yirik fransuz tarixchisi Fernan Brodel va asosan uning «Moddiy sivilizatsiya, iqtisodiyot va kapitalizm. XV—XVIII asrlar» nomli uch jildlik asari bilan bog'liq.

Brodel tarixiy jarayonning kenglik jihatini ko'zdan kechirib, yer sharining aholi joylashgan qismini qamrab olgan dunyo iqtisodiyoti va yer sharining iqtisodiy mustaqil qismi, iqtisodiyot dunyosini ajratadi. Ichki aloqalar va ayirboshlash ma'lum bir organik birlik tusini beradi: bu jahon va lokal sivilizatsiyalar to'g'risidagi bizning tushunchalarimizga mos keladi. Iqtisodiyot dunyosi aniq belgilangan kenglikka ega. Uning markazida qutb—yirik shahar turadi. Atrofida yaqin va uzoq periferiya. Shunday qilib, iqtisodiyot dunyosining kengligi har xil darajadagi boylik, potensiallar har xilligi toifalangan xususiy iqtisodiyotlar yig'in-

disi sifatida chiqadi. Ularning vositasida barcha yig'indining faoliyati ta'minlanadi.

Olim shunday ta'kidlaydi: Dunyo tarixi — bu kortej, yurish, ishlab chiqarish usullarining yonma-yon yashashi. Biz birin-ketin tarixni davrlari bilan aloqada qarab chiqishga o'rganib qolganmiz. Aslida esa ishlab chiqarishning bu usullari bir-biri bilan chulg'angan. Eng ilg'orlari eng qoloqlariga qaram bo'ladi va aksincha; taraqqiyot — bu zaif taraqqiyotning boshqa tomonidir. Tarixiy progress to'liq tarzida nafaqat kenglikda yoyiladi, balki vaqt bo'yicha ritmlar, iqtisodiyot, siyosat va demografiya, o'zligini anglash va jamoa tafakkuri, jinoyatchilik, bir-birini almash-tiradigan badiiy maktablar, adabiy oqimlar va modani qamrab oladigan konyuktura ritmlarini shakllantiradi. Mavsumiy tebranishlar bilan bir qatorda turli uzunlikda bo'lgan sikllar kuzatiladi: 3—4 yillik sikllar; 6—8 yil uzunlikdagi sikllar yoki 10—12 yil uzunlikdagi, davomiyligidagi, o'n yilliklar oralig'i sikllari; 150—300 yil davomiyligidagi asriy an'analar.

Brodelning tarixning tubsiz to'liqlari qisqarish an'anasiga ega degan tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. (9. t.3. c. 14, 18, 65, 67, 72, 73)

Insoniyat siklik taraqqiyotining tarixiy qonuniyatlariga qiziqish XIX asrning so'ngi choragida, tarixiy dinamaning trayektoriyasi tub burilish nuqtasida, yalpi umumiy tushkunlik arafasida yanada kuchaydi. XX asr 70-yillarida boshlari tarqalgan yalpi iqtisodiy va ekologik tushkunliklarning chuqur sabablarini izlash davri boshlandi. Shu vaqtdan yana jamiyatshunoslar Kondratyev va Shumpeterlar uzoq muddatli sikllar nazariyalariga yana murojaat qildilar. Tarixdagi har bir yirik burilish davrida hayot qo'ygan keskin muammolarni yechish bo'yicha ko'pgina ilmiy qarashlar bayon qilina boshlandi. Jamiyatning uzun to'liqlik siklik dinamikasi muammolari bo'yicha Van Deynning (1983), A. Klayneknexning (1987), A. M. Anchishkenning (1986) monografiyalari vujudga keldi.

I. M. Dyakonov «Tarix yo'llari — eng qadimgi odamdan bizning kunlarimizgacha» (1994) monografiyasida tarixiy jarayon

fazalarining almashuvi konsepsiyasini ilgari suradi va an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasini tanqid qiladi. U tarixda sakkiz fazani ajratadi. Ularning uzunligi eksponensial jadallashuv qonuniyatlariga bo'ysunadi: ibtidoiy faza (Homo sapiensning paydo bo'lishidan neolitgacha — 30 ming yildan kam bo'lmagan); ibtidoiy jamoa fazasi (7 ming yil atrofida); ilk qadim (2 ming yil atrofida); imperiya qadimgi davri (1,5 ming yil atrofida); o'rta asrlar (ming yil atrofida); barqaror mutlaq — post o'rta asrlar (300 yil atrofida); kapitalistik faza (100 yildan sal ko'proq) va postkapitalistik, uning orqasidan tarixiy progressning to'qqizinchi fazasi boradi. Shu bilan birga kelajakning ikki ssenariysi bo'lishi mumkin yoki insoniyat XXII asrga qolmay halok bo'ladi. U bilan bizga ma'lum biosferaning katta qismi o'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining o'sishi sezilarli kamayishiga erishiladi. Jamiyat va tabiatning dinamikasi uyg'unlashtiriladi. Bu I. M. Dyakonovning nazariyasi Y. B. Yakovetsning nazariyasiga to'g'ri keladi.


Amerikalik olim R. Aysler taklif qilgan tarixni davrlashtirish chizmasi asosida jinslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari qo'yiladi: erkak va ayol o'rtasida ilk davrdagi uzoq hamkorlikdan keyin (er. avv. III ming yillikda minoy madaniyatida so'nggi yuksalishga erishgandan so'ng) erkaklar hukmronligi davri orqali, zo'ravonlik va urushlardan keyin — uzoq bo'lmagan kelajakda yangi asosdagi hamkorlik erasining qayta tug'ilishi yuz beradi.

Amerikalik tarixchi Artur Shlezenger kichik Qo'shma Shtatlar siyosiy hayotida kishilar avlodi almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan o'ttiz yillik sikllar ritmini tasvirladi. U «sikl — bu harakatsiz nuqtalar orasida tebranadigan mayatnik emas, balki spiral. U yangini qabul qiladi va shuning uchun determinizmdan qochadi. Va bundan tashqari tarixiy sikl hamma vaqt tarixchi shaxsi bilan bog'liq». Har bir tarixchi o'zining sikllar almashinuvi taklif qiladi. Shlezenger tarix faylasufi R. Dj. Kollingvudning «tarixning har bir tadqiqotchisining o'z sikllar tizimi bo'lishi lozim, individning va boshqa irqlarning tarixini bilishdagi har bir yangi qadam bilan tarixga siklik qarash o'zgaradi va yo'qoladi». Bilim

yo'li nihoyasiz, shuning uchun tarixiy sikllarga qarashlar kelajakda ko'p o'zgaradi, degan tushunchasini ilgari surdi.

Tarix fani hozirgi kunda (boshqa ijtimoiy fanlar kabi) jiddiy tushkunlikni boshdan kechirmoqda. U tub o'zgarishlar, haqiqatlarni qayta baholash ostonasida turibdi. Insoniyatning siklik dinamikasi, genetikasi bosqichlari va qonuniyatlari, o'tmishining yangi tasviri uning xulosasi bo'ladi. Keyinchalik yuzaga kela boshlagan tushkunlik tarix falsafasini yanada chuqurroq chulg'adi. Uning hukmron paradigmalarning halokati va ilmiy dunyoqarashning umumiy tushkunligi bilan bog'liq edi. Barcha insoniyatning umumiy qonuniyatlari uchun tarix hech qanday mazmunga ega emas, degan fikrlarni ilgari surgan asarlar paydo bo'ldi. Amerikalik tarixchi Frensis Fukuyama o'zining shovshuvlarga sabab bo'lgan «Tarixning nihoyasi» nomli maqolasida g'arb liberal demokratiyasining fashizm va eng yangi marksizm ustidan g'alabasi, sovuq urushning tugashi tarixning tugallanishi, insoniyatning mafkuraviy evolutsiyasi va g'arb liberal demokratiyasi hukmronligining so'nggi tugallangan shaklini bildiradi, deb e'lon qildi. Bu g'arb tarix falsafasining navbatdagi tushkunligi edi. Jahon tarixidagi yangi burilish bilan bog'langan yo'qotishlar hamda tarixiy tafakkurning yangilanishi oldida bu g'arb falsafasining taslim bo'lishi edi. «Tarixning tugallanishini tan olish, jamiyatning keyingi progressi uchun kurashni mantiqsiz qiladi. Buni Fukuyamaning o'zi ham tan oladi. «Tarixning tugallanishi» qayg'uli. Tan olinish uchun kurash, sof, mavhum g'oya uchun hayotni xavf ostiga qo'yish, jasorat talab qiladigan mafkuraviy kurash — bularning barchasining o'rniga iqtisodiy o'sish, nihoyasiz texnik muammolar, ekologiya to'g'risida g'amxo'rlik va iste'molchining noziklashgan talablarini qondirish va h. k. Post-tarixiy davrda san'at ham, falsafa ham yo'q; faqat sinchkovlik bilan ehtiyot qilinadigan insoniyat tarixi muzeyi bor, xolos» (53. c. 291.). Bu umidsiz bashorat. Hozircha insoniyat mavjud ekan, tarix nihoyasiga yetmaydi. Dunyoni bilishdagi tub burilishlar, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini anglashdagi davriy-ilmiy tushkunliklardan xoli bo'lish mumkin emas.

Tarixiy tafakkur taraqqiyotini qisqacha ko'rib chiqishga tayanib, endilikda ma'lum bir bilim bilan tarix fanlari predmetini aniqlashga qaytish mumkin. Tarix — bu insoniyat jamiyatining o'tmish to'g'risida va uning buguni, aniq shakllardagi makon va zamon o'lehovlaridagi ijtimoiy hayot taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi fandir. Uning bugungi kunini va kelajagini asoslangan holda ko'rish uchun tarixning mazmuni bo'lgan tarixiy jara-yonning qonuniyatlari va an'alarini aniqlashdir. Jamiyat ko'p o'lehovlilik sababli ham tarix fani ko'p bo'g'inli bo'lib, tarix fanlarining butun bir piramidasini o'z ichiga oladi.



I-TASVIR

Tarixning bir qirradi — mamlakatlar va xalqlar tarixi, yanada umumiy ma'noda — kontinentlar tarixi (Osiyo, Yevropa, Afrika, Amerika, Avstraliya) va insoniyat tarixining asosiy bosqichlarini o'rganadigan umumiy tarixdir. Bu piramidaning boshqa qirradi — inson faoliyatining alohida sohalari: fan-texnika, iqtisodiyot, siyosiy munosabatlar, davlat va huquq, urushlar, madaniyat va ta'lim, etika, din va h. k. Uchinchi qirra — tarixiy bilishning bosqichlari va metodlari: tarixshunoslik, etnografiya, arxeografiya, manbashunoslik, arxeologiya, statistika, tarixiy ja-

rayonlarni modellashtirish va h. k. to'g'risidagi fanlarni tashkil qiladi. Piramidaning cho'qqisi — (tarix falsafasi) tarixiy jarayon nazariyasi, uning umumiy qonuniyatlari va an'analari, tarixiy tadqiqotlar metodologiyasi va h. k.

Tarix fanlarining har biri o'zaro yaqin ijtimoiy fanlar—mamlakatlar tarixi — geografiya bilan, faoliyat turlari tarixi—fanning tegishli sohalari bilan, tarixiy tadqiqotlar metodlari, statistika nazariyasi, modellashtirish va h. k. bilan bog'liq. Tarix falsafasi — falsafa, siyosiy iqtisod, sotsiologiya, siklik dinamika va sotsiogenetika bilan juda yaqin aloqadadir.

Aslini olganda, o'tmish tarixni o'rganishning asosiy sabablaridan biri jahon taraqqiyotining hozirgi va kelajakdagi o'zgarishlarini bilish va zaruriyat bo'lsa ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tayanch iboralar: Iqtisodiy sikllar, fundamental, Yozef Shumpeter, siklik dinamika, Karl Yaspers, «Tarixning ibtidosi va uning maqsadi», «Tayanch vaqt», fransuz «annallar» tarix maktabi, Mark Blok, Lyusen Fevr, Fernan Brodel, moddiy sivilizatsiya, iqtisodiyot va kapitalizm. XV—XVIII asrlar, «Dunyo tarixi — bu kortej», I. M. Dyakonov, «Tarixning nihoyasi», Frensis Fukuyama, F. Gizo, K. Klakxon, kulturolog, A. Toynbi, N. Danilevskiy, Zalsburg, Kopernik kashfiyoti, O. Shpengler, S. Xantington, «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi», M. Xaydegger, «Os» (tayanch) vaqti, P. Sorokin, A. Kreber, F. Nortrop, T. Bekker, V. Shubert, prototip, supertizim.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tarix fanlari taraqqiyoti va shakllanishining asosiy bosqichlarini ayting.
2. Tarixiy sikllar tadqiqotiga qaysi olimlar asosiy hissa qo'shdilar?
3. Tarix falsafasi rivojlanishiga Sharq olimlari, jumladan, Al-Beruniy qanday hissa qo'shdi?
4. Tarix fanlari tizimining taraqqiyoti uchun tarix falsafasining ahamiyatini ochib bering.
5. Tarix fanlari piramidasini tavsiflang.
6. K. Yaspers konsepsiyasining mohiyati nimalardan iborat?

7. S. Xantingtonning sivilizatsiya to'g'risidagi qarashlari haqida ma'lumot bering.

8. Sivilizatsiyalar nazariyasini rivojlantirgan madaniy-tarixiy maktablar haqida ma'lumot bering.

Mustaqil ish mavzulari:

1. XX asr 70-yillarining boshlaridagi yalpi iqtisodiy va ekologik tushkunliklar.

2. A. Toynbining lokal sivilizatsiyalar nazariyasi.

3. E. N. Gumilyevning tarixiy etnografik asarlari.

4. J. Vikoning «Abadiy ideal tarix» konsepsiyasi.

5. K. Yaspersning tarixiy konsepsiyasi.

6. Sivilizatsiyalar nazariyasining rivojlanishida rus tarixshunosligining o'rni va ahamiyati.

158-93.

7-MAVZU.

TIZIMLI YONDASHUV. TARIXIY JARAYON. TARIXIY BILIM VA MAFKURA

1. *Tizimli yondashuv.*
2. *Tarixiy bilishda qo'llaniladigan asosiy tizimlar.*
3. *Tarixiy jarayon.*
4. *Tarixiy jarayonning ko'p xilligi.*
5. *Tarixiy bilim va mafkura.*

1. Tizimli yondashuv. Tarixiy bilish — bu o'tmish, uning turli xil ko'rinishlarida aks ettirishdir. Bu o'tmish tarixiy borliqni tashkil qiladi. U obyektiv mavjud bo'ladi, ongda aks etib, tarixiy bilish orqali undan ajratiladi. Tabiat borlig'iga qaraganda jamiyat borlig'i bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Odam ijtimoiy borliqni o'rganib, eng avvalo, o'ziga xos xususiyatlar bilan birga tabiiy-ijtimoiy mavjudligi mohiyatini biladi. Bunday sifatda u o'zi uchun qiziqishni aks ettirib, o'z ijtimoiy hayotining lahzalarini barcha aloqa munosabatlarini yuqori darajada yaxlitlikda, har tomonlamalilikda bilishga harakat qiladi. Ana shundan ijtimoiy voqelikka va ijtimoiy taraqqiyotga nisbatan turli xil yondashuvlar paydo bo'ladi. Odam ijtimoiy mavjudot bo'lgani uchun jamiyat to'g'risidagi bilimlarida faqat obyektiv xossalar, voqealar, individual harakatlarni belgilab qolmaydi. Balki o'zining jamiyatda tutgan mavqeyi bilan shartlangan baholarni beradi. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining bilish vaziyatiga tegishli konsepsiya apparatini qurishning vositasi zamonaviy tizimli yondashuv bo'ladi.

XX asr o'rtalarida «tizim», «tuzilma», «tizimli yondashuv» tushunchalari faqat ilmiy sohada emas, kundalik hayotga ham mustahkam o'rinishdi. U keng tarqalib, maxsus tadqiqot sohalarida olingan ilk ilmiy ahamiyatini yo'qotdi. Yuqori murakkablikdagi tizimlarning paydo bo'lishi qator fanlarning paydo bo'lishiga olib

keldi. Ular tasvirlash va nazariy bilishga yaroqli konseptual apparatni ishlab chiqish uchun kerak edi. Tezda aniq bo'ldiki, murakkab tizimlar, tirik mavjudotlarni, jumladan, odamni hamda qator ijtimoiy tizimlar, misol uchun ishlab chiqarish tizimini o'rganishda qo'llash mumkinligi aniqlandi. Bu konsepsiya apparatini umumlashtirish va uning boshqa sohalarga tarqalishi tizimli yondashuvning yaratishiga olib keldi. Uning yutuqlari tez harakat qiladigan elektron hisoblash mashinalarining (EHM) qo'llanishi va muntazam takomillashtirilishi bilan bog'liq edi. Bu tizimli yondashuv uni boshqa yangi sohalarda ham qo'llash imkoniyatini berdi. Ana shunday sohalardan biri tarixni bilish tadqiqoti, ayniqsa, uning tarixiy voqeelikka munosabati bilan aloqasi tadqiqoti edi.

Lingvistikadagi strukturalizm yo'nalishidagi erishilgan yutuqlar (F. Sossyur), keyin biologiyadagi (L. Bertalanl) va etnografiyadagi (K. Levi-Stross) tuzilma tushunchasi tarixiy tadqiqotlarda keng tarqaldi.

Har qanday munosabatlar uch qarashdan tavsiflanishi mumkin: o'z unsur va komponentlari sifati tomonidan, umumiy formal-mantiqiy xossalari tomonidan va unsurlarni bilib olish, munosabatlar komponenti yoki ularni ma'lum to'plamga qo'shish uchun keyingi ikki tushunchani tahlil qilamiz. «Ko'p» va «katta» tushunchalari sifat jihatdan turli munosabatlarni bildiradi. Birinchi holatda—sonlar o'rtasidagi, ikkinchisida odamlar orasidagi. Unsur-larning sifat farqlariga qaramay, bu munosabatlar bir xil formal-mantiqiy xossalarga ega. Misol uchun, agarda X katta Y dan, Y katta Z dan, shunda X katta Z dan degan o'xshash tushuncha kelib chiqadi. Bu «ko'p» va «katta» munosabatlarni ko'chirishning formal xususiyati ma'lum bir sharoitlarda mantiqiy tranzitivlik deb ataladi. O'z formal xususiyatlari tomonidan tavsiflangan munosabatlar formal tuzilmalar deb ataladi. Munosabatlarni ularni bilish yoki qurish uchun zarur bo'lgan amaliy va tadqiqot asoslarida qiyoslash mumkin. Misol uchun, yosh bo'yicha kattalikni aniqlash uchun tegishli shaxslarning tug'ilish guvohnomalarini tekshirish lozim. «Ko'p» munosabatini bilish uchun tegishli arifmetik amallar bajariladi. Shu sababli mazmun ma'nosiga ko'rsatilgan munosabatlar farq qilinadi. Mazmunan ko'rsatilgan munosabatlar farq-

lanadi. Ba'zan unsurlar sifati bo'yicha har xil munosabatlarni bilish yoki qurish uchun bir xil holatlar belgilanishi mumkin. Shunda bunday munosabatlar bir xil mazmunli tuzilmalarga ega bo'ladi. To'la tuzilma ma'lum munosabatlarning formal va mazmunli tuzilmasini tasvirlashni taxmin qiladi.

Endilikda «tizim» va «tuzilma» tushunchalarining yaqin aloqasini ko'rsatish mumkin. Tizimlarda unsurlar va komponentlar o'rtasidagi aloqa turli munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Shunda tizimlar u yoki bu tuzilmalarni o'z tarkibiga oladi. Ko'p hollarda tashkil qiladigan tizimlar bir vaqtning o'zida bir necha har xil tuzilmalarni o'z ichiga oladi. Bunday tizimlarni nostrukturali deyish mumkin. Ijtimoiy voqelikning tadqiqotlarida tizimli-tuzilmali yondashuv ko'pchilik jamiyatshunos olimlar tomonidan qo'llaniladi.

Ahamiyatlilik bo'yicha eng muhim munosabatlarning alohida sinfi — o'zgarishlardir. Fan va amaliyotda ular har kuni uchrab turadi. **O'zgarish tizimning unsurlari, komponentlari o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Belgilovchi o'zgarishlar bir unsur va komponentlarning sifatini boshqasiga aylanishi; sifati bo'yicha eskilariga o'xshash bo'lgan yangi unsur va komponentlarning tashkil topishi; ma'lum bir komponent va unsurlarning yemirilishi va yo'q bo'lishidir.** Tarixiy bilish jarayonida bu atama ko'p ishlatiladi. Misol uchun, ma'lum bir lokal sivilizatsiyaning taraqqiyot jarayoni tahlilida o'zgarish tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi.

Barcha tizimlarni uch asosiy sinfga bo'lish mumkin:

Barqaror tizimlar. Barqaror tizimlarga belgilangan tizimosti to'plamlari bilan unsurlar va munosabatlar kiradi. Ularda tuzilmalar soni va tuzilishi ham o'zgarmas bo'ladi. Bu barqarorlik vaqtning ma'lum bir oralig'idagina ma'noga ega bo'ladi. Barqaror tizimning misoli sifatida bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatni ko'rsatish mumkin. Uning keng tuzilmalari va yo'nalishlari amalda ko'p yillar davomida o'zgarmaydi.

Harakatdagi tizimlar. Harakatdagi tizimlar tizimosti va unsurlar ma'lum bir o'zgarishlarning oxirgi to'plamidir. Hosil bo'ladigan tizimlarning joylashuvi va o'zaro harakati bu o'zgarishlar ta'siri ostida o'zgaradi. Lekin tegishli vaqt oralig'ida tizimning boshlanishi

va nihoyasi mos keladi. Bunday oraliq bosqich deb amalga oshiriladigan barcha o'zgarishlarning to'plami — sikl deb ataladi. Quyosh — planeta tizimi va odatdagi mexanik soatlar bunday tizimning misoli bo'ladi.

Dinamik tizimlar. Dinamik tizimlar quyidagi belgilarga ega:

a) ularda tizimosti belgilangan oxirgi to'plamlar va belgilanmagan butun oraliq uchun ko'riladigan unsurlar mavjud;

b) ularga o'zgarishlarning asosiy va asosiy bo'lmagan to'plamlari xos, ularni belgilash majburiy emas;

d) ko'riladigan vaqt oraliq'ida u yoki bu o'zgarishlarni amalga oshirish natijasida tizimosti tarkibi miqdoriy va sifat tarkibi unsurlari o'zgaradi.

Dinamik tizimlar, ayniqsa, murakkablarni o'rganish juda ko'p mehnat talab qiladi. Barqaror harakatdagi va dinamik tuzilmalarni ajratish shartli va ma'lum vaqt oraliqlarida ma'noga ega. Shu bilan birga, dinamik tizimlar o'z tarkibiga harakatdagi va barqaror tizimlarni oladi yoki ularning xossalarni ma'lum bir ko'rib chiqish holatida topadi. Tizimlarning turkumlanishi ana shunday tarzda bo'ladi.

2. Tarixiy bilishda qo'llaniladigan asosiy tizimlar. Tarixiy borliq bizga ma'lum bo'lgan eng murakkab dinamik tizimlardan birini tashkil qiladi. Butun insoniyat tarixi o'zining yaxlitligi, rang-barangligida tarixchi ko'z oldida gavdalanadi. Tarixiy borliq bizning ko'z oldimizda yarim tuzilmali dinamik tizim sifatida chiqadi. Turli xil ko'rinishdagi tuzilmalar, asosan, ilgari ko'rsatilgan munosabatlar bilan belgilanadi. Bu barcha tuzilmalar turli modifikatsiyalarga duch qilinadi. Va tarixchi ko'z oldida turli ko'rinishda gavdalanadi. Ularni haqiqiy tushunish birdaniga yuz bermaydi. Chunki tarix aysbergga o'xshab suv sathiga o'zining haqiqiy mazmunining kam qismini chiqaradi. Bu tarixning empirik qabul qilinadigan qismi — yakka kishilar, ayrim davlatlar, shaharlar, istilolar, urushlar aynan shu tizimning unsurlari va komponentlarini tashkil qiladi. U qamrab olgan va kesishgan, bir-biri ustiga yotgan munosabatlar va aynan ular orqali bu munosabatlarni tushunishga yo'ldir. Uning tubida oqibatda tarixiy voqelik tuzilmasi yotadi. Zamonaviy ilmiy tafakkur atamalarida hissiy qabul qilinadigan hodisalar, vaziyatlar, voqealar jarayonlar deb ataladi.

Vaziyat tarixiy bilimda tizimosti, obyektda tadqiqot predmeti sifatida ajratiladi, vaqtning qaysidir oralig'ida belgilanadi. Qolgan tizimosti vaziyatni tashkil qiladi. U alohida yorqin, ahamiyatli detal bo'lib ajraladi.

Voqea vaziyat ichida ajraladi. Bu tushuncha dinamik va mavjud tizimlarga nisbatan qo'llaniladi. U ma'lum vaziyat va vaqt lahzasida t_1 , t_2 lahzasida paydo bo'ladi, t_3 lahzasigacha mavjud bo'ladi, keyin esa yo'q bo'ladi yoki o'zgaradi. Voqea hamma vaqt uchga bo'lingan vaqtni va bu bilan bog'langan alohida munosabatlarni taxmin qiladi.

1370-yil bahorida Amir Temurni qurultoyda Movarounnahr hukmdori etib saylanishi mamlakatni qamrab olgan ijtimoiy-siyosiy tushkunlik, feodal tarqoqlik sharoitidagi ajralib turgan vaziyat edi. Shundan so'ng Amir Temurning markazlashtirish siyosatiga qarshi ayrim feodallarning qarshi chiqishlari va ularning bostirilishi vaqt bo'yicha bu vaziyatning ichidagi, oxir-oqibatda XIV asr Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishiga olib kelgan voqealar edi.

Jarayon ham tizimli yondashuv doirasida ma'lum bir o'rinni egallaydi. Jarayonning to'rt ko'rinishi farqlanadi. Bular:

1. Jarayon ma'lum bir vaziyat sharoitida voqealarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va yo'q bo'lishidagi bosqichlar yoki labzalarining izchilligi sifatida;

2. Jarayon ma'lum bir vaziyat ichida voqealarning belgilangan vaqt oralig'ida tizimli almasbuvi sifatida;

3. Jarayon ma'lum bir tizim ichida belgilangan vaqt oralig'ida vaziyatlarning tizimli almashuvi sifatida;

4. Nihoyat jarayonning belgilangan vaqt oralig'ida tizimlarning almashuvi deb qarash mumkin. Shu bilan birga yuqoridagi jarayonlarning uch tipi u bilan bir qatorda va uning ichida yuz berishi mumkin.

Endi yakkalik tushunchasiga izoh beramiz. Yakkalik tushunchasi ma'lum bir hodisa munosabatlarini sanoqsiz soniga kiritilgani deb belgilanadi. Oqibatda ba'zi belgilangan metod bilan farqlanadigan ko'pgina xossalarga ega bo'ladi. Shu bilan birga boshqa biror-bir hodisa bunday xossalarga to'plamiga ega bo'lmaydi. Har qanday yakka, juft vaziyatlar, voqealar, jarayonlar ma'lum tizim yoki

tizimostida hamma vaqt u yoki bu darajadagi xossalar va munosabatlarning salmoqli to'plami mavjud bo'ladi. Ular ba'zan birida mavjud, boshqasida esa ishtirok etmaydi. Inson shaxsi ham shu ma'noda yakka sifatida chiqadi. Yuqorida ko'rilgan munosabatlar va tushunchalar tarixiy bilishning umumiy ko'rinishida «mantiqiy binoni» tashkil etadigan abstrakt va formal tuzilmalarni tavsiflaydi. Jonli tarixiy borliq, tirik odamlar bilan amaliy tarixiy jarayonlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi to'qnashuvlarga boy bu abstrakt tuzilma va munosabatlar abstraktligida aniqlikka tomon borish jarayonida tarixiy bilishning aniq metodlarini rivojlantirish uchun dastlabki mantiqiy asoslarni yaratadi.

Har bir tarixiy siklning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan bunday ko'tarilish tarixiy bilishning xilma-xil metodlarini yuzaga keltiradi.

3. Tarixiy jarayon. Tarixiy jarayonning ichki birligini tashkil qilish yangi davrdan boshlandi. Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatlarning shakllanishi asosida dunyoning turli hududlari o'rtasida aloqalar, o'zaro ta'sirning kuchayishi tarixiy jarayonning ichki birligi muammosini ilmiy shakllantirishga shart-sharoit yaratdi.

Tarixiy tahlil shuni ko'rsatdiki, oddiy tasvirlash mumkin bo'lgan voqea-hodisa va dalillarning tashqi empirik turli xilligi ostida tarixning yagona mohiyat asoslari yotganini nazariy fikr anglashi, ko'rishi lozim edi. Tarixiy progress, tarixiy qonuniyat kabi qator tushunchalar tizimi vujudga keldi. Falsafiy tafakkur tarixning ko'p xilligi asosida tarixiy jarayonlarning ichki yaxlitligini ko'rdi.

Insoniyat tarixining yaxlitligi g'oyasini D. Viko o'zining «Millatlarning umumiy tabiati to'g'risida yangi fan asoslari» asarida (1725-yil) bayon qildi. U birlikni barcha xalqlar taraqqiyotining bir xil siklini bosib o'tadi degan g'oyani ilgari surdi. Viko xalq tarixini individ rivojlanish bilan taqqoslab, har bir xalqqa bolalik, o'smirlilik, yetuklik xos. Shundan so'ng jamiyatning yemirilishi boshlanadi va sikl yana qaytariladi, deb ta'kidlaydi. Bu yerda birlik bosqichlarning bir xilligi, taraqqiyotning umumiyliги chizmasida yotadi.

Insoniyat taraqqiyotining olg'a borishi g'oyasini I. Gerderning «Insoniyat tarixi falsafasiga g'oyalar» asarida shakllantirildi (1784—

1791-yillar). U insoniyat tarixining umumiy yo'naltiruvchi progressini kuzatib, uning qonuniyatlarini aniqlashtirishga harakat qildi. Ijtimoiy qonuniyatni tabiiy sharhlab, tarixning boshlanishini diniy-ilohiy tavsifladi. Insoniyat tarixining birligi g'oyasini progress, inson tafakkuri bilan bog'lab tasvirlagan fransuz ma'rifatparvar olimi J. Kondorse edi. Bu g'oyalar nazariy jihatdan nemis mumtoz falsafasi vakillari I. Kant, Fixte, G. Hegel asarlarida o'z aksini topdi.

Hegel «Tarix falsafasi»da «falsafiy» tarixdan empirik tarixni ajratadi. U tarixiy jarayonning mohiyati va birligini dunyoviy ruhning harakatida ko'rdi. Fan dunyo xalqlari taraqqiyotida umumiy belgi va qoidalarni aniqlashtirib asoslab berdi. Urf-odat, an'analar, turmush tarzi har xil bo'lishiga qaramay, barcha xalqlarni birlashtirib turadigan unuminsoniy qadriyatlar bor. Madaniyat, din, fan kabi ma'naviy qadriyatlar tarixiy jarayonning asosiy unsurlaridir. Ishlab chiqarish, iqtisodiyotning o'sishi, iqtisodiy taraqqiyot, ilmiy-texnika inqiloblari dunyo xalqlarini bir-biri bilan yaqinlashtirib, tarixiy jarayonning yaxlitligini ta'minladi. Insoniyat jamiyatining butun taraqqiyoti davomida xalqlarning o'zaro aloqasi miqyosi kengayib, vaqt o'lchovida jadallashib borganini kuzatish mumkin. Bu jarayon to'xtovsiz, uzluksiz va xilma-xil ko'rinishda yuz berib, tarixiy jarayonning mazmun-mohiyatini belgilab berdi. Insoniyat tarixi umumiy belgilarga ega, shu bilan bir vaqtda xalqlar o'rtasida amaliy aloqalar yo'q. Har bir xalq o'z ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini mustaqil qursa-da, lekin ularni birlashtirib turadigan insoniyat hayotiga xos bo'lgan umumiy belgilardir. Inson ongi, tafakkuri birligi tarixning umumiy qoidalari, tarixiy jarayonning yaxlitligini tashkil qiladi.

Aholining va ishlab chiqarishning o'sishi, xomashyo, mol sotish uchun bozorga bo'lgan ehtiyoj muntazam kuchayib bordi. Tobora ko'proq hududlarni, lokal sivilizatsiyalarni o'z ichiga oldi. Xalqlarning xalqaro aloqalari er. av. II ming yillikdan boshlanib, Old Osiyo, O'rta Sharq va Janubiy Osiyo, Shimoliy Afrikani qamrab oldi. Er. av. I ming yillikda esa O'rta dengizining g'arbiy qirg'o-g'igacha yetib bordi.

Eramizning I ming yilligida xalqlarni yaqinlashtiradigan, tarixiy taraqqiyotning birligini ta'minlaydigan omillardan biri — dunyo

dinlari paydo bo'ldi. Din siyosiy tarqoqlikni ma'lum darajada yumshatib, aloqalarni, o'zaro muloqotning kuchayishini rag'batlantirdi. Din ta'lim tizimiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Sharq va g'arb dunyosining aloqalari, harbiy yurishlar, siyosiy jarayonlar, savdo aloqalari kuchayib ketdi. Ayniqsa, XV asrda buyuk geografik kashfiyotlardan keyin tarixiy jarayon jadallashib, tobora ko'proq xalqlar, millatlar, hududlarning bir-biri bilan aloqasini kuchaytirdi.

Yevropada bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatlarning rivojlanishi yangi tarixiy an'analarni boshlab berdi. Millatlar shakllanib, milliy bozorlar va milliy davlatlar paydo bo'ldi. Bozor munosabatlariga asoslangan, taraqqiyotning turli darajasida turgan turli xalqlarni tortdi. Xalqaro aloqalar uzluksiz davom etib, turli shakllarda (mustamlakachilik, jahon savdosining rivojlanishi va uning markazlarini ayrim hududlarda to'planib qolishi) jahon bozorining paydo bo'lishiga olib keldi. Savdo va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi milliy qadriyatlar bilan almashuvning kuchayishiga olib keldi.

XVI asrdan XX asrgacha tarixiy jarayonning salmoqli voqealari sodir bo'ldi. Dastlabki kapital jamg'arish, sanoat inqiloblari, fan-texnika kashfiyotlari, turli ijtimoiy-siyosiy konsepsiya va ta'limotlar vujudga keldi va amalda qo'llanildi.

4. Tarixiy jarayonning ko'p xilligi. Tarixning yaxlitligi uning ko'p xilligida ko'rinadi. Jamiyat taraqqiyotiga yagona yaxlit ko'rinish beradigan tabiiy-tarixiy jarayon odamlarning turli uyushmalari, lokal sivilizatsiyalar ko'rinishida bo'ladi. Tarixning asosiy xususiyatlari uning ko'p xilligida yashiringan va bu ko'p xillik yaxlitlikning ko'rinishi bo'lgan birlikni bilish fanning yutug'idir. Lekin bu yaxlitlik turlicha talqin qilinadi. Zamonaviy jamiyatshunoslik tafakkuri tarixning yaxlitligi yoki uning amaliy ko'p xilligini mutlaqlashtiradi va shunday gnoseologik asosda turli falsafiy-tarixiy konsepsiyani ilgari suradi. XIX asr jamiyatshunoslik fani asosida tarixning yaxlitligi, bir chiziqli olg'a harakat qiladigan evolyutsion konsepsiyalar hukmron bo'lsa, XX asrda insoniyat taraqqiyotining birlikda olg'a harakati, uning progressiv ruhi inkor qilindi. XIX asrda g'arb fanidagi tarixiy jarayonning yaxlitligi g'oyasi tarixga yevrosentristik qarashi bilan bog'langan edi. Tarixning yaxlitligi

g'oyasidan voz kechish ijtimoiy fikrda tarixshunoslik va pozitiv sotsiologiyada yevrosentrizm qarashiga nisbatan o'ziga xos javob edi. Tarixiylikning tushkunligi madaniy antropologiya, etnologiya, tarixshunoslik va ijtimoiy falsafada, eng avvalo, O. Shpengler va A. Toynbi konsepsiyalarida aks etdi. Insoniyat — bu quruq mavhumlik, odamlar tarixining yaxlitligi to'g'risida emas, kenglikda birga yashaydigan vorisiylik bilan bog'lanmagan, o'z taraqqiyotida yopiq takrorlanmaydigan madaniyatlar, sivilizatsiyalar to'g'risida gapirish lozim. Lokal madaniyatlar o'simliklar kabi o'zining gullari, mevasi, hayoti va o'limiga ega. Bir chiziqli umumjahon tarixi manzarasi inkor qilinadi.

Bunday konsepsiyalar tarixning ko'p xilligini o'ziga xos ravishda ifodalaydi, lekin tarixda mavjud bo'lgan turli xil ijtimoiy va madaniy tizimlar orasidagi farqlarni aniqlab, ular bu farqlarni mutlaqlashtiradilar va tarixning yaxlitligini inkor qiladilar. Shu sababli bu konsepsiyalar va unga qarshi turgan tarixning yaxlitligini mutlaqlashtiradigan konsepsiyalar tarixiy jarayonni bir tomonlama aks ettiradi.

Tarixiy jarayonning ko'p xilligini ilmiy tahlil qilish uchun «alohidalik» tushunchasi muhin o'rin tutadi. Tarixning yaxlitligi qandaydir bir aniq jamiyat taraqqiyotida sof holda o'z ifodasini topmaydi. Ammo har bir mamlakat, xalq, millat tarixining u yoki bu umumiy tavsifi mumtoz ko'rinishda ro'yobga chiqadi. Taraqqiyotdagi ayrimliklar yig'ilgan holda umumiylikni tashkil etadi. Alohidalik tarixiy jarayonga salmoqli xilma-xillik, mazmun, sifat xossalariining turli rangini belgilaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy turli xillik kishilik jamiyatining hayotiy qobiliyatini o'stiradi va barqaror rivojini ta'minlaydi. Har bir xalq, millat, mamlakat o'z tarixiy taraqqiyotida turli sur'atlarda notekis rivojlanadi. Bu taraqqiyot turli ko'rinishda turli darajada bo'lib, umuminsoniy tarixiy taraqqiyot jarayonini tashkil qiladi. Hatto rivojlanish shart-sharoitlari, imkoniyatlari, bir geografik kenglik va vaqt doirasida turgan jamiyatlarning bir tekis rivojlanishi amalga oshmaydi va tarixiy jarayonning o'ziga xos mazmun-mohiyatini o'zida aks ettiradi.

Jahon tarixi va insoniyat birligi muammosi. Tarixchilar tomonidan ko'pincha ishlatiladigan «jahon tarixi» ifodasi ikki xil mazmunga ega:

1. Insoniyat tarixi tabiat tarixi (qisman tirik tabiat) hamda insoniyat tarixini o'z ichiga olgan umumiy koinot tarixining bir qismidir. Shu bilan birga insoniyat tarixi eng boshdan yagona, yaxlit edi va koinot tarixining bir qismi bo'lishi mumkin.

2. Jahon tarixi — bu vaqt o'tishi bilan tarkibiy va yagona yaxlitlikda yashaydigan va harakat qiladigan, shakllanayotgan insoniyat tarixi. Unga kiradigan, bir-biri bilan yanada yaqinroq o'zaro harakat qiladigan xalqlar va mamlakatlar tarixi.

Insoniyatning birligi g'oyasi va uning tarixining birligi o'rta asrlarda shakllana boshladi. G. Hegel va keyinchalik K. Marks insoniyat tarixining birligi — yaxlitligini e'tirof etdilar. Unda barcha xalqlar, madaniyatlar o'z o'rniga ega ekanligi haqidagi tasavvurni rivojlantirgan edilar. Har bir insonning mavjudligi, har bir davr, har bir xalqni ular yagona zanjirning bo'g'inlari deb hisobladilar.

Jahon tarixini asta-sekinlik bilan qadam-baqadam o'ziga birlashuv yo'lini ochayotgan insoniyat to'g'risidagi tasavvur faqat yangi davrdagina shakllana boshladi. Bu, o'z navbatida, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat kapitalizmning rivojlanishi bilan bog'liq edi. Bu tasavvurning shakllanishiga odamlarning jamiyat tasavvurlarini tarixiy taraqqiyot to'g'risidagi keskin ko'payishi, xalqlar, madaniyatlar, hududlar, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning keskin jadallashishi, o'sib borayotgan savdo va turli hududlarning bir-biriga iqtisodiy qaramligi sabab bo'ldi.

Insonning paydo bo'lishi va uning ilk davrda turli hududlarda ajralib yashagani to'g'risida «Odamlar yer shariga joylashdilar, lekin ular uning yuzida tarqalib ketgan edilar. Biroq bir-birlari to'g'risida hech nimani bilmas edilar», deb yozadi K. Yaspers.

5. Tarixiy bilim va mafkura. Tarixiy bilimning tarixiy borliqqa munosabatini tushunish uchun uning haqqoniyligi yoki haqiqiyligi to'g'risidagi savol asosiy muammo bo'ladi. Umuman bilish nazariyasining bosh muammosi haqiqatni o'rnatish metodlarini tadqiq qilishdir. Hozirgi vaqtda u, eng avvalo, matematika va tabiiy

fanlarda bilimlarning haqiqiyligini qurish va tekshirish usullari to'g'risida tushuncha beradigan qator nazariyalar mavjud. Tarixiy haqiqatni tadqiq qilish uch sabab tufayli murakkablashadi: o'tmish haqidagi axborotning to'liq bo'lmaganligi; o'tmish bilan eksperimental amaliy o'zaro harakatning mumkin emasligi; tarixiy bilimning mafkura bilan bog'liqligi.

Tarixiy bilimning tanqidchilari tarixiy bilim hech qachon ilmiy haqiqat mavqeyini ola olmaydi, deb tasdiqlaydilar. Bu bilan uning mafkuraga qaramligiga ishora qiladilar.

«Ideologiya» (mafkura) atamasi XVIII asr oxirida fransuz ma'rifatparvarlik adabiyotida paydo bo'ldi va keng ma'noda g'oyalar to'g'risidagi fan ma'nosini bildiradi. Ilmiy adabiyotga «ideologiya» atamasini K. Marks va F. Engels olib kirdilar. Ideologiyaning ijtimoiy falsafada, ayniqsa, bilish sotsiologiyasida o'rganish asosiy vazifa bo'ldi. Tarixiy bilimning genezisi va shakllanishi, uning tarixiy ong tarkibida rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang bordi. Oqibatda ideologiya ijtimoiy ongning zaruriy mazmuni bo'ldi. O'sha lahzadan boshlab shu kungacha tarixiy bilim va ideologiya bir-biridan ajralmay kelmoqda. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan, bir-biriga o'zaro rag'batlantiruvchi, ba'zida harakatsizlantiruvchi to'siq bo'lib ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zaro harakatning, ta'sirning mazmuni nimada? U tarix epistemologiyasi oldida qanday muammolarni ilgari suradi? Ideologiya tarixiy bilim rivojlanishida qanday o'rin tutadi?

Ideologiya atamasini mafkura so'ziga almashtirib foydalanamiz. Mafkuraning taniqli tadqiqotchisi K. Mangeym uning mohiyatini shunday tushuntiradi: Ijtimoiy guruhlar, ayniqsa, hukmron qatlamlarning tafakkuri ma'lum bir vaziyatlar bilan mahkam bog'langan. Bu guruhlar va uning vakillari mafkurachilar o'zlarining hukmronliklariga ishonchni yo'qotish mumkin bo'lgan qator dalillarni ko'ra olmaydilar. Mafkura mohiyat jihatdan «jamoaviy ongsiz» uning vositasida ma'lum guruh yoki sinf faoliyatining amaldagi holatini nafaqat o'z raqiblaridan, o'zlaridan ham yashiradilar. K. Mangeym fikri bo'yicha mafkuraning aksi utopiyadir. U ezilgan, huquqsiz, kamsitilgan sinflarning ma'naviy qarashini ifodalaydi. Ularning jamiyatni o'zgartirishga urinishlarini rag'batlantiradi. Va

mavjud jamiyatning salbiy lahzalarini belgilaydi. Oqibatda ijtimoiy borliqni qamrab olish holatida bo'lmaydi.

K. Mangeym mafkuraning qisman va total ko'rinishlarini belgiladi. Qisman mafkura tushunchasi ma'lum ijtimoiy guruhlar yoki sinflar vakillarining maqsadlari va niyatlariga mos kelmaydigan ijtimoiy ahamiyatli dalillarni haqiqatan bilishni ataylab yoki ongsiz ravishda soxtalashtirishni belgilaydi. Qisman mafkuraning tanqidi raqibning ruhiyatini yemiradi, uning ongsiz adashuvini fosh qiladi.

Total mafkura tushunchasi u yoki bu dalillar to'g'risida o'z fikrini bayon qilishnigina emas, balki barcha dunyoqarash, guruh yoki sinfnig ijtimoiy tafakkurini, mantiqiy tuzilma bilan birga «nomantiqiy mazmunni» savol ostiga qo'yadi. Total mafkuraning tanqidi butun konseptual apparatni, uning mantig'ini ham buzadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, u yoki bu mafkura ta'siri ostida bo'lgan tarixchi tarixiy voqelik to'g'risida soxta tushuncha hosil qiladi. Bunday yondashuv asosida tarixiy bilimni tanqid qilish uning faqat xato va adashishlarini belgilashga olib keladi.

Tarixiy matnlarda ataylab va beixtiyor qilingan soxtalashtirishlar bilan birga, shubhasiz, doimo haqiqiy bilimlar yotadi. Tarixiylik, xolisiylik bilan qo'shilgan tanqidiy metod, mafkuraning siyosiy qaror va manba muallifining shaxsiy qarshlarini ham tarixiy haqiqat qarashidan tushuntirish mumkin. Fanda mafkura bilan bilish haqiqati murosqa qila olmasligi tushunchasi keng tarqalgan uch muqobil bo'lishi mumkin bo'lgan qaror mavjud.

1. Har qanday mafkura yolg'on. Chunki har qanday ijtimoiy guruh, sinfnig manfaati o'tkinchi holat. O'z manfaatlari va o'zlarini abadiylashtirish uchun sinflar, qatlamlar begona, yolg'on ong — mafkurani yaratadilar. Bu mafkura haqiqatga o'z monopoliasini o'rnatishga urinadi. Oqibatda uni yo'q qiladi. Y. Xabermas «Har qanday mafkura qalloblik, hozirgi jamiyatda uning pozitiv funksiyasi (agar u mavjud bo'lsa) fan va texnikaga uzatiladi», deb tasdiqlaydi.

2. Haqiqat fanning boyligi. Bu ma'noda u mafkura bilan chiqisha olmaydi. Ijtimoiy manfaatlar ifodachisi sifatida mafkura doimo haqiqatni ongli yoki ongsiz soxtalashtirishga olib keladi. Haqiqatni izlash mafkuraning yemirilishiga olib keladi.

3. Maʼfurani haqiqatan ijtimoiy fanlar sohasidan, ilmiy bilishdan ajratib boʻlmaydi, degan yondashuv mavjud. Ijtimoiy fanlarda tahlil maʼlum bir ideallar qarashidan olib boriladi. Bu sohada olingan natijalarning qadriyati egallangan qarash xususiyatiga bogʻliq boʻladi. Marksizm maʼkurasining bilish metodi ilmiy bilishga oʻz taʼsirini oʻtkazishi uning halokatiga olib keldi. Marksizm maʼkurasida ishchi-dehqonlar manfaati uchun oʻz qadriyatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy daʼvolarini ilgari surib, uni himoya qildi. Boshqa maʼkuralar tarixan tenglik tamoyiliga rioya qilmadi. Marksistik maʼkura tarixiy haqiqatni oʻz qarashidan talqin qilib, ilmiy bilish haqiqatini oʻz monopoliyasiga aylantirdi.

Tayanch iboralar: *ijtimoiy taraqqiyot, tizimli yondashuv, tizim, elektron hisoblash mashinalari, tuzum, formal-mantiqiy, munosabatlar komponenti, «koʻp» va «katta» munosabatlar, unsur, mark-sizm, tarixiy borliq, harakatdagi tizim, dinamik tizim, vaziyat, jarayon, voqea, tarixiy haqiqat, total maʼkura, K. Mangeym, K. Marks, F. Engels, ideologiya, konseptual apparat, maʼkura, tarixiy voqelik, madaniyat, din, ong, monopoliya, fan, texnika, epi-stemologiya.*

Takrorlash uchun savollar:

1. Tizimli yondashuv tushunchasini izohlang.
2. Tizim unsurlari va komponentlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Barqaror tizimlar nima?
4. Tarixiy bilishda qoʻllaniladigan asosiy tizimlar qaysilar?
5. Tarixiy jarayon nima?
6. Maʼkura va tarixiy haqiqatga izoh bering.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tarixiy tadqiqotda tizimli yondashuv.
2. Tarixiy jarayonning koʻp xilligi.
3. Tarixiy jarayon, voqea, vaziyat tushunchalari.
4. Tarixiy haqiqat va maʼkura.

8-MAVZU.

TARIX FANI NAZARIYASI. TARIXIY VAQT MUAMMOSI

1. *Tarix fani nazariyasi.*
2. *Tarix interpretatsiyasi va tarixiy bilimning paradigmalari.*
3. *Tarixning siklik paradigmasi.*
4. *Tarixni davrlashtirishga yangicha yondashuv.*
5. *Tarixiy taraqqiyot jarayonida tahlil qilish metodologiyasini yoritishda tarixiy sikl.*
6. *Tarixiy vaqt muammosi.*

1. **Tarix fani nazariyasi.** Ijtimoiy falsafa va sotsiologiya tarixiy tadqiqotlarning nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi tarix fanlarining zamonaviy holatini belgilaydigan jihat metodologik izlanishlarning predmet maydoni kengayishidir. Tadqiqotchiga o'z mohirligini mukammallashtirishga yordam beradigan manba-shunoslik tarixning nazariy masalalarining barcha qirralarini qamrab olmaydi. Shu munosabat bilan «tarix falsafasi»ni falsafiy bilim va sotsiologiya sifatida ko'radilar. Tarix falsafasi tarixning mohiyati, uning qonuniyatlari, insoniyat tarixiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, muammolari bilan shug'ullanadi. Tarix falsafasi antik davrdan boshlab rivojlandi. Yangi davrda XVIII asr ma'rifat-parvarlari (Volter, Gerder, Kondorse, Monteske) tarixni ilohiy-lashtirish g'oyasiga qarshi chiqib, ma'rifatparvarlar tarix falsafasiga sababiyat g'oyasini kiritdilar. Tarixiy progress nazariyasini ishlab chiqib, tarixiy jarayonning yaxlitligi g'oyasi hamda geografik va ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini aniqladilar. Gegelning tarix konsepsiyasi tarix falsafasiga qo'shilgan alohida hissa bo'ldi. «Tarix falsafasi» mavqeyini faylasuflarning merosiy dahosi sifatida Oksford universiteti professori shunday asoslaydi. U «tarixni uning ichki» savollari va «tarix to'g'risidagi» savollarga ajratishni taklif qildi: «Tarixchilar—birinchi xil (ichki) savollarga javob beradilar, fayla-

suflar ikkinchi («tarix to'g'risidagi») savollarga javob beradilar». P. Gardiner ikkinchi xil savollarga quyidagilarni kiritdi: Tarixiy dalillarni qay tarzda bilamiz? «Tarix fanmi?», «Tarixiy bilim obyektivmi?», «Tarixiy nazariyalarning tabiati qanday?», «Tarix qonunlari mavjudmi?»

Yevropada «Tarix falsafasi» faxrli o'rinni egallaydi. AQSHda oliy maktablardagi barcha jamiyatshunos o'qituvchilar falsafa fanlari doktori unvoniga ega. AQSH, Angliya, Germaniya va Fransiya tarixining nazariy masalalari bo'yicha yuzlab nomdagi kitoblar mavjud. Ayniqsa, tarixiy bilimning mazmuni, chegaralari va imkoniyatlari bo'yicha munozaralar sezilarli o'rin tutadi.

Mashhur ingliz tarixchisi va diplomati Edvard Karr (1802—1892-y) o'zining «Tarix nima?» (1961) tadqiqotida: «Tarix falsafasini e'tiborga olmay ishlaydigan tarixchilar bizning shahar atrofi bog'larimizda Edenning jannat joylarini qayta tiklashga behuda urinayotgan nudistlarni eslatadi», deb ta'kidlaydi.

«Tarix falsafasi» bo'yicha munozaralar to'xtovsiz davom etmoqda. Ularning markazida K. Marksning tarixiy materiallari bilan munozara va idealistik yo'nalishdagi turli xil falsafiy maktablarning asoslari turadi. Materializm va idealizm tarix fanining nazariy poydevoriga boshlanishning turli nuqtalarini asos qildi.

Idealizm «Dunyoviy ruh» birlamchi, moddiy dunyo, borliq, tabiat ongning hissiyot, tasavvur tushunchalarining mahsuli deb e'lon qildi. Materializm esa, aksincha, inson ongining yaratuvchanlik o'rnini inkor qilmay, uni sivilizatsiyaning moddiy sharoitlariga qaramligini ko'rsatdi.

Qarama-qarshilikning keskinligi shundaki, idealizm va materializm qarama-qarshi turgan ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar o'z maqsadlari uchun foydalandilar.

Barcha zamonlar va xalqlarning mutafakkirlari jamiyatda mavjud bo'lgan tartib-qoidalar tasodifiymi yoki qandaydir sabablarga bo'y-sunadimi? Bu tartiblarni o'zgartirish mumkinmi yoki odamlar ularga abadiy bo'ysunishga mahkum qilinganlarmi? degan savolga javob topishga urinadilar. Shuningdek, hamma uchun farovonlik va erkinlikka erishish mumkinmi? degan savol qo'yiladi. Agar mumkin bo'lsa, qanday yo'l bilan? Nihoyat insoniyat qaysi yo'nalishda

gullab-yashnashi progressiga yoki turg'unlik va tushkunlikka tomon harakat qilmoqdam? qabilidagi sayollar munokama qilinadi.

K. Marks, F. Engels birinchi bor jamiyatni tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida dinamik o'sib borayotgan tuzilma sifatida tasavvur qildilar va sinfiy kurash nazariyasi bilan tarixni tasodiflar girdobidan chiqardilar. Ular o'zlarining «Muqaddas oila» va «Nemis ideologiyasi» asarlarida tarix fanidan idealizmini haydab chiqara boshladilar. «Tarix — deb yozdi ular, — o'z maqsadini amalga oshirish uchun harakat qilayotgan insonning faoliyatidan boshqa narsa emas». «Tarixda ilohiy kasb yo'q», «Mutlaq g'oyani amalga oshirish yo'q» tarzida faqatgina real odamlar, ularning fikrlari va harakatlari bilan mavjud. K. Marks va F. Engels barcha ijtimoiy fanlar o'rtasidagi zaruriy aloqalarni o'rgandilar va tarixiy materializm nuqtayi nazaridan qarashidan insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining ilmiy asoslangan tushunchasini berdilar. Ulargacha ilg'or mutaffakirlar Volter bilan birga «Dunyoni g'oyalar boshqaradi» deb ta'kidlab, jamiyatga qarashlarda idealist bo'lib qoldilar.

XIX va XX asr oralig'ida materialistik falsafiy fikrning tushkunligi materiyaning qurilishi sohasidagi fizika fani kashfiyotlari bilan bog'liq edi. Idealizm tiklanmagan bo'lsa-da, turli xil subyektiv idealistik konsepsiyalar rivojlandi.

V. Diltey va G. Rikkertlar asos solgan «Tanqidiy tarix falsafasi» nomli oqim pozitivizm va marksizmga qarshi shakllandi. Bu oqim tarixiy bilishning o'ziga xosligini mutlaqlashtirdi. Tarixda qandaydir bir qonuniyatlarni va determinizmini qat'iy inkor qildi. Tarixiy bilimda ayrimlik va tasodifiylikning alohida ahamiyatini ta'kidladi. Nemis faylasufi Genrix Rikkert (1863—1936) «Bilishning tabiiy, ilmiy, tarixiy metodlari bir-biridan farq qiladi», deb tasdiqladi. Ilmiy bilish nazariy bilishning tizimli birligidir. Har qanday fan ma'lum tamoyillar asosida tizimli tartibga solingan bilishdir. Fan bizning tajribamizdan ko'ra ko'proq ma'lumotlarni qamrab oladigan tushunchalarning birlashgan tizimidir. Tarix fani ham uning mazmunini qamrab oladigan tushunchalar tizimiga ega.

Fan tajribamizning barcha ma'lumotlarini birlashtirishi mumkin emas va bizning bilimda shu yo'l bilan birlikka erisha olmaydi. Fan umumlashtiruvchi jihatidan birlashtiradi va umumiy tushunchalar

hosil qiladi. Uning ostiga xususiy individuallashtiruvchi jihatidan yagona yaxlitlikni va unga nisbatan uning qismlari munosabatini aniqlashtiradi. Aslida, bir narsani ikki xil qarashdan o'rganish mumkin. Chunki unda boshqa narsalar bilan umumiylik bor yoki u bizga butunning bir qismi bo'lib ko'rinadi. Bunday ma'noda u yagona va individual bo'ladi. Birinchi holda buyum nomotetik jihatdan, ikkinchi holatda ideografik qarashdan o'rganiladi. Nomotetik so'zi shunday qarashdan qonunlarga tomon harakat qiladi, ularni quradi. Ideografiya so'zi esa bunday bilim individual dalillar bilan qiziqadi va uni tasvirlaydi, degan ma'noni bildiradi. Tarix yoki tabiat va insoniyat tarixi ideografik qarashda quriladi (Nevill, Vindelband, Rikkert va boshqalar shunday tushuntiradilar). Ammo tarix fanida har ikki yo'nalish ham qo'llab kelinadi. Tarixiy bilimning nomotetik qurilmasi o'z tarixiga ega. Uning unsurlari antik davrga borib taqaladi. Bu yo'nalishning shakllanishi tarixiy hodisalarning qonuniyatli ekanligi tushunchasining rivojlanishiga bog'liq bo'ldi. Tarixiy hodisalarning ma'lum bir qonuniyatlar asosida rivojlanishi psixologik ma'noda shakllana boshladi. Bu fanning alohida sohasi psixologiyani tashkil topishi bilan bog'langan edi. Uning xulosalari «tarix qonunlarini» qurish uchun tarix fanining alohida sohalari rivojlanishida muhim o'rin egalladi.

Tarixiy bilimning ideografik jihatdan rivojlanishi ham uzoq davom etdi. U dastlab beixtiyor, ongsiz qo'llanildi va uning asosiy qoidalari aniqlana borib, tizimli shakllantirila boshlandi. Tarixiy materialni qayta ishlash uchun u ongli ishlatila boshlandi.

A. Bergson intuitiv falsafasining ta'siri ostida ba'zi tarixchilar voqelikning ratsional aks etishiga magiya, sehrgarlik, telepatiya bilan bir qatorda turuvchi intuitiv hissiyotni qarama-qarshi qo'ydilar.

XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragida abstrakt xulosalarga asoslangan tarix falsafasi o'rniga cheklangan hajmda empirik tadqiqotlarni umumlashtirish tomon yo'l tutildi. O. Shpengler, N. Berdyayev, K. Yaspers, A. Toynbi, R. Aron («Tarixning mohiyati») kabi faylasuflar bu bilan shug'ullanib, qator qimmatli ilmiy-amaliy qarashlarni shakllantirdilar. K. Yaspersning fikricha, birinchi jahon urushidan so'ng nafaqat

Yevropa madaniyati, balki barcha madaniyatlar tushkunlikka yuz tutdi. A. Toynbi «tarixning mohiyatini tushunish»da diniy e'tiqodni birinchi o'ringa qo'ydi. A. Toynbining «Tarix falsafasiga yaqin g'oya»sini K. Yaspers ilgari surdi. U «Tarixning mohiyat»ini quyidagi tezislarda ifodalaydi:

1. Tarixning mohiyati maqsadi sivilizatsiya va insonni inson-parvar qilish;

2. Tarixning mohiyati maqsadi erkinlik va erkinlik ongi hisoblanadi;

3. Tarixning mohiyati maqsadi insonning ulug'vorligi, ruhning ijodiyoti, ijtimoiy hayotga madaniyatni olib kirish;

4. Tarixning mohiyati maqsadi insonning borlig'ini ochish, uning borlig'ida xudoni ochish.

Ba'zi nazariyotchilar «Tarix falsafasi»ni qandaydir formal-mantiqiy chizmalarni tuzish deb tushuntiradilar. Amerikalik R. G. Beyngartner «Tarix falsafasi» falsafa sohasi sifatida tarixning mantiqiy tuzilmasini topishga harakat qilib, tarixiy ishning asoslaganini belgilaydigan mezonlarni topishga harakat qilmoqda, deb tushuntiradi.

Hozirgi vaqtda tarixiy jarayonni tahlil qilishda ilmiy-texnika inqilobi o'rnini bo'rttirib ko'rsatish ko'rinadi. Go'yoki ilmiy-texnika inqilobi barcha ijtimoiy muammolarni yechish qobiliyatiga ega. Bu jarayon tarix falsafasida turlicha takqin qilinadi.

Ba'zi faylasuflar «tarixiy tuzilish» tuzilma mavzusini tadqiqotning asosiy bosh mavzusi sifatida rivojlantirdilar. Taniqli olim I. S. Kon shunday yozadi: «Tarixchilar u yoki bu darajada tuzilmalarni o'rganadilar, lekin nimaning tuzilmasini?»

Ko'p hollarda ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar o'rniga psixologik tuzilmalar qo'yiladi. A. Bergsonning intuitiv falsafasi ta'siri ostida ba'zi tarixchilar voqelikning ratsional aks etishiga qarama-qarshi qilib tadqiqotchining intuitiv hissiyotini qo'yidilar. Faylasuf V. Diltey ham tarixning intuitiv tushunchasi metodning oqlovchisi vazifasida chiqadi, deb ta'kidlaydi.

XIX asr tadqiqotchilari ilmiy tarixga ishonib, dalillarga hurmat bilan qarasalar, hozirgi tarixchilar ilmiy tarixni yaratish imkoniyatiga ishonmaydilar. Tarixiy dalillarni tanlash va interpretatsiya

qilishda suiiste'molga yo'l qo'yadilar, deydi ingliz tarixchisi Karr. Ba'zi tadqiqotchilar tarixni mistifikatsiya qiladilar yoki uning har qanday mohiyatini inkor qiladilar. «Endilikda, — deb yozadi u, — hatto «sabab» so'zi ham iste'moldan chiqdi».

Mashhur italyan tarixchisi va faylasufi B. Kroche (1866–1952) tarixiy tadqiqotchining subyektiv jihatini aql mahsuli sifatida inkor qildi. Tarixiy dalil o'zicha sabablarga ega emas. Boshqacha aytganda, tushuntirish tarixchining fantaziyasidir.

2. Tarix interpretatsiyasi va tarixiy bilimning paradigmalari. Hozirgi kunga kelib tarixni tavsiflash va tarixiy bilimni to'plash natijasida tarixiy bilishning turli paradigma (andaza)lari shakllandi. Qadimgi davrlardan buyon inson o'tmishga murojaat qilib, o'tmish voqealarining mohiyatiga kirishga urinib, tarixiy jarayonni tasavvur qilish, tushunish va tushuntirishga harakat qiladi. U doimo o'ziga tushunarli, odatiy bo'lgan jamiyatning ijtimoiy hayoti, qadriyatlari va ideallariga yo'nalgan holda o'z zamonasining me'yor, qoidalari bo'yicha o'tmishni qayta tiklaydi. Jamiyatshunos olim X. Agnes haqqoniy ravishda: «Tarix faqat o'tmish emas, bu — o'tmish va kelajak, hozir!» deb belgilaydi.

Aynan shuning uchun turli tarixiy davrlardagi turli ilmiy nazariyotchilarning taklif qilgan konseptual modellari bir-biridan farq qiladi. Har bir konseptual model — bu bazaviy ilmiy intuitsiya, yaxlit bo'lgan tarix intuitsiyasidir. E. Kant so'zlarini quyidagicha o'zgartirish mumkin: Tarixning konseptual modelini barcha tarixiy voqeliklarning takrorlanmas yaxlit sintezi va tarixning regulativ g'oyasi natijasi sifatida tushunish mumkin. Shuning uchun har bir konseptual modelni ko'zdan kechirganda uning ijodkorlari — olimlar ma'lum bir davrda yashab, o'z tarixiy tajribalari va intellektual kuchlarini, tarixni yaxlitlik sifatida tushunish va tushuntirish uchun foydalanganlarini esda tutish muhimdir.

Shu bilan birga, G. Gegel «Biz tarixchi-mutaxassislar o'zimizni aldashga yo'l qo'ymasligimiz kerak», deb ziyraklik bilan ta'kidlagan edi. Chunki ularning ichidagi hatto eng obro'li nemis olimlari ham tarixda subyektiv uydirmalarga yo'l qo'yadilar. Gegel keng tarqalgan qator tarixiy uydirmalarni misol keltiradi: birinchi va eng qadimgi xalqning mavjudligi, xudoning o'zi unga mukammal

aqi va donolik, tabiat va ma'naviy haqiqat qonunlarining barchasini o'rgatganligi, Rim eposining mavjudligi, undan Rim tarixchilari eng qadimgi tarixni bilib olganlari va hokazo.

Tarixning ijodiy interpretatsiyasining bir necha darajasi borligini ko'pgina tadqiqotchilar e'tirof etadilar:

1. Muhimlik mezonlariga muvofiq dalillarni tanlash;
2. Sababiyatli qaramliklarni baholash;
3. Ijtimoiy va shaxsiy tuzilmalar to'g'risida tasavvur;
4. Individual, guruhiy va ommaviy motivatsiya nazariyasi;
5. Ijtimoiy va siyosiy falsafa;
6. Yuqorida aytilganlarning o'zini tan olish datilidan mustaqil ravishda mazmunan mavjudligi bilan birga tarixning mazmunini ma'lum ma'noda tushunish.

Tarix mazmunini shunday tushungan holda interpretatsiyaning boshqa darajalariga atayin yoki anglanmagan holda ta'sir qiladi. O'z navbatida, u tarixiy jarayonlarni o'ziga xos va universal bilishga o'zi qaram bo'ladi. Kim tarix falsafasi bilan shug'ullansa, tarix va tarixiy bilimning barcha qatlamlarini talqin qilishni, bu o'zaro qaramlikni anglash lozim, deb komil ishonch bildiradi Paul Tillix. Bu metodologik ko'rsatmalar bilan qurollanib, tarixiy bilimning asosiy paradigmlarini ko'rishga o'tamiz.

3. Tarixning siklik paradigmasi. Tabiatning tartibi shunday: boshqaruv shakllari o'zgaradi, biridan boshqasiga o'tadi va yana qaytadi, deb ta'kidlagan edi Rim tarixchisi Polibiy.

Tarixning siklik paradigmasi Qadimgi Yunon falsafasida birinchi bor klassik ifoda oldi. Tarix tarixiy yoki oliy tarixiy maqsad tomon harakat qilmaydi: u doira bo'yicha harakat qilib, o'z boshlang'ich nuqtasiga qaytib keladi, deb tushungan edilar. Uning oqimi har bir alohida oqimni, unga ajratilgan vaqt va aniqlangan kenglikda genezis akmatik tushkunlikni ko'zda tutadi.

Taqdirda belgilangan bu vaqtinchalik davomiylikdan tashqari hech nima yo'q. Kosmik xalqaning ichida degradatsiya jarayonini birgalikda tuzadigan turli davrlarni farqlash mumkin. Borliqning dastlabki mukammalligidan boshlanib, dunyoning o'z mohiyatida asta-sekin to'la buzib ko'rsatadi.

Geraklit asarlarida dunyoning asosiy stixiyalari o'zaro aylanishining ilk siklik tasvirlarini ko'rish mumkin. U dunyoni qonuniy yopayotgan va qonuniy ochayotgan holda ko'rdi. Geraklit bo'yicha «yuqoriga yo'l» — bu tuproq-suv-havo-olov yo'nalishi bo'yicha harakat. Shuningdek, aksincha yo'nalishdagi transformatsiyani Geraklit «quyiga yo'l» deb atadi.

Qadimgi Rim tarixchisi Polibiy bizga tarixiy jarayonning siklikligi to'g'risida keng qamrovli tasavvurlarini qoldirdi. Polibiy o'zining «Umumiy tarix» asarida tarix davomida bir-birini almashtiradigan davlat qurilishining asosiy oltita shaklini ko'rib chiqadi. Boshqaruvning har bir shakli o'zida o'zining halokati aynishining buzilgan shaklini olib borishga majbur.

Monarxiya yoki yakka hokimlik boshqaruvi birinchi bo'lib paydo bo'ladi. Bu qoidaga ko'ra, navbatdagi stixiyali kulfatdan keyin omon qolgan odamlar birgalikda o'zlari orasida eng botir va yo'l boshchilarga bo'ysunadilar. Yo'l boshchilar hokimiyati — bu kuch hukmronligidir. Monarxiyani podsho hokimiyati almash-tiradi. Kuch hokimligi zaiflashganda u kirib keladi. Odamlar orasida do'stlik munosabatlari o'rnatiladi. Aql kuchni yengadi.

Podsholik boshqaruvi o'z navbatida boshqaruvning buzilgan shakli tiraniyaga o'tadi va tiraniyani aristokratiya almashtiradi. Keyin esa «Tabiat qonunlari»ga ko'ra oligarxiyaga o'tadi. Va nihoyat oligarxiyaga qarshi qo'zg'olon, demak, demokratiyaning o'rnatilishiga olib keladi. U vaqt o'tishi bilan «xalqning o'zboshimchaligi sababli» oxlokratiyaga ayniydi. Faqat monarxiyaga qaytish uchun bu tarixiy doira bekiladi.

Olim Paul Tillix shunday ta'kidlagan edi: «Tarixning antik siklik paradigmasi fojiali xususiyatga ega. Insonning vaqt va kenglikda ajralgan individ sifatida mavjudligi insonda fojiali aybdorlik hissini tug'diradi. U zaruriyat bilan o'z-o'zini yemirishga qarab olib boradi». Lekin fojia buyuklikni taxmin qiladi. Qadimgi Yunon faylasuflari va tarixchilari tabiat va davlatdagi hayotning ajoyibligini sharafladilar, uning qisqa vaqt fojiali ekanligidan afsus chekdilar.

Fojiali vaziyatdan yagona sharofatli chiqish — bu uni tarixiy mavjudlikning teskariligi ustidan ulug'laydigan dono yoki qahramonning jasoratidir.

Shunday qilib, tarixning siklik paradigmasining birinchi shaklini antik falsafa yaratdi. U mohiyat jihatidan tarixiy edi. Genezis va tushkunlikning fojiali doirasi uning oxirgi soʻzi. Yangi davrda bu paradigma italyan faylasufi Jon Viko (1668—1774)ning yaratgan «abadiy ideal tarix» konsepsiyasida oʻz aksini topdi. Vikoning fikricha, dunyoga asos solingan tartib umumiy va abadiy. U oʻsha abadiy ideal tarix bilan, ilohiy bashorat bilan belgilangan, unda biriktirilgan.

Barcha xalqlar oʻz taraqqiyotida uch bosqichni bosib oʻtishi lozim: «Xudolar asri» — Teokratik boshqaruv, «qachonki majusiylar — majusiy odamlar, ilohiy boshqaruv ostida yashayapmiz deb oʻyladilar»; «Qahramonlar asri» — Aristokratik boshqaruv — bu yerda qahramonlar va plebeylar oʻz tabiati kuchiga koʻra bir-birlariga qarama-qarshi turadilar; «Odamlar asri» — respublika va monarxiya boshqaruvi — bu yerda inson ularning tabiatiga koʻra barcha tengdir, deb tan oladi. Har bir yangi davrga oʻtish odamlarning oʻz gʻoyalari uchun kurashlari natijasida sodir boʻladi. Shu bilan birga uch davrning har bir sikli tushkunlik va buzilish bilan tugallanadi. Bu («abadiy») tartibni bekor qilish hech kimning qoʻlidan kelmaydi.

Viko antik mualliflardan keyin tarixiy taraqqiyotning genezisi va tushkunligining fojiali xalqasini bartaraf qiladigan vositalarni topa olmadi va mohiyatan tarixning siklik paradigmasining birinchi notarixiy shakllari doirasida qolaverdi.

Bu paradigma taraqqiyotining keyingi bosqichi sivilizatsiya yoki madaniy-tarixiy yondashuv boʻldi. Bu yerda bizni butun bir yorqin nomlar kutadi — N. Danilevskiy, O. Shpengler, A. Toynbi, P. Sorokin. Ularning barchasi turli atamalarni ishlatdilar: «Madaniy tarixiy tiplar» (N. Danilevskiy), «Yuqori madaniyatlar» (O. Shpengler), «Lokal sivilizatsiyalar» (A. Toynbi), «Madaniy super tizimlar» (P. Sorokin).

«Sivilizatsiya va madaniyat» atamaları tarixiy tadqiqotlarga nisbatan yaqinda paydo boʻldi. Ularni fanga fransuz va ingliz maʼrifatparvarlari kiritgan, deb hisoblash qabul qilingan. Fransuz tarixchisi L. Fevr «sivilizatsiya» soʻzi ilk bor fransuz matnida 1766-

yil, ingliz matnida 1773-yil, «madaniyat» atamasi 1774—1793-yillar oralig'ida paydo bo'ldi, deb tasdiqlaydi.

«Sivilizatsiya nafaqat siyosiy, balki axloqiy va diniy sohalarda aqlning tarqalishi va zafari» degan ma'noni bildirardi. Yovvoyilik va varvarlik qarama-qarshi ma'rifatli jamiyat, fan, san'at, erkinlik va adolatning progressi va urushlar, qulchilik va qashshoqlikning yo'q qilinishi, boshqa so'z bilan aytganda, sivilizatsiya, birinchi navbatda, idealning ko'p darajada axloqiy idealligini bildiradi. «Madaniyat» tushunchasi mazmuni bunga yaqin edi. U ma'rifat, ma'naviy takomillashuv, inson ruhining ozod bo'lishi fan va san'atning progressini bildiradi. Boshqacha aytganda, dastlab madaniyat sivilizatsiyaning komponenti deb talqin qilindi.

Vaqt o'tishi bilan sivilizatsiyalarga butun-butun mamlakatlar va xalqlar ularning taraqqiyot holatida tarqala boshladi. 1819-yilda «Sivilizatsiya» so'zi birinchi bor ko'plik ma'nosida ishlatildi. Bu xalqlarning sivilizatsiya taraqqiyotida ko'p xilligini tan olish to'g'risida guvohlik beradi. F. Gizo «Yevropada sivilizatsiya tarixi» (1828-yil), keyin «Fransiyada sivilizatsiya tarixi» (1830-yil), P. Bokl «Angliyada sivilizatsiya tarixi» (1857—1861-y) nomli asarlarini yozadilar. Amerikalik «Kulturologlar» A. Kleber va K. Klakxon 1952-yil «Madaniyat» so'zining bir yuz oltmish to'rt tushunchasi ro'yxatini chop etdilar va ko'p hollarda bu atama «Sivilizatsiya» atamasi bilan bir tarzda aytiladi, deb tasdiqladilar.

Sivilizatsiyalar nazariyasini rivojlantirgan madaniy-tarixiy maktab XIX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi. Bu maktabning yirik muvofiqlashtiruvchi markazi sivilizatsiyalarni qiyosiy o'rganish bo'yicha xalqaro jamiyat bo'ldi. Bu jamiyatning fashkilotchilari A. Toynbi, P. Sorokin, A. Kleber (1861-yil Zalsburg) bo'ldilar. Madaniy, tarixiy maktabning asoschilaridan biri rus olimi N. Danilevskiydir (1822—1885-y). Uning «Yevropa va Rossiya» asari 1869-yilda chop etilgan. Bu maktabning ko'pchilik nazariyotchilari har bir sivilizatsiya qandaydir boshlang'ich ma'naviy asosga «Katta g'oyaga sakrab qadriyatlarga» yoki ilk canzlarga aylandi. Ularning atrofida taraqqiyot davomida murakkab ma'naviy tizimlar shakllanadi, degan fikrga qo'shildilar. N. Dani-

levskiy, A. Toynbi sivilizatsiyaning bir xilligi shakllanishida dinning alohida o'rnini ta'kidladilar.

Sivilizatsiyalar din, me'morchilik, tasviriy san'at, axloq, urf-odatlar sohasidagi ma'lum bir assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradigan insoniyat hamjamiyatlarining tiplarini aks ettiradi, deb tasdiqlaydilar.

Shunga ko'ra, sivilizatsiyalar — eng oliy ko'rinishdagi madaniy birliklardir. Insoniyat madaniyatining ko'p asrlik tarixida faqat ba'zi xalqlargina buyuk sivilizatsiyalarni yarata oladilar. Tarixda shunday sivilizatsiyalar bo'lgan va bu sivilizatsiyalar qanday bo'lganligi to'g'risida madaniy-tarixiy maktablar nazariyotchilari o'rtasida nihoyasiz munozaralar hamma vaqt davom etib kelmoqda. N. Danilevskiy bunday sivilizatsiyalar yoki madaniy-tarixiy tiplarning o'ntasini ajratdi: Misr — Osuriya, Bobil, Finikiya, Xitoy, Hind, Eron, Yahudiy, Yunon, Arab, Yevropa (Roman-German). Ink-Pern va Meksika sivilizatsiya taraqqiyotining ilk bosqichida tabiiy o'lim bilan halokatga uchragan.

N. Danilevskiy bir tilda gaplashadigan yoki bir xil til guruhiga mansub bo'lgan, tarixiy taraqqiyotga ma'naviy qoloq bo'lgan har qanday xalqlar «ma'naviy-tarixiy tip» bo'lishi mumkin deydi. Lekin sivilizatsiyalar faqat uning «etnografik» materiali turli xil bo'lsa va u siyosiy mustaqillikka ega bo'lsa, o'z cho'qqisiga chiqishi mumkin. Har bir madaniy-tarixiy tip ma'lum bir bosqich yoki evolutsiyaning fazalarini bosib o'tadi. Har bir sivilizatsiyaning ichki evolutsiyasi uning boshqa ijtimoiy-tarixiy tiplar bilan o'zaro aloqasining mantig'iga bo'ysundirilgan.

Madaniy-tarixiy tiplar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro raqobat, ko'pincha, kuchli shakllarda siqib chiqarish mantig'i bilan belgilanadi.

N. Danilevskiy talqini bo'yicha kuch-qudratli sivilizatsiyalar tarix sahnasidan talvasaga tushgan, keksaygan sivilizatsiyalarni supurib tashlaydigan «xudoning qamchisi» sifatida qaraladi. Shuning uchun xalqlarning to'qnashuvlari tabiat dunyosida bo'ron va chaqmoqlar qanday zarur bo'lsa shunday zarur. U «Dunyoda alohida imtiyozli madaniy-tarixiy tiplar bo'lishi mumkin emas. Chunki

biror-bir sivilizatsiya ijtimoiy tuzilmaning tugallangan universal shaklini yaratishi mumkin emas» deb ta'kidlaydi.

Zamonaviy sivilizatsiyalarni boshqarish konsepsiyasini O. Shpengler ilgari surdi. N. Danilevskiydan keyin u tarixning «Ptolomey tizimi»ga keskin qarshi chiqdi. Bu nazariyaga ko'ra, dunyoning barcha madaniyatlari bir markaz — Yevropa madaniyati atrofida «aylanadi». O. Shpengler tarixning «Kopernik kashfiyoti»ni tasdiqlaydi. Antik dunyo va G'arbiy Yevropa, Hindiston, Bobil, Xitoy, Misr, Arab va Meksika madaniyatlari o'zgarib turadigan va ifodalanadigan barcha hayotning markazida turadi. Ularning har biri ustuvor o'rinni egallamaydi. Ammo barchasi tarixning umumiy tasvirida bir xil ahamiyatga ega. Buning ustiga ularning ma'naviy konsepsiyalari va yuksalish qudratining ulug'vorligi ko'p hollarda yuqori bo'ladi.

O. Shpengler sakkiz buyuk — Misr, Bobil, Hind, Xitoy, Yunon-Rim, Arab, Meksika, G'arb madaniyatlarini ko'rsatadi. Har bir madaniyat buyuk ruhning tug'ilishidir. Qachonki ruhning olovi so'nganda, u o'zining so'nggi bosqichi — sivilizatsiya bosqichiga o'tadi. Amerikalik olim Arnold Toynbi lokal sivilizatsiyalar nazariyasini ilgari surdi.

S. Xantington o'zining «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi» asarida A. Toynbining sivilizatsiyalarning o'xshashligi mezonlarini o'zlashtirib oldi va dinning tutgan o'rniga asosiy e'tibor berdi. S. Xantington hozirgi dunyoda sakkiz: g'arb, konfutsiylik, yapon, islom, hind, provaslav-slavyan, Lotin Amerika va Afrika sivilizatsiyalarining mavjudligini qayd qiladi. Uning fikricha, xalqaro kun tartibida sivilizatsiyalararo munosabatlar muammosi asta-sekin birinchi o'ringa chiqadi. Qurollar, asosan, ommaviy qirg'in qurollari muammolari, inson huquqlari va emmigratsiya kabi masalalar buning ichiga kiradi.

Karl Yaspers (1883—1969) — nemis faylasuf ekzistensialist, psixolog, madaniyatshunos olim. Uning bir qancha asarlari nashr qilingan. Jumladan: «Об истине» (1947-y), «Вопрос о вене» (1946-y), «Nitshe va xristianlik» (1946-y), «Falsafa va e'tiqod» (1948-y), «О европейском духе» (1946-y), «Истоки истории и её цель» (1948-y).

K. Yaspers M. Xaydegger bilan birgalikda ekzistensializm falsafasiga asos soldilar. K. Yaspersning madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan qarashlari xristian dunyoqarashiga asoslangan. Madaniyatning vujudga kelishi va ibtidosi xudo bilan bog'liq. «K. Yaspersning fikricha, san'at insonning xudo bilan bog'langan aloqalarini tiklashdan iborat». K. Yaspers falsafasining asosiy mavzusi — bu inson va tarix hisoblanadi. Bu o'rinda tarix — inson mavjudligining ibtidosi sanalsa, falsafa — mustaqil fikrlashning usulidir.

K. Yaspers falsafasidagi bosh g'oya, maqsad va mazmun nimadan iborat? Uning barcha asarlaridagi asosiy firki — bu sivilizatsiya, madaniyat va insoniyatni qutqarish yo'li, totalitarizmga qarshi qanday qilib kurashish, shuningdek, harbiy tazyiq, madaniy va ruhiy tushkunlikni bartaraf etish, gumanizm, ozodlik, ruhiy mustaqillikni qayta tiklash, insoniylikni saqlab qolish va inson sifatida qolishdir. Bunda K. Yaspers asosiy o'rin tutadigan hodisa sifatida falsafani ko'rsatadi. Aynan falsafa va falsafiy e'tiqod madaniy an'ana va qadriyatlarning barbod bo'lishiga sabab bo'luvchi fanatizm, utopiyaga qarshi kurashish mumkinligini asosladi. U falsafa insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda, ruhiy tushunish va muhabbat tuyg'ularini tasdiqlashda alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

K. Yaspers falsafani ruhiy izlanish, intilish ekanligini izohlab, falsafani aqliy faoliyatning bir qismi, balki butun insoniyatni zabt etuvchi ilohiy harakat sifatida ifodalaydi. U Yevropadagi boshqa lokal sivilizatsiyalardan farqli ravishda insoniyatni yaxlit tarixiy-madaniy birlikda ko'rishga intiladi. K. Yaspers jahon tarixi chizmasida aks ettirilganidek, butun insoniyat tarixida to'rt davrni ochib beradi:

1. Ibtidoiy davr.
2. Qadimgi buyuk madaniyatlar davri.
3. Inson mavjudligining ruhiy asosi davri.
4. Texnika taraqqiyoti davri.

K. Yaspers tarixgacha bo'lgan davrni ikki bosqichga bo'lib ko'rsatadi:

1. Biologik taraqqiyot.
2. Tarixiy taraqqiyot.

Qadimgi buyuk madaniyatlar davrida insoniyat yer yuzasining uch qismida paydo bo'ladi:

1. Shumer-Bobil va Misr madaniyati; Egey madaniyati.
2. Hind madaniyati.
3. Xitoyning qadimgi madaniyati.

Uning tarixiy konsepsiyasi XIX—XX asrda yaratilgan juda ko'plab tarixiy konsepsiyalardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U nafaqat tashqi tuzilishi jihatidan, balki ichki tuzilishi, ya'ni butun insoniyatni yagona bir jamiyat sifatida olib, tahlil qilishi ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada «Os» (tayanch) vaqti konsepsiyasiga alohida e'tibor berish lozim. Chunki aynan shu holat uning konsepsiyasida uchraydi. Xulosa sifatida shuni aytib o'tish lozimki, K.Yaspers konsepsiyasining mohiyati shundaki, insoniyatning yagona, yaxlit birligi bo'lganda, Yer shari ular uchun yagona makon vazifasini o'tagan taqdirdagina har qanday muammolar yechilishi mumkin. U kelajakda insoniyatni uch an'ana kutishi mumkinligini ilgari suradi: «Totalitarizm», «Dunyoviy tartib», «Ishonch, e'tiqod».

K. Yaspers ilgari surgan g'oyalari monand hozir biz halokat yoqasida turibmiz. Biz bunday xavfdan xoli bo'lishimiz uchun esa «Os» (tayanch) vaqti bilan aloqalarni yangilashimiz lozim. Ana shundagina bu muammolar nafaqat hal etilishi, balki yangi ruhiy taraqqiyot uchun yo'l ochilishi ham mumkin.

K. Marks tarixiy to'rt asosiy tamoyillar — insoniyatning birligi g'oyasi, tarixiy qonuniyat, determinizm tamoyili, progress g'oyasiga asoslanib, tarixni materialistik tushuntirish konsepsiyasini shakllantirdi. Marksning formatsiya yondashuviga ko'ra qarashidan insoniyat o'z tarixiy taraqqiyoti yo'lida besh asosiy bosqich — formatsiyalarni: ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodal, kapitalistik va kommunistik (sotsialistik-kommunistik formatsiyaning birinchi fazasi) tuzumlarni bosib o'tadi.

Formatsiyalar taraqqiyotiga asoslangan tarixning materialistik konsepsiyasi bo'lib, keyingi 80-yillarda tarix fanida hukmron mavqeni egalladi. Bu konsepsiyaning kuchli tomoni ma'lum bir mezonlar asosida butun tarixiy taraqqiyotni aniq tushuntiruvchi modelini yaratadi. Tarix obyektiv qonuniyatli, ilgarilab boradigan

jarayon sifatida ko'rinadi. Hozirgi tarix fanida formatsiya yondashuvi metodologiyasiga sivilizatsiya yondashuvi metodologiyasi qarama-qarshi turadi.

K. Marks ta'limotiga ko'ra, tarixni tahlil qilishda sinfiylik nuqtayi nazardan o'rganish ustuvor o'ringa ega. Tarixga sinfiylik qarashidan yondashilish natijasida tarix bir tomonlama yoritildi. Tarix fanini soxtalashtirish salbiy oqibatlarga olib keldi. K. Marks davlatning paydo bo'lishini quyidagicha tushuntirishga harakat qildi. Jamiyat ekspluatatorlar — ekspluatatsiya qilinuvchilar, quldorlar va kambag'allar toifasiga bo'ldi. «Quldorlik davlati», «Feodal davlat», «Kapitalistik davlat», «Sotsialistik davlat». Undan keyin davlat degan tushuncha yo'qolib ketadi, degan fikr ilgari surildi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonini tahlil qilishda sho'rolar «formatsiyalar almashuvi» nuqtayi nazardan yondashdilar. Natijada tarix bir yoqlama yoritildi. Shu yerda N. Jo'rayevning quyidagi fikrlarini keltirish joizdir: «Sho'ro davri tarixnavisligi va tarixshunosligining millatimiz va umuman, kichik xalqlar boshiga keltirgan kulfatlarining adog'i yo'q. Markistik nazariyaning metodologiyasiga asoslangan va kommunistik mafkura bilan tish-tirnog'igacha qurollangan tarixnavislik metodologiyasi butun o'tmishimizni soxtalashtirib yubordi. Milliy o'zligimizni unutishga, faqat o'z maqsadi va g'oyalarga mos keladigan jihatlarinigina saqlab qolib, qariyb bir necha ming yillik tariximizni butunlay yo'q qildi. Tarixiy xotiradan, tarixiy tafakkurdan ajralishi oqibatida insonni oliy mavjudot sifatidagi qadriyat deb e'tirof etish unutildi. Uni ham ma'naviy, ham jismoniy mutelikka, qaramlikka, qullikka majbur qildi».

Marksizm-leninizm mafkurasida tarixchilar tarix fani darsliklarini yozishda o'tmishni faqat xunrezlik voqealari, urush va vayronagarchiliklar haqidagi hodisalar bilan to'ldirib tashladilar. Millat tarixi va umuman insoniyat tarixi urushlar, xunrezliklar, bir-birini mahv etish va qatl qilishdan iborat, deb uqtirildi. Haqiqiy tarix — insoniy tafakkur evolutsiyasi, inson qalbi ziddiyatlari, ajdodlarimizning quvonch va izzatoblari, ularning buyukligi, qudrati va zaif jihatlari o'rtasidagi ziddiyatlardan iborat bo'lgan. Yaxlit tarix barbod etildi. Shunday qilib, hayot haqiqati ham, tarix haqiqati

ham, ilmiy haqiqat ham ataylab buzib tashlandi. Tarix hukmron mafkuraning qurboni bo'ldi. Bularning hammasi tarixiy tafakkurimizni ham, tarix tushunchasi va falsafasini ham chegaralab qo'ydi. Tarixning buyuk yaratuvchanlikka va komillikka da'vat etuvchi qudrati ataylab sindirib tashlandi. Marksning formatsiya nazariyasini rivojlantirishga F. Engels, V. I. Lenin o'z hissalarini qo'shdilar. Masalan, Engelsning ushbu fikriga e'tibor beraylik: «Davlat umuman va asosan ishlab chiqarishda hokim bo'lgan sinfning iqtisodiy ehtiyojini konsentratsiyalashgan shaklda ifoda etishdir». Yoki Leninning mana bu fikrini keltirsak: «Davlat bir sinfning ikkinchi sinf ustidan hukmronlik qilish uchun xizmat qiladigan mashinadir». Ko'rib turganimizdek, davlat tushunchasiga sinfiylik nuqtayi nazaridan yondoshilgan. Tarixga munosabat ham shu kabidir: «Tarix sinfiy kurashning bir qator lavhalaridan iboratdir». Bu yerda ham sinfiylik, davlatchilik taraqqiyoti bosqichlariga baho berishda sinfiylikdan kelib chiqilgan. Ya'ni «quldorlik» davlati, «feodal» davlati, «kapitalistik» davlat, «Sotsialistik» davlat tushunchalari bunga yaqqol misoldir. Kommunizmga davlat degan tushuncha go'yo yo'qolib ketadi. Xullas, bunday qarashlarda hamma narsa bor. Ammo eng asosiysi davlatchilikning manbayi xalq ekanligi tushunchasi yo'qdir.

Marksizm asoschilari tarixiy materializm g'oyasini ilgari surdilar. Tarixni falsafiy umumlashtirish, uning asosiy qonuniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan g'oyani maydonga olib chiqdilar.

Tarixiy tafakkur va tarix falsafasini shakllantirish, uni o'rganish va tadqiq etishda turli-tuman, bir-birini rad qiladigan, bir-birini inkor etadigan g'oyalar hamon mavjud. Hamon tarix falsafasini tadqiq etishning turli-tuman yo'nalishlari, shakllari va oqimlari paydo bo'lmoqda. Bu albatta tabiiy holdir. Zotan, hayot davom etarkan, tarixiy tafakkurning shakllanish jarayoni, tarix falsafasini anglash hodisasi ham insoniyat hayoti bilan birgalikda davom etadi. Ilmiy taraqqiyot, ong va tafakkur rivojlanishining esa chegarasi yo'q.

Kommunistik mafkura g'oyasiga sodiq tarixchilar tarixni tahlil qilishda formatsiya nazariyasidan umumli foydalandilar. Natijada tarixni bir qadar soxtalashtirish, tarixni o'rganishda sinfiylikka asoslangan metodologiya paydo bo'ldi. Marks ijtimoiy-iqtisodiy

taraqqiyot to'g'risidagi xulosalarni faqat Yevropa taraqqiyoti tarixi asosida chiqargan edi.

XX asrning 80-yillaridan tarixga formatsiyaviy yondashuv inqirozga yuz tutdi. Marksizm o'limga mahkum qilgan kapitalistik ishlab chiqarish usuli o'z taraqqiyoti davomida bir necha fazalarni bosib o'tdi va ma'lum darajada progressga erishdi. XVII asrdan Yevropada bozor iqtisodiyotiga tomon yo'l tutgan jamiyatlar progressga erishib, asta-sekin o'zining ijtimoiy-siyosiy muammolarini yechib, yangi taraqqiyot bosqichiga o'tdi.

XIX asr oxiri XX asrda yashagan G'arbdagi taniqli jamiyatshunos olimlar K. Marksning formatsiya nazariyasidan tubdan farq qiladigan jamiyat to'g'risida turli xil konsepsiyalarni, jumladan, XX asrda G'arbiy Yevropa, AQSH tarixchilari tarixni o'rganishda «ijtimoiy yondashuv», «mantiqiy yondashuv», «dialektik yondashuv»larni taklif qildilar. Lekin hozirgacha olimlar ma'naviy hayot va madaniyat jamiyatning moddiy tarixiga bog'liqligi yoki qaramligini asoslay olganlari yo'q.

Tarix fanidan hozirgi chop etilayotgan darslik, o'quv adabiyotlarida Marks nazariyasidan chetga chiqish qiyin kechunoqda. Jahon tarixi fani va tarix falsafasida yangi nazariyalar ilgari surilmoqda va qizg'in munozara qilinmoqda.

XX asrning taniqli kulturologlari P. Sorokin, A. Kreber, F. Nortrop, T. Bekker, V. Shubert madaniyat prototiplarining tipologiyasini ishlab chiqdilar (Muqaddas va dunyoviy madaniyat — U. G. Bekker, madaniyat-reallik va madaniyat-qadriyat — A. Kreber, g'oyaviy, idealistik, hissiy supertizimlar — P. Sorokin, estetik va nazariy, uyg'un, qahramonlik, estetik va mission prototiplar — V. Shubert.)

Olimlar o'tmishga sivilizatsiya yuzasidan qarashning mazmunini aniqlashtirishga harakat qildilar. Uning asosiy farqini M. A. Barg quyidagicha yozadi: Har qanday tarixiy davrni «uning inson o'lchovi orqali» mazmun-mohiyatini ochsa bo'ladi. M. A. Bargning fikri bo'yicha sivilizatsiya qarashidan yondashuv tadqiqotchini «tarix subyektini obyektivlashtirishning barcha shakllari orqali» bilishga yo'naltiradi. Sivilizatsiyalar konsepsiyasi tarixining obyektiv va subyektiv jihatlarini qo'shgan holda ilk bor tarixning o'z meto-

dologiyasini qurish imkoniyatini ochadi. Qaysiki, u tarixiy jarayonning obyektiv berilgan va subyektiv iroda boshlanishida dinamik ko'rinishda tasavvur qilishga imkon beradi. Va bu tarix fanlarining xususiy fanlarga bo'linishini bartaraf qiladi. Insonni u yoki bu (iqtisodiy, sinfiy, siyosiy va boshqa) soha bo'yicha emas, balki uni yaxlitligicha qarashga imkon beradi. Sivilizatsiya qarashidan qarash yer sharining turli hududlari ijtimoiy-tarixiy evolutsiyasi yo'llarining ko'p variantligini o'rganish imkoniyatini ochadi.

Tarixiy taraqqiyotdagi tub o'zgarishlar natijasida bugungi kunda tarixga munosabatimiz jiddiy ravishda o'zgardi va tarixni o'rganishda yangi bosqich boshlandi. Bugun biz o'tmishga shunchaki qaray olmaymiz, unga nisbatan befarq bo'la olmaymiz. Ichki bir ma'naviy ehtiyoj o'tmishga nazar solish orqali tafakkur tarzimizni o'zgartirish zaruriyatini o'rtaqa tashladi. Aynan ana shu ma'naviy-ruhiy talpinishlar insonning o'zini yangilash, o'zini-o'zi «isloh» qilish, ta'minlashini taqozo qilmoqda.

4. Tarixni davrlashtirishga yangicha yondashuv. Ma'naviyatning birlamchiligi insoniyat taraqqiyotida ijtimoiy asoslangan. Bu moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, mulk shakllari, ijtimoiy va siyosiy ustqurmada tubdan o'zgarishlar yordamida amalga oshadi. Yangi bilim va malakalarni egallashni ishlab chiqarish va moddiy ne'mat va xizmatlar ayirboshlashni amalga oshiradi. Ishlab chiqarish natijalari va vositalarini o'zlashtirish usullarining o'zgarishi huquqiy normalarning o'zgarishiga olib keladi. Jamiyatning bu harakati nojoiz, tushkunlik va yorib o'tishlar orqali boradi.

Har qanday xalq, millat o'z taraqqiyotida yuksalish, tushkunlik davrlarini bosib o'tadi.

Yorib o'tish — bu qaysi bir davlat (xalq) progress avangardiga evolutsion taraqqiyot bilan nisbatan silliq o'tishi davridir. Jamiyatning evolutsion taraqqiyotining gullab-yashnashi navbatdagi bosqichga chiqib, stagnatsiya (tushkunlik)ga yuz tutadi. Texnologik tizimlar va iqtisodiy shakllar odamlarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bu ishlab chiqaruvchi kuchlarning bir qismining yemirilishiga va yo'qotilishiga, etimologik, axloqiy degradatsiyaga olib keladi. Jamiyatning yemirilish-tushkunlik fazasi boshlanadi. Bu faza jarayonida uning bag'rida yangi jamiyatning

unsurlari shakllana boradi. Demak, tarixiy jarayonlarning tahlilida yuqorida aytilgan tushunchalar o'z aksini topishi kerak.

5. Tarixiy taraqqiyot jarayonida tahlil qilish metodologiyasini yoritishda tarixiy sikl. Tarixiy sikllar insoniyat (etnos, mamlakat, hududlar) tarixiy taraqqiyot jarayonining ritmiyligi, takrorlanishini ifodalaydi. Tarixiy taraqqiyot jarayonini tahlil qilishda davlatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, qaysi hududda joylashganligi tarixni xolisona yoritishda tarixiy sikl tushunchasidan foydalanishni taqozo etadi.

Yalpi sikl — buning ma'nosi shuki, (insoniyatning tarixiy yo'li) yer yuzada bir vaqtda bir necha sivilizatsiyalar mavjud bo'lishi va yashashi mumkin.

Tarix — bu qandaydir ma'noda nazariy va amaliy fan. Chunki tarixchi o'tmishni o'z davri nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Bunda u o'tmish tarixning o'ziga xosligini hisobga olishi lozim. Insoniyat jamiyati taraqqiyoti markazida inson turadi. Xo'jalik, siyosat, din, san'at, turmush — bularning hammasi odamlar guruhining yurish-turishini har xil shakllantiradi. Tarixchilar uchun tarixni sabab-oqibat aloqalari bilan har tomonlama va chuqur nazariy tahlil qilish, tarixiy jarayonni xilma-xillikda, qarama-qarshilikda, murakkablikda ochib berish talab qilinadi. Biz jamiyatshunos olimlar tarixiy jarayonni oq-qora tasvirda ko'rishdan qo'rqamiz. Shu o'rinda Prezident I. Karimovning ushbu so'zlarini keltirish joizdir: «Afsuski, ko'p olimlarimiz ongida eski tuzum asoratlari mahkam o'rtnashib qolgan. Ular hozir mustaqillik sharoitida ham kimdandir qo'rqib, cho'chib gapiradilar». Bunday jur'atsizlik tarixiy ong, xotira va tafakkurda turg'unlik mavjudligi holatining uzoq vaqt saqlanib qolishiga olib keladi. Yana bir tomondan tarixiy jarayonni chuqur tahlil qilish zaruriyati har qachongidan ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Tarixiy taraqqiyot jarayonini tarixiy, falsafiy tahlil qilishda yurtboshimiz ta'kidlaganidek: «Agar olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlari zahirida yangilik bo'lmasa, ularning sariq chaqalik ahamiyati yo'q». Bu salbiy holatlar tarixiy ong, tarixiy tafakkurimizning zaif, turg'un holatda qolishiga sabab bo'ladi. Shu sababli bu yo'nalishda ijobiy siljishlar, izlanishlar zarur va kerakdir. Agarda bizning tarixiy tafakkurimiz, tarixiy ongimiz yaqin o'tmishdagidek

zaif, rivojlanmay qolaversa, bu hol jamiyatning ijtimoiy ongiga salbiy ta'sir qiladi. Tarixiy ong, tarixiy xotiraning zaif bo'lishi fuqaroni jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'laqonli anglab yetishiga va ularda faol ishtirok etishiga qiyinchilik tug'diradi.

6. Tarixiy vaqt muammosi. Vaqt (zamon) tadqiqoti yangi davrda mustaqil falsafiy, ilmiy muammoga aylandi. Chunki klassik mexanika va fizikada qilingan kashfiyotlar bunga turtki berdi. Antik va o'rta asr falsafasida vaqt tahlili boshqa bilish tadqiqotlari ichida olib borildi. Arastu mexanikasi va Ptolomey astronomiyasi dinamik bo'lmay, asosan, kinematik konsepsiyalar edi. Bu vaqt muammosiga o'z izini qoldirdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida metodologlar va tarixchilar tarixiy vaqtning muammolarining murakkabligiga e'tibor berdilar. Bu muammo quyidagi tarzda gavdalantirildi:

1. Tegishli tarixiy jarayonlarning vaqtinchalik intervallari va voqealarning vaqtini belgilashning aniq metodlarini ishlab chiqish;
2. Jahon tarixini davrlashtirish hududiy va muassasaviy tarixning bosqichlari va davrlarini ajratish va bu bilan bog'liq «bosqich», «davrlar» va shunga o'xshash abstraksiyalarni asoslash;
3. Universal xronologik tizimlar va turli lokal xronologiyalarni ko'chirish qoidalarini va ularga taqqoslashni yaratish;
4. Vaqt va kenglik to'g'risidagi turli tarixiy qarashlar va ularning transformatsiya qilish sabablarini o'rganish;

Vaqtning qandaydir mutlaq kalendar — xronologik hisob shaklida ishlatish sezilarli darajada tarixchini qondiradi. Biroq boshqa ruhda tasvirlashda vaqt shakllarini nazariy jihatdan tushunish zaruriyati bilan bog'liq. Jumladan, uning uzoqligi, ritmining bir xil emasligi va h. k. Lekin kalendar, ayniqsa, xronologiyaning ko'p asrlik muammosi jiddiy davom etib keladi. Tarixiy vaqtning har xilligini quyidagicha ko'rish mumkin:

- a) Turli ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatlarning, davrlarning vaqti har xil. Tarixiy vaqt uzunligi turli sivilizatsiyalar uchun, davrlar tizimlari uchun har xil. Chunki bir xronologik vaqt doirasida ular turli rivojlanish darajasini bosib o'tadilar.

b) Sivilizatsiya ichida ham vaqt har xil. Ular turli voqealar uchun turli xil. Misol uchun, biri sivilizatsiyaning ilk bosqichi uchun, boshqasi uning so'nggi bosqichi uchun.

d) Tarixiy jarayonning jadallashuvi vaqt to'g'risidagi tushunchaning o'zgarishi bilan emas, balki amaldagi vaqtning sekinlashuvi bilan bog'liq. Tarixiy-madaniy tajribaning o'sishi jarayonida davrdan davrga vaqt oqimi odamlar avlodi uchun uni o'zlashtirish, qayta ishlash va jamg'arish qarashidan sekinlashadi. Hozirgi zamon odamlari, ayniqsa, ilmiy-texnika inqilobi davrida kalendarning o'sha bir xil hajmdagi vaqti davomida «yuz yil» ilgariga qaraganda «ko'proq» yashaydi va ko'radi. Bir sivilizatsiyadan yoki rivojlanayotgan mamlakatdan rivojlangan mamlakatga o'tib yashayotgan odam intensiv yashaydi, qisqa vaqt ichida ko'p narsani ko'radi, o'zlashtiradi. Orqaga qaytganda, uning harakati susayadi.

e) Tarixiy vaqtning sekinlashuvi ma'lum darajada quyosh vaqti bilan bog'langan axborotni jamg'arish jarayoni oralig'idagi bo'g'in bo'ladi. Bilimlarning to'planib borishi bilan bilish vaqti quyosh vaqtiga nisbatan sekinlashadi, degan tushuncha mavjud.

f) Yuqoridagilarga asoslangan holda tarixiy vaqt va kenglik nisbiy hodisa. Tarixiy vaqtda jarayonlarning uzunligi o'lchovi jamiyatning rivojlanishi bilan o'zgaradi va nisbiy kattalik hisoblanadi.

g) Vaqtga tarixiy tajriba sifatida qaraladi. Har xil ramzlardan «tozalangan» ilmiy va umuman madaniy tajriba o'z tarixiy asosida vaqt bo'lib chiqadi. Uyg'onish davrida Frensis Bekon «haqiqat vaqt qizi» deb e'lon qilgan edi. Shundan vaqt – bu ham haqiqat, haqiqat esa tajriba, degan xulosa kelib chiqadi. Bunday tarzda shartlanadigan vaqtni qanday o'lchash mumkin, tarixiy voqealar sivilizatsiyalar birligidami? Bir sivilizatsiya davomidagina emas, har qanday sinxron intervalda turh ijtimoiy guruhlar, sinflarning tarixiy darajasi har xil bo'ladi.

h) Ijtimoiy kenglik nisbiy bo'lib, u kenglikning ekologik birliklari bilan emas, ma'lum bir ijtimoiy tizimlar bilan ijtimoiy jarayonlarning tartibga solingani va o'zaro faoliyati, ularning qamrovi, mazmundorligi va zichligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan shartlangan vaqt xossasi va kengligi jamiyat taraqqiyoti bilan nisbiy hodisa bo'ladi. Jahon tarixiy kengligi

ijtimoiy jarayonlarning intensivligi bilan belgilanadi. Umuman, ijtimoiy bo'shliq vaqtga bo'ysunib, zichlik va mazmunliligi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy tarixchilar odatdagi xronologik qarashlardan foydalanmay qo'ydilar. Har bir xronologik tizim uni yaratish va aniq evristik vazifalari bilan shartlanganini hisobga olib, tarixiy jihatdan yuzaga keladigan barcha xronologiyalar shartli ekanini tushunadi. Xronologiyalarning epistemologik va metodologik shart-sharoitlari va xronologiyalarning xolisiy asoslari hamda ularning fundamentidagi abstraksiyalarni aniqlash jiddiy ilmiy muammodir.

Tarixiy va har qanday boshqa abstraksiyalar tegishli nazariy va konseptual chizmalarga bog'liq. Mazmundagi mumkin bo'lgan farqlarga qaramasdan tarixiy abstraksiyalar doimo vaqtning qaytarilmasligi, uning o'tmishdan bugun va kelajakka yo'nalganining belgisini o'z ichiga oladi. Tarixiy voqealarni o'z ichiga olgan vaqtni o'tmish yo'nalishiga qaytarish mumkin emas. O'tmishga qaytib bo'lmaydi.

Boshqa ijtimoiy fanlardagi abstraksiyaning umumiylik belgilarini tarixiy abstraksiyalarda ham ko'rish mumkin. Tarixiy abstraksiyalarga aynan xos bo'lgan belgilarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Tarixiy abstraksiyalar doimo odamlarning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bilan belgilanadi.

2. Ular ijtimoiy ahamiyatli faoliyat va ijtimoiy ahamiyatli harakatlarni ajratadi. Ahamiyatlilikni ma'lum tarixiy oqibatlar asosida belgilaydi.

3. Ular hisob shkalasi ilmiy rivojining ma'lum bosqichida qabul qilingan aniq kenglik — vaqt koordinatlarida obyektiv vaqt va kenglikda tegishli vaziyatlar, voqealar, jarayonlar umumahamiyatini belgilaydi.

Tarixiy vaqt tarixiy abstraksiyalarni qurish sharti sifatida chiqadi. Bu barcha tarixiy voqea va jarayonlar obyektiv vaqtga bo'ysungan holda yuz beradi, degan aniq tushunchani taxmin qiladi. «Tarixiy vaqt» ko'pincha metaforik qo'llaniladi. Bunday holda tarixiy vaqt tushunchasi ostida ijtimoiy ahamiyatli voqealarning intensivligi tushuniladi. Bu atamadan shunday foydalanganda Shayboniylar tarixiy davri undan oldingi o'tgan davrdan farq qiladi. XX asrning 80—90-yillari ma'lum bir tarixiy bosqich sifatida XX asrning 30—

yillaridan farq qiladi, deb aytish mumkin. Lekin bu yerda vaqt to'g'risida emas, balki tarixiy voqealar, jarayonlarning intensivligi, chuqurligi va ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

Tarixiy vaqt to'g'risidagi qarashlar asrdan asrga, bir sivilizatsiyadan boshqasiga o'zgarishi mumkin. Turli tarixiy maktablar, falsafiy yo'nalishlar, ta'limotlarda turli xil bo'lishi mumkin, lekin obyektiv vaqtning o'z xususiy qonunlariga bo'ysunadi. Fizika fanining o'zida ham vaqtning «jadallashuv» va «sekinlashuv» samarasi yorug'likning vakuumdagi tezligi bilan taqqoslanadigan tezliklardagina kuzatilishi mumkin. Insoniyatning obyektiv tarixi ijtimoiy o'zgarishlarning bunday tezliklarini bilmaydi.

Tarixiy vaqt jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi. Bu bog'liqlikning ma'nosi shuki, tarixiy vaqtning ma'lum bosqichlarga bo'linishi tarixiy ahamiyatli voqealar bilan, aniqrog'i ma'lum bir voqealarning sifatli tizimlari bilan, ularni yechishda tadqiqot vazifalari va nazariy konsepsiyalar bilan amalga oshiriladi. Aynan shu yerda abstraksiyalar tizimining dialektik aylanishi yuz beradi. Tarixiy vaqtni hisobga olishga tayanadigan abstraksiyalarning o'zi u yoki bu xronologik tizimlarga bo'linishi asosida yotadi.

Ma'lumki, K. Marks jamiyat tarixini turli tarzda ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga bo'ldi. A. Toynbi insoniyat tarixini lokal sivilizatsiyalarga bo'ldi. Bu qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Shunday tarzda tarixiy vaqtning abstraksiyasi obyektiv amaliy tarixiy vaqtni ifodalash sifatida paydo bo'ladi. Vaqt o'z tabiatiga ko'ra, umuman birday, lekin abstraksiya alohida tarixiy tadqiqot doirasida ma'lum bir metodologik ko'rsatmalar va nazariy chizmalar asosida amalga oshiriladi. Bu yerda tarixiy vaqt konsepsiyalaridan ularning abstraksiyalari tuzilmalariga kiradigan nazariy chizmalarining dialektik qaramligi ko'rinadi. Chizma va abstraksiyalar yordamida ishlab chiqilgan tadqiqotlar mazmuniga ham qaramlik mavjud. Tarixiy bilimning haqiqiy rivojlanishi vaqtning voqea va jarayonlarni belgilovchi sifatida, chizmalarni doimiy o'zaro tuzatish jarayoni sifatida yuz beradi.

Tarixiy vaqtning abstraksiyalar, konsepsiyaviy va nazariy chizmalarni qurish bilan aloqasi katta hajmdagi tarixiy tadqiqotlarda

yaqqol ko'rinadi. Shu sababli ularga mos tarixiy vaqt tadqiqotining ijobiy dasturini shakllantirish oson bo'ladi. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. Birinchi vazifa vaqt to'g'risidagi bir-birini almashtiradigan qarashlar va ularning ijtimoiy va tarixiy o'zgarishlar bilan aloqasini tahlil qilish. Bunday qarashlar turli madaniyatlar, turli xalqlarda tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida har xil bo'ladi. Antik davrning diniy-falsafiy, tarixiy, kosmogonik va umummadaniy dunyoqarashida vaqtning siklik konsepsiyasi diniy e'tiqodlarga xos edi. Chiziqli konsepsiya Yevropa tarixshunosligida turli variantlarda ishlab chiqildi. Konsepsiyada voqealarning qaytarilishi va qaytarilmasligi vaqtning jadallashuvi yoki sekinlashuvi bilan tenglashtirilmay, chiziqli va bir tekisda o'zgaradigan kattalikda qaraldi.

Shu sababli, tarixiy vaqt tushunchasi falsafiy tamoyil sifatida tarixiy o'zgaradigan, ijtimoiy va madaniy jiliatdan shartlangan tarixiy vaqt to'g'risidagi qarashlardan chegaralanishi lozim. Tarixiy vaqtning ilmiy konsepsiyalarini turli xil, jumladan, g'ayriilmiy qarashlar bilan aralashtirish vaqt muammosini to'g'ri yo'ldan chalg'itish manbalaridan biridir. Bu muammoning tadqiqoti hozirgacha deyarli boshlangani yo'q.

2. Ikkinchi o'ziga xos ilmiy muammo vaqtning vaqtinchalik intervallari va hajmlarini tanlash va cheklashdir. Tushuntiruvchi lavha sifatida tarixchi bunday masalani qanday yechishini ko'ramiz.

Misol uchun, tarixchining maqsadi — bir necha asrlar davomida Shimoliy Xitoydan Kaspiy dengizigacha cho'zilgan hududda tarixiy voqealar manzarasini qayta tiklash. Shuningdek, qandaydir vaqtinchalik kenglik hajmlari o'rnatiladi. Bu maqsad uchun vaqtinchalik intervallarni qator darajalar, yaqinliklarga bo'lish xizmat qiladi.

Birinchi yaqinlashuv — bizga ma'lum bo'lgan insoniyatning yashash vaqti, kelajakka ketadigan; ikkinchi — bizga ma'lum yozma madaniyat davri — taxminan 5 ming yil; uchinchi — alohida ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy madaniyat; to'rtinchi — bu madaniyatda alohida davr; beshinchi — alohida odam. Shundan so'ng tadqiqot uchun uchinchi, to'rtinchi yondashuvlarning kesishmasi

olinadi va amaldagi tarixiy geografiya aniqlanadi. Hamda voqea, jarayonlarning xronologik chegaralari belgilanadi. Kelib chiqadigan abstraksiyalarning umumiy nazariy chizmasi ishlab chiqiladi. Etnos, qabila, xalq; madaniy — til birligi, davlat, siyosiy yaxlitlik, ichki va tashqi siyosiy kurash; xo'jalik faoliyati ko'rinishi va h. k.; madaniyat tipi, madaniy sintez; xalqlarning tarixiy migratsiyasi, xalqlarning ko'chishi va shunga o'xshash boshqa xususiyatlar o'rganiladi. Bu abstraksiya yanada xususiy chizmalarni qurishni belgilaydi.

3. Murakkab metodologik muammolardan biri vaqtinchalik jarayonlar va tarixiy o'zgarishlarni tasvirlash uchun fundamental tushunchalarni ishlab chiqishdir. Tarixiy dalillarni ajratish, turkumlash, xillashtirish izchillik va vaqt bo'yicha ma'lum bir aloqani taxmin qiladi. Izchillikdan abstraksiya, amaldagi vaqtinchalik aloqadan alohida dalillarni kiritish tarixiy tadqiqotning asosiy shartlaridan biridir. Bunday «kiritish» alohida konseptual va nazariy chizmalarda belgilanishi lozim. Keyin esa metodologik va mantiqiy epistemologik oqlashni olishi lozim. Shu sababli xususiy konseptual — vaqtinchalik chizmalarni qurish vazifasi kelib chiqadi.

4. Tarixiy vaqtga munosabat muammosi bilan bog'langan vazifalardan biri vaqtinchalik, diaxron jarayonlarni funksional, sinxron jarayonlarga aylantirishdir.

Bunday operatsiya, ayniqsa, hozirgi tarixiy tadqiqotlar bilan bog'liq. Bu tadqiqotlar faqat dalillarni vaqtinchalik izchillikda empirik tasvirlash bilan mashg'ul bo'lmay, balki ma'lum bir tuzilma va tarixiy jarayonning madaniy mazmunini nazariy mushohada qiladi. Bunday tadqiqotning misoli sifatida A. Y. Gurevichning «O'rta asr madaniyati kategoriyalari» monografiyasini olish mumkin. U tarixiy amaliyotning tadqiqi uchun qator asosiy kategoriyalarni ajratadi. Har bir kategoriya ostiga tushadigan alohida hodisalarni qat'iyon izchil tasvirlashdan chetlashadi va faqatgina eng zaruriy dalillarning shakllanishini tahlil qiladi. O'rta asr jamiyatining turli ijtimoiy guruhlarida huquqiy ong va huquq, korporativ va shaxsiy g'urur hissining shakllanishini tahlil qiladi. U dalillarni empirik, vaqtinchalik izchillikda emas, balki ularni tegishli nazariy mushohada uchun

ahamiyatli ekanligi bo'yicha tanlab oladi. Amaldagi turli xillik, huquqiy va axloqiy ongning vaqtinchalik shakllanishining notekisligi faqatgina ahamiyatli belgilarni aniqlash maqsadida hisobga olinadi. Tadqiqotning barcha jarayoni (voqealarning tasviri, tahlil, taqqoslash, ularni baholash, konsepsiyalash va h. k.) bu yerda «aniq» voqealarni amaldagi izchillikdan abstraksiyalash bilan va yetarlicha katta vaqtinchalik intervallarni qurish, ularning ichida o'rganilayotgan hodisaning «o'rtachalash» jarayoni amalga oshiriladi. Bu yerda tarixiy vaqt muammosi alohida o'rin tutadi.

5. Yana bir vazifa ba'zi umumiy qonuniyatlarni aniqlash maqsadida tarixiy voqelikning turli parchalarini qiyoslash bilan bog'langan. Bunda, ko'pincha, vaziyat, voqea, jarayonlarni turli madaniy, etnik hodisalarga mansub bo'lgan vaziyatlar, voqea, jarayonlarga qiyoslashga to'g'ri keladi. Ammo vaqtning turli intervallaga ham bu yerda hisobga olinadi. Bunday taqqoslashni amalga oshirish uchun qat'iy asos kerak. Bunday asos bo'lishi mumkin. Misol uchun, quyidagi *A* va *B* hodisalari bir qator obyektiv belgilar va qonuniyatlar bo'yicha hamda tarixiy ahamiyati bo'yicha bir tipda degan tasdiqda ko'rish mumkin. Shu bilan birga vaqtning turli intervallarini alohida abstraksiyasi bilan va intervallarni xronologik izchillikda bu farqlar bilan aniq belgilash asosida ish ko'ramiz. Bunday xildagi vazifa va uni yechish, taqqoslash orqali zaruriy aniqlik va ochiqlikni quyidagi misol orqali ko'rish mumkin: markazlashgan davlatlar tarixining tadqiqi Angliya va Fransiya vaqt oralig'i va kenglik tavsiflari bo'yicha bir-biriga o'xshash.

Tarixiy vaqt tahlili bilan bog'liq muammolarni aniq shakllantirish tarixiy bilish masalalarini yoritishda xatolardan xoli bo'lishga yordam beradi va shu bilan birga tarixiy vaqt tabiatiga bag'ishlangan tadqiqotlarning tarixiy qonuniyat muammolari tadqiqi chuqur aloqasini ko'rsatadi.

Tarix fani nazariyasi, jumladan, lokal sivilizatsiyalar nazariyasi rivojlanishi tarixiy vaqt to'g'risidagi qarashlarni ancha o'zgartirdi. Fanda uzoq vaqt hukmron bo'lgan tarixda olg'a harakat qilish, tarixiy progress (hamda ularni spiral urilishlar bilan va tarixning

qayta harakati kabi ularning takomillashgan variantlari) ikkinchi darajaga tushib qoldi. To'g'ri, XX asrning 70-yillarigacha bu nazariyalar «Annallar» maktabi tarixchilari asarlarida o'z salmog'ini saqlab qoldi. Shu bilan birga rivojlanishdagi bosh yo'nalish tarixiy vaqt tuzilmasining ko'p o'lchovli interpretatsiyasini izlash bo'ldi. Bu izlanishlar natijasida tarixda sinxron (bir vaqtda), diaxron (vorisiy) o'zaro faoliyat modellarini yaratish tarqaldi. Tarixiy vaqtda bunday yondashuvlar sivilizatsiyalarning ko'p xilligining sabablari, ularning taraqqiyoti va o'zaro harakatining usullarini tushuntirishga yordam berdi.

Tayanch iboralar: *P. Gardiner, diplomat, Edvard Karr, materializm, F. Engels, V. Diltey, G. Rikkert, A. Bergson, magiya, sehrgarlik, telepatiya, intuitiv, N. Berdyayev, K. Yaspers, A. Toynbi, R. Aron, «tarix — bu san'at», Gegel, kapitalizm, Sh. Senobos, F. Nitshe, B. Kroche.*

Takrorlash uchun savollar:

1. Tarix fanining talqinlarini ko'rsating.
2. Tarixiy bilimning o'ziga xosligi nimada?
3. K. Marks va F. Engels jamiyat tarixini qanday izohlaydilar?
4. G. Rikkert, Karl Yaspersning tarix to'g'risidagi fikrlarini izohlang.
5. Tarixiy vaqt to'g'risida tushuncha bering.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tarix nazariyasiga turlicha qarashlar.
2. Tarixiy taraqqiyot va tarix nazariyasi bo'yicha asosiy konsepsiyalar.
3. G. Rikkert, Karl Yaspers konsepsiyalari.
4. Tarixiy vaqt muammosi.
5. Tarixiy vaqtga munosabat.
6. Vaqt va jamiyat taraqqiyoti.

9- MAVZU.

TARIXIY BILIM OBYEKTI, PREDMETI VA SUBYEKTI

1. *Tarixiy bilim nima?*
2. *Tarixiy bilimning obyekti va predmeti tushunchasi.*
3. *Tarixiy bilimning obyekti va subyekti o'rtasidagi munosabat.*
4. *Tarixiy bilishda subyektivlikning o'rni.*
5. *Postmodern tarixshunosligida tadqiqotning obyekti, predmeti va subyekti.*

1. Tarixiy bilim nima? Ko'pgina tarixchilar tarix bu — fan, lekin uning vazifasi umumlashtirishda emas, aksincha, bizning voqelik to'g'risidagi bilimimizni individuallashtirishdadir, deb fikr yuritadilar. Ayrimlari esa «Tarix — bu fanmi yoki san'atmi?» degan savolni qo'yadilar. XIX asr boshlarigacha «Tarix — bu san'at» tushunchasi keng qo'llanildi. XIX asrdan boshlab esa, tarix mustaqil fan tushunchasi sifatida fanga kirib keldi. Uning metodi va metodologiyasi shakllandi. Lekin XX asrda olimlar tarixning alohida fan ekanligiga shubha bilan qaradilar.

Fransuz tarixchisi Sh. Senobos: «Tarix fan emas: u faqat bilishning asosiy jarayoni» deb qaraydi. Nemis faylasuflari F. Nitsshe va O. Shpengler hamda mashhur shvetsariyalik tarixchi Y. Burkart tarixni «poeziya va san'at asari» deb qaradilar. «Tabiatni ilmiy shakllantirish zarur, — deydi Shpengler — tarix tarixiy ijodiyotni talab qiladi». Hozirda yana bir «tarixni tarixchi yaratadi» degan ibora keng tarqalgan. Parij universitetining xristianlik kafedrası rahbari A. Marruning fikricha, «tarixiy jarayonning mohiyati inson uchun tushunarli emas, u voqelikni faqat yuzaki bihshi mumkin!» Uning fikricha, tarixiy hodisalarni bilish kishining dunyoqarashi, metodologiyasi, madaniyati, temperamenti, kayfiyati bilan cheklangan, bilish subyekti bilan ajralmasdir. Fransuz tarixchisi P. Veyn: «Tarix — bu faqatgina haqiqiy roman». Shuning uchun uni fan deb e'lon

qilish «bo'lish» va «bilish» fe'llarini adashtirishdir. Chunki u tushuntirish bermaydi va metodga ega emas», deydi. London universitetining professori G. Renyer barcha tarixiy adabiyotlarni tugallangan tarixdan farq qilgan holda «shartli tarix» deb ataydi va u hech qachon yozilmaydi. Shu nuqtayi nazardan tarixiy bilim nazariyasi va tarixni o'rganish metodi to'g'risida mushohada qiladilar. Bunday tarixchilar sirasiga Berngeym, Meyer, Lanlua-Senobos kiradi.

Tarixiy bilim — tarixiy bilish jarayoni amaliyot bilan tekshirilgan va mantiqiy asoslangan tarixiy voqelik va uning inson ongida tasavvurlar, tushunchalar, fikrlar, nazariyalar ko'rinishida aks etishi natijasidir.

Tarix faniga ijtimoiy ong shakli va ijtimoiy muassasa sifatida qarash mumkin. Tarix fani ijtimoiy ong shakli sifatida dunyoni bilish usullaridan biri, uning o'ziga xos metodlari mavjud bo'ladi. Ikkinchidan, insoniyat jamiyati taraqqiyotining qonuniyat jarayonlari to'g'risidagi ilmiy bilish sohasidir. Ijtimoiy ong shakllari ichida tarixiy ong, uning barcha ko'p xilligida o'tmishni baholash, qabul qilishni aks ettiradigan g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar, his-tuyg'ularning majmuasidir.

Tarix fanini ijtimoiy muassasa sifatida qaraganda birinchi o'ringa uning tarkibiy muassasalari: tarix fani institutlari (tarixiy-ijtimoiy tashkilotlar, Fanlar Akademiyasi, tarix, arxeologiya institutlari), olimlar guruhi (sharqshunoslar, mediyevistlar, vatan tarixi mutaxassislari), tarix ta'lim tizimi (o'rta maktab, kollej, litsey, gimnaziya, universitet-institutlar tarix fakultetlari, magistratura, aspirantura, doktorantura) va shunga o'xshashlar chiqadi. Tarixiy bilim inson tarixiy ongining rivojlanib borishi bilan boyib boradi.

Qadimgi va o'rta asrlarda turli janrlardagi tarixiy to'plamlarning mavzusi — davlat tarixi, sulolalar tarixi, alohida xalqlar, katta urushlar (misol uchun, Yuliy Sezarning gall urushlari) va fuqarolik qonunlari, taraqqiyot qonunlari va h. k. Tarix nazariyasining vazifasi tarixiy progressning muntazamligini tushuntiradi, uning taraqqiyotini modellashtiradi.

Tarixiy bilim va bilish ijtimoiy ong shakli bo'lgani uchun ularning funksiyalari (metodlari va natijalari) ijtimoiy shartlangan.

Tarixiy bilim funksiyalariga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy o'z-o'zini anglashni shakllantirish ehtiyojlari;
2. Ijtimoiy tarbiyaga ehtiyojni qondirish;
3. Siyosiy faoliyat va siyosatning o'ziga bo'lgan ehtiyoj;
4. Kelajakni oldindan ko'rish va oldindan aytish.

Tarixiy o'tmish insoniyat jamiyati paydo bo'lgan vaqtdan o'rganilgani ma'lum. U turlicha — sinfiy, tarixiy, falsafiy, diniy va madaniyat nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Hamma vaqt tarixiy bilish turli tarixiy davrlar va ijtimoiy tuzilmalarning barqarorligini ta'minlashga, jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilib kelgan. Tarixiy bilimning yo'qolmaydigan funksiyalaridan biri insoniyatning turli tarixiy bosqichlarida etnik birliklarning o'zligini anglashni shakllantirishdir. Indivud faoliyatida xotira qanday o'rin egallasa, tarixiy xotira ham jamiyat hayotida shunday o'rin tutadi. Xotira yuz bergan voqealar to'g'risidagi foydali ma'lumotning katta hajmini o'zida saqlaydi. Tarix millatning o'zligini anglashda asosiy omil bo'ladi.

Tarixiy bilimga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj — bu etnos, etnik guruhning boshqalardan o'zini ajratib turadigan alohida guruhligini his qilish, madaniy, ijtimoiy, etnik o'z-o'zini anglashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishdir.

Jamiyat, shaxsning ijtimoiy tarbiyasiga bo'lgan ehtiyoj ham tarixiy bilish bilan bog'langan. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy «xotirasi» o'tmish to'g'risidagi bilim sifatida chiqib, ko'pgina ijtimoiy ahamiyatli yurish-turish namunalarini beradi. Tarixiy shaxslarning faoliyatlari, turli tarixiy vaziyatlar, ma'lum bir ijtimoiy ziddiyatlarni yechish usullari ushbu etnos va ijtimoiy tuzumni mustahkamlaydigan ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda tarixiy bilim, xalqning ijtimoiy-etnik birlik, madaniy o'zligini anglashi uchun zaruriy shart-sharoitni yaratadi.

Tarixiy bilim xalqning boshqa etnoslardan alohida yaxlit etnik birlik ekanligini anglashga yordam beradi. Lekin u individ xotirasidan farq qiladi. Tarixiy ong shaxsiy hayot tajribasi mahsuli emas, balki ma'lum etnik ijtimoiy birlikning barcha a'zolariga tushunarli va hamma bop umumahamiyatga ega bo'lgan bilimdir. U avlodlar aloqasini, ularning vorisligini ta'minlaydi. Odamlarning turli

ijtimoiy faoliyat sohasida o'zaro bir-birini tushunishi, muloqoti va hamkorligining ma'lum shakllari va sharoitlarini yaratadi.

Tarixiy jarayonlarda ma'lum ijtimoiy tuzumni mustahkamlashga xizmat qiladigan va ma'lum bir kelishmovchiliklarni yechish xillari, turli tarixiy vaziyatlar, tarixiy shaxslarning xatti-harakatlari vaqt o'tishi bilan andoza (etalon)ga aylanadi. Bu jamiyat tomonidan eng afzal ko'rilgan, ruxsat etilgan normalarga asos bo'lib xizmat qiladi. Qadimgi davridayoq tarixchilar tarixiy hikoyaning bu vazifasini yaxshi bilgan edilar. Ota-bobolarining faoliyatlarini kelajak avlodlar uchun tahlil qilish yoki tarixiy tajribadan namuna olish va fikrlash uchun namuna bo'lishini o'rta asrlar va yangi davrda ko'pchilik tarixiy asarlarning mualliflari anglagan edilar.

Turli tarixiy davrlarda ijtimoiy-tarixiy jarayonning o'zgarishi bilan turli sinflar, ijtimoiy qatlamlar turli norma va andoza (etalon)larni ma'qullaydilar yoki qoralaydilar. O'tmishni ma'lum bir mafkura, maqsad-ehtiyoj qarashidan yoritadigan tarixiy asarlarda qahramonlar turlicha talqinda sahnaga chiqadilar yoki sahna ortiga chekinadilar. Tarixiy bilim chirog'i ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda bir vaziyatni yoritib, boshqalarini zulmatga qoldiradi.

Tarixiy bilimning keyingi funksiyasi siyosatning o'zini va siyosiy faoliyatning rivojlanishiga ko'ra yuzaga keladigan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Siyosat — bu turli xil ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni davlat-huquqiy jihatdan tartibga soladigan vositadir. Davlat huquq bilan yaqindan bog'langan. Jamiyat munosabatlarini bunday tartibga solishda, ko'pincha, tarixiy ma'lumotlarga suyangan holda asoslashga ehtiyoj seziladi. U yoki bu davlatlar boshqa davlatning hududiga o'z da'volarini asoslab yoki o'z hududlarini dushman hujumidan himoya qilib, odatda, bu hududga o'z huquqlarini tasdiqlaydigan hamda raqibning tegishli huquqini inkor qiladigan tarixiy dalillarga murojaat qiladilar. O'rta asr shaharlari feodallar bilan kurashda qachonlardir ularga sovg'a qilingan erkinliklarni tasdiqlaydigan hujjatlarga tayanganlar. Shajara daraxtlari soyasida toj-u taxtlarga da'volar yetilgan va harbiy ittifoqlar tuzilgan. Tarixiy pretsedentni izlab o'tmishga murojaat qilish uzoq vaqtdan buyon siyosiy va huquqiy amaliyotning odatdagi ko'rinishidir. Insoniyatning

hozirgi avlodi tarixdan ma'lum bir saboq chiqarishlari lozim. O'z vaqtida Gegel uning foydaliligiga shubhalangan edi va u tarix hech narsani o'rgatmaydi, deb tasdiqlagan edi.

Kishilik jamiyatining ehtiyojlaridan biri — bu kelajakni oldindan ko'ra bilish va bashorat qilishdir. Insoniyat o'z taraqqiyoti davomida oldindan ko'ra bilish va bashorat qilishni o'zining boshlang'ich davrida hamda o'rta asrlarda keng tarqalgan diniy mifologik usullar va turli bashoratchi munajjimlarning xizmatlaridan qanoatlanmadi. Va o'z taraqqiyotining murakkablashgan davri XX asrda o'zining bu ehtiyojini qondirishning xolisona asoslarini topishga urindi. Bu tarixiy bilimlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Tarixiy rivojlanish jarayonida tarixiy voqea, vaziyatlarning nisbatan o'xshashligi va takrorlanish xususiyatlari aniqlandi. Bu davrda tarixiy bilim kelajakni oldindan ko'ra bilishning yagona asosi degan tushuncha paydo bo'ldi. Taniqli fransuz tarixchisi (L. Fevr bu qarashni quyidagi so'zlarda shakllantirdi: «Tarix — bu o'tmish va kelajak to'g'risidagi fandir».

Demak, tarixiy bilish tarixiy voqelikni aks ettirish shaklidir. Bilishning tafakkur, empirik, nazariy darajalari mavjud. Bilishning birinchi darajasi (bosqichi)da tarixchi turli xil manbalarni ulardagi dalillarni aniqlash uchun o'rganadi.

2. Tarixiy bilimning obyekti va predmeti tushunchasi. Har qanday ilmiy fanning belgisi uning o'z bilish obyekti va predmetining mavjudligidir. Tadqiqot amaliyotida, shuningdek, tadqiqotda bilish obyekti va predmeti tushunchasi yetarlicha farqlanadi. Nazariyaga kelganda esa bu tushunchani ajratishda ma'lum bir qiyinchilik mavjud.

Tarix metodologiyasi bo'yicha adabiyotlarda ilmiy-tarixiy bilimning predmeti va obyekti o'rtasidagi munosabatni tushunish aniqroq ko'rinadi. Shu bilan birga bu ikki tushuncha orasidagi nisbatni tushuntirishda ma'lum bir farqlar bor. «Obyekt — bu inson dunyosi», boshqacha aytganda, inson tomonidan «amaliy va nazariy» darajada hal qilinadi. U yaqin kunlarga sho'ro tarixshunosligida qabul qilingan «an'anaviy yondashuv» doirasida hal qilinadi edi. Sho'ro tarixshunosligi uchun o'tmishning obyektiv realligini tan olish xos edi. Uni bilish mumkinligi shubha ostiga olinmadi.

Tarixchilar tarix fani obyekti deb insoniyat jamiyati, uning ko'p xillik ko'rinishidagi o'tmishi, uning taraqqiyoti va o'zgarishida ko'radilar. Tarix fan sifatida ijtimoiy amaliyotni tadqiq qiladi. Shu bilan birga tarixchi o'rganish obyektni kuzatishdan mahrum. Chunki tadqiq qilinayotgan obyekt tadqiqotchidan vaqt bo'yicha ming yillar ajratilgan bo'lishi mumkin. Ana shundan tarix fanida tarixiy tadqiqotning natijalarini verifikatsiya qilish muammosi turadi. Boshqacha aytganda, uning haqiqiyligini aniqlash tarixiy tahlilning metodi muammosi turadi.

Yanada boshqacha qilib aytganda, tarix inson to'g'risidagi odamlar tomonidan yaratiladigan, o'tmishni jarayon sifatida tadqiq qiladigan fandir. Tarixning fan sifatidagi vazifasi tarixiy jarayonni imkoniyat darajasida to'la va yaxlitlikda qarash va tasvirlashdir.

Ko'pgina tarixchilar tarixiy jarayonning subyekti inson deb hisoblaydilar. Lekin boshqa fikrlar ham bor. Misol uchun, A. Toynbi tarixning haqiqiy ijodkori ilohiy kuch deb hisoblaydi.

Tarixchi-olimlar tarixiy bilish obyekti va tushunchasi predmeti tushunchasiga aniqlik kiritib, «obyekt — bu o'z ichki tabiatiga ko'ra muhim farqlangan, bu reallikning boshqa obyektlardan taraqqiyot va yashash qonunlari bo'yicha reallikning ma'lum bir sifat jihatdan ko'rinishlar va jarayonlarning majmuasidir» deb ko'rsatadilar. Demak, «o'rganishga qadar keladigan bilish obyektining keng ajralib turadigan xossa va belgilarining majmuasidir».

Bu tushunchalarga ko'ra, tarixiy bilim predmeti va obyekti o'rtasidagi nisbat bir qadar aniqlanish zaruriyatiga ega. Ularda obyekt va predmet o'rtasida qamrab olingan tarixiy material hajmi bo'yicha predmet — bu tadqiqotchi tomonidan o'rganish uchun tanlab olingan obyektning bir qismidir. Shu bilan bir vaqtda ular o'rtasidagi statik va dinamik boshlanish nisbati to'la hajmda ko'rinmaydi. Agar tadqiqot obyekti statik ko'rinishda tasvirlangan bo'lsa, predmet esa albatta dinamik bo'ladi. Obyekt o'zining ichki aloqalarida va boshqa obyektlar bilan o'rganiladigan tarixiy davrda ko'rinishidan aniq obyektining o'z ichki aloqalarida ifodalanadi. Bundan tashqari, tadqiqot predmetini ochish talab qilingan muammoning o'zini aks ettiradi. Tarixiy tadqiqotning obyekti va predmeti jarayon sifatida chiqishi mumkin.

Qadimgi va o'rta asrlarda tarixiy to'plamlarning asosiy mavzusi davlatlar tarixi, ayrim xalqlar tarixi, urushlar, ayrim katta voqealar edi. Antik davr tarixshunosligida shunday mavzuni o'rganish obyekti to'g'ri kelar edi. Muallif o'z obyektni harakatda ko'rsatgani predmet bo'lar edi. Bunday to'g'ri kelish tasodifiy emas edi. Antik mualliflar o'z tarixiy to'plamlarining siyosiy tusda ekanligini e'tirof etganlar. Ko'rinishidan tarixiy to'plamlarning mavzulari o'rtasida murakkab munosabatlar, ularning obyekti va predmeti qadimgi va o'rta asrlarda mavjud edi. Ularni tarixning mazmuni sifatida, davlat va odamlarni obyekt va predmet sifatida e'lon qilishlari mumkin edi. Lekin o'rta asrlar tafakkurida insonning roli u nima yaratgan bo'lsa va shu jumladan, har qanday tashkilotlar, shuningdek, davlat ham mustaqil deb tasavvur qilinmas edi. Odamlarning barcha faoliyatlari u dunyo kuchlarining, xudo yoki shaytonning rejalarining amalga oshishi natijasi deb tasavvur qilish odatdagi hol edi.

Tarixni bunday tushunish odamlar va ular bilan nima bog'langan bo'lsa e'tiborga molik bo'lmas edi. Shuning uchun o'rta asr tarixchilarining diqqat obyekti oliy ruh edi. Oliy ruhga tarixning borishi va odamlarning taqdiri qaram edi. Bu kuchlarning insoniyat nasliga nisbatan munosabati odamlarning faoliyatida o'z aksini topdi. Yilnoma, xronika va boshqa asarlar to'plamlarida u yoki bu voqeaning sodir bo'lishi u yoki bu voqealarda xudoning irodasi va shaytonning hiylasi deb tushuntiriladi edi.

Ahvol so'nggi o'rta asrlarda o'zgara boshladi. Proveditsializmning tushkunligi va ratsional tafakkurning tarqalishi natijasida insonga e'tibor kuchaydi. Uning natijasida inson va uning faoliyati asta-sekin tarixiy qissaning bevosita obyekti va predmeti sifatida chiqa boshladi.

So'nggi o'rta asrlarda yuz bergan o'zgarishlar, yangi davr tarix falsafasining ratsionalistik asoslari tarixshunoslikning obyekti va predmetiga to'la rasmiylashtirildi. Shuningdek, ma'rifatparvarlik davrida tarixni o'rganishning obyekti va predmetining cheklanganini tushunish, uni chuqurlashtirish va kengaytirishga urinishlar boshlandi. Tarixchi Volterni tarixiy asarlarning markazida aholining keng ommasi emas, hokimiyatga ega bo'lgan personajlar turishi qoniqtirmadi.

«Insonlar tarixini yozish» istagini bildirgan Volter buni bajara olmadi. Uning tadqiqotlarida tarix obyekti va predmeti beqiyos tusga kirdi. Tarixiy shaxslar faoliyati tarixchining o'rganish obyekti bo'ldi. XVIII asrda tarixiy asarlarning predmeti va obyektini kengaytirish tomon yo'l tutila boshlandi.

XX asrning 30-yillarida «Annallar» jurnali nomidan yangi tarixiy maktab yoki «Annallar maktabi» deb nom olgan fransuz tarixchilarining yo'lnalishi keng shuhrat qozondi. Uning asoschilari mashhur tarixchilar Lyusen Fevr va Mark Blok edilar. «Tarixni insonlashtirish»da «Annallar» maktabining tarixiy tadqiqot obyekti va predmetiga yondashuvi uning kuchli tomoni edi. Tarix odamlar faoliyatining harakat maydoni deb anglanadi. Ammo u idealistik ruhda edi.

Mark Blok konsepsiyasiga ko'ra, tarixiy tadqiqotning predmeti vaqt bo'yicha insondir. Vaqt davomida inson ongi yagona bo'lib qolmaydi. U yoki bu omillar ta'siri ostida o'zgaradi, tarixchi esa bu farqni hisobga olishi lozim, deya ta'kidlaydi M. Blok. Begona ongga kirish uchun o'z shaxsiy «meni»dan voz kechish kerak. Bu ongga o'z shaxsiy belgilarini kiritish mumkin emas. Mark Blok shunday tarzda tadqiqot obyekti va subyekti o'zaro munosabatlarini belgilaydi.

«Annallar» maktabi tarixchilarining birinchi navbatda tarixni insoniy, shaxs va mazmunini ochishga urinishlari zamonaviy tarixshunoslikda tarixiy-psixologik va antropologik yo'nalishlarining tarqalishini rag'batlantirdi. Bu, o'z navbatida, o'rganish obyekti kichik bo'lgan shakllarni tarixning taraqqiyot bosqichiga chaqirdi. Predmet sifatida esa ilgari yirik masalalarni yechish bilan band bo'lgan tarixshunoslik e'tiboridan chetda qolgan yoki kam e'tibor berilgan, uni qurshab turgan ko'pgina masalalar bo'ldi. Shu bilan birga tarixning umumiy antropologiyalashuvi hamda gumanitar bilimning integratsiyalashuvi jarayoni tarixchilarni ko'p darajada intellektual va siyosiy elitaga tegishli bo'lmagan oddiy odamning tadqiqot obyekti bo'lishi tarixiy jarayonni tushunish uchun buyuk shaxslar hayotini o'rganishdan ko'ra (bunga antik tarixshunoslik katta e'tibor bergan edi) ko'p narsa beradi, degan xulosaga keldilar. Shu munosabat bilan tarixiy bilimning obyekti sifatida shunday odamni tez-tez ko'rish mumkin.

3. Tarixiy bilimning obyekti va subyekti o'rtasidagi munosabat.

Tarixning fan sifatida tabiiy fanlardan ajratib turadigan, lekin inson va jamiyat to'g'risidagi boshqa fanlar bilan o'xshashlik beradigan o'ziga xos alohidaliklaridan biri bilishning obyekti va subyekti o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'ladi. Tabiatshunoslikda fanning obyekti va subyekti turli dunyolarni tashkil qiladi. Bu sohadagi bilim insonni o'ziga nisbatan tashqi bo'lgan dunyoni unga tashqi tomondan qarashni o'rganishni tashkil qiladi. Gumanitar va ijtimoiy bilishda fanning subyekti va obyekti o'rtasidagi o'zaro munosabat boshqacha tuziladi. Bu yerda bilish jarayonining obyekti va subyekti bir dunyoga, ya'ni odamlar dunyosiga tegishli bo'ladi. O'ziga tegishli bo'lgan subyekt va jamiyatni bilish uchun bu jarayonning o'zi esa ma'lum ma'noda o'z-o'zini bilishdir. Bunday tasavvur vaqt bo'yicha odamlar o'rtasidagi turli farqlar bo'lsa-da, sivilizatsiyalar xususiyati, madaniyatlar darajasi va mohiyatida qandaydir umumiylik mavjud bo'ladi. Bu barcha insoniyatni yaxlitlikda bog'laydi. Bunday tasavvur XIX-XX asr boshlarida keng tarqaldi. Bunga qarama-qarshi boshqa bir turli davrlar va sivilizatsiyalar o'rtasida bartaraf etib bo'lmaydigan farqlar mavjudligi tushunchasi bor edi. Bu O. Shpenglarning birinchi jahon urushidan keyin «Insoniyat — quruq so'z» degan umumlashtiruvchi xulosasida o'z aksini topdi.

XX asrning birinchi yarmida psixologlar, antropologlar va etnograflar uchun psixologiya va odamlarning tafakkuri tarixiy ekanligi yaqqol ko'rindi. Bu tarixchi psixologiyasi va uni o'rganish obyektiining farqlarini hisobga olgan holda manbalarning talqini va tanqidi metodikasini takomillashtirish muammosini qo'ydi. Bundan ko'rinadiki, tarixiy bilishning obyekti va subyekti o'rtasidagi yaqinlik nisbiydir. U, eng avvalo, odamlarda aql, sezgi, ratsional va hissiyot sohalarining mavjudligi, ularni farqlaydigan alohidaliklar bilan belgilanishiga asoslangan. Bu holat tabiatshunosning obyektivligini qiyoslaganda, tarixchining obyektivligini cheklab, tadqiqot jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Amalda odamlar, jamiyat va shaxsning dunyosini tarixiy tadqiqot obyekti — tabiatshunoslik obyektidan farq qilgan holda hissiyotlar bilan bog'laydi. U odamlarning o'z manfaatlarini ratsional anglashga qaraganda

voqealarning borishida kam bo'lmagan ta'sir ko'rsatadi. O'tmish yillar qo'rquv dahshatlari, hissiyotlari vaqt o'tishi bilan unutiladi. Lekin o'tmish manbalari, hujjatlariga murojaat qilganda yengilgina hayotga qaytarish mumkin. Keyingi davr tadqiqotchisi manbalar bilan chuqur tanishib borib, o'rganilayotgan davrga kira borib, o'zi bilayotgan o'sha davr va voqealarning ishtirokchisi bo'ladi, o'sha davr odamlari hissiyot, kechinmalari bilan kasallanadi.

Ilmiy tadqiqot ishtirokchisi shu bilan bir vaqtda qissa qahramoni bo'ladi. O'tmishda o'z ahvoliga o'xshashlikni ko'radi, o'rganilayotgan davrning bir tomoniga xayrixoh bo'ladi. Bu esa uning obyektivligini so'zsiz cheklaydi. Tabiatshunoslik uchun bunday vaziyat bo'lishi mumkin emas.

Tarixchining shaxsi o'z davrining mahsuli bo'lib, o'z vaqtining madaniy-tarixiy vaziyatiga to'la singgan holda uning bir qismi hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtning o'zida bu vaziyatga aks ta'sir ko'rsatadigan ijodiy shaxsdir.

Tarixchining yoki tarixshunoslik yo'nalishining madaniy-tarixiy vaziyatga bunday aks ta'sir o'tkazishi tarixshunoslik tadqiqotining predmeti bo'lishi mumkin. Shunday predmetda tadqiqot obyekti va davrning madaniyati sifatida keng qamrovli bo'lishi yoki uning tarixshunosligi kabi yanada aniqroq bo'lishi, yoki alohida tarixshunoslik yo'nalishi, yoki yana aniq va alohida tarixchining shaxsi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga ta'sir darajasi ko'p vaziyatlarga bog'liq bo'lishi mumkin. Eng avvalo, olimning o'ziga ta'sir, shuningdek, u yoki bu tarixchining hayotning xronologik doirasidan chiqishiga ta'sir va yana keyingi vaqtdagi madaniy-tarixiy vaziyatga ta'sir qilishi mumkin.

Tarixiy o'rganish obyekti va subyekt tarixchining erkin tanlovi natijasidir. U o'z vaqtining madaniy-tarixiy vaziyati bilan bog'liq. Misol uchun, XIX asrgacha O'rta Osiyoda yaratilgan tarixiy asarlarning ko'pchiligida hukmdorlarning faoliyati aks ettirilgan edi. Shunday qilib, tarixiy tadqiqotning obyekti o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. U subyekt — tarixchi bilan mahkam aloqada bo'ladi va tarixchiga zamondosh madaniy-tarixiy vaziyat bilan bog'liq bo'ladi. Uning bilimida o'sha vaqtning ehtiyoji o'z ifodasini topadi, o'rganadigan subyekt shu vaqtga tegishli bo'ladi. Tarixiy bilishning

har qanday obyekt va subyekt o'z vaqtining tarixshunoslik va madaniy-tarixiy dalillaridan biridir.

4. Tarixiy bilishda subyektivlikning o'rni. Tarixiy bilishda obyektivlik va subyektivlikning nisbati va unda tarixchining roli istoriosofiya xususiyatiga ega va metodologiya tarixi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida tarixiy tadqiqotda natijani olishning qat'iy imkoniyatini tan olish yoki bunday tadqiqotning obyektiv natijasini olish tarixchi shaxsida ifodalangan subyektiv boshlanish bilan cheklangani, u yoki bu tadqiqot metodlarini qo'llashga bog'liq bo'ladi.

Ilmiy tarixshunoslikning taraqqiyoti davomida bu muammoga qarash o'zgarib bordi. XVIII—XIX asrlar tarixshunosligida manbada obyektiv ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Aynan shu davrda tadqiqotchil uchun o'z ixtiyorida bo'lgan materialni o'rganishga obyektiv yondashuv imkoniyati bor, degan qarash mavjud edi. Bu ko'p hollarda manbalarda o'tmish voqeligiga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar mavjudligi yoki muallifning o'zi nima to'g'risida yozganini bilmasligi yoki uning subyektivligini tushunishni inkor qilmas edi. O'sha vaqtlarda manbalardan haqiqiy ma'lumotlarni izlash, manbalarni talqin qilish va tanqidini takomillashtirish bo'yicha har tomonlama ishlar yo'naltirilgan edi.

XIX—XX asrlar oralig'ida tarixiy bilishda obyektivlik va subyektivlikning nisbatini baholashda boshqacha yondashuv shakllandi. Istoriyosofiya adagi akademik hayot falsafasi va yangi kantchilik relyativ yo'nalishlari ta'siri ostida har qanday manba va har qanday tarixiy asar, eng avvalo, o'z subyektivligi bilan tavsiflanadi. Manbada va tarixchining ishida obyektivlik va nisbiy degan xulosa paydo bo'ladi. Gumanitar, qisman ijtimoiy fanlarda tadqiqot natijalari, eng avvalo, subyektga bog'liq qilib qo'yiladi. Bu tarixchi uchun XIX asrda o'z asoslarida shakllangan an'anaviy metodologiyani qayta ko'rishni bildirar edi. Ilgari manbadan, asosan, zaruriy ma'lumot olish uchun foydalanilar edi. Metodologiyadagi yangi yondashuv bunday ma'lumotning obyektivligi tarixchi va manbaning muallifi o'rtasida tadqiqotchining muallif psixologiyasi shaxs tavsifini tushunishi asosida o'ziga xos dialog o'rnatilishi bilan bunday ma'lumotning obyektivligi darajasining baholanishi mumkinligiga

asoslanadi. Bunga yo'l — manbaning mazmuniga chuqur kirish, shunda uni tushuntirishning roli o'sadi. Manba bilan ishlashning o'zi uning mazmunini talqin qilishga taqaladi. Bu esa uning yaratuvchisini tushunishga, u to'g'risida ma'lumot olishga yordam beradi.

Tarixiy tadqiqotda subyektning rolini bunday tushunish tarixchiga ba'zi yangi talablarni ilgari surdi. Bu o'z ishining predmeti va obyektining unsurigacha bilgan tadqiqotchi pozitivlar uchun xos eruditsiyagina emas edi.

Bu shunday talab, qarashlarning cheksiz kengligini va unga asoslangan boshqani tushunish, eshitish, uning madaniy o'ziga xosligi huquqini tan olishga imkon beradi. Bunday tolerantlik postmodern davri madaniyatiga xos bo'lgan belgilardan birini tashkil etadi va zamonaviy tarixshunoslikka tarqalmoqda.

5. Postmodern tarixshunosligida tadqiqotning obyekti, predmeti va subyekti. XX asrning so'nggi choragida postmodern tarixshunosligining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida tarixiy tadqiqotning obyekti va predmeti to'g'risida va unda subyekt tarixchining roli to'g'risida yangi qarashlar yuzaga kela boshladi. Go'yoki insoniyat o'tmish hayotining borlig'i mavjud emas yoki bilish uchun eshitib bo'lmaydi, degan tasdiq postmodernizmga xos bo'lib, tarixiy tadqiqotning obyektini noan'anaviy tushunishga olib keldi. Tarixchining bilish uchun o'tmish borlig'ining birgina qismi matn deb e'lon qilindi. Uning ostida o'tmishning har qanday qoldig'i uning moddiy ifodasida yozma yoki og'zaki an'anada saqlanib qolgan o'tmish to'g'risidagi rivoyat, bir so'z bilan aytganda, keng ma'noda insoniyat madaniyatining har qanday izi matn bilish obyektiga aylandi. An'anaviy tarixshunoslikning tarkibiy qismi manbashunoslik tadqiqoti uchun matn tadqiqot obyekti sifatida tan olinadi.

Postmodern tarixshunosligida manbaning o'zi o'tmishni bilishning oddiy manbasidan ko'ra matn tadqiqot obyekti sifatida ahamiyat kasb etadi.

Bu o'tmish borliqning yagona qoldig'i ahamiyatiga ega bo'ladi. U o'tmish mavzulariga mualliflik konseptual konstruksiyalarini qurish, tadqiqotchi idroki, refleksiyasi uchun tushunarli bo'ladi.

Mazmunan ma'lum matnni qoldirgan o'tmishga keyingi jamiyat va muallifning uning vakili sifatida baholashidir. Shu tarzda matn postmodern tarixshunosligida an'anaviy o'tmish borlig'idek shunday ahamiyatga ega bo'ladi. An'anaviy tarixshunoslikda o'tmish borlig'i saqlanib qolingani manba hisoblanadi. O'tmishga ketgan voqea-hodisalar va jarayonlar tarixchi ko'z oldida yo'q. Matn esa tarixchiga yetib kelgan o'tmish borlig'ining bir qismidir. Postmodern tarixshunoslikda tarixiy tadqiqotning predmeti obyektning mavjudligini uni boshqa o'tmish aloqalari bilan alohida o'rganishga qaratilganligi, tadqiqot obyektlari sifatida chiqadigan, o'rganiladigan matn yoki matnlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish muhim o'rin tutadi. O'tmish madaniyatining matnga ta'siri matn muallifini qurshagan borliqning o'zidan ko'ra ko'proq matnga ahamiyat beriladi. Bunday ta'sir matn madaniyatidan, matn yaratilgan o'sha davrga zamonaviy matn madaniyatidan vaqtinchalik vertikal bo'yicha yoki o'z madaniy-tarixiy vaqtinchalik gorizontali matnlari bilan ketadi. Postmodern tarixshunosligidagi qarashlarga ko'ra, tadqiqot xulosalari o'rganilayotgan obyekt bu yerda matnlarning obyektiv mazmuni emas, balki bilish jarayoni subyektiv sifatida tarixchi-subyektiv omilga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun postmodern tarixshunosligi qarashidan tarixiy tadqiqotning predmetiga o'rganiladigan matn va bu matnning tadqiqotchisi o'rtasidagi o'zaro ta'siri kiritilishi mumkin.

Postmodernistlarning tarixiy tadqiqot jarayonida subyekt-tarixchining rolini tushunishlariga qarama-qarshilik mavjud. Ularning fikricha, tadqiqotchining roli juda yuqori. Ular tarixchining mehnatining qandaydir obyektiv asoslarini ko'rishni istamaydilar. Tarixchi tomonidan yaratilgan konsepsiya — tarixchi o'rganadigan matn asosida tarixiy asarda o'tmishni qayta tiklash bilan bog'langan hech qanday rekonstruktivsiz, to'laligicha o'tmishning mualliflik konstruksiyasidir. Shunday tarzda tarixiy asar tarixchi o'rganadigan matnga qaraganda o'tmishning qandaydir realligi to'g'risida tasavvur berishi mumkin emas. Lekin u uning yaratuvchisi, tarixchining shaxsi, madaniyati va psixologiyasi haqida tushuncha beradi.

Postmodernistlarning nuqtayi nazaridan qaraganda, tarixchining har qanday ijodiy ishi xulosasidek, tarixiy manbaning

tavsifiga tegishli bo'lgan inson psixikasining amalga oshirilgan mahsuloti sifatida o'zini tasvirlaydi. Yoki tarixchi mutlaqo erkin shaxs, uning mehnatining ahamiyati unda o'tmish realligini obyektiv aks ettirishda emas. Balki tarixchining o'tmishdan subyektiv taassuroti to'g'risida tushuncha beradi, o'tmish bilan u uning realligi bo'lgan matn orqali tutashadi.

Shu bilan birga tarixni o'rganishda subyekt to'g'risida postmodern dunyoqarash uning boshqa asosiga qarama-qarshi turadi. U matn to'g'risidagi tushuncha bilan bog'liq. Har qanday matn muallif shaxsining o'tmish va o'ziga zamondosh bo'lgan madaniyat bilan, o'zini qiziqtiradigan matn bilan murakkab madaniy-tarixiy o'zaro harakati natijasidir. Har bir matn o'zicha ijodiy boshlanishdir. Shu bilan birga ijodiy boshlanish har bir matnda juda cheklangan matnning madaniy-tarixiy doirasidan chiqmaydi. Tarixchining mehnati to'g'risida ham xuddi shunday deyish mumkin.

Postmodernistlar asrning oxiridagi neokantchilikning har qanday tarixiy hodisa takrorlanmas va yagonaligi to'g'risidagi qat'iy qoidalarni yoqlab chiqadilar. Shubhasiz, bunday qarash tarixiy voqelik bo'lgan har qanday matnda tarqalgan bo'lishi lozim edi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy tadqiqotning obyekt va predmeti tarixiy bilishning yo'nalishini o'zida aks ettiradi. Bir-biri bilan statistik va dinamik muvofiq bo'ladi.

Tarixiy tadqiqotning predmeti va obyekt — bilish subyekt tarixchi bilan bog'langan bo'ladi. U orqali shakllantiriladi va undan umumiy madaniy-tarixiy madaniyatning qismi sifatida tarixchining ijodi vaqtidagi tarixshunoslik vaziyatiga qaram bo'ladi. Tarixiy bilishning subyektidan nafaqat obyekt, balki tarixiy tadqiqotning mazmuni ham bog'liq bo'ladi.

Postmodernizmning madaniy-tarixiy vaziyatda tarixiy tadqiqotning obyekt bo'lib matn chiqadi. Predmet sifatida matn an'analari va matnning tadqiqot subyekt bilan o'zaro harakati doiralarda bu matnning shakllanishi va taraqqiyoti jarayoni chiqadi.

Tayanch iboralar: Obyekt, subyekt, matn, Y. I. Petrov, tarix falsafasi, «Annallar» maktabi, M. Blok, tarixiy bilishda subyektivlik, neokantchilik, postmodernizm, muallif shaxsi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tarixning subyeksi va predmeti tushunchasi metodologik adabiyotda qanday mazmunga ega bo'ladi?
2. Tarixiy tadqiqot, tarixiy hikoyaning obyekt va predmetining tarixiyligini qanday tushunish mumkin?
3. Tarix fanida bilish obyeksi va subyeksi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida tomonlari nimadan iborat?
4. Tarixiy bilishda bilish obyeksi va subyeksi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlarini tushunishda umumiy yaxlitlik falsafasining roli qanday?
5. Bilish obyeksi va subyeksi o'rtasidagi tarixiy tadqiqot tushunchasiga uning pozitivistik tushunchasi bo'yicha qiyoslanganda tarixchiga yangi talablar nimaga asoslangan?
6. An'anaviy tarixshunoslikka qaraganda tarixchi postmodernistlarning tarixiy tadqiqotning predmeti va obyeksi tushunchasi xususiyatlari nimadan iborat?
7. Postmodernistlarning tarixiy tadqiqot subyektivligi to'g'risidagi qarashlarini nimada ko'rish mumkin?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tarixiy bilishning predmeti va obyeksi.
2. Tarixiy bilish predmeti va obyeksi to'g'risidagi qarashlarning genezisi.
3. Yangi davrda tarixshunoslikda predmet va obyektidagi o'zgarishlar.
4. Tarixiy bilishda subyektivlikning roli.
5. Postmodernizm tarixshunosligida tadqiqotning obyeksi, subyeksi va predmeti.

10- MAVZU.

TARIXNI O'RGANISH METODLARI. STRUKTURALIZM

1. *Tarixiy bilishda metodlar.*
2. *Tarixiy tadqiqotda umumfan metodlari.*
3. *Strukturalizm.*
4. *Maxsus tarixiy metodlar.*
5. *Retrospektiv metod, «qoldiqlar metodi».*
6. *Qiyosiy-tarixiy metod.*

1. Tarixiy bilishda metodlar. «Tarixiy nazariya» tushunchasi hozirgacha munozarali va ilmiy hamda falsafiy adabiyotda shakllanmagan hisonlanadi. Ammo tarixiy nazariyalarning vazifasi sifatida quyidagi unsurlarni ko'rsatish mumkin:

- 1) Tizimlarda farqlarni belgilaydi;
- 2) Bir sifat tizimidan boshqasiga o'tishni ko'rsatadi (misol uchun, ijtimoiy-tarixiy formatsiyalarning rivojlanish qonuni);
- 3) Tarix fanining qonunlarini aks ettirgan nazariyalar.

Tarixiy bilimni shartli ravishda (bilish metodlari bo'yicha) uch darajaga bo'lish mumkin:

1. **Rekonstruktiv bilish** — xronologik muntazamlikda tarixiy dalillarni belgilash. Bu tarixchining rekonstruktiv faoliyati jarayonida shakllanib boradi. Bu faoliyat davomida (qoidaga ko'ra, matnshunoslik, diplomatik, manbashunoslik, tarixshunoslik kabi maxsus tarixiy metodlarni qo'llash orqali) tarixchi tarixiy dalillarni o'rnatadi. Rekonstruktiv bilish o'tmishning rekonstruktiv manzarasini normativ (hikoya, qissa) yoki jadvallar, chizmalar tarzida yaratadi. Rekonstruktiv bilish metodlari xilma-xil bo'ladi va aniq muammoli (maxsus tarixiy) tadqiqot metodlari hamda umumilmiy tarixiy tadqiqot metodlarini o'z ichiga oladi.

2. **Empirik tarixiy bilim** turli dalillar, hodisalar, jarayonlarning o'zaro aloqasi va muntazamligi to'g'risidagi bilim —rekonstruktivlikni

qayta ishlash natijasi bo'ladi. Uning maqsadi tarixiy taraqqiyot jarayonida takrorlashni aniqlashdir. Bunday tadqiqot davomida tarixchi yanada yuqori darajadagi empirik dalillarni ochadi.

3. *Nazariy-tarixiy bilim* — tarixiy bilish davomida dalillar, hodisalar, jarayonlar tuzilmalarining tipologiyasi, takrorlanishi, da'vomiyligi to'g'risidagi bilimdir. Nazariy bilimning vazifasi nazariyani shakllantirish, tarixiy taraqqiyot qonunlarini aniqlashdir (lekin uning amal qilishini emas). Misol uchun, politologiya davlat muassasalarining amal qilish qonunlarini o'rganadi. Tarix ularning taraqqiyot qonunlarini o'rganadi.

Fan metodologiyasi asosiy va hosil qilingan ikki asosiy vazifani ko'zlaydi. Asosan, bu fan o'z ahamiyatiga ega bo'ladigan asoslar yoki uning tamoyillarini aniqlash, ikkinchisi — fanning har qanday sohasida nimanidir o'rganadigan metodlar to'g'risida tizimli ma'lumot berish bilan shug'ullanadi. Tarix fani metodologiyasi ham boshqa fanlar kabi ana shu muammolarni qo'yadi. U shunga aynan tarixiy bilim nazariyasi va tarixiy tafakkur metodlari to'g'risidagi ta'limotni tashkil qilgan ikki qismdan iborat.

Tarixiy bilish nazariyasi tarixiy bilim tamoyillarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Misol uchun, tarix qanday nazariy bilish nuqtayi nazaridan bizning tajribamiz ma'lumotlarini o'rganadi. Tarixchilar tarixiy qurilmalardan sabab-oqibat va maqsadga muvofiqlik tamoyillariga qanday ahamiyat berishlari lozim? Tarixchi material tanlovini o'tkazish asosi bo'lgan tarixiy bahoning mezonini qanday? U «evolutsiya», «progress», «regress» va boshqa tushunchalardan qanday mazmunda foydalanadi va h. k.

Tarixiy bilish nazariyasida turli tarixiy maqsadlar qo'yilgan. Tarixiy materialni qandaydir metodlar asosida o'rganish tarix fani qanday mazmunga ega bo'ladi, degan savolga javob berishga harakat qilishdir. Tarixiy mushohada metodlarini normal-mantiqiy jihatdan qaratilganda tarixiy tafakkur metodlarining o'zini o'rganishga yaroqli bo'lgan tarix fanlaridan tahlil va sintez, deduksiya va induksiyaning roli to'g'risida fikr yuritish mumkin. *Nazariy bilish metodlariga* modellashdirish (u aynan tarixiy bo'lmasa ham) metodini kiritish mumkin. Manbaxunoslik metodologiyasi tamoyil va metodlarni belgilaydi. Ularning yordamida tarixchi o'ziga tanish manbalar bilan

o'zini qiziqtiradigan dalil haqiqatan ham mavjud bo'lganmi yoki yo'qmi, deb tasdiqlashi mumkin bo'ladi. Tarixiy qurilma metodologiyasi fikr yuritadigan tamoyil va metodlar asosida tarixchi haqiqatan o'tmishdagi tarixiy voqea mavjud bo'lganmi, mavjud bo'lgan bo'lsa, qanday sodir bo'lishini tushuntiradi. Tamoyil va texnik qoida bir xil emas. Tamoyil o'zida haqiqatni aniqlash yo'li bilan o'zini asoslashini tanlab qo'yadi. Texnik qoida esa asoslanmaydi, balki ish usuli ko'rinishida shakllanadi.

2. Tarixiy tadqiqotda umumfan metodlari. Metodlarning eng umumiy yuqori darajasi falsafiy-metafizik, dialektik, fenomenologik, germinenvtik va boshqalardir. Umumilmiy metodlarni uch darajaga (umummantiqiy, nazariy va empirik) bo'lish mumkin.

Kuzatish-empirik tadqiqotning ilmiy tahlillari predmetning sezgi organlari (sezgi, hissiy qabul, tasavvur) orqali maqsadli yo'naltirilgan o'rganishdir. Kuzatish davomida bilish obyektining tashqi tomonlari bilan birga uning muhim xossalari va munosabatlari to'g'risida bilim olinadi. Kuzatish bevosita hamda bilvosita turli asboblardan texnik qurilmalar (mikroskop, teleskop, foto-kino-kamera va boshqalar) bilan olib borilishi mumkin. Fanning rivojlanishi bilan kuzatish murakkab va bilvositali bo'lib boraveradi. Ilmiy kuzatishning metod va usullari tizimi mavjud bo'ladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda kuzatish o'z qiyinchiliklariga ega. Bunda kuzatishlar natijasi kuzatuvchi shaxsiga, uning qat'iyati, xolisiyligi, o'rganilayotgan predmetga qiziqishi muhim o'rin tutadi. Kuzatish jarayonida tadqiqotchi ma'lum bir g'oya, konsepsiya va farazga asoslanib ish ko'radi. Kuzatish talqini ma'lum bir nazariy qoidalar yordamida amalga oshiriladi.

Ekspiriment-o'rganilayotgan jarayonning borishiga faol va maqsadli aralashuv. Har qanday ilmiy eksperiment doimo qandaydir g'oya, konsepsiya, faraz bilan yo'naltiriladi.

Nazariy tadqiqotning ilmiy metodlari. *Formallashtirish-belgili, ramziy ko'rinishdagi bilim mazmunining aks etishi.* Formallashtirish tabiiy va sun'iy tillarni ajratishga asoslanadi. Tabiiy tilda tafakkurning ifodalanishi formallashtirishning birinchi qadamidir.

Tarixiy tadqiqotlarda umumfan metodlaridan keng qo'llaniladi. Umumfan metodlaridan induktiv, deduktiv sintez, tahlil usullari tarixiy bilishda muhim o'rin tutadi. Ular maxsus fan metodlari uchun falsafiy-ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, induktiv va deduktiv metodlar tarixiy tadqiqotda alohida o'rin tutadi. **Induksiya** (lotin tilida «inducto» — *yo'naltirish*) xususiylikdan umumiylikka; dalillardan umumlashtirishga tomon mushohada qilish usuli. **Deduksiya** (lotin tilida — *yetishtirish*) umumiylikdan xususiylikka, umumiy qoidalardan xususiy xulosalarga kelish tomon mushohada. Empirik metod asoschisi F. Bekon shunday qarorga kelgan edi: «Barcha fanlarning adashuvi va kulfatining onasi — kashfiyotlar va tekshirishlarning o'sha usuli. Dastlab eng umumiy asoslar quriladi, keyin esa ularga o'rta aksiomalar moslashtiriladi va ular vositasida tekshiriladi». U umumiylikdan xususiylikka tomon fikrlashni ayb deb sanamadi. Ular ma'lum bir vaziyatlarda o'rinli edi. Ammo tabiatni bilishda deduksiyaga emas, induktiv metodga tayanish lozim. «Induksiya, — deb yozgan edi Bekon, — bir his-tuyg'ularning ma'lumotlari bilan hisoblashadigan va tabiatga yetishadigan va amaliyotga deyarli u bilan qo'shilib ketadigan ko'rsatmalarning o'sha shaklini hisoblaymiz». Tabiatni bilishning haqiqiy yo'li xususiylikdan katta-katta umumlashtirishga asta-sekin harakat. U albatta yengil emas, ozmuncha sabr-chidam talab qilmaydi, ammo natijalarni olishda mustahkam va istiqbolli bo'ladi.

3. Strukturalizm. Strukturalizm — XX asr ijtimoiy-gumanitar bilimida yuzaga kelgan yo'nalish. U madaniyatning ko'p obrazli hodisalarida obyektiv mavjud va aniq bo'lgan mantiqiy tuzilmalarni izlash bilan bog'liq. Bu tuzilmalar yuzada yotmaydi, bu tadqiqotchilarning ochishi lozim bo'lgan insonning ongli va ongsiz faoliyatining mahsulotidir. Strukturalizmning vazifasi (dastlab lingvistikada ishlab chiqilgan) struktura metodlarini inson faoliyatining turli mahsullarini tadqiq qilish bilan ma'naviy madaniyatning murakkab obyektlarining tug'ilishi, qurilishi va faoliyat ko'rsatish mantig'ini ochish maqsadidir.

XX asrning 60 — 70-yillarida strukturali ilmiy-falsafiy g'oyalarning kompleks sifatida bu metod Fransiyada keng qo'llanila

boshlandi (K. Levi Stross, M. Fuko, J. Lakan, R. Bart uning taniqli vakillari).

Strukturalizmning tarafdorlari, eng avvalo, hissiy qabul qilish mumkin bo'lgan barcha hodisalarni «epifenomenlar» sifatida, ichki-chuqur, tashqi ko'rinish («manifestatsiya») «ochiq bo'lman» barqaror tuzilmalar sifatida qaradilar. Bu tuzilmalarni ochishni ular o'z vazifalari deb bildilar.

Bu vazifani yechish uchun strukturalistlar gumanitar fanlarga aniq fanlar mavqeyini berishga harakat qildilar. Shu sababli ular aniq belgilangan va formallashgan tushuntirish apparatini yaratishga urinib ko'rdilar. Lingvistik tamoyillarni keng qo'lladilar. Formal mantiq va matematik formulalar, tushuntirish chizmalari, jadvallarini keng qo'llashga harakat qildilar.

Strukturalizm tahlil orqali ong tuzilmasi, psixika, tafakkur, til hamda inson harakatining tuzilmasi o'rganildi. Har qanday jarayon yoki hodisa ana shunday strukturalizm metodologiyasi bilan tushuntirildi. Struktura faqatgina barqaror obyekt skeleti ko'rinishida emas, qoidalar mosligi sifatida qaralib, bir obyektidan ikkinchi, uchinchi va boshqalarni olish mumkin. Fransuz strukturalizmining eng yirik vakillaridan biri Mishel Fuko (1926—1984) o'zining «So'zlar va buyumlar», «Gumanitar fanlar arxeologiyasi», «Bilim arxeologiyasi» asarlarida gumanitar bilim materialida alohida fan «Bilim arxeologiyasi»ni yaratishga urindi. Bu fanning predmeti bilish va madaniyatning tafakkur shart-sharoitlarini tarixiy o'zgarib borayotgan tizimlari bo'lishi lozim edi. Fukoning fikricha, bu shart-sharoitlar «so'z» va «buyumlar» munosabati bilan belgilanadi. Bu munosabatlar bilishning nazariy va empirik darajalari o'rtasida turadi. Ma'lum bir aniq tarixiy davrda tarixiy o'zgarayotgan tuzilmalar, fikrlar alohida fanlarning bo'lishini belgilab, uni Fuko «epistema» deb nomlaydi. Epistema fan orqali o'tadigan bilim shakli emas, balki u har bir fan uchun ochish mumkin bo'lgan barcha aloqalar to'plamidir, deb yozadi u.

Strukturalizm metodiga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

a) ilk obyektlar ko'pligini (misol uchun, matnlar) ajratish, ulardan bir xil yoki o'xshash tuzilmalarning mavjudligini faraz qilish mumkin;

b) obyektlar (matnlar)ni unsuriy qismlar (segment)ga bo'lish, ularda takrorlanadigan munosabatlar turli xil unsurlarni bir-lashtiradi;

d) segmentlar orasidagi o'zgarish munosabatlarini ochish, ularni tizimlashtirish va sintezlash yoki matematik va formal mantiqiy modellashtirish yo'li bilan abstrakt tuzilmasini qurish;

e) tuzilmadan bo'lishi mumkin bo'lgan barcha nazariy oqibatlarni (aniq variantlar) chiqarish va ularni amalda tekshirish.

Fuko ta'kidlaydiki, agar an'anaviy tarix asosiy e'tiborni (g'o-yalar tarixi, fan tarixi, falsafa va h. k.) katta uzunliklar (davrlar, asrlar) davrlariga, ularning qonuniyatlarini, alohida an'analarni aniqlashga jalb qilgan bo'lsa, zamonaviy tarix o'z e'tiborini uzilish-lar (arafalar, o'zgarishlar, transformatsiyalar) hodisalarini ochishga qaratadi. Buning uchun tasvirning tegishli birliklarini ajratadi (fan, asar, nazariya, tushuncha, matn).

Tarixchining nigohi tuzilmalar tubiga yetib borishi bilan uning diqqat-e'tiboriga yangi-yangi sohalar tortiladi. Ko'rsatilgan «uzilishlar yashirin boshlanishlar» yangilash asoslari sifatida chiqadi. Shu bilan birga tarixiy tasvirlar bilishning dolzarb darajalariga tegishli va o'zining har bir transformatsiyasi bilan ko'payadi va o'zi bilan aloqasini uzmaydi.

Fukoning fikricha, uzilish tushunchasi tarixiy fanlarda muhim o'rin tutadi. Agar uzilishlarni tarixdan «chiqarib tashlagan bo'l-salar», endilikda u tarixiy tahlilning asosiy unsurlaridan biri bo'lib qoldi. Bunday tahlilda u uch xil rol ni o'ynaydi: tarixchining o'ylan-gan harakatini belgilaydi; o'zini tasvirlash natijasi bo'ladi; zaruriy konsept sifatida aks etib, tadqiqotchi unga yangi ixtisoslashuvni beradi. Shu bilan bir vaqtning o'zida u tadqiq quroli va obyekti bo'ladi.

Bu tadqiqotda yangi tarix fani metodologik muammolar bilan to'qnashadi. Ularning ko'pchiligi uning paydo bo'lishigacha paydo bo'lgan edi. Hozir aynan shu diskurs ko'rinishi (uzilishlarning to'siqdan amaliyotga aylanishi, uning tarixchi diskursiga qo'shilishi) tavsiflanadi. Bu muammolar — hujjatlar oqimini belgilash, ularni tahlil qilish tamoyillari asoslash, statistik va miqdoriy metodlardan

foydalanish, formallashtirish, talqin, analogiya, funksional va sababiyatli aloqalarning tahlili va h. k.

Fuko o'zining tarixiy tahlil metodida «antropologik aralashma»lar, madaniy yaxlitliklar tamoyillaridan foydalanishdan xalos bo'lish, tarix uning tabiatiga qarshi tuzilmali tahlil usullaridan voz kechish va tarixning rivojlanishi va tuzilmalarning shakllanishiga burilishni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

«Bilish arxeologiyasi» «ta'sir», «an'ana», «rivojlanish», «evolutsiya», «muallif», «kitob», «asar», «fan», «falsafa», «adabiyot», «tarix» kabi an'anaviy tushunchalarni tanqidiy qayta ko'rishdan boshlanadi. «Bilish arxeologiyasi» turli xil material ichiga kiradi. Va turli xil dalillarni o'lchanadigan shaklda aks ettiradi. Bu o'lchov birligi so'z voqeligi, «so'zlashuv» dalilidir. Bu belgilarning «mavjudligining» alohida funksiyasi, belgilarning bo'lishi va ularning aniq bir tarixiy materialda qo'shib kelishini belgilashdir.

4. Maxsus tarixiy metodlarga quyidagilar kiradi: *shartli hujjatli va grammatik-diplomatik metodlar*, ya'ni matnni tarkibiy unsurlarga bo'lish metodlari. Ish yuritish va ish yuritish hujjatlarini o'rganish uchun qo'llaniladi. Umumtarixiy ilmiy tadqiqot metodlariga quyidagilar kiradi:

1. Matnshunoslik metodlari. Misol uchun, matnning mantiqiy tahlili turli xil «qorong'u joylarni» talqin qilishga (interpretatsiya qilishga, hujjatdagi qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi va h.k.) bunday metodlarni qo'llash orqali yetmagan (yo'q qilingan) hujjatlarni aniqlash, turli voqealarni rekonstruksiya (qayta tiklash) qilish imkoniyati yuzaga keladi.

2. Tarixiy-qiyosiy tahlil — turli xil manbalarning ma'lumotlarini qiyoslash imkoniyatini beradi. Hujjatlarni yuzaga keltirgan siyosiy kurash holatlarini qayta tiklash, u yoki bu akti qabul qilgan ishtirokchilar tarkibini aniqlashtirishga imkon beradi. Tarixiy tahlil qilish va sintezning boshqa maxsus metodlari ham mavjud.

3. Tarixiy genetik (retrospektiv) metod tarixiy voqea (hodisa, tuzilmalar) rivojlanishining qonuniyatlari va sabab-oqibat aloqalarini aniqlashda yordam beradi. U qandaydir dalillar, voqealar, hodisalarning sabablarini aniqlash maqsadida o'tmishga tizimli kirish bilan tavsiflanadi. Tarixiy genetik metod tarixiy taraqqiyotda

va obyektiv omillar (siyosiy kurash mantig'i, iqtisodiy taraqqiyot va h. k.)da subyektiv shaxsiy omilning nisbatini aniqlash uchun ham qo'llaniladi.

4. *Muammoli xronologik metod* — keng mavzularni qator tor muammolarga bo'lishni taqozo qiladi. Ularning har biri xronologik ketma-ketlikda ko'rib chiqiladi. Bu metod materialni (tizimlashtirish va turkumlashtirish metodlari bilan birgalikda tahlilning birinchi bosqichida) va uni yig'ishda hamda tarix bo'yicha ish matnining ichida bayon qilishda foydalaniladi.

Empirik tarixiy bilim metodlari umumtarixiy tadqiqot metodlariga tegishlidir.

5. *Davrlashtirish metodi* — turli xil ijtimoiy, sotsial voqealarning taraqqiyotidagi qator bosqichlarni ajratish imkoniyatini beradi. Har bir holatda davrlashtirish mezonlari turli xil qo'llanilishi mumkin.

6. *Tuzilmali diaxron metod* — turli vaqtdagi tarixiy jarayonlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Bu metodni qo'llash turli voqealarning tebranishi va davomiyligi hamda murakkab tizimning turli unsurlarining rivojlanish dinamikasini aniqlashga imkon beradi.

Xronologiya metodi — xronologiya vaqt birligida tarixiy materialni bayon qilish. Sinxron metod — jamiyatda yuz berayotgan voqealarni bir vaqtda o'rganish. Diaxron metod — davrlashtirish metodidir.

5. *Retrospektiv metod, «qoldiqlar metodi»*. Tarixiy bilim retrospektiv (*retro* — lotincha *orqaga* va *speci* — *qarayman*) tusda namoyon bo'ladi. Chunki u voqealar amalda sababdan oqibatga tomon rivojlanishiga qaratilgan. Tarixchi oqibatdan sababga tomon yuradi. Bu bilish qoidasi har qanday holda so'zsiz yuz beradi. Alohida olingan holda keyingi o'zidan oldingini aks ettiradi. Aniqrog'i, barcha o'tmishga ketgan tuzilmalar boshqasining tarkibiy qismi sifatida o'tmish qoldig'i yoki boshqaning tarkibiy qismi sifatida, amaliyot taraqqiyotining bir yo'nalishi, yanada rivojlangan bosqichi, darajasi sifatida bo'ladi.

Retrospektiv metodning mohiyati shundaki, oldin o'tganni tushunish va baholash uchun rivojlanishning yanada yuqoriroq bosqichidir. Bu faqatgina amaldagi dalillarga manbalarning taqchillik

ehtimoli sababi bilan qilinmaydi. Gap shundaki, o'rganilayotgan tafakkur jarayoni yoki voqeani tushunish uchun uning taraqqiyotini boshlanishidan nihoyasigacha kuzatib borish lozim. Oldingi bosqichni boshqa bosqichlar bilan aloqasi bilangina emas, balki yanada yuqoriroq darajadagi bosqich asosida tushunish mumkin. Chunki bunda butun jarayonning mazmuni to'la ifodalangan. Misol uchun, XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari o'z siyosiy tushkunligining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu davrda o'lka uch xonlikka bo'linib ketganidan so'ng, ular o'rtasidagi o'zaro urushlar tugamadi. Siyosiy tuzilmalar tushkunlikning so'nggi yuqori bosqichiga chiqdi. XIX asr o'rtalaridan bu dinamikaning ifodasini rus bosqini, hududlarni yo'qotishda ko'rish mumkin. Boshqa bir qandaydir tafakkur mantig'i bilan bu jarayonni (siyosiy tushkunlik jarayoni) shunday tushunish mumkin emas.

Retrospektiv metodni qo'llashning eng yaxshi namunalaridan biri — bu L. G. Morganning tadqiqotlaridir. U o'zining «Qadimgi jamiyat» asarida oilaviy nikoh munosabatlarining guruhiiy shakldan yakka shaklga tomon evolutsiyasini ko'rsatdi. Morgan oila tarixini yuqoridan pastgacha poligamiya hukmron bo'lgan ibtidoiy holatgacha qayta tikladi. Morgan Amerika hindulari oilasi genezisi bilan yunon-rim oila munosabatlaridagi o'xshashlikni ko'rsatdi. Uning tadqiqotida retrospektiv va qiyosiy-tarixiy metodlarning o'zaro birgalikdagi harakatini ko'rish mumkin. Bilishda turli metodlar aloqasi va o'zaro harakati tafakkurning umumiy va alohida belgisidir. Retrospektiv metodni nafaqat alohida voqealar, balki butun bir tarixiy davrlarni o'rganishda qo'llash mumkin. «Qoldiq metod» aniq-tarixiy tadqiqotda retrospektiv metod bilan juda yaqin aloqada bo'ladi. «Qoldiqlar metodi» deganda tarixchilar o'tinishga ketgan obyektlarni zamonaviy tarixchi davrigacha yetib kelgan, saqlanib qolgan qoldiqlar asosida obyektlarni rekonstruksiya qilish usulini tushunadilar. Ibtidoiy madaniyatning taniqli tadqiqotchisi E. Taylor (1832–1917-yillar) yozgan edi: «Sivilizatsiyaning amalda borishini kuzatish bizga yordam beradigan guvohliklar orasida dalillarning keng sinfi mavjud. Ularni belgilash uchun men «qoldiq» atamasini kiritishni qulay deb hisoblar edim» (Taylor «Перво-бытная культура» М.1990-у. 10-bet).

Bu o'sha urf-odatlar, marosimlar, dunyoqarashlar, ko'nikma kuchi bo'lib, o'zlari mos bo'lgan madaniyatning bir bosqichidan yanada kechroq bo'lgan boshqasiga ko'chirilgan tirik guvoh yoki o'tmishning yodgorligi bo'lib qoladi.

E. Taylor, asosan, etnografik materiallarga asoslanib, qoldiq tushunchasini shunga mos qo'lladi. «**Qoldiqlar metodi**» nemis tarixshunosligida o'rta asrlar agrar tarixining muammolarini o'rganish uchun XIX asrda keng qo'llanildi. Alohida tarixchilarning ishlarida esa u agrar-tarixiy tadqiqotlarning asosiy metodi bo'ldi. Bu metodlarning qo'llanilishi tarixchilarning tadqiqotlarini boshlang'ich metodologik qoidalar bilan yaqin aloqasini bildiradi. Bu tarixiy taraqqiyotning evolutsion mazmuniga ishonch bilan qarab, o'tmish bugunda qayta ishlab chiqiladi va uning oddiy davomi bo'ladi. Hamda tuzumni uning butun davomiy mavjudligida chuqur sifat o'zgarishlari yo'qligi e'tirof etiladi. Bu qoidalar asosida o'sha ko'rsatilgan tarixchilarning qoldiqlarga munosabati belgilandi. Shu bilan birga metodning o'zini qo'llashda ularning ishlarida qiyosiy-tarixiy va retrospektiv metodlar bilan mahkam bog'langan: qoldiqlar — sifat jihatdan boshqa voqelikda o'tmishning qoldiqlari bo'lmay, ular bilan bir tipdagi hodisalarga aylanadi.

Tarixiylikni e'tirof etgan fransuz tarixchisi M. Blok va bu maktab vakillari fransuz tarixining ma'lum bir davrini o'rganishda «qoldiqlar metodi»dan unumli foydalandilar. Bu metodni qo'llagan tarixchilarning tajribasi ko'rsatadiki, «qoldiq metodga» qo'yiladigan asosiy metodologik talablar allaqachon yo'q bo'lib ketgan, tarixiy voqelikning manzarasini ilmiy yo'l bilan qayta tiklash uchun o'sha guvohliklarning qoldiq xususiyatini aniqlash va asoslash lozimligidadir. Bu metodni ilmiy qo'llashning sharti o'tmish voqelikni baholashda haqiqiy tarixiy bo'ladi.

6. Qiyosiy-tarixiy metod. *Qiyosiy-tarixiy metod* (o'xshashlik metodi bilan birgalikda bu metodning mantiqiy asosi sifatida) turli voqea-hodisalar, tuzilmalar taraqqiyotidagi umumiy hamda o'ziga xos tomonlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Qiyosiy-tarixiy metod — bu ilmiy metod bo'lib, qiyosiy yo'l bilan tarixiy voqeliklardagi umumiylik va alohidalik aniqlanadi.

U yoki bu hodisa, yo ikki har xil birgalikda yashovchi hodisalar taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarini bilishga erishiladi. Bu tarixiy metodning boshqa xil ko'rinishidir.

Qiyosiy-tarixiy metod o'rganiladigan obyektning taraqqiyotidagi darajalarni aniqlash va qiyoslash, bo'lib o'tgan o'zgarishlar, taraqqiyot an'analarini aniqlashdir.

Qiyosiy-tarixiy metodning turli shakllarini ajratish mumkin. Qiyoslash, taqqoslash metodi turli xil obyektlarning tabiatini aniqlaydi. Tarixiy-tipologik qiyoslash — o'zining kelib chiqishi bilan bog'lanmagan voqealarni genezis va taraqqiyotning bir xil sharoitlari bilan o'xshashligini qiyoslash. Tarixiy-genetik qiyoslashda hodisalarning o'xshashligi, kelib chiqishi bo'yicha o'xshashlik tushuntiriladi. Tarixiy-genetik qiyoslashda hodisalarning o'xshashligi ularning kelib chiqishidan qarindoshligi natijasi sifatida tushuntiriladi. Qiyoslash orqali turli hodisalarning o'zaro ta'siri belgilanadi.

Faylasuf Arastu antik davrning tarixiy shakllarini tahlil qilishda tarixiy tahlildan foydalangan edi. Lekin qiyosiy-tarixiy metodni umum e'tirof etish XIX asrda yuz berdi. Bu huquqslunoslik, sotsiologiya, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy etnografiya turli tarzda keng qo'llanila boshlandi.

XIX asr sotsiologiyasida qiyosiy-tarixiy metod O. Kont va G. Spenser g'oyalari bilan bog'langan edi. O. Kont va G. Spenser qiyosiy-tarixiy metodni sotsiologik metodning asosiy metodi deb qarab, uni taraqqiyotning evolutsion chiziqli ko'rinishi deb sharhladilar. E. Dyurkgeym qiyosiy sotsiologiyada umuman sotsiologiyaning mohiyatini ko'rdi. Shu vaqtning o'zida sotsiologiyadagi qiyosiy-tarixiy metodni statistik metodlar (A. Kettle, Belgiya), tizimlar tuzulishi va evolutsiyasi bilan birlashtirishga urinishlar qilinmoqda. Lekin tuzilma va tuzumlarni o'rganish qiyosiy-tarixiy metodning tanqidi bilan bog'langan. Ilk funksionalizm (B. Malinovskiy va boshqalar) bu metodlarni bir-biriga qarshi qo'ydi va ijtimoiy tizimlarni ularning rivojlanishi va qarama-qarshiligiga o'rganishga urg'u berdi.

Hozirgi sharoitda asosiy an'ana qiyosiy-tarixiy metodning turli ijtimoiy tuzilmalarni o'rganish jarayonlarini aniqlashda tuzilmali funksional tahlil bilan birlashtirishga urinishdir. Shunday jarayon

bu yo'nalishda F. Sassyuer tomonidan yo'naltirilgan tilshunoslikda yuz bermoqda.

V. Dilteynning moddiy tarixiy maktabining sotsiologiyadagi tanqidi E. Tryoch va M. Veberlarning tanqidini ularning nazariyasida qiyosiy-tarixiy metodni qiyosiy tipologik metodga o'zgartirishga olib keldi. Bu metod yordami bilan u ijtimoiy tuzilmalar va dunyo dinlarini tahlil qildi. XX asrning ikkinchi yarmida mensimaslik bosqichi o'tganidan so'ng qiyosiy-tarixiy metodga qiziqish qayta tug'ildi. Turli xil madaniy qadriyatlar va normalarni qiyosiy chiziqda o'rganish madaniy-tarixiy tiplar, nazariyalarda berilgan (P. Sorokin, A. Toynbi). Biroq har bir madaniyat yaxlit yopiqlikda chiqadi va ularning bir-biriga transformatsiyasi va rivojlanishi jarayoni qarab chiqilmaydi. Qator ijtimoiy muassasalarni misol uchun olib qiyosiy tahlil qilish davom etmoqda (R. Benedikt, M. Mig AQSH va boshqalarda). Qiyosiy-tarixiy metodning ahamiyatini qayta mushohada qilish an'anasi madaniy antropologiya va tilshunoslik uchun xosdir. 1960-yilda sivilizatsiyalarni qiyosiy o'rganish xalqaro jamiyati tashkil topdi.

Marksizm asoschilarining tadqiqotlarida qiyosiy-tarixiy metod ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, bir formatiya ichida siyosiy-iqtisodiy tuzilmalarning turli tiplarini o'rganish, qator ijtimoiy muassasalar (davlat, oila, armiya va h.k.), ijtimoiy harakatlar va mafkuralar tahlilida foydalanildi. Shu bilan birga qiyosiy-tarixiy metod tarixiy hodisalarning tuzilmasi va funksiyalari tadqiqoti bilan hamohang bo'ldi. Markscha metodologiya asosida tarix fani, etnografiya, adabiyotshunoslikda qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar keng tarqaldi. Qaysiki, o'ziga xos yo'nalishlar — qiyosiy tilshunoslik, adabiyotshunoslikning shakllanishiga olib keldi.

Qiyosiy-tarixiy metod tarixni bilishning eng ko'p qo'llaniladigan vositalaridan biri hisoblanadi. Qiyoslash antik davr fanida ham ma'lum edi. U tarixni siklik rivojlanish konsepsiyalarini o'rganishda foydalaniladi. Bu konsepsiyalarda qiyoslash yopiq va takrorlanadigan sikllar to'g'risida qarashlarni yaratish uchun vosita bo'lib xizmat qildi. Lekin aslida, hodisalarning tarixiyligi mezonidan mahrum bo'lib, amalda har qanday voqelik bilan qiyoslash mumkin edi. Qiyosiy-tarixiy metodning rivojini ilk davrda

ijtimoiy voqelik — hodisalarni sifat jihatdan muayyanligi to'g'risida qarashlar yo'q edi.

Yangi davrda tarixning siklik taraqqiyoti konsepsiyalarining ko'rinishlaridan biri J. Vikoning alohida voqealar va yaxlit davrlarni qiyoslashni keng qo'llashga asoslangan aylanib turish konsepsiyasidir. Ma'rifatparvarlik tarixshunosligi umumjahon tarixining yaxlitligi, inson tabiatining yagona va o'zgarmasligiga aqliy va ezgulikka ishonch ruhi bilan sug'orilgan edi. Ma'rifatparvarlar qiyosiy-tarixiy metodni keng qo'lladilar, qiyoslash mumkin bo'lmaganini ham qiyosladilar. Ammo u yuzaki edi. Ular o'rganiladigan hodisalarni qiyoslash mezonlari qandayligiga, nimani qiyoslash mumkin va mumkin emasligi savoliga javob berishga urindilar. Bu savolga metod javob bera olmaydi. Chunki u tarix to'g'risidagi nazariy qarashlar sohasiga kiradi. Oqibatda qiyosiy-tarixiy metodni qo'llash uning metodologik asosiga tegishli bo'ldi.

Tarixiy bilimning rivojlanishi davomida qiyosiy-tarixiy metodning boshqa muammolari ham ko'rindi. Eng avvalo, bilish imkoniyatlarining muammolari uni qo'llash doiralarida ko'rinadi. P. Mommzenning fikricha, qiyosiy o'rganishni bir xildagi tuzilmalar va takrorlanadigan tiplar sohasida qo'llash mumkin. Ammo u bunday o'rganish voqealarning chuqur sabab-oqibatli qonuniyatli aloqalarini bilishga da'vo qilmaydigan evristik vosita sifatida qaradi. Bu ma'noda P. Mommzen hodisalarni tiplashtirishni tushundi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metodning vazifasi to'g'risidagi savol paydo bo'ldi: u voqealarda umumiylik yoki xususiylikni aniqlashga xizmat qiladimi? Gerxardning fikricha, qiyosiy tahlil ayrimlikni ajratadi. Shunday fikrni empirizmni tasvirlashni yoqlagan, tarixiy jarayonlarni o'rganishda umumlashtirishlarga, nazariyalarga skeptik qarashda bo'lgan ingliz tarixchisi D. Elton ham yoqlab chiqdi.

Aksincha, A. Toynbi lokal sivilizatsiyalar konsepsiyasini ilgari surib, o'xshashlikka tayandi. Har qanday jamiyatga qo'llash mumkin bo'lgan ko'proq qonunlar yaratishga urindi. Shu bilan birgalikda mutlaqo har xil hodisalarni o'xshatdi. XIX asr oxirida Erondagi qo'zg'olonni er. av. II asrdagi yahuduilardagi makkoviylar qo'zg'oloniga tenglashtirdi. Pyotr I ni Exnatonga, Kolumbni esa g'ildirakning noma'lum ixtirochisiga qiyosladi.

Qiyosiy-tarixiy metod tarixchilar foydalanadigan bilish usullaridan biri hisoblanadi. Biror-bir ilmiy tadqiqot usiz amalga oshirmaydi. Bu metodning zarurligi va qo'llash imkoniyati bilish obyektlining xususiyati — tarixiy voqelikni umumiylikning yaxlitligi sifatida takrorlanadigan va yagonalikning turli hodisa va jarayonlarda takrorlanmasligi bilan shartlanadi.

Tarixchilar o'rtasida tabiat, ijtimoiy hodisalar to'g'risidagi tushunchalarning biri ikkinchisidan ajralgani bilish taraqqiyotida ilgari ham, hozir ham mavjud. Qiyosiy-tarixiy metoddan voz kechish, uni ajrimlikka almashtirish uchraydi. Bu hol voqealar to'g'risidagi tasavvurlarni ularga xos bo'lgan, ularning joyi, shart-sharoiti bilan shartlangan sifat belgilardan mahrum qiladi. Faqat har qanday hajmli tarixiy voqealardagi takrorlanish ajrimlik va o'xshashlikning ajralmas aloqasini tan olishdir. Qiyosiy-tarixiy metodni samarali qo'llash shart hisoblanadi. Qiyoslash usuli birgina o'xshashlikni emas, voqelikdagi takrorlanmaslikni ko'rsatadi.

Shunga bog'liq ravishda savol tug'iladi: har qanday hodisani qiyoslash mumkinmi yoki tarixchi tafakkuri bir tartibdagi o'xshashliklarning toifasiga ajralganmi? Albatta, barchani hammasiga qiyoslash mumkin: o'rta asr Sharq va G'arb hunarmandchiligidaning sex va manufaktura ishlab-shiqarishni tashkil etish shakli sifatida, Muqanna qo'zg'olonini Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni bilan. Lekin bu qiyoslashlar taqqoslanayotgan voqealar mohiyatining xususiyatlarini tushunishga imkon bermay, faqat ularning farqini ko'rsatadi. Voqealarning mohiyatini bunday qiyoslashni cheklab o'tib, olish mumkin. Oqibatda mahsuldorligi va maqsadga mosligi savoli ko'tariladi.

Qiyosiy-tarixiy metodni samarali qo'llashning sharti bir tartibli voqea va jarayonlarning tahlilidir. O'rganilayotgan, qiyoslanayotgan voqea yoki jarayon bir xil darajada o'rganilishi lozim. Yetarli darajada o'rganilmaslik noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib keladi. Qiyoslashdan oldin o'rganiladigan obyektni tasvirlash-hikoya qilish metodini qo'llash bilan bayon qilish bosqichi amalga oshiriladi. Tasvirlash qiyoslashning asosi sifatida chiqadi.

O'rganilayotgan hodisani qiyoslash ularning mohiyatiga kirish darajasi bilan farq qiladi. Qiyosiy tahlilning boshlang'ich darajasi

o'xshatish bo'ladi. O'xshatish barcha mushohadalarga, ular oddiy voqealarga, ishtirok etuvchi odamlarga yoki murakkab hodisa, jarayonlarga tegishlimi, ularning mohiyatini ochadimi, o'zida aks ettiradimi va odatda nimani aks ettirish yoki asoslash sifatida ishlatiladi, degan savol tug'iladi.

O'xshatish tahlilni ko'zlamaydi, bevosita qarashlarni obyektidan obyektga ko'chirishdir. Bunday ko'chirish qiyoslanayotgan hodisalarning haqiqiy o'xshashligiga yoki o'xshamasligiga asoslangan mazmunli bo'lishi, yuzaki bo'lishi ham mumkin. Formal uning haqiqiy mazmuniga to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Misol uchun, Amir Temur va Ismoil Somoniy markazlashgan davlat tuzishda buyuk rol o'ynadilar. Markazlashgan davlat tuzish deyarli bir xil sabab va omillar bilan shartlangan edi.

* Qiyosiy tahlilning keyingi bosqichi — o'rganilayotgan hodisaning mazmun-mohiyat xususiyatini aniqlashdir. Bu holda bir tartibli hodisalarni «gorizontal» va «vertikal» bo'yicha qonuniyatli takrorlanish natijasi sifatida qiyoslash to'g'risida so'z boradi. Qiyosiy tahlilga kirishdan oldin o'rganilayotgan hodisa bir xil tartibdalligi masalasini yechish lozim. Bunga faqat metodologiya yordam berishi mumkin. Ayni holatda tarixiy jarayon nazariyasi tarixiy taraqqiyot mantig'ining mos aks etishi bo'lmaydi.

Bir tartibli hodisalarni qiyosiy tahlil qilish ularning mohiyatini tushunishning zaruriy shartidir. Aniq tarixiy hodisalarga qaram, o'ziga xos bo'lgan hodisalar turli darajada ularning bir tartibli tiplarga tegishli bo'lgan mohiyatini belgilaydi. Oqibatda mohiyat faqat qiyoslash yo'li bilan aniqlanishi mumkin. Shuningdek, uning belgilari barcha variantlarda notekis va har xillikda ifodalanadi. Bilishda ham uni tushunish, bu belgilarning oddiy arifmetik yig'indiga keltirilishi mumkin emas. Shunda amaliyot alohida, uni tushunish, xayoliy obrazi alohida, faqat qiyosiy tahlil hodisaning rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Tafakkur bu darajani aniqlaydi, lekin uni bir tartibli voqealar, jarayonlar qatoridan topadi. XIX asrning 80-yillarida Turkistonda va qator Sharq mamlakatlarida kapitalistik ishlab chiqarish yuzaga kela boshladi. Bu jarayon qator o'xshash sabablar natijasida yuz berdi. Uning asosida jamiyatning o'rta asr

tartib-qoidalaridan hayotning barcha sohalarida yangi kapitalistik bozor munosabatlariga o'tish yotar edi.

Tarixiy tushunchalar shunday tarzda tarixda takrorlanishni qiyosiy o'rganishga suyanadi. Qiyosiy-tarixiy tahlilning keyingi bosqichi tipologiya usulidir. Tiplashtirish yoki tipologiya mazmun-mohiyat tahlilidan yanada ilgari borib, bir xil tartibli hodisalarning tiplarini ajratib olish bilan qiyoslanadi. Bu takrorlanishning aniq ko'rinishlaridan ajraladigan sof tafakkur amaliyotlari sirasiga tegishli emas. Bu holda mushohadaning faolligi faqatgina tiplarni turkumlash belgilarini tanlash va aniqlashda ko'rinadi. Bu yerda tiplarni ajratishning metodologik belgilari asosiy masala bo'ladi. Tarixchilar kapitalistik munosabatlar taraqqiyotini dvoryan va jamoa yer egaligi mavjudligi bilan ajralib turadigan «prusscha yo'limi» ajratib ko'rsatdilar. Bu to'plashtirish jarayonning rivojlanishini lokal o'ziga xosligiga tayanadigan ilmiy mazmunga ega.

Tipologik metod jahon tarixshunosligida keng qo'llaniladi. Bu metod orqali mamlakatlar, qit'alar taraqqiyotidagi chuqur o'xshashliklar va farqlar aniqlanadi. Misol uchun, rus tarixshunosligida feodal jamiyati taraqqiyoti tiplashtirish asosida tahlil qilingan. Tiplashtirish asosida geografik doira bilan aloqada feodallashuv genezisi jarayonida german, roman asoslari roli baholanadi.

Oqibatda quyidagi natijalar ajratiladi:

— German asoslari ustuvor bo'lgan variant (Italiya, Pireniy yarim oroli);

— Ikkala asos bir tekisda sintez bo'lgan variant (Frank davlatlari);

Bu tiplashtirish — turli tutilgan o'rinning salmog'ini hududga qaram holda Rim quldorlik jamiyati unsurlari va german qabilalarining ibtidoiy jamoa tuzumi unsurlari. Bu asoslarning nisbati feodalizm jarayonining ko'p jihatlarini tushuntiradi (uning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot darajasi va h. k.), bunday tiplashtirishni ilmiy mahsuldor qiladi.

Shunday qilib, qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanish bir tartibdagi hodisalarni aniqlash, ularni o'rganilganligining bir xil dara-

jasi, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni umumlashtiruvchi qarashlar uchun aniqlashni taxmin qiladi.

Tarixiy tipologik metod o'rganish predmetlarini turli tiplar (sinflar) sifati bo'yicha ularga tegishli bo'lgan alohida belgilar asosida tartibga solishga imkon beradi. Shakl bo'yicha tiplashtirish turkumlashning boshqacha ko'rinishi bo'ladi. U predmetning alohida belgilarini aniqlashga yordam beradi. Metodning asosi tarixiy jarayonda ayrimlik, alohidalik va umumiylikning o'zaro aloqasini tushunishdir.

Mantiqiy va tarixiy metod. Mantiqiylik va tarixiylik kategoriyalari mantiqiy bilishning borishi va jamiyat tarixiy taraqqiyotining borishi orasidagi o'zaro munosabatlarni ochib beradi. Haqiqiy ilmiy bilish — bu tabiat va jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonining aks etishidir. Har qanday hodisani uning paydo bo'lishi, rivojlanishi va halokati tarixi bilan to'g'ri bilish mumkin. Predmetni bilish: uning paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy aks etishidir. Shu sababli mantiqiylik tarixiylik bilan mos keladi. Mantiqiylik — bu tarixiylik bo'lib, uning eng muhim qonuniyatlari ifodalangan bo'ladi.

Atamalar tahlili metodi. So'z — voqealarni tushunish kaliti. Tarixchilar o'tmish to'g'risidagi ma'lumotlarning ko'p qismini so'z shaklida ifodalaydilar. Bu juda katta muammolarni tug'diradi. Ulardan eng asosiysi lingvistik muammo. So'z voqelik uchun ahamiyatlimi yoki bu yolg'onmi? Tarixchining tadqiqotida atamalar tahlili qanday rol o'ynaydi?

Bu muammoni o'rganishning metodologik asosi — bu manbalarini atamalar apparati o'z predmet mazmunini hayotdan, voqelikdan o'zlashtiradi. Lekin, ko'pincha, mushohada va so'z tarkibi to'la mos tushmaydi. Tarixchi uchun atamalar tahlili bilish vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. O'rganilayotgan davr qanchalik darajada hozirgi zamondan uzoq bo'lsa, u yanada ko'proq ahamiyat kasb etadi. Chunki o'rganilayotgan davr manbalarida mavjud atamalarining aniq mazmunini aniqlashda ko'rinadi. Tarixiy davr o'zgarib boradi. Manbalardagi atamalar ham davrga mos ravishda o'zgarib boradi. Ilmiy tarixiylikning zaruriy shartlaridan biri va

ijtimoiy voqealarni tushunish va baholashda atamalar mazmuni, manbalar soʻzlarining oʻzgarib borishini hisobga olishdir.

Tilga tarixiy qarash boshlangan lahzadan ijtimoiy hodisalar bilish manbalaridan biriga aylandi. Boshqacha aytganda, tilda tarixiy taraqqiyotning natijalaridan biri deb qaralsa, tilga bunday munosabat XIX asrdan boshlandi. Taniqli nemis tarixchisi B. G. Nibur, T. Mommsen va boshqalar mumtoz filologiya va qiyosiy tilshunoslikning yutuqlaridan foydalanib, atamalar tahlilini antik davr ijtimoiy hodisalarini bilish vositalari sifatida ishlatdilar. Atamalar tahlili turli davrlarda manbalarning turli xillaridan foydalanishda qoʻl keladi.

Tarixiy manbalarning koʻp toifalarining murakkabligi shundaki, ularda qoʻllaniladigan atamalar bir xil ahamiyatli emas yoki bir xil voqelikni ifodalash uchun turli atamalar qoʻllaniladi. Misol uchun, ilk oʻrta asrlarda «dehqon» — katta yer egasi maʼnosini anglatgan boʻlsa, XI asrlardan boshlab yerga ishlov beruvchini anglatgan. Koʻshk va koh (Kuhandiz) atamalari X asrgacha boʻlgan tarixga tegishli. «Koʻshk» kohdan oʻz hajmi jihatidagina farq qiladi (koh koʻshkdan kattaroq), lekin bu ikkala atama ham mustahkam qoʻrgʻonni bildiradi. Biroq «Koʻshk» deganda baʼzan kohning juda ham mustahkam qismini tushunish lozim.

Tarixiy manbalarda uchraydigan atama va tushunchalarning rivojlanishi ular oʻrtasida yashiringan tarixiy voqealarning amaliy mazmuni rivojidan umuman va butunlay orqada qoladi. Shu maʼnoda koʻpgina tarixiy atamalar ibtidoiy, koʻp hollarda ularning mazmuni toʻliq boʻladi. Bunday holat tadqiqotchi uchun muammo tugʻdiradi. Agarda bu muammo yechilmasa, haqiqiy voqelikni toʻla aks ettirish mumkin emas. Misol uchun, Avesto tarixiy manba sifatida tadqiqotchilarda juda katta qiziqish uygʻotadi. Bu manbada juda koʻp atamalarda ijtimoiy hayot, ijtimoiy tabaqalar toʻgʻrisida maʼlumotlarni topish mumkin. Lekin bu atama, tushuncha, iboralar orqali zamonaviy tadqiqotchi hozirgi til belgilari orqali oʻsha davrga tegishli ijtimoiy hayotni tasvirlay olmaydi. Chunki hozirgi til bilan qadimgi tillar mutlaqo bir-biriga mos kelmaydi. Shu sababli tarixchi oʻsha qadimgi til toʻgʻrisida maʼlum bir tushunchaga ega boʻlishi va atama, ibora, tushunchalarning lingvistik tahliliga, qiyoslashga

tegishli layoqat, ilmiy saviyaga ega bo'lishi lozim. Tarixiy bilish manbalarining biri sifatida atamalar tahlilining bir ko'rinishi toponimik tahlildir. Toponimika tarixiy ma'lumotlarga ehtiyoj sezib, tarixchiga o'ziga xos birinchi manba bo'lib xizmat qiladi. Geografik nomlar doimo tarixiy shartlangan bo'ladi. Ularda o'z davrining hidi ma'lum darajada saqlanib qoladi. Geografik nomlarda u yoki bu davrda xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotining o'ziga xos tomonlari, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari, tabiiy-geografik muhitning ijtimoiy hayotga ta'siri aks etadi.

Tarixchi uchun so'zning mazmunigina emas, uning til shakli ham bilish manbayi bo'lib xizmat qiladi. Geografik nomlarning lingvistik-qiyosiy tahlilidan unumli foydalanish tadqiqotning samarali natijasi uchun muhim unsurlaridan biri bo'lishi mumkin. Toponomik tahlil bilan geografik nomlanishlar orqali ko'pincha ma'lum bir hududda qaysidir xalq, urug'-qabilalarning lokal-lashuv (mahalliy-lashuv) jarayonini ko'rish mumkin. Misol uchun, Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida 20 km radiusda «Biyosin», «Qirg'izlar», «Arablar», «O'g'uzlar», «Qo'ng'iro't», «Qipchoqlar» nomli qishloqlar mavjud. Tarixchiga ma'lumki, bu nomlar o'zbek xalqini tashkil etgan 92 urug'ning orasida bor. Tadqiqotchi uchun mazkur nomlar asosida bu urug'larni qachon u yerda lokallashuv jarayoni yoki uning o'tmish ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganish uchun qulay tarixiy dalil bo'lib xizmat qiladi.

Alohida nomlar o'tmishda aholining kasb-hunari, ayrim nomlar, geografik muhit, tabiiy iqlimning holatini ko'rsatadi.

Albatta, birgina atama, ibora orqali butun bir o'tmish voqealikni qayta tiklash yoki tasavvur qilish mumkin emas. U faqat kalit vazifasini o'taydi. Atamalar tahlili tarixchi uchun muhim bilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Uning mahsuldorligi quyidagi shartlarni bajarishga bog'liq bo'ladi:

1. Turli xil, bir-biridan farq qiladigan voqea-hodisalarni aniqlash uchun qo'llanadigan atamaning ko'p qirraligini hisobga olish lozim. Yana shu bilan bir xil voqea-hodisalarga tegishli bo'lgan atamalarni tahlil qilish zaruriyati bilan bog'liqlik mavjud.

2. Har bir atama tahliliga tarixiy yondashuv zarur. Uning mazmuni rivojida shart-sharoit, vaqt, joyi va boshqalarning bog'liqligini hisobga olish kerak bo'ladi.

3. Yangi atamalarning paydo bo'lishi bilan, uning bag'rida ilgari mavjud bo'lgan, lekin boshqa nom bilan eski mazmun mavjudligini aniqlash lozim.

Tayanch iboralar: *pul aklari, suyurg'ol, tanho, vositalar tasviri, qiyofali turkumlash, nazariy-tarixiy bilim, rekonstruktiv, tuzilmali diaxron metod, «tarixiy nazariya», davrlashtirish metodi, tarixiy tipologik metod, qiyosiy-tarixiy metod, muammoli xronologik metod, matnshunoslik metodi, retrospektiv metod, interpretatsiya, model-lashtirish, politologiya.*

Takrorlash uchun savollar:

1. Umumfan metodlarini ko'rsating.
2. Retrospektiv metod nima?
3. «Qoldiqlar metodi»ga tushuncha bering.
4. Empirik tarixiy bilimning metodlari qanday metodlarga tegishli?
5. Umumtarixiy ilmiy tadqiqot metodlariga qaysi metodlar kiradi?
6. Rekonstruktiv bilish metodi qanday metodlarni o'z ichiga oladi?
7. Strukturalizm nima?
8. Strukturalizmning asosiy xususiyatlarini ko'rsating.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Umumfan metodlari.
2. Qiyosiy tahlilning bosqichlari.
3. Tarixning bilish metodlari.
4. Qiyosiy-tarixiy metod genezisi.
5. Retrospektiv metod.
6. Strukturalizmning mazmun-mohiyati.

11-MAVZU.

MATEMATIK STATISTIKA METODLARI

1. *Matematik statistika metodi.*
2. *Tarixiy hodisalarni o'lash va modellashtirish.*

1. Matematik statistika metodi. Tarixiy voqelik mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, sifat va miqdorning yaxlitligini aks ettiradi. Hayotning miqdoriy tomoni — bu voqelikning muhim belgisidir. Shu bilan birga hodisalarning biri ikkinchisiga o'tishini tavsiflaydigan miqdor va sifat belgilarining birlikda bo'lishidir. Miqdor va sifat nisbatini o'lov ifodalaydi. U birlikni ta'kidlaydi va ochib beradi. «O'lov» tushunchasi ilk bor G. V. Gegel tomonidan ishlatilgan edi. Tarixiy voqealarning miqdoriy belgilarini tabiiy — til, tasvirlash shaklida tavsiflab bo'lmaydi. Aksincha, miqdoriy yondashuv, unga tegishli metodlar — oddiy hisoblashlardan tortib EHMni qo'llash yo'li bilan zamonaviy matematik metodlarni talab qiladi.

Turli voqealarning miqdoriy tomonlari turli darajada ularning mohiyatini belgilaydi. Matematik tahlilni qo'llash miqdor va sifatning nisbati me'yoriga bog'liq bo'ladi. Amir Temurga Sulton Boyazidni yengish uchun 200 ming kishilik qo'shin (miqdor) va sarkardalik qobiliyati (sifat) talab qilindi.

Miqdoriy tahlil asosiy maqsad bo'la olmaydi. Miqdoriy, mazmun-mohiyatli yondashuvsiz undan ajralgan holda miqdorga zaruriyatli o'tmish hech bir ijobiy natija bera olmaydi.

«Matematik metodlar o'rganiladigan belgilarning u yoki bu xususiyatini ochishga yordam beradi, lekin o'zicha har nimanı tushuntirib bera olmaydi» (I. D. Kovalchenko).

Demak, boshqa fanlar kabi tarix fani ham hodisalarning tabiati va ichki mohiyatini o'ziga tegishli metodlar bilangina ochadi. Ayrim hollarda esa miqdoriy tahlilsiz sifat tahlili yetarli bo'lmaydi. Shu

sababli, miqdoriy tahlilga zaruriyatni tarix fanining ehtiyoji keltirib chiqaradi.

Tarixiy tadqiqot matematik metodlarni qo'llash imkoniyatini o'rganilayotganda, obyektning to'la sifat tahlilini o'ziga tegishli metodlar bilan amalga oshirib bo'lgandan keyingina matematik metodni qo'llash imkoniyatini ochadi.

Tarixiy tadqiqotlarda miqdoriy tahlilning ilk shakli statistik metod edi. Statistika boshda «siyosiy arifmetika» deb atalib, XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ladi (status — lotin tilida — davlat). Tarix fanida statistik metod XIX asrning o'rtalaridan keng qo'llanildi. U aniq ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, eng avvalo, agrar munosabatlarni tadqiq qilishda qo'llanila boshlandi. Nemis tarixshunosligida undan K. G. Inama-Shternegg (1843–1908), K. Lamprecht va boshqalar, rus tarixchisi V. O. Klyuchevskiy, N. G. Rojkov (1868–1927) A. K. Savch, sovet tarixchisi K. M. Drujinin (1886–1986), L. A. Kosminskiy (1886–1959), M. A. Bark (1915–1991), L. D. Kovalchenko va boshqalar faol foydalandilar.

Turli tarixchilarning ishlarida statistik tahlilning keng qo'llanilishining o'ziga xos xususiyati bunday qo'llashning sifat, mazmun-mohiyat, metodologik asoslariga urg'u berish bo'ldi. Metodologiyani ba'zi shartlariga tayanmaslik natijasida miqdoriy tahlil haqiqatni bilishga emas, soxtalashtirishga olib keldi. Misol uchun, XX asrning ikkinchi yarmida amerikalik tarixshunoslar miqdoriy metodlardan AQSHda 1860–1865-yillar fuqarolar urushi obyektiv iqtisodiy sabablar yo'qligini asoslashga urinib, soxta qoidalarni isbotlash uchun foydalandilar. Bu AQSHda plantatsiya qulchiligining yollanma mehnatdan afzalligi tezisi bilan bog'langan edi.

Statistik metodni ratsional qo'llashning umumiy shartlariga quyidagilar tegishli:

1. Miqdoriy taklifga nisbatan sifat tahlilining birlamchiligi;
2. Miqdoriy va sifat belgilarini birlikda o'rganish;
3. Statistik qayta ishlanadigan hodisalarning sifat bir xilligini aniqlash.

Statistik tahlilni intensiv qo'llash imkoniyati ommaviy xildagi manbalar mavjud bo'lgan joyda keng bo'ladi. Odatda, o'rta asr

manbalari turli xil, aniq, yakka, to'la, har xil shakl va usulda tasvirlangani, uzuq-yuluqligi, tushunarsizligi, noaniq sonli ma'lumotlar bilan ajralib turadi. Bularning hammasi statistik tahlilni qiyinlashtiradi. Uni qo'llash doirasini esa cheklaydi. Bunday holda bu kamchiliklar manbalari mazmunining sifat tahlili bularga individual tartibda yondashuv qilish vositasi bo'ladi va statistik metodni qo'llashdagi kamchilikni to'ldiradi.

Statistik tahlilning eng oddiysi tasviriy statistikadir. Uning tasviriy metod bilan o'xshashligi tasvirlash statistik to'plamni tashkil qilgan dalilni miqdoriy dalillarga qo'llashdir. Miqdor ko'rsatkichlarni tanlash va qayta ishlash o'z tuzilmasi bilan baribir hodisa sifatida statistik dalilning mohiyatini ochib beradi. Misol uchun, oilali talabalar o'rtasida o'tkazilgan anketa ma'lumotlariga ko'ra, 60 % talabalar mustaqil oilali bo'lib vashashni afzal deb biladilar. 30 % talaba ota-ona moddiy yordam berishi zarur deb hisoblaydilar. 85 % talaba oilaning moddiy qiyinchiliklari o'qishni bitirish bilan tugaydi deb ishonadilar. 10 % talaba o'zining moddiy muammolari yechilishiga ishonmaydilar. 4 % talaba o'zini oila qurishda shoshilgan deb hisoblaydi. Umumiy sonlarni miqdorga bo'lish oilali talabalarining qarashini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, miqdoriy yondashuvni chetlab o'tish mumkin emasligi ko'rinadi. Barcha o'zgina miqdoriy ma'lumot butun bir matndan ko'proq tushuncha beradi. Misol uchun, Amir Nasrullo Shahrisabz ustiga 32 marta harbiy yurish qildi.

Miqdoriy tahlilning murakkabroq ko'rinishi saylanma statistikadir. U ma'lum miqdor asosida noma'lum to'g'risida xulosa qilish ehtimoli usulidir. Bu usul tadqiqotida statistik to'plam to'g'risida to'la ma'lumot mavjud emas. Shunda tadqiqotchi o'zi uchun qisman ma'lumotlar yaratishga majbur bo'ladigan paytda bu usulni qo'llaydi.

2. Tarixiy hodisalarni o'lchash va modellashtirish. Tarixiy hodisalarni o'lchash tushunchasi — bu tarixiy hodisalarning xossa va belgilarini son ko'rsatkichlarida o'zining oxirgi natijalarini ifodalashni ko'zda tutadi. Bunda tarixiy manbalar sifatli tasviriy shaklda ko'rsatiladi. Bu tarix mazmuni chin tafakkurining tadqiqot

tahlilining murakkab darajasidir. Bu sonli ko'rsatkichlardan foydalanish bilan tadqiqotning boshqa usullarini talab qiladi.

Ommaviy hodisalar va jarayonlarni o'lchov usullarisiz o'rganish jarayonida ko'pincha ularning umumlashgan manzaralarini olish mumkin emas. Boshqacha aytganda, alohida voqealarni tasvirlashdan chetga chiqish mumkin emas. Tasvirlash tahlili atigi alohida misollarni beradi. Bu yordamida o'rganilayotgan hodisaning manzarasini ko'rsatish keraksiz va amalga oshmaydigan bo'lishi mumkin. O'lchash metodi tasviriy metoddan ko'ra umumlash-tiradigan yanada aniqlikni olish imkonini beradi. Manba mazmunini matematik qayta ishlash boshqa yo'llar bilan olib bo'lmagan axborotni olish imkonini berishi mumkin.

Ijtimoiy hodisalarni o'lchash natijalari tarixiy bilishning rivojlanishi shart-sharoitlariga bog'liq. Ularga, eng avvalo, sifat-mazmun tahlili jarayonida o'rganilayotgan hodisalarning sifat jihatidan bir xilligi yoki ularning umumiy va muhim xususiyati va belgilari kiradi. Bu belgilarni tanlash tafakkurning mavhum-mantiqiy operatsiyalari emas va tadqiqot masalasiga bog'liq bo'ladi. Aytaylik, XX asrning boshlarida mamlakatimizda sug'orish tizimini o'rganishda, 2 xonlik va Turkiston General gubernatorligi miqyosida o'lchov predmeti bo'lib uyezd, beklik va tuman bo'lishi mumkin. Bu muammo amirlik yoki xonlik miqyosida yanada yuqoriroq tartibda noiblik yoki viloyat miqyosida olinadi. O'lchanayotgan obyektlarda shunday hajmni qo'llash lozimki, bu darajada ularga xos umumiylik, tipiklikni xatosiz aniqlash mumkin bo'ladi. Bu tadqiqotchi qo'llaydigan sifat tahlili ishi, metodologiya ilmiyligining darajasidir. Nazariya metodologiyaga tayanib, o'lchov bilan sifat tahlilining aloqasi nazariy tamoyillarini miqdoriy ma'lumotlar tiliga ko'chirish demakdir.

Sifat belgilarini o'lchash usuli hodisalar miqdori, ularning miqdoridagi umumiylik xossalari bilan o'lchash usulidir. U yoki bu miqdoriy ko'rsatkichlarda o'rganilayotgan xossani ifodalash uchun emas, albatta. Sifat belgisini aniqlash yo'li orqali hodisalar miqdorini shu xildagi sifat ko'rsatkichlari bilan hisoblab chiqish amalga oshiriladi. Shuningdek, zaruriyat tug'ilsa, bu ko'rsatkichlarni kompyuterda qayta ishlash uchun tayyorlash mumkin.

Sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy ifodalashga ko'chirish shunday amalga oshadi. Bu metodologiyada kontent — tahlil nomini oladi. Undan oddiy va murakkab miqdoriy belgilarni o'rganishda foydalaniladi. Ayniqsa, ommaviy tUSDagi turli xil manbalarni qayta ishlashda samarali: cherkov mulklari ro'yxati, moliya-sud tekshirishlari va h.k.

O'lchash usuli tarixchilar tomonidan agrar munosabatlarni tadqiq qilishda keng qo'llanildi (E. A. Kosminskiyning XIII asrda ingliz qishlog'ining iqtisodiy tuzumi tadqiqida).

E. Kosminskiy tadqiqotni manor lord tomonidan feodal rentasini olish va o'zlashtirish uchun tashkilot sifatida tadqiq qildi. Tarixchi tadqiqotining mazmun-mohiyati asosiy talablari, ularning majmuasi barchaning obrok, pul to'lovining yetakchi turini aniqlash edi. U to'lovlarning 3 tur bo'yicha nisbati manorlarning hajmi, ularning tuzilmasi bilan, geografik hududiy joylashuvining o'ziga xos tomonlari bilan yaqin aloqada edi.

E. A. Kosminskiyning butun Angliya bo'yicha umumahamiyatli xulosasi XIII asrda pul rentasining tutgan o'rnini bo'yicha, hajmi bo'yicha hukmron ekanligini isbotlash edi. Bundan tashqari, o'rganilayotgan davr mobaynida va undan tashqari uning o'sish orqali an'anasini ham asoslab berdi. Bu xulosada ingliz qishlog'ining manorlashuvi, unda dehqonlarning turli qatlamlari nisbati, agrar munosabatlarning rivojlanish an'anasini, ularning o'rta asr feodal turdan kapitalizmga o'tishi kabi ko'p tushunchalarni ko'rish mumkin.

E. A. Kosminskiy bu xulosalarni manbalardagi miqdoriy ma'lumotlardan foydalanib, hisob vositasida sifat ko'rsatkichlarini o'lchab yoki boshqacha aytganda, bir tartibli hodisalar (belgilar)ni miqdoriy shakllarda ifodalab chiqardi. Tarixchi shunday yozgan edi: «Yagona asosli metod deb, men sezilarli katta imkoniyat darajasida yoppasiga yaxlit hududlarni qamrab oladigan ommaviy hisob-kitoblar yo'lini hisoblayman». Olim asosiy masalani yechishni o'rganilayotgan hududda ishlab chiqarish munosabatlarining tipi va xususiyatini aniqlashdan boshladi. U domen, villan yeri, frigidning miqdoriy nisbatini o'rnatishdan boshladi. Yig'indilash-tirish natijalari va yuzliklar, grafiklar va butun material bo'yicha

hisob-kitoblar votchina tuzilmasining miqdoriy ifodasining muhim sifat belgisi tarzida berdi: domen ulushiga 32 % haydaladigan yer to'g'ri keladi, villan yeri ulushiga 40 %, frigold yeriga 28 % to'g'ri keladi.

Bu qo'yilgan masalani yechishda yetarli bo'lmaganligi sababli E. A. Kosminskiy bu tadqiqotlar natijasi bilan votchinalarni ularning hajmi bo'yicha guruhlashtirdi. Bu ma'lum ko'rsatkich bo'yicha ularning nisbati, unga nisbatan ularning tuzilmasi qaramligini aniqladi. U erkin dehqonlar va villanlarning yer uchun to'lovlari hajmlarini hisoblab chiqdi. Va XIII-asr oxirida umumiy to'lov qiymatlarida ularning ustuvorligi to'g'risidagi xulosaga keldi. Bu esa o'rta asr feodal tartiblarining buzilishi bilan bog'langan agrar munosabatlarning umumiy an'anasidan dalolat berar edi.

Ilmiy tadqiqotlarda sifat belgilarini o'lchash usulidan foydalanish variantlaridan biri ana shunday. Bu usulning boshqa ko'rinishi hodisalar, qatorlarning o'rta va foiz ko'rsatkichlaridir. Matematik metodni qo'llashning sezilarli yuqori ko'rsatkichi o'rganilayotgan voqelikning formallashtirilgan variantlarini qurishdir. Modellash — bu ahamiyatli tadqiqotning matematik ifodasi, o'z murakkabligi, matematik apparatning darajasi bilan kompyuter texnologiyasidan foydalanishni ko'zda tutadi. Ijtimoiy muhit hodisalarini modellash turli masalalarni yechish bilan bog'liq. U yoki bu obyektni tadqiq qilish davomida tadqiqotchi tomonidan shakllantirilgan gipotezani tekshirish; bashorat (prognoz) tusidagi qator muammolarni yechish; tegishli belgilar shaklda (tenglashtirish, ko'effitsientlar, jadvallar, notengliklar va h. k.) tarixiy hodisa, jarayonlarning mohiyatini qayta ishlab chiqaradigan modellarni qurish mumkin.

Tarixiy hodisa, jarayonlarning mohiyatini qayta tiklashda tarixchining asosiy vazifasi o'tmish, amalda yuz bergan tarixni o'rganishdir. Modellash asosida yangi tarixiy bilim olinishi shubhasiz. Miqdoriy modelni yaratishning asosiy sharti o'rganilayotgan obyektning sifat xususiyati to'g'risida yoki bu darajada erishilgan qarashlar tayanch vazifasini o'taydi. Ushbu qarashlar turli darajadagi nazariya va mazmunga ega bo'lib, bu hodisalarning o'zi va tajribalariga bog'liq bo'ladi (XX asrda O'rta Osiyoning iqtisodiy

taraqqiyoti muammosi) yoki ular kamroq umumiy, yanada aniqroq hodisalarning mazmun-mohiyatli modeli bo'lishi mumkin (XIX asrning 70–80-yillarigacha o'lkamizda kustar hunarmandchilik). Miqdoriy model sifatga tayansa, yangi axborot olishga yordam beradi. U manbalardan ilk kelib chiqadigan axborotlarning yo'qligini to'ldiradi. Uning mazmunli tahlili yangi bilim olishga yo'l ochadi yoki o'rganilayotgan obyekt to'g'risida yanada yuksak darajada bilimga ega bo'ladi.

Tarixiy hodisa, jarayonlarni modellashtirishda bir necha yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuvlardan biri tugallangan, nazariy rivojlangan manzaraga ega bo'lgan o'rganilayotgan obyektning sifatli modeliga tayanadi. Bu ularning taraqqiyot davomida sifatli holatlarini ajratish imkoniyatini beradi.

Miqdoriy model — bu obyektlarning aniq bosqichlari va rivojlanish davrlarini an'anaviy metodlardan foydalanishdan ko'ra har tomonlama va chuqur ochib berish. Miqdoriy metodlardan va kompyuter dasturlaridan foydalanish tarixiy manbalarining axborotlashuvini kuchaytirdi.

Modellashtirishda boshqa yondashuv shunday hodisa va jarayonlarni o'rganishda foydalaniladiki, ularning turli ko'rinish va holatlarini belgilaydigan aniq mezonlarini ajratish qiyin. Bu jamiyatdagi u yoki bu ijtimoiy qiyofasiga mansub, shuningdek, ularning ma'naviyati, madaniyat hodisalarini o'rganishga ham taalluqli. Bunday hollarga hodisalarning sifat mohiyati etalon modellarni shakllantirish yo'li bilan ochiladi. Etalon modellar har xil xossalari bo'lgan obyektlarni tanlash bilan quriladi. Shundan so'ng ma'lumotlarning barcha hajmi va matematik qayta ishlash amalga oshiriladi. Bu ustuvor an'anani belgilashga yordam beradi.

Yana bir modellashtirish yondashuvi — o'rganilayotgan hodisalar bir xil tipdagi guruhlariga bo'linadi va ularning tuzilmasi modellashtiriladi.

Bu metoddan foydalanish zaruriyati obyektlar va ularni tashkil etuvchi turli xilliklar va guruhlarining aniq sifat ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin bo'lmagan paytda paydo bo'ladi. Misol uchun, dehqonlarning turli guruhlarida dehqon xo'jaligi qurilishini o'rganishda nazariy jihatdan turli guruhlarining qurilishiki, tavsiflovchi

belgilarni aniqlashi ancha qiyin. Alohida guruhlarda bu tizimning modelini qurish dehqon xo'jaligining qurilishini tushunish uchun asos bo'lishi mumkin. Misol uchun, XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi dehqon xo'jaligi qurilishining ichki tahlilini xo'jaliklarning turli guruhlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'plangan yer tuzilishi bo'limi hujjatlari asosida o'rganish mumkin. Hujjatlarni qayta ishlashning qiyinligi xo'jalik guruhlarining turli belgilar asosida (ekin yeri hajmi, ish hayvonlari bilan ta'minlangani va boshqalar) ajratilgani va guruhlarning o'z sonining har xilligi, dehqon xo'jaliklarini guruhlashtirish asosida miqdoriy tahlil va ularning miqdoriy modellarini qurish shakllanadi. Natijada o'lkada agrar o'zgarishlarning asosiy belgilarini qurish, uning o'lka bo'yicha qishloqlardagi umumiy darajasini belgilash imkoniyatini beradi.

Tayanch iboralar: *Miqdoriy tahlil, matematik metod, qoldiqlar metodi, «siyosiy arifmetika», statistik tahlil, o'lchash va modellash, Y. Kosminskiy, ijtimoiy hodisalarni o'lchash, miqdoriy model.*

Takrorlash uchun savollar:

1. Matematik statistika tushunchasi.
2. Statistik tahlil to'g'risida tushuncha bering.
3. Tarixiy tadqiqotlarda o'lchash usuli.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Matematik statistika metodlarining umumiy tavsifi.
2. Statistik tahlil.
3. Y. Kosminskiyning tadqiqotlarida o'lchash usuli.
4. Tarixiy hodisa jarayonlarini modelashtirishdagi yondashuvlar.

12-MAVZU.

TARIX QONUNLARI MAVJUDMI? ANIQ TARIXIY BILIMGA ERISHIB BO'LADIMI?

1. *Tarix qonunlari mavjudmi?*
2. *Tarixiy progress g'oyasi.*

1. Tarix qonunlari mavjudmi? Har qanday fanning vazifasi — qonunlarni aniqlashdir. «Qonun, — degan edi taniqli sotsiolog P. A. Sorokin, — bu insonning dalillar o'rtasidagi tez-tez qaytarilib turadigan aloqani belgilashidir». U faraz kabi insonga son-sanoqsiz dalillar dunyosida yo'l topishga yordam beradi. Insoniyat tarixida esa faqat takrorlanmaydigan o'ziga xos birgina dalil mavjud. Agar har bir qonun bu so'zning haqiqiy ma'nosida takrorlashni taxmin qilsa, tarix takrorlashlarni bilmaydi. Shuning uchun tarix qonuni to'g'risida fikr yuritish, demak, qonunni tushunmaslikdir. Tarix qonunining yetarlicha aniqligi holatida nuqsonsiz bashorat quoli bo'lar edi. Lekin ma'lumki, tarixning obyekti kelajakda emas, o'tmishda yotadi. Tarixchi o'tmishni rekonstruksiya qilish bilan shug'ullanadi. Taniqli nemis faylasufi G. Rikkert va boshqa qator tarixchilar «Tarix qonuni»ga salbiy qaraydilar va uni tarix fani predmeti deb hisoblamaydilar. Rus tarixchisi N. K. Kareyev tarixning vazifasi qandaydir qonunlarni ochish emas (buning uchun sotsiologiya bor), balki kelajakni aytishga og'ib ketmay, aniq o'tmishni o'rganishdir, deb uqtirgan edi. Yana bir rus tarixchisi R. Y. Vipper «... qonun atamasi tarix fanida o'zlashtirish ma'nosida paydo bo'ldi. Huquqshunoslik sohasidan majburiy qoida, oliy kuchlarning amri ma'nosida, keyin matematika va mexanikada aksiomani belgilash uchun qabul qilinib, bu so'z biolog va sotsiologlarga o'tadi», deb ta'kidlaydi.

XX asr oxirida tarixiy qonuniyatga ilmiy qarashlar jiddiy o'zgardi. Bugun tarixiy qonuniyat tushunchasi deb, ko'pincha,

tarixiy dalillarning aloqasi, tarixiylik va mantiqiylikning birlashuv usuli tushuniladi. Tarixchi I. Loonoyev tarixiy qonuniyat — bu vaqt bo'yicha dalillarning joylashuvi va ularning ma'lum madaniyat uchun umumiy kategoriyalarda mushohada qilishdir, — deb tushuntiradi.

XX asrda tarix fanining qator vakillari sabab-oqibat yondashuvi xos bo'lgan tarixiy jarayonning pozitiv va markscha tushunchalarni bartaraf qilishga urindilar. Ular yana tarixiy qonunlar va tarixiy progress g'oyalaridan voz kechdilar. Asta-sekin «Annallar» maktabi vakillari ham tarixiy qonun g'oyasidan voz kechdilar.

Tarix fan sifatida sotsiologiya va tarix falsafasi vazifasini bajar-maydi. Uning maqsadi insoniyat tarixi nazariyasi va uning tarixi, ijtimoiy-tarixiy bilishni berish emas. Tarix hech qanday o'ziga xos qonunlarni shakllantirmaydi. Hozirgacha tarix hech qanday qonunlarni ochmadi. Lekin tarixning qonunlari bor deb hisob-laydigan mualliflar qandaydir boshqa ijtimoiy fanlarning predmeti bo'ladigan biror-bir haqiqiy tarix qonunlarini ko'rsata olganliklari yo'q. Hech kim haligacha shunday biror-bir qonunni ochgani yo'q. Tarixchilar qandaydir qonunlarni ochganlari yoki ochishlari mumkin bo'lgan bo'lsa, bu qonunlar sotsiologik yoki ijtimoiy-psixologik, yoki iqtisodiy bo'lib, bunday holatda tarixchi o'z holatidan chiqib, boshqa fanlarga ishlaydi.

Marksistik tarixchilar «sotsiologik qonuniyatlar»ni «tarix qonuni» tushunchasiga almashtirib, «tarix qonuni» to'g'risidagi umumiy nazariyani yaratdilar. Sotsiologik qonuniyatlar ijtimoiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi munosabat va aloqalarning o'rnatilishni aniqlaydi. Sotsiologik qonuniyatlar ilmiy farazlar sifatida ma'lum bir bosqichda voqelikni u yoki bu darajada to'g'ri aks ettirishi mumkin. Sotsiologik qonuniyatlar tarixiy jarayonning ba'zi belgi-larini tushuntirib beradi.

XIX asrda pozitivizm ijodkorlari O. Kont va G. Spenser biologik va social evolyutsiya qonunlarini shakllantirishga urindilar. O. Kont qisman social statistika va dinamika to'g'risida so'zlab, dinamika an'anaviy tarixnavislikning o'rnini egallashi kerak. Buyuk odam-larning faoliyati va alohida voqealarni muntazam qaytariladigan vaziyatlar qat'ori bilan ko'rimsiz holatda va ular tarixiy qonuniyatlar deb ko'riladigan tasviri aniqlashtirish lozim, deb ta'kidlaydi.

L. Popperring fikricha, «Bunday qonuniyatlar umuman mumkin emas va oqibatda uning qonuniyatlari o'zgarishi va u bilan rivojlanishi kerak». Haqiqatan ham, fizik qonunlar qandaydir o'zgarmas, universal, hamma joyda va hamma vaqt o'z o'rniga ega. Popper uchun hatto biologik evolutsiyaning qonunlari ham qat'iy ma'noda qonun emas edi. Chunki uning fikricha, «Yerdagi hayotning o'zi noyob va qaytarilmas». Uning rivojlanishi, boshqa sayyoralaridagi hayotning rivoji bilan taqqoslash mumkin emas. Shuning uchun darvinizm o'rnatgan «muntazamlik» universal emas yoki qonunlar bo'lmaydi. Shunday qarashlar ancha keng tarqaldi. Bunday qarashlarga asosiy e'tiroz shundaki, nafaqat tarix qonunlari, balki tabiat qonunlari ham absolyut (universallik) emas va hamma joyda hamma vaqt mavjud emas. Ular faqat belgilangan sohalarida ma'lum bir makon va vaqtinchalik oraliqlarda umumiylik va barqarorlikda mavjud bo'ladi. Mexanika, fizika, kimyo, astronomiya fanlarining qonunlarini juda keng va zamon oraliqlarida qo'llanilishi ularni universal umumiy va o'zgarmas holatda cheksiz qo'llashga imkon beradi. Ularni harakat ostida tatbiq qiladigan ko'pgina hodisa, voqea, jarayonlar favqulodda katta. Ularning o'zgarishlari insoniyatni hatto quyosh tizimining mavjudligi davriga nisbatan o'ta oz. Tarix qonunlari o'z ahamiyati va xususiyatiga ko'ra har xil. Tarixiy voqealar, jarayonlar va vaziyatlarni qamrab olib, turli kenglik va vaqt oraliqlarida harakat qilish va ko'rinish mumkin.

Ayrim olimlarning fikricha, sivilizatsiyalarning almashinuvi qonuni umumjahon tarixi qonuni sifatida insoniyatning butun taraqqiyoti davomida amal qiladi. Ammo u har xil ijtimoiy transformatsiyalar va og'ishlar bilan yuz beradi. Alohida mamlakatlar uchun oz bo'lgan ko'p sonli tarixiy qonuniyatlar mavjud. Boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy shart-sharoitlarda bu qonunlarga amal qilinmaydi.

Agar tarixning o'z qonunlari mavjud bo'lsa, boshqa har qanday fanning qonuni kabi to'rt shartga javob berishi kerak. Tarix qonunlari tarixiy dalillarni empirik umumlashtirish sifatida yaralishi mumkin yoki shunday dalillar bilan inkor qilinadigan yoki asoslanadigan tasdiq sifatida yaratilishi mumkin. Shunday mazmunda ular boshqa

har qanday qonunlardan mantiqiy tuzilish, bilish funksiyalari bilan farq qilmaydi.

Bu taraqqiyot qonunlari vaqt va qaytarib bo'lmaydigan jara-yonlar bo'yicha yo'naltirilgan qonunlardir. Shu ma'noda ular fizikaning ko'pchilik qonunlaridan farq qiladi. Tarix qonunlari biologik evolutsiya qonunlari va taraqqiyot qonunlari bilan ba'zi bir o'xshash belgilarga ega. Bu o'xshashlik inson evolutsiyasining mahsuli bo'lganligi bilan cheklanadi. Lekin uning hayot faoliyati tarixiy taraqqiyotning ijtimoiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Tarix qonunlarini tavsiflaydigan uchinchi holat — bu fan qonuniyatlari umumiy oilasining ichidagi asosiy o'rinni belgilaydi va tabiat-shunoslik qonunlariga qarama-qarshi qo'yadi. Tarixiy bilish tarixda o'z obyekti sifatida alohida predmet, odamlarning zamonda taraqqiyoti va o'zgarishi, ijtimoiy ahamiyati va maqsadli faoliyatini ajratadi.

K. Popper tarix qonunlari mavjudligi g'oyasini keskin tanqid qildi. U umumlashtiradigan fanlar va tarixiy fanlar o'rtasida farqlarni o'lkazadi: Nazariy umumlashtiradigan fanlar universal farazlarni tekshirish bilan shug'ullanadi. Amaliy umumlashtiradigan fanlar aniq voqealarni bashorat qilish bilan qiziqadi. Tarix fanlari aniq xususiy voqealar va ularni tushuntirish bilan shug'ullanadi: «Bizning qarashimizda, — deb yozadi Popper, — haqiqatan hech qanday qonunlar bo'lishi mumkin emas. Umumlashtirish shunday ilmiy tartiblarga tegishliki, qaysiki, ularni alohida voqealarni tahlil qilish va uni sababiyatli tushuntirishdan qat'iy farqlash lozim. Tarixning vazifasi aynan alohida voqealarni tahlil qilish va ularning sabablarini tushuntirishdir. Kimni qonunlar qiziqtirsa, umumlashtiruvchi fanlarga murojaat qilishi zarur (misol uchun, sotsiologiyaga)». (T.P.S. 305).

O'tmishdagi voqealarni ular qanday bo'lgan bo'lsa, shunday tasvirlashni talab qilish tarixchilar orasida keng tarqalishi tarix qonunlarining mavjud emasligini ko'rsatadi. Bunday qonunlarning mavjud emasligiga ko'pgina tadqiqotchilar o'z qarashlari bilan aloqasiga harakat qilib kelmoqdalar.

2. Tarixiy progress g'oyasi. Tarixning mazmuni va tarix qonunlari muammolari bilan tarixiy progress g'oyasi yaqin aloqada

bo'ladi. Progress g'oyasi olg'a harakat qilish, quyidan taraqqiyotning yanada yuqori bosqichlariga ko'tarilish va yaxshi sifatlarga o'rganish g'oyasi ma'rifatparvarlik davrida shakllanib mustahkamlandi. Matematik Leybnis birinchi bo'lib tarix fanining yagona tamoyili sifatida tabiatdan kelib chiqadigan ichki zarurat kuchi tufayli doimo olg'a harakatlanadigan ruhni, yuksalish tamoyilini shakllantirdi. Optimizm ruhi bilan sug'orilgan ma'rifatparvarlik har tomonlama madaniy progress, diniy aqidalardan ozod bo'lgan tafakkurning oqibatidir deb hisobladi. Progress g'oyasi tarix dinamikasini belgilaydigan umumiy qonun sifatida shakllana boshladi. Progress, eng avvalo, fan va texnikaning taraqqiyotiga asoslandi. Yuksalish g'oyasi madaniyatning boshqa sohalariga ham kirib bordi.

Fransuz ma'rifatparvarlari ichida tarix falsafasining progress konsepsiyasini to'laroq yaratgan olim Jan Antuan Kondorse edi (1743-yil). U insoniyat qobiliyatlari taraqqiyotida hech qanday chegaralar yo'q, turli bosqichlarda progress turli tezlikda bo'lsa-da, hech qachon taraqqiyot orqaga qaytmaydi, deb yozgan edi. Kondorse insoniyatning tarixiy taraqqiyotida o'nta asosiy bosqichni ajratadi:

Birinchi bosqich — insoniyatning urug'chilik davri. Odamlarning asosiy mashg'ulotlari terimchilik, baliqchilik, ovchilik. Fan endigina tug'ilgan edi. Astronomiya sohasidagi bilimlar, dorivor o'tlar bilan tanishuv bilan cheklangan edi. Inson turli ins-jinslarga ishonar, ilk ruhoniylar (shomonlar, sehirgarlar) paydo bo'ldi.

Ikkinchi bosqich — chorvachilik va dehqonchilikka o'tish natijasida inson mehnati mahsuldorroq bo'ldi. Insonda ilk bor bo'sh vaqt paydo bo'ldi. Bu uning aqli va qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi. Fan rivojlandi va takomillashdi. Ayniqsa, astronomiya va tibbiyot bunga misol bo'la oladi.

Uchinchi bosqich — Kondorse «yozuvning kashf etilishigacha dehqonchilik xalqlarning progressi» deb tavsiflaydi. Bu davrda sinfiy tengsizlik kuchaydi va jamiyatning siyosiy qurilmasining yangi shakllari (keyinchalik respublika deb atalgan) paydo bo'ladi. Savdo-hunarmandchilik, ma'muriy va sud hokimiyatlarining markazlari — shaharlar o'sdi. Kohinlarning merosiylar tabaqasi shakllandi. Kon-

dorsening fikricha, din paydo bo'lishining asosiy sababi — kohinlarning xalq o'rtasida uni ongli ravishda tarqatishi natijasi edi.

To'rtinchi bosqich — antik davr. Ilk bor Yunonistonda fan odamlarning yopiq doirasi kasbiga aylandi. Inson aqlining jadal progressi boshlandi. Nazariylashtirish madaniyati, dalillarni kuzatish san'ati paydo bo'ldi.

Beshinchi bosqich — Kondorse «fanlarning bo'linishidan ularning tushkunligigacha progressi boshlanadi» deb tavsiflaydi. Ilmiy bilimlarning differensiyasi jarayoni boshlandi. Falsafadan yangi-yangi fanlar ajralib chiqdi. Turli ilmiy maktablar paydo bo'ldi. «Fanning tushkunlikka uchrashining darakchisi xristian cherkovining yuksalishi edi», deydi Kondorse.

Oltinchi bosqich — Salib yurishlarigacha davom etib, ma'rifatning tushkunligi bilan tavsiflanadi. Kondorse bu bosqichni Sharq va G'arbga ajratadi. Sharqda ma'rifatning tushkunligi sekin bordi, lekin aql va fanning qayta tug'ilishi o'ta muammoli. G'arbda aksincha, tushkunlik tez bo'ldi, lekin oxir-oqibatda aql chirog'i yana paydo bo'ldi va rivojlandi. Rimni vayron qilgan varvarlar qulchilikni tugatdilar. Uning o'rniga krepostnoylik huquqi keldi.

Yettinchi bosqich — G'arbda «Fanlarning qayta uyg'onishidan va birinchi yutuqlaridan kitob bosishning kashf etilishigacha bo'lgan davrdan» boshlanadi. Kondorsening fikricha, diniy urushlar sharoitida ham progress ruhi hech qachon o'chmagan. Ishlab chiqarishning tez taraqqiyoti boshlandi. Birinchi fabrikalar va suv tegirmonlari paydo bo'ldi. Porox va kompasning paydo bo'lishi bilan harbiy ishda to'ntarish sodir bo'ldi. Lekin aql hali ham kishanda edi.

Sakkizinchi bosqich — Kondorse bo'yicha kitob bosishning kashf etilishi bilan kirib, fan va falsafa avtoritetning zulmini ulotqirib tashlash bilan tugadi. Aynan kitob bosishning paydo bo'lishi bilan progress tugallangan va qaytarilmasligi aniq bo'ldi.

To'qqizinchi bosqich — Dekart davridan fransuz respublikasining tashkil etilishigacha bo'lgan oraliq. Aql o'z zanjirini tamoman uzib tashlashi bilan tavsiflanadi. Fan aniq chizmalarga ega bo'la

boshladi. Nafis san'at tez rivojlandi. Shaxsiy va fuqarolik huquqlarini kafolatlaydigan qonunlar harakatlana boshladi.

O'ninchi bosqich — bu uzoq kutilgan insoniyat aqlining progressi erasidir. Kondorse «Kelajakda insoniyat holatining shakllanishini uch muhim qoida: millatlar o'rtasida tengsizlikni yo'qotish, turli sinflar o'rtasidagi tenglik progressi va nihoyat insonning haqiqiy kamol topishi zaruriyati bilan belgilanadi», deb ta'kidlaydi. Kondorse progressni o'sib borayotgan holatda tasavvur qildi.

Marks ham Gegel kabi butun tarixning asosida yotadigan yuksak progress — taraqqiyotga ishonar edi va bu taraqqiyotni, eng avvalo, ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan belgiladi.

Marksning tushunchasi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy format-siyalar progressning umumjahon-tarixiy bosqichlari edi. Format-siyalarning har biri ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining oldingisidan ko'ra keyingisi yanada yuqoriroq va mukammalroq bo'ladi, deb hisobladi. Kapitalizm o'linga mahkum. Uning nihoyasida sotsialistik formatsiya keladi, degan tushunchani ilgari surdi.

O'zida ikki jahon urushi, sotsialistik inqiloblar va totalitar tuzumlarni joylashtirgan, o'nlab, millionlab kishilarni qurbon qilgan XX asr progressining muammoli xususiyatini ochib berdi. Progress g'oyasi umumiy tarixiy qonun emasligi yaqqol ko'rindi. Progress ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ham tarqalmaydi. Progressning natijalari bo'lgan sohalarda u bir xil bo'lmaydi. Tadqiqotchi Y. Boxenskiy madaniyat sohasida progressni inkor qiladi. Uning fikricha, axloq sohasida ma'naviy progressning o'rniga regress keladi. Keyingi yuz yillikda texnika sohasida anchagina progressga erishildi. Lekin bu davrda inson yanada aqlli-roq bo'lgani uchun emas.

Shubhasiz, bilim va texnik bilishda progress bor. Shu bilan birga uning natijalari ko'pchilikning boyligiga aylanmoqda. Albatta, fan va texnikadagi progress tarixning umumiy qonuni emas. Bu faqat uzoq tarixiy an'ana. U, shubhasiz, kelajakda davom etadi. Ilmiy va texnik progress bilim sohasida birdamlikka olib boradi, lekin insoniyatning birdamligida emas. «U, — deb ta'kidlaydi Yaspers, — odamlarni fikran tafakkur sohasida shunday birlashtiradiki, ular

ratsional munozaralar olib borishlari mumkin. Lekin ular yaratgan texnika bilan, bir xil qurol bilan bir-birlarini yo'q qilishlari mumkin» (Ясепер К. Истоки истории и её цель, вып. 2. с. 165).

San'atdagi progress ham shubhali. U faqat ma'lum bir xalqlarda va ma'lum bir tarixiy davrlarda umumiy mulk bo'lib, yuksak mukammallikka erishadi. Keyin esa takrorlanmas cho'qqiga chiqib, go'yoki o'zidagi kuch-qudratni tugatadi. Mukammallik mumtozlikka aylanadi va san'atdagi yangi to'lqin boshqa stilga aylanadi. San'atda ilgari nimaga erishilgan bo'lsa, yoki uni oshib o'ta olmaydi, yoki o'zini uning davomi deb hisoblamaydi.

Inson tabiatida, insonning ezguligi va donoligida, insonning tafakkur qobiliyatining rivojlanishida qandaydir sezilarli progress yo'q. Yuksak rivojlangan madaniyatlar o'z taraqqiyotida undan sezilarli past bo'lgan xalqlarda hayrat uyg'otmaydi. Tafakkur qilmaydigan aholi o'rtamiyonaligining tez o'sishi o'z ommaviyligi dalili bilan kurashsiz ma'naviy yuksaklikni bostirib tantana qiladi, deb yozadi K. Yaspers. Tanaffussiz, eng avvalo, mug'ombirlik anchagina afzallik garovi bo'lib xizmat qiladigan shunday sharoitlarda to'laqonli bo'lmagan tanlov uzluksiz boradi.

Ijtimoiy qurilma shakllarida progress yo'q. XX asr oxirida an'anaviy jamiyatlardan postindustrial jamiyatga tomon o'tish ijtimoiy progressga tomon bir qadam tashlash emas. Har bir jamiyat o'z vaqti va o'z joyida zarur. Hozirgi kunda aniq tarixiy bilim masalasi keskin ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ijtimoiy borliq tarixiy aniqlikni juda istaydi, ijtimoiy ong «haqiqiy» tarixni kutadi. Lekin hozirgi epistemologik vaziyat — metodologik plyuralizm va metodologik tolerantlik aniq tarixiy bilimning mumkinligiga shubhani kuchaytiradi. Shu bilan birga ijtimoiy fanlarga bugungi kunning talabi ham bu savolga javob berishni kutadi. Nima uchun tarixiy bilimning aniqligiga ishonchsizlik mavjud?

Nima uchun aniq tarixiy bilim bo'lishi mumkinligini asoslash muammosi paydo bo'ladi? Ko'rinishidan tarixiy bilimning imkoniyatlari mavjudligiga shubha mavjud. Fikrimizcha, buning sababi kundalik va ilmiy ongda har xil bo'ladi. Kundalik ong uchun xos bo'lgan bilim, agar bilim aniq bo'lsa, u o'tmishning yagona modelini berishi kerak. Agar u yoki bu tarixiy taraqqiyot modeli

tanqidga uchrab qayta ko'rilsa, bu fan uchun odatiy hol, bu ommaviy ongda tarixga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiradi. Bunday holat aniq tarixiy bilimga qat'iy idiosinkraziya rivojlanadi. Tarixchi professional metodologik refleksga ko'nikmagani uchun bir tomondan kundalik ongning adashuvini yoqlaydi, boshqa tomondan esa metodologik erkinlik vaziyatida maqsadlarga erishish vositalari erkinligini tarixiy bilim maqsadlarini mushohada qilish anarxiyasi bilan almashtirishga yaqqol moyil bo'ladi. Tarixchi endi erkinligini his qilib, «tarix fani nima bilan va nima uchun shug'ullanadi?» degan savolga ko'pincha javob bera olmaydi. Ko'p hollarda so'z aniqlik to'g'risida bormay, olingan kompozitsiyaning «go'zalligi» to'g'risida boradi.

Shuni hisobga olgan holda, tarixiy bilimning mazmunini aniqlashga harakat qilamiz.

Tarixiy bilimning maqsadlari bo'yicha Hegel va Kont konsepsiyalarining o'rnini taqqoslaymiz. Hegel «Tarix falsafasi»ga kirishni quyidagi so'zlar bilan tugallaydi: «...biz faqat ruh g'oyasi bilan ish ko'rib, umumiy jahon tarixida faqat uning aks etishini ko'ramiz. Biz o'tmishni ko'zdan kechirgan holda ular qanchalik buyuk bo'lmasin, biz faqat bugun bilan ish ko'ramiz. Chunki falsafa faqat haqiqat bilan ish ko'radi. O'tmishda nima bo'lgan bo'lsa, uning uchun yo'qotilgan. Chunki g'oya, mavjud ruh o'lmas. Boshqacha aytganda, u hali o'lgan emas, lekin u hozir ham mavjud. Shunday tarzda ruhning mavjudligi shakli o'z ichiga eski bosqichlarni oladi... Ruh ko'rinishidan o'zidan orqaga qoldirganlarni o'zi uning hozirgi tubida saqlaydi».

Hegel shunday tarzda tarixiy bilimning vazifasini o'tmishda emas, hozirda ko'radi. Gehegning vazifasi — o'ziga zamondosh tarixni evolutsiya yaxlitlikda tushunishdir. Endi pozitiv falsafaga murojaat qilamiz. Pozitivizm XIX asr o'rtalaridan fanga hukmronlik qilib, tarixiy bilim sohasida ilmiy-tarixiy bilimning asoslari sifatida haqiqiy tarixiy dalilni tushunishda ratsionallikka yaqin edi. Lekin tarix fanining predmeti, uning maqsadlarini shakllantirishda ratsionallikdan farq qiladi. Agarda ratsionalistlar tarixni axloqiy nasihat-tomuz misollar to'plami deb qaragan bo'lsalar, pozitivistlar o'zla-

ning «savoir pour prévoir, prévoir pour prévenir» (oldindan ko'rish uchun bilish, oldindan bartaraf etish uchun oldindan ko'rmoq) shiorlari bilan undan o'z jamiyatlarini izladilar.

Tarixiy bilim maqsadlarini tushunishda ratsionalistlardan farq qilgan holda «pozitivistlar» (aniqrog'i, ularni «pozitiv tarixshunoslar» deb aytadilar) amalda tarixiy tadqiqot metodologiyasi bo'yicha undan kam farq qiladilar.

Tarixiy bilish alohida xulosaviy bilim sifatida qaraladi. Tadqiqot bir-birining orqasidan keladigan aniq ikki qismga bo'linadi: dalillarni qayta tiklash va qonuniyatlarni o'rnatish. Shu bilan birga dalillar tarixiy manbalar ma'lumotlarining tanqidiy tahlili yo'li bilan chiqarib olinadi. Qonunlar esa bu dalillarni umumlashtirish yo'li bilan o'rnatiladi. Ularning har biri boshqalardan ajratilgan holda, tadqiqotchining qarashidan mustaqil holda ko'riladi. R. J. Kollingvudning tarix fanida muhim o'rin tutgan «Tarix g'oyasi» asarida pozitivizm ana shunday shakllanadi. Pozitivizmning asoschisi O. Kont esa tarixiy bilimning maqsadlarini «pozitiv falsafa»ning umumiy vazifalariga muvofiq shunday shakllantiradi: «...Insoniyat tafakkuri pozitiv ruhda mutlaq bilimlarga erishib bo'lmashligini tan olib, koinotning kelib chiqishi va vazifasini tadqiq qilishdan va hodisalarning ichki sabablarini bilishdan bosh tortdi. Ular haqiqiy qonunlarni o'rganishga, fikrlash va kuzatishni aralashtirib, butunlay diqqatni to'playdi. Boshqacha aytganda, o'zgarmas munosabatlarni va shunga o'xshash. Uning haqiqiy chegaralariga keltirilgan dalillarni tushuntirish bugundan faqat turli xususiy hodisalar va ba'zi umumiy dalillar bilan turli qismlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishdir. Ularning soni fanning progressi bilan yanada kamayib boradi».

Shunday tarzda tarixiy bilimning maqsadi qonuniyatlarni o'rnatishdir. Aniqrog'i, bu sotsiologiyaning vazifasi, tarixning vazifasi daliliy materialni yetkazib berishdir. Shundan kelib chiqib, Gegel va Kontning dalillarga murojaat qilishdagi tamoiy farqlarni, aniqrog'i, ularning tarixiy dalilining o'zini tushunishlaridir. Kont qonun ostida hodisalarning barqaror o'zaro aloqasini tushunib, amalda tarixiy dalillarni hodisalarga tenglashtiradi.

XIX asr oxirida pozitivizmning tushkunligi ideografik qarashdan bartaraf qilindi. Bu nemis neokant kulturologiya markazi (Vindelband, Rikkert)da eng tizimli asoslandi. Mazmunan bu tarixiy bilimning pozitivizmga bo'ysunmasligi edi. XIX asrda nemis kulturologlari Rikkert va Vindelband tomonidan fanlarning nomotetik (tabiat to'g'risidagi fanlar, ularning vazifasi, qonunlarni o'rnatish) va ideografik (madaniyat to'g'risidagi fanlar, ularning vazifasi alohida hodisalarni tasvirlash va ularni qadriyatlarga kiritish) fanlarga qarashlari juda tez tarixiy bilimning qurilishiga ikki yondashuv deb tushunildi.

Nomotetik yo'nalish asosiy vazifa qilib tarixiy voqelikni tushuntirish deb biladi (ularning prognoz funksiyasi shundan). Ideografiya esa madaniy-tarixiy hodisalarni tushunish maqsadini ko'zlaydi.

Ana shundan yaqqol ko'rinadiki, ideografiya tarixiy bilimning gumanitar xususiyatini saqlab qoladi. Aynan shuning uchun uning yo'llarida tushuntiruvchi yondashuvlarning tushkunlikdan chiqish yo'llarini izlab bormoqda. Ideografiya o'z afzalliklari bilan birga, madaniyatning hodisalarini takrorlanmas, unikal deb tasvirlab, yaxlitlikni qayta tiklash usullari tamoyilini bera olmaydi. Aynan ideografiya doirasida madaniyat hodisalariga qat'iy ilmiy yondashuvga erishish mumkin.

Shunday qilib, aniq tarixiy bilim deb «tarix qanday bo'lgan edi» emas, balki evolutsion yaxlitlikda tarixni qayta tiklaydigan va uning asosida hozirgi kunni mos tushunish mumkin. Demak, optimal ijtimoiy yurish-turishni ham tushunish mumkin.

Tayanch iboralar: Rikkert, neokant kulturologiya, progress, R. J. Kollingvud, definitiv, genetik, K. Popper, biologik evolutsiya, universallik, O. Kont va G. Spenser, empirik, inson evolutsiyasi, «muntazamlilik», pozitivizm, Kondorse.

Takrorlash uchun savollar:

1. K. Popperring tarix qonunlari mavjudligi haqidagi qanday qarashlarini bilasiz?

2. Tarixiy bilim maqsadlari.
3. Mexanika, fizika, kimyo, astronomiya qonunlari bilan tarix qonunlari o'rtasidagi farqni tushuntiring.
4. Aniq tarixiy bilim muammosi.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tarix qonunlari mavjudmi?
2. J. Kondorsening tarixiy progress g'oyasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Progress g'oyasiga markscha qarashning mohiyatini tushuntiring.
4. Aniq tarixiy bilimga ega bo'lish muammosini qanday izohlaysiz?

13-MAVZU.

TARIXIY MANBA VA TARIXIY DALIL MUAMMOSI. TARIXIY DALILLARNI METODOLOGIK XILLASHTIRISH

1. *Tarixiy manba tushunchasi va uni turkumlash.*
2. *Tarixiy dalil muammosi.*
3. *Tarixiy dalillarni metodologik xillashtirish.*
4. *Tarixiy dalil, obraz va tasvir.*

1. Tarixiy manba tushunchasi va uni turkumlash. Tarixiy manba tushunchasini nazariy jihatdan tavsiflagan olim L. Danilevskiy bo'ladi. Nazariy bilishga ko'ra «manba» empirik ma'lumot bilan bizning hissiy qabul qilishimiz mumkin bo'lgan har qanday ma'lumot bo'lishi mumkin. Ilmiy-empirik ma'noda u o'zi uchun emas, balki uning yaqin vositasi bilan boshqa obyekt to'g'risida bilim olinadigan har qanday mavjud obyekt manba deb aytiladi. Tarix sohasida taklif etilayotgan tushuncha bu obyektning mavjudligi va uning boshqa obyektни o'rganish uchun yaroqliligi tushunchasidir. Aslida har qanday tarixchi uchun bunday obyekt uning ongidagi «ma'lumot» tasavvur qilinadi. Tarixchi uni o'z tushunchasi deb tan olib qolmaydi, balki uning mazmuniga amalda mavjudlikni ko'radi. Aks holda manba tarixchining hissiy qabul qiladigan obyekti bo'lmay qolishi mumkin. Bunday obyekt manbalar asosida voqelikni bilishi mumkin bo'lmaydi. Chunki har qanday tarixiy tadqiqot ma'lum manba bo'yicha voqelikning bilish maqsadini qo'yadi.

Shu bilan birga bu obyekt boshqa obyektни bilish uchun qay darajada yaroqli vosita bo'lishi bilan manbaga aylanadi. Demak, har qanday mavjud ma'lum obyekt boshqa obyektни bilish uchun tarixiy manba deb aytish mumkin. Tarixiy manba va tarixiy dalil o'ratasidagi farq shundaki, agar tarixiy dalil tushunchasiga yakkaalikning moddiy muhitga ta'siri tushunchasi kiritilsa, shunda

har qanday tarixiy manbani tarixiy dalil deyish mumkin. Animo tarixchi bunday dalillardan boshqa dalilni bilish uchun manba sifatida foydalanadi. Tarix fani uchun manba deb har qanday mavjud obyekt, uning o'zi uchun emas, boshqa obyekt to'g'risida, boshqacha aytganda, tarixiy dalil to'g'risida bilim olish uchun tarixiy manba deb aytish mumkin. Tarixiy manba keng ma'noda inson ijodiyoti natijasidir. Ko'p holda manba muallifi noma'lum bo'ladi. Agar manba bir guruh odamlar tomonidan yaratilsa, bu ijod «ommaviy» nomini oladi (misol uchun, til, xalq qo'shiqlari, dostonlar).

Tarixiy manbalarni tadqiqot maqsadlariga ko'ra turlicha tizimlashtirish mumkin. Ulardan eng umumiysi tarixiy manbalarni tarixiy bilim uchun ahamiyatini belgilashdan iborat. Shunday ma'noda manbalarni ularning qimmatini darajasi bo'yicha yoki ma'lum xil tarixiy dalillarni o'rganish uchun ularning qimmatli mazmunini tavsiflaydigan manbalarning darajasi bo'yicha osongina farqlash mumkin.

Manbalarni ularning eng asosiy turlari bo'yicha guruhlashtirishda manbashunoslik metodologiyasining asosiy vazifasidan kelib chiqiladi. Manbashunoslik metodologiyasining asosiy vazifasi manbada ma'lum bo'lgan o'sha dalil haqiqatan ham mavjud bo'lganini aniqlash, uning tarixiy voqelikni bilish uchun ahamiyati, manba bilish qimmatini aniqlashdir.

Tarixchi manbalar asosida o'tmish voqelik to'g'risida fikr yuritganda, manbaning ichki mazmuni to'g'risida o'zining hissiyoti qabul qilgan moddiy obraz asosida xulosa qiladi. Bu holatda tarixchi manbalarning barcha obrazlari ham o'rganilayotgan dalilning borligi to'g'risida bir xil taassurot qoldirmasligini his qiladi. U manbalarning moddiy obrazlarini qay miqdorda yaroqliligiga qarab farqlashi mumkin. Shunday manbalarni ko'rsatish mumkinki, tarixchi ularni hissiy qabul qilishda ularda aks etadigan dalillarning bevosita borligini boshqalardan ko'ra yaxshi his qiladi. Misol uchun, tarixchi biror-bir podshoni sog'onasida uning o'ligini barcha detallarda o'zi ko'rishni boshqalarning bu sog'ona tasvirini o'qigandan ko'ra yaxshiroq tasavvur qiladi. Shu qarashdan dalilni tasvirlaydigan manbani dalilni bildiradigan dalildan ajratish lozim. Moddiy

shaklni uning qoldiqlarida, misol uchun, ranglar yoki tovushlarda ifodalaydigan manbani qabul qilishda tarixchi dalilni o'zining qabul qilganidek faqat manbaning o'zigina emas, tasavvurni his qilishi mumkin edi.

U manbani o'rganishga kirishib, dalilga tegishli yaxlit hissiy obrazni u yoki bu darajada boshdan kechiradi. Tarixchi qandaydir ramziy belgilar (ko'pincha, yozma) bilan ifodalangan manbani, borliq shaklidagi manbani qabul qilishda bu dalilning u yoki bu darajada saqlangan obrazini qabul qilmaydi. Mavjud dalilning moddiy shaklda aks ettiradigan belgilar asosida tarixchi mavjud dalilni ilmiy tadqiq qilish uchun o'zida obraz yaratishi lozim.

Yuqoridagilarga asosanib, manbalarni ikki guruhga: tasvirlovchi va belgilovchi dalillarga bo'lish mumkin. Manbalarni ana shunday asosda bo'lish, ularni empirik buyum yodgorliklari, so'z va yozma yodgorliklarga bo'lish mumkin. Ular tashqi ko'rinishda bir-biridan farq qiladi. Dalilni ifodalaydigan manbalar buyum yodgorliklari manbalari, belgilaydigan dalil so'z va yozma yodgorliklar bilan mos keladi. Shunday manbalar borki, unda har ikki lahza qo'shiladi (misol uchun, Qadimgi Misrdagi Karnak ibodatxonasi yozuvlari).

Mavjud adabiyotda manbalarning bo'linishi zaif asoslangan. Tarixchilar manbalarni faqatgina ashyoviy va yozma yoki «yozma bo'lmagan va yozma» manbalarga bo'lish bilan cheklanadilar. Berngeym uni «sof tashqi, tashqi» deb ataydi. Metodologlar Langlua va Senobos «Hujjatlarning (manbalarning) ikki xil ko'rinishini farqlash mumkin. Ba'zida sobiq dalil moddiy iz (ulkan inshoot yasalgan buyum) qoldiradi, ba'zida dalilning izi psixologik tartibda bo'ladi. U yozuvda yoki yozma xabarda». Ular birinchi ko'rinishdagi «hujjatlarni» moddiy tasviriy hujjatlar deb, ikkinchi ko'rinishdagilarni «ramziy» deb aniqroq fikrlaydilar.

Dalillarni tasvirlaydigan ba'zi manbalarni qabul qilishda tarixchi boshqalaridan ko'ra dalil to'g'risida bevosita bilim oladi, dalilni tasvirlovchi manba va uning qoldig'i (misol uchun, sog'ona va boshqalar) tarixchi uchun dalilni tasvirlaydigan, lekin u to'g'risida afsona ko'rinishidagi (misol uchun, o'sha sog'onani tasvirlaydigan rasm ko'rinishida) manbadan ko'ra qimmatliroq bo'ladi. Dalilni bildiradigan boshqa manbalar to'g'risida ham shunday deyish

mumkin. Ularning orasida qoldiqlar deb aytish mumkin bo'lganlari bor. Misol uchun, huquqiy akt, xalqaro traktat va dalil to'g'risida hikoya qiladigan, hech bo'lmaganda o'sha huquqiy bitim yoki xalqaro shartnoma to'g'risidagi hikoya.

Shu qarashdan manbalarni madaniyat qoldiqlari va tarixiy esdalikka bo'lish mumkin. Madaniyat qoldiqlari — uning avvalgi hayotiylikining ba'zi qoldiqlari va madaniyatning taraqqiyotidagi o'sha davr saqlanishda davom etadi, ular davomida to'la moslikda turmaydi. Madaniyatning bunday o'lik qoldiqlari: tilning ba'zi unsurlari, turli o'yinlar, odatlar, axloq qoidalari, rasm-rusumlar, muassasalar va shunga o'xshash.

Madaniyat asarlari — uning qoldiqlari tarixchilar tomonidan ularni o'rganish vaqtigacha saqlanib qolib, ular sobiq qachonlardir madaniyatning natijasi bo'ladi. Ular qayta tiklanmaydi, ulardan nusxa yaratishgina mumkin, xolos. Ammo ular shunday tarzda saqlanib qoladiki, o'zlaricha yashab, rivojlana olmaydi. Madaniyat asarlariga qadimiyat buyumlari, adabiyot asarlari, hujjatlar kiradi. Ularga ijodiyot tarixidagi dalillar qoldig'i insoniyat ideallari sifatida qaraladi.

Manbalarni mazmuni bo'yicha ham bo'lish mumkin:

1. Daliliy mazmundagi manbalar.
2. Normativ mazmundagi manbalar.

Daliliy mazmundagi manbalarining o'zi g'oyaviy mazmunli manbalar, maishiy mazmundagi manbalarga bo'linadi. Ma'lum vaqtda ma'lum joyda yashagan odamlarning fikr va his-tuyg'ularini o'rganish uchun ashyo beradigan manbalar g'oyaviy mazmunli manbalar hisoblanadi. Misol uchun, diniy e'tiqod buyumlari, poetik va prozaik adabiyotlar asarlari. Bunday xildagi manbalarni ularga xos bo'lgan g'oyalar, kayfiyatlar va ularni aks ettiradigan sujetlarning har xilligiga qarab guruhlashtirish mumkin. Misol uchun, adabiyot asarlarini sujetlar bo'yicha turkumlash va h. k.

Maishiy mazmundagi manbalarda ma'lum vaqtda, ma'lum bir hududda yashagan odamlarning maishiy turmushi mazmuni aks etadi. Misol uchun, maishiy turmush texnikasi, turli xil ish qog'ozlari.

Normativ mazmundagi manbalar, o'z navbatida, yana bir necha guruhlarga: aynan sof normativ manbalar va utilitar normativ mazmunli manbalarga bo'linadi. Sof manbalar bizning ongimizdagi mutlaq qadriyatlarni belgilashi mumkin. Sof normativ xususiyatga ega bo'lgan manbalar mantiqiy va ilmiy normalarning bayonini o'zida aks ettiradi (mantiqqa yoki boshqa fanlarga oid traktatlar, axloqiy normalar bayoni, misol uchun, qandaydir axloqiy ta'limot, qonunchilik tizimi).

Utilitar normativ tisdagi manbalar tarkibiga texnika qoidalari kiradi. Misol uchun, she'rlarni yod olish qoidalari, industrial texnika qoidasi, qonunchilik-huquqiy hujjatlari qoidalari.

Tarixiy manbalar nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan ular tarixiy voqelikni bilish uchun, amalda esa unda harakat qilish, insoniyat madaniy hayotida ishtirok etish uchun muhim va zarurdir.

Tarixiy manbalar anchadan beri mavjud bo'lmagan dalillar to'g'risidagi mulohazalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, tarixiy manbalar asosida buyuk Amir Temur to'g'risida yoki yanada qadimgiroq xorazm, so'g'd va baqtriya yozuvlari to'g'risida so'zlash mumkin.

Tarixiy manbalar bo'lmasa insoniyat o'tmish tarixini qayta tiklab bo'lmaydi. Chunki insoniyatning o'tmish taraqqiyoti o'zining yaxlitligida hozirgi kunda mavjud emas. U hozirgi kungacha yetib kelgan ayrim izlar, qoldiqlar bo'yicha ma'lum. O'tmish izlari, qoldiqlarini tarixiy manbalarda bevosita tarixiy tadqiqot qilish mumkin. Tarixiy dalil tarixiy manbaning bag'rida yotadi. Manbadagi dalilsiz insoniyat tarixini qayta tiklash mumkin emas. Dalil mavqega ega bo'lishi uchun u tasdiqlanishi lozim. Tarixiy manba shaklan barqaror bo'lishi natijasida u uzoq muddat o'rganiladi. Tadqiqotchi esa unga bir necha bor qaytishi mumkin.

Barcha manbalar ham tarixiy voqelikni qurish uchun bir xil qimmatga ega bo'lmaydi. Shunga ko'ra, tadqiqotchilar manbalarining ma'lum bir turi, uni qiziqtirgan dalillarning qurilmasi uchun qanday ahamiyatga egaligi va manbalarining qaysi turi ularga xos xususiyatlarni o'rganish uchun ko'proq yaroqli ekanini aniqlashga urinadi.

Tadqiqotchil tasvirlovchi manbalarga asoslanib, o'z hissiy qabul qilishida ma'lumotlarda dalilning qoldig'ini bevosita sezadi. U belgilovchi manbalardan foydalanishda dalil to'g'risidagi o'z qarashlarini shartli belgilar asosidagina quradi. Tasvirlovchi manbalar begona tafakkur to'g'risida ko'rgazmali tasavvur berishi mumkin. Misol uchun, tarixiy mavzularda yaratilgan rasm-tasvirlar. Mashhur Pompey mozaikasi Issa yonida Doro va Aleksandr qo'shinlari o'rtasidagi Arrian tasvirlagan jang tasviri ko'rgazmali tasavvur beradi.

Tasvirlovchi manba ma'lum bir madaniyat yoki dalil to'g'risida uning lahza kesimida tasavvur hosil qiladi. Ashyoviy yodgorlik bizda, asosan, rasm-kartina tarzida ko'rinadi. Rasm-kartina so'z emas, u bir daqiqada ko'zdan kechiriladi. Bu lahza ichida ma'lum voqelik vaqt chegarasida emas, bo'shliqda uning unsurlari to'g'risida tarixchiga tushuncha beradi. Ashyoviy manba bu voqelikning evolutsiyasi, vaqt bo'yicha uning yurishini bera olmaydi.

Demak, voqelikni bilishga tortilgan har qanday tanlab olingan hujjat tarixiy manba deyiladi. O'tmish to'g'risida ma'lumotni o'zida aks ettirgan, ammo tarixchi tomonidan foydalanilmagan hujjat uning uchun manba bo'lib xizmat qilmaydi. Odatda, tarixiy manba tushunchasi ostida tarixiy voqelik va jarayonlar to'g'risida ma'lumot beradigan turli xil guvohliklar tushuniladi. Hozirgi kunda tarixchilar manbalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'ladilar: bevosita yoki bilvosita ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Birinchi guruh manbalariga tangalar, markalar, gerblar; ikkinchi guruhga yilnomalar, xronikalar, kundaliklar va boshqalar kiradi.

Tarixiy o'tmish qanday bo'lishi mumkin? U to'g'risida qandaydir ma'lumotlarga ega turli xil axborot vositalari yordamida bilish mumkin. Bu ma'lumotlarni obyektlar o'zlarida saqlaydi. Keyin esa boshqa obyektlar bilan o'zaro aloqa qilish yordamida o'zaro ta'sir yoki o'zaro harakatni o'zida olib boradi. Bunday obyektlarda saqlanadigan axborot xolisona mavjud bo'ladi. Ammo bu axborotni ulardan faqat tadqiqotchining tegishli qayta ishlovidan keyin olish mumkin. Bu qayta ishlash o'zida qator tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar qanchalik to'la va puxta

bo'lsa, ularning yordami bilan xolisiyroq va ko'p tomonlama tarixiy bilim olish mumkin.

Tarix fani tarixida hozirgacha o'tmish haqida o'zida axborot obyektlari mavjud bo'lgan va tarixiy manba nomini olgan obyektlar va ularni qayta ishlash jarayonlari qanday bo'lishi lozim mazmunidagi bahslar uzoq davom etdi. Bu bahs-munozaralar hatto hozir ham davom etmoqda. Bu munozaralarning asosiy manzarasini tarixiy manbalar sifatida faqat yozma hujjatlar va tarixiy o'tmishning boshqa izlari bo'ladimi yoki ularning tarkibiga insoniyat jamiyati tarixiga hamrohlik qilayotgan geografik va biologik hodisalar ma'lumotlarining keng doirasi ham kiradimi? kabi savollar tashkil qiladi. Nazariy jihatdan mutlaqo ravshanki, insoniyat tarixi ma'lum bir geografik muhitning ma'lum bir shart-sharoitlarida o'z qismlarini o'ynadi. Insoniyat turining biologik dinamikasi insoniyat tarixining ko'pgina voqealarini rekonstruksiya qilish uchun boshqa tarixiy manbalar kabi muhim manba bo'la oladi. Shu sababli tabiiy tarixiy axborot tarixiy manbami yoki yo'qmi deb munozara qilish foydasiz. Tarixiy manba sifatida tarixiy ma'lumot olish mumkin bo'lgan har qanday obyektni tushunish kerak.

Manbalar o'z mazmuniga ko'ra turli xil ahamiyat kasb etadi. U yoki bu darajada umumiy yaxlit guruhga mansub bo'lgan turli xil tarkibi bilan til ham qoldiq madaniyatlarning tarkibiga kiradi. Tilni manba sifatida o'rganish yozma manbada nutqning o'ziga xos yozish uslublari bilan bog'langan. Tarixiy xotiralar tarkibiga kiritiladigan manbalar toifasiga turli mazmunga ega bo'lgan memuarlarni kiritish mumkin. Odamning ichki dunyosi, uning motiv va intilishlari, sempatiya, antipatiyalari, harakat faoliyati uning atrofidagi odamlar, voqealar to'g'risida tushuncha berishi mumkin.

Manba tarkibiga ko'ra o'zining torroq mazmuni bilan farq qilishi mumkin. Misol uchun, qator afsunlar, qarg'ishlar, duolar, ularda jo bo'lgan diniy e'tiqodlar, urf-odat, rasm-rusumlarni o'rganishda muhim o'rin tutadi. Alohida dostonlar, ertaklar, qissalar u yoki bu darajada murakkab tarixiy voqealar to'g'risida ma'lumot beradi. Misol uchun, «Shohnoma» dostoni Turon va Eronning bir necha ming yillik tarixi, xilma-xil voqealari to'g'risida ma'lumot beradi.

Musiqa asarlari ko'p hollarda chuqur kayfiyatlarni ifodalaydi, boshqa vositalarda esa bunday «ifodalash» mavjud emas.

Demak, yuqoridagilarga asosan tarixiy manba tarixiy voqelik, tarixiy jarayonni bilish va qurishda muhim o'rin tutadi. Albatta, uni hamma vaqt ham to'la talqin va tanqid qilishga erisha olmaymiz.

Manba inson tafakkurining boy xilma-xil xazinasini o'zida saqlaydi. Bu xazinaning tadqiqi bizning tariximiz, madaniyatimizning eng asosiy belgilarini (qadriyatlarini) qayta tiklashga va madaniyatimizning kelajak rivoji uchun vorisiyligni ta'minlashga imkon yaratadi.

Shunday asosda tarixiy manbalar amaliy jihatdan muhim o'rin tutadi. Uning yordamisiz odam voqelikni boshdan kechirmaydi, o'zligini anglash omilidan mahrum bo'ladi. O'tmish, kecha, bugun va ertani bog'laydigan eng muhim usurdan mahrum bo'ladi.

Turkumlash — bu qandaydir turdagi predmetlarni ushbu turdagi predmetlarga xos bo'lgan va boshqa tur predmetlaridan ajralib turadigan belgilari bilan o'zaro bog'langan sinflarga taqsimlashdir. Shu bilan birga har bir sinf yuzaga kelgan tizimda ma'lum bir muntazam o'ringa ega bo'ladi va sinf ostiga bo'linadi. To'g'ri tuzilgan turkumlash turkumlashtiradigan obyektlarning rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. Ular o'rtasidagi chuqur aloqalarni ochib beradi va umumlashtiriladigan xulosalar va bashoratlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarix fanida manbalarni turkumlashda turli yondashuvlar mavjud:

1. Voqelikni aks ettirish metodlari va shakllari bo'yicha tarixiy manbalarni kategoriyalarga ajratish:

20 ashyoviy;

21 yozma;

22 tasviriy (tasviriy-badiiy, tasviriy-grafik, tasviriy-natural);

23 fonli.

Bu turkumlash manbalarining har bir guruhini tahlil qilishda va foydalanishda yuzaga keladigan muammolarni yechishning umumiy metodlarini aniqlashda yordam beradi.

2. Turni turkumlash, uning asosida ijtimoiy munosabatlarning u yoki boshqa sohalariga manbalar ta'sirining ma'lum bir

funksiyalari yotadi. Qiyofali turkumlash manbalar evolutsiyasini aniqlash va kuzatib borish imkoniyatini beradi.

Misol uchun, feodalizm davri manbalarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Ommaviy-huquqiy aktlar:

a) shartnoma qiyofasida — X asrdagi xalqaro shartnomalar va h. k.

b) shartnoma-qonunshunoslik ko'rinishida — XI asrdan XVIII gacha, turli hukmdorlar o'rtasidagi shartnomalar.

d) sud-protsessual ko'rinishidagi shartnomalar — VIII asrdan.

2. Xususiy aktlar:

a) shartnoma ko'rinishida — XI asrdan, yerdan foydalanish (iqto, suyurg'ol, tanho), ko'chadigan mulkka aktlar.

b) pul aktlari; yollanma mehnat aktlari — XVII asrdan va boshqalar,

d) ko'rsatma ko'rinishidagi aktlar — savdo do'koni gumash-talariga, feodal xo'jaliklarning boshqaruvchilariga, XV–XIX asrlar.

3. Ish yuritish hujjatlari ko'rsatma ko'rinishida, hisobot ko'rinishida, ijro ko'rinishida, qaror ko'rinishida.

2. Tarixiy dalil muammosi. Tarixiy dalil — bu ijtimoiy o'tmishning jarayonlari va voqealari to'g'risidagi aniq bilimdir. Bu yerda hissiy va ratsional bilim sintezlashgan umumiylik, ayrimlikka yoki alohida shakllarga chulg'angan, bilim ma'lum bir tarixiy hodisalarga nisbatan o'zida tugallangan. Dalil tushunchasining tahlili uni uch ma'noda ko'proq ishlatilishini ko'rsatadi:

1. Dalil voqelikning ayrim parchasi, obyektiv hodisa, vaziyat yoki jarayondir. Bu ma'noda Balxda Amir Temurga 1370-yilda Movarounnahr hukmronligi topshirilishining o'zi dalildir.

2. Dalil tegishli voqea, vaziyat yoki jarayon to'g'risidagi alohida bilim.

3. Dalil haqiqat sinonimi sifatida ishlatiladi.

Birinchii ma'nodagi «dalil»dan tarixiy adabiyotda XIX–XX asrlarda keng foydalanildi. Ko'pchilik metodologlar tarixning vazifasi «individlarning» atrof-muhitni o'zgartirish maqsadida qilgan ta'siri natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganishdir, deb hisobladilar. Bunday ta'sir birdamlikda va takroriy

bo'ladi. U tegishli o'zgarishlar mahsuli bilan tarixiy dalilni tashkil qiladi. Tarixiy dalil deganda o'ziga xos xususiyati bilan individuallikning muhitga ta'sirini tushunish mumkin. Individuallik deganda esa, faqat alohida shaxs emas, balki ijtimoiy guruh tushuniladi, atrof-muhit deganda madaniyatning bor yaxlitligicha, eng avvalo, ijtimoiy ongni tushunamiz. Shu bilan bir vaqtda bu muhitning shaxsga aks ta'sirini ko'rish mumkin. Oqibatda «dalilning» boshlang'ich tushunchasi aniqlikni yo'qotib, mo'rt bir holatga tushib qoladi. Bu konsepsiya idealistik qarashdan Vjndelband Rikkertning metodologik individuallik va Zimmel psixologiyasini o'ziga qo'shib oladi.

Bu konsepsiyada uch holat mavjud. **Birinchidan**, bu yerda dalil deb statik holat emas, individlar, ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy muhitning ma'lum bir o'zaro harakati tushuniladi. Bu muhit butun bir madaniyat faqat ma'naviy madaniyat sifatida emas, ijtimoiy borliq va onging vaqtning belgilangan oralig'ida dalilni ijtimoiy faoliyatning alohida bir ko'rinishi deb belgilash mumkin.

Ikkinchidan, faoliyat dalil sifatida tushunilib, ijtimoiy ahamiyatli bo'lishi lozim. Uning oqibati «atrof-muhitni», boshqacha aytganda, madaniyatning o'zgarishiga olib keldi.

Uchinchidan, dalillar voqelikning parchalari sifatida ma'lum bir haqiqatdan sababiyatli aloqalarda izchil ravishda bir-birini shartlaydigan hodisalarda yotadi. Lekin bunday tushuncha sezilarli darajada munozarali bo'ladi.

Agar dalil — bu eng muhim ijtimoiy ahamiyatli voqelik bo'lsa va hodisa tarixiy voqelikning parchasi sifatida tushuniladigan bo'lsa, unda nima uchun atamalarni ko'paytirish lozim? Dalillar haqida emas, o'tmishda sodir bo'lgan ahamiyatli voqealar, jarayonlar va vaziyatlar to'g'risida gapirish ma'qul emasmi?

Tarixchi tarixiy dalillarni yaratadi, quradi yoki «yasaydi», degan tasdiqlar ham vanada ko'proq e'tirozga uchraydi. Ayrim tarixchilar (Larro-Danilevskiy) tarixiy tadqiqotda o'tmish haqidagi yetarli bo'lmagan axborot rekonstruksiya qilinadi va qayta tiklanadi, deb ta'kidlaydilar. Ammo ularning fikricha, tarixchi o'tmish to'g'risidagi ahamiyatli ma'lumotni tanlab, baholabgina qolmay, tadqiqot jarayonida uning qiyofasini o'zgartiradi va ilk manbalarda

bo'lmagan bilimni yaratadi. Bunday holatda bu fikr ilhomchilari haq, aks holda tarix fani bo'lmas edi. Uni ilk manbalarni oddiy o'qish bilan cheklash mumkin bo'lardi.

Tarixchi dalilni o'tmish to'g'risidagi alohida bilim sifatida «qura» oladi. Ayniqsa, u uzoq bo'lmagan o'tmish voqealarini o'zi ishtirokchisi bo'lmagan bo'lsa, u qanday qilib tarixiy voqeani xolisona «qura oladi?» «Tarixiy dalil qandaydir xomashyo tarixiy ma'lumotlardan quriladi va konstruksiya qilinadi» tezisi g'arb metodologiyasida tarixiy konstruktizm orqali keng tarqaldi. Bu konsepsiya L. Goldstaynning «Tarixiy bilim» («Tarixiy dalillar» bobi) asarida to'la bayon qilingan. Goldstayn tarixiy dalillar tabiatiga real va metodologik qarashlarni ajratadi. «Dalillar — bu kishilik o'tmishining real voqealari, ular tarixiy tadqiqotlarning natijasidir» tushunchasi ilgari suriladi. Tarixchi voqealarning o'zi bilan emas, tanqidiy tahlil qilingan, baholangan va qayta ishlangan ma'lumotlar bilan ish ko'radi. Umumlashtirish va talqin qilish — bilish hodisasidir. Obyektiv amaliyot bo'lmay, dalillar bilishning konstruktiv unsurlari sifatida bo'ladi.

Langlua va Senobos tarixchining ijodkorlik rolini nazarga ilmaydilar. Goldstayn fikri bo'yicha «dalil — bu qandaydir bir intellektual faoliyatning qandaydir ko'rinishida, qandaydir bir tadqiqotning davomida bilishga talablarni belgilash maqsadida amalga oshirilgan nimadir». Shuningdek, bilishga qo'yilgan talab tushunchasi ostida tegishli mantiqiy va ontologik mezonlar haqiqat, asoslanganlik, xolisilik va h. k. tushuniladi. Albatta, bu mezonlar va ularning mavjud mazmuni tadqiqotchining umumiy epistemologik va metodologik qarashi asosida o'zgaradi. Tabiatshunoslikda qo'llanadigan mezonlar borliqdagi qarashga olib keladi. Ana shuning asosida Goldstaynning fikri bo'yicha tarix bilish uchun to'g'ri kelmaydi.

Tarixiy konstruktizm tarafdorlari tabiiy-ilmiy va tarixiy bilimni bir-biridan farqlaydilar. Bundan tashqari, dalilning mazmuniga tadqiqotlar metodikasi va texnikasi ham ta'sir qiladi.

Tarixiy konstruktizm tarafdorlari tarixchining ijodiy faolligi va tarixiy tadqiqotning maqsadga yo'naltirilganligining xususiyatini ta'kidlaydi hamda turli maqsadli ustuvor yo'riqlarga qaram holda

turli bilimlarni bir xil empirik materialda foydalanish mumkinligini e'tirof etadi.

Tarixiy tasvir tarixiy dalildan farq qiladi. Dalil haqqoniylikka ega, tasvir esa hamma vaqt ham haqiqat bo'la olmaydi. Nihoyat dalil doimo ayrimlik tasviri shaklida chiqadi, umumlashtiradigan bilim, dalil va tasvir mahkam bog'langan. Tarixiy dalil doimo tasvirlar shaklida chiqadi. Lekin har qanday tasvir o'z mazmuniga ko'ra dalil bo'la olmaydi.

Tarixiy dalil tarixiy tasvirlar mazmuni bo'lib, haqqoniy tasvirni soxtasidan ajratishga yordam beradi. Empirik tasvir noempirik tasvirdan ajratishga yordam beradi. Tarixiy tasvir tarixni notarixiy va soxta tarixiy tushunish uchun ahamiyatlidir. Lekin empirik tasvirlarning har qanday ishonchli tasviri ilmiy asoslangan tarixiy dalil bo'la olmaydi.

Individual tarixiy voqea ishtirokchi va kuzatuvchilar tomonidan psixologik tusda qanday qabul qilinishidan qat'i nazar deyarli har doim tadqiqot jarayonida ko'p sonli aloqalar va o'zaro harakatlarni belgilash yo'li bilan ommaviy statistik hodisa sifatida rekonstruksiya qilinadi.

Tarixiy dalil ayrim tarixiy ma'lumotlarni bevosita tasvirlashdan farq qiladi. Bu farqni chuqur ko'rish uchun tarixiy dalillarning ikki asosiy tipini ajratamiz. **Birinchisi** — epistemologik vaziyatlar, voqealar yoki jarayonlarni aks ettiradigan tip. **Ikkinchisi** — tor ma'nodagi metodologik dalillarni ularning qurish usuli bo'yicha tiplarga bo'lish.

Epistemologik tiplashtirishda, birinchi navbatda, ekzistensial dalillar ajratiladi. Ularning vazifasi u yoki bu voqea, vaziyat, jarayon, alohida tarixiy shaxs va shunga o'xshashlar mavjud bo'lganmi, degan savolga javob berishi lozim. Bunday dalillarning mantiqiy shakli quyidagi ko'rinishdagi so'zlashlar bo'ladi: «*A* mavjud bo'lgan edi»; «*A* mavjud edi, lekin *B* emas»; «*A* jamiyatida *B* jarayon mavjud edi»; «*C* jamiyatida *B* jarayon mavjud emas edi» va shunga o'xshash. Lekin mavjudlikni tegishli atamalar yordami bilan ochiqdan-ochiq qaytarish majburiy emasligi ko'rsatilgan dalillar qatoriga qo'yilgan. Bunday ko'rinishdagi so'zlashuvlarda belgilangan bilimlar ham tegishli bo'lishi mumkin:

X davrida *A* jarayoni yuz berdi va shunga o'xshashlar. Bu dalillar obyektiv tarixiy jarayonni aks ettiradi.

Metatarixiy so'zlashuvlar tarixiy bilim obyektlariga emas, balki tarixiy yoki arxeologik manbalarga tegishli. Ularni tarixiy manbashunoslik yoki yordamchi tarix fanlarining dalili deb aytish mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda, ularni ayrim chekinishlar bilan dalillar deyish mumkin.

Ekzestinsial dalillarning bunday turdagi odatdagi shakli bo'lib shunday fikrni aytish mumkin: «*A* voqealari to'g'risidagi bilim *B*, *C* manbalarida bo'ladi» va shunga o'xshash; «*A* manbasi soxta bo'ladi; u to'g'risida va shunday voqealar to'g'risida guvohlik beradigan haqiqiy manbalar mavjud emas» va shunga o'xshash. Tarixiy borliqning o'ziga mansub bo'lmagan bunday egzestinsial dalillar ular bilan mahkam bog'langan va ko'pincha, o'tmish to'g'risidagi tegishli ma'lumotning haqiqiyligi va ishonchli ekanligini aniqlashda hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Ekzestinsial dalillardan malakaviy dalillarning vazifasi u yoki bu hodisa bo'lgan edimi, lekin aynan nima mavjud edi; u yoki bu tarixiy noyob hodisa qanday xossalarga ega edi, degan savollarga javob berishdir. Oddiy misol sifatida ma'lum jamiyatni ma'lum bir davrga, hokimiyatni u yoki bu shaklga (demokratik, monarxiya va boshqa shunga o'xshash) tegishli ekani bo'lishi mumkin.

Malakaviy dalillar, o'z navbatida, voqealar va jarayonlarning hissiy qabul qilinadigan tomonlarini belgilaydigan empirik shakl bo'lgan fenomenologik va falsafada, odatda, mohiyatni belgilaydigan essensial dalillarga bo'linadi. Misol uchun, 1402-yilda Anqara yonidagi jang, uni tayyorlash bosqichlari va uning natijalarini to'liq tasvirlash fenomenologik tomondan ko'rib chiqiladigan tarixiy dalildir. Anqara yonidagi jang oqibatida buyuk Temurning Yevropani Usmoniylar istilolaridan yarim asr mudatga xoli etgani tasdig'ini essensial dalil deb qarsh lozim. Chunki u voqealarning ba'zi mohiyatini belgilaydi. Essensial dalil manbalarda mavjud bo'lgan bevosita ma'lumotlarni oddiygina umumlashtirmaydi, tarixiy jarayonning hissiy qabul qilinadigan tomonlarini belgilamaydi. Mohiyat haqidagi har qanday fikrlar murakkab tahlilning natijasi bo'lib hisoblanadi. U o'zida bahoni ma'lum bir

Ijtimoiy qadriyatlarga kiritish va mohiyat to'g'risidagi bilimlar va hodisalar to'g'risidagi bilimlarni konstruksiya qilish jarayonidir.

Tarixiy dalillarning alohida ko'rinishi ekzistensial va malakaviy dalillardan ajratish qiyin bo'lgan dalillar miqdoriy yoki kvantativ dalillar. Ular tashqi ko'rinishda nisbatan yengil taniladi, chunki u o'zida miqdoriy axborotni saqlaydi.

Tarixiy dalil deb nima tushuniladi? U obyektiv yoki subyektiv amaliyot kasb etadimi? degan savolga javob berishda mualliflar tanikli tarix metodologi M. A. Barg merosiga tayanadilar. M. A. Barg tarixiy dalillar — bu ma'lum bir kenglikda vaqt doiralari turadigan voqelikning obyektiv mavjud dalillari. Ularning mazmuni talqin qilishga qaram emas.

Tarix metodologiyasida XIX asr o'rtalarigacha tarixning dalillarga to'la ishonch tushunchasi yetakchi o'rin tutar edi. M. A. Bargning fikricha, fanda pozitivizmning sodda tarixshunosligi hukm surar edi. Shunga qaramasdan, bu manbalarning haqiqiyligini aniqlaydigan usullarni ishlab chiqish va qo'llashda xalaqit bermadi. Bu davrda dalillar summasi tarixiy voqelikka mos bo'lishi mumkin, degan tushuncha mavjud edi va tarixchilarning vazifasi astoydil subyektiv talqinlar va baholashdan xoli bo'lgan holda sidqidildan bayon qilish edi. Muammolarni qo'yish va farazlarni ilgari surish ko'zda tutilmadi. Bunday yondashuvni u «qaychi va yelim» deb atadi. Uning fikricha, tarixni bilish tarixchining faol tafakkur faoliyati, uning intuitsiyasini talab qiladi.

Fan taraqqiyotining keyingi jarayonida ikki qarash aniqlandi. Shunga muvofiq, tarixchilarni «pozitivist» va «idealist»larga bo'lish mumkin. Pozitivistlar tarixiy voqelikni tarixiy dalillar bilan mos ko'rdilar. Idealistlar tarixiy dalillarni talqin qilish va baholash tarixchining shaxsiga bog'liq, deb ta'kidlaydilar.

3. Tarixiy dalillarni metodologik xillashtirish. Metodologik xillashtirishning eng oddiy varianti — bu tarixiy dalillarning to'rt xilini ajratishdan iborat:

1. Birgina ma'lumotlarni aynan o'xshatish. Bu usul, odatda, xillashtirish yoki xilni ajratish deb ataladi.

2. Birdan-bir ma'lumotlarni taqqoslash tartibida ularni tanqidiy baholash va bir-biriga zid keladigan yoki mos kelmaydigan ma'lumotlarni ajratish (analitik dalil);

3. Manbalar tizimida ichki va tashqi tasvirlarning mavjudligi bilan bog'langan umumiylik va ishonchli bilish vaziyatlarida belgilab olish yo'li (konfigurativ dalil);

4. Statistika usullarining birgina ma'lumotlarini qo'llash yo'li bilan (statistik dalil).

Tarixiy manbalarda mavjud bo'lgan birgina ma'lumotlarni tarixiy dalillarga o'xshatish keng tarqalgan va shuning uchun oddiy va tabiiy tuyuladi. Odatdagi bunday usulga ko'nikib qolish o'z-o'zidan standartga aylanib qoladi. Natijada bu yerda mavjud bilish muammosi niqoblanadi. Bunday o'xshatishning sharti bilish vaziyatidir. Tarixchi alohida voqea yoki jarayon to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita yagona ma'lumotga ega bo'ladi. Bu ma'lumotni boshqalari bilan qiyoslashning imkoniyati yo'qligi va ma'lum tadqiqot muammosini yechish uchun uning alohida ahamiyati, uning tarkibidagi axborotni dalil darajasiga ko'taradi. Qat'iy qilib aytganda, bu usul majburiy bo'ladi. Tabiiy, ilmiy tadqiqotlardan farq qilgan holda tarixiy tadqiqotlarda dalillar har qadamda uchrab turadi. Bu hol tarixiy bilimning ideografik konsepsiyasi paydo bo'lishining metodologik sabablaridan biridir.

Tarixchi ilk o'rta asrlarni tadqiq qilishda Rim-Vizantiya imperiyalarining tushkunlik davrlarida xalqlarning ko'chish jarayoni va birinchi feodal davlatlarning yuzaga kelishini ko'rib chiqqan paytda tarixchi Iordanning mashhur «Gotlarning kelib chiqishi va faoliyati» to'g'risidagi asarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tarixiy dalillar sifatida qabul qilishga majbur bo'ladi. Chunki uning bevosita o'tmishdoshi Kassiador va boshqa tarixchilarning asarlari hamda tegishli hujjatlar ataylab yo'q qilingan yoki yo'qolgan.

Albatta, uning ma'lumotlarini tarixchilar ishonchli deb qabul qilmaydilar. Faqat har bir ma'lumotni sinchiklab tekshirib ko'rgandan keyin, muallifning tarjimayi holi va dunyoqarashini qayta tiklagandan keyin barcha ma'lumotlar, ularning ichidan eng muhimlari tarixiy-geografik tanqid va filologik tahlil qilingandan

so'ng, ularning keyingi voqealardagi o'rni baholanadi va tarixiy dalil darajasiga ko'tariladi.

Yagona ma'lumotni tarixiy dalil darajasiga ko'tarish, manbalarning tanqidiy tartibi orqali amalga oshirish bu murakkab ishdur. Analitik dalillar nisbatan yuqori professional madaniyatning mevasidir. Uning xolis shart-sharoiti bir-birini inkor qiladigan bir xil ma'nodagi tarixiy hodisa to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligidir. Analitik dalillarning qurilishiga olib keladigan bilish vaziyatlari quyidagi sharq ertagida yaxshi ko'rinadi. Epchil o'g'ri katta shahar aholisidan o'ziga yoqqan hamma narsani o'g'irlydi. Shaharning dono sultoni ochiq maydonning markaziga atrofi hushyor soqchilar bilan o'ralgan bir qop tillani qo'yishni buyuradi. Sulton «Qopni olib ketish deyarli mumkin emas. Hatto agar o'g'ri qopni olib qochishga harakat qilsa, uni ushlab oladilar yoki kim ekanini bilib oladilar», deb fikrlaydi. O'g'ri bu haqida eshitib, ot sotib oladi. Uning o'ng tomonini qoraga, chap tomonini oq rangga bo'yaydi. U masxaraboz choponini kiyadi va choponning bir tomoni qizil, boshqa tomoni esa ko'k edi. Yuzini esa ro'mol bilan o'rab, maydondan ot choptirgan holda tilla to'la qopni olib, tezlik bilan g'oyib bo'ladi. O'zini yo'qotib qo'ygan va qo'rqib qolgan soqchilar sultonga bu haqda har xil gapiradilar. O'ng tomonda turganlar: «U qora otda va qizil choponda edi», desalar, chap tomonda turganlar esa: «U oq otda va ko'k choponda edi», deb aytadilar. Haqiqiy dalilni topish sultondan bir-birini inkor qiladigan fikrlardan oddiy bo'lmagan birini tanlashdek murakkab fikrlashni talab qiladi. Amaldagi tarixiy tadqiqotlarning bilish vaziyatlari yorqin sharq ertagidan murakkabroq. Lekin ular tarixiy manbalarda mavjud bo'lgan muqobil ma'lumotlar va to'liq bo'lmagan yoki ishonchsiz ma'lumotlar, muqobil ma'lumotlar mavjudligi kabi maxsus belgilar bilan tavsiflanadi. Bu holat tarixchilarni ba'zi bir yagona tasvirlarni xolis tarixiy dalil bilan o'xshatishdan iborat bo'lgan xillashtirish usulidan voz kechishga majbur qiladi. Buning o'rniga turli manbalarni tahlil qilish amalga oshiriladi. Oxir-oqibatda dalil manbalarda mavjud bo'lgan tasvirlardan jiddiy farq qiladigan tarixiy tasvir shaklini oladi.

V. N. Toporovning ilk tarixiy tasvirlarining «kosmologik manbalar» maqolasida ichki va tashqi tasvir tushunchasi taklif qilinadi. Bu tushunchalarning to'liq tasnifi bu yerda berilmasa-da, lekin maqolada voqea-jarayonning ishtirokchilari tomonidan qilingan tasvirlar ichki deb tushuntiriladi. Tashqi tasvirlarga to'g'ridan-to'g'ri «tashqi» kuzatuvchilar qilgan tasvirlar, shuningdek, ikkinchi yoki uchinchi qo'llardan olingan axborotlarga asoslangan ma'lumotlarni ham kiritish mumkin. Ichki va tashqi tasvirlarni taqqoslashga imkoniyat beradigan umumiy shart — bu birgina, shu bilan birga o'sha voqea-vaziyat yoki jarayonga hamda bir vaqt oralig'idagi doiraga tegishli bo'lishidir. So'nggi yuz yillikda tarixiy statistik tadqiqotlarga qiziqish kuchaydi. XX asrning 50-yillarida elektron hisoblash mashinalarining rivojlanishi, kompyuter texnologiyalari tarixiy statistik tadqiqotlarning keng tarqalishi va chuqurlashuviga sabab bo'ldi. Tarixiy tadqiqotlarda matematika fanidan foydalanish tarixiy taraqqiyotning matematik materiallarini tahlil qilish yoki ulardan keng foydalanish alohida fan — «kliometrika»ning shakllanishiga olib keldi.

4. Tarixiy dalil, obraz va tasvir. A. Y. Gurevich tarixiy dalil tushunchasini shakllantirishda, dalil — bu ilmiy bilish obrazidir, deb ta'kidlaydi. Dalil bir vaqtning o'zida ham obyektning asosiy jihatlarini belgilaydigan abstraksiya hamda aniq bilim sifatida yoki bu ikki qarama-qarshiliklarning birligidir, deb qaraladi. Lekin qarama-qarshiliklarning oddiy birlashuvi haqiqiy birligini tashkil etmaydi. Amalda abstraksiya yoki tushuncha bir vaqtning o'zida obraz ham bo'lishi mumkin. Shu bilan birga A. Y. Gurevichning tushunchasi «Tarixiy dalillar hamma vaqt obrazlar shaklida, aniqrog'i, obrazli tasvirlarda chiqadi» degan ko'pchilik e'tirof etgan nuqtayi nazarda belgilangan. Shunday qilib, har qanday obraz obyektning qaysidir nusxasi hisoblanadi. U qabul qiladigan subyektda o'xshash hissiy taassurotni tug'diradi.

Tarixiy bilim paydo bo'lishidan boshlab o'zida ifodalash vositalarini birlashtirgan turli tasvirlarni izlash ishlarini o'zida jo qildi. Bilish va ifodalash vositasi mifologiya, adabiyot tizimida oldinroq shakllangan edi. Gerodot «Tarix»ida o'tmishni tarixiy hikoya qilish bilan birga novellalarni ham ko'ramiz.

Tarixga qiziqishning paydo bo'lishi va uning u yoki bu xalqning madaniy qadriyat tizimiga mustaqil unsur sifatida kiritishi tarixiy hikoyani o'zlashtiruvchi keng auditoriyani yuzaga keltiradi. Bu hol boshdayoq tarixchilarning o'z asarini faqatgina mazmuni to'g'risida g'amxo'rlik qilibgina qolmasdan, uni adabiy-badiiy qiziqarli va hatto ko'ngil ochadigan shakli to'g'risida ham o'ylashga majbur qildi. Ma'lumki, qadimgi, o'rta asrlar va yangi davrda Sharq va G'arb mamlakatlarida hukmdor saroylarida, oddiy kishilarning uylarida tarixni hikoya qilish, tarixiy asarlarni o'qish sevimli ko'ngilochar mashg'ulotlardan biri bo'lgan.

Tabiiyki, tarixiy hikoyani obrazli, saboq bo'lishi, ko'ngilochar bo'lishi to'g'risidagi tushuncha nafaqat keng auditoriyaning ongida, balki tarixiy asar yaratuvchilar ongida ham mustahkam o'rtnashib qoldi.

Bunday talablar tabiiy fanlar bo'yicha yoziladigan asarlarga qo'yilmaydi. Chunki tabiiy fanlar quruq formula va dalillar tilida yaratilib, mantiqiy va amaliy o'zlashtirishga mo'ljallanib, his-tuyg'uga mo'ljallanmagan. Aniq fanlarni bayon qilishda mukammallik, oddiylilik, dalil-isbotlarning aniqligi, qisqaligi, mantiqiylik, amaliy tartib va dalillarning qat'iy mosligi bilan tarix fanidan farq qiladi.

Tarixiy bilim sohasida obrazlik faxrlilik o'rinlardan birini egallashda davom etmoqda. Lekin biz uning faqat bilish tomoniga e'tibor beramiz. Tarixiy bilimning estetik xususiyati va tarixni estetik tushunish masalasi bo'yicha ikki qarama-qarshi fikr mavjud. Ulardan biri uyg'onish davri va XVIII asr «Ma'rifatparvarlik davri» an'analariga borib taqalib, professional tarixiy bilish alohida adabiy-badiiy janr sifatida bayon qilish esa tarixchining ajratilmas belgisi deb hisoblaydi.

Restavratsiya davri fransuz tarixchilari va ularning vorislari davrida adabiy shakllarning nafisligi yuqori darajaga yetadi.

Fixte tarixni aprior (sxema tarzida) va aposterior (empirik)ga bo'ldi. «... Tarix, — deb yozadi u, — bu sof empirik, u faqat dalillarni berishi lozim va uning barcha isbotlari faqat dalillarda qurilishi kerak». Shunday qilib, Fixte tarixni tushunishda abstrakt istoriosofiya va aniq istiografiya o'rtasidagi qarama-qarshilikni belgiladi. Gegelning tarix falsafasi tarixni empirik bilishni abstrakt

falsafiy sxemaga bo'vsundirish asosida bu qarama-qarshilikni bartaraf qilishga urinish edi. Shu bilan empirik tarixni badiiy obrazli bayon qilish muammosi yo'q qilinib, umumiy tarix estetikasiga singdirildi. O'z vaqtida Gegel tarixning o'zi estetikasiz tushunarli bo'lmaydi, deb hisoblagan edi. His-tuyg'u shaklida chiqmaydi, balki jamiyat rivojlanishida mutlaq ruhning amalga oshish darajasi o'lchovidir. Bu yerda tarixiy bilish va obyektiv tarixiy amaliyotda estetikani ajratishga o'rin yo'q.

Ikkinchi fikr tarix va estetikaning bir-biriga to'g'ri kelmasligini e'lon qiladi. Bu fikrni boshqalardan ko'ra, Karl Yaspers to'la va tubdan shakllantiradi. Uning «Tarixning manbalari va uning maqsadi» asarida bu fikr batafsil asoslab beriladi. K. Yaspers uchun tarix odamlarning eng avval madaniy faoliyatining amalga oshishidir.

Tarixiy tasvir yozuvlarida uchraydigan obrazlar va tarixiy bilimda uchraydigan obrazlarning uch darajasini ajratish mumkin:

1. Birgina ma'lumotlarni tasvirlashdagi obrazli unsurlar;
2. Empirik qurilmalar, ya'ni tarixiy dalillarni obrazli shakllantirish;
3. Nazariy bilim tuzilmasida obrazli unsurlar.

Professional tarixiy bilishning ilmiy bilimga aylanishi davomida ichki differensiatsiya yanada aniqroq boradi. Siyosiy tarix, harbiy tarix, madaniy faoliyatning turli iqtisodiy tarix sohalari tarixi kabi ixtisoslashgan sohalari paydo bo'ladi. Ushbu sohalarda ilmiylikning ma'lum bir me'zonlariga javob beradigan o'zaro aloqadagi nazariy va empirik bilimlar qurilmasining murakkabligi obrazlilik muammosini ikkinchi darajaga suradi. Albatta, obrazli bayon qilish ommaviy o'quvchiga ko'proq tushunarli bo'ladi. U qulay va ma'lum bir hissiy taassurot tug'diradi. Lekin har qanday fanning, shu jumladan, tarix fanining maqsadi — haqiqatdir. Shu sababli obraz va adabiy mukammallik yordamchi rolni o'ynaydi. Shu bilan birga tarixiy tadqiqotning o'ziga xos kasbiy estetikasi nafaqat yo'q bo'ladi, balki alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tarixiy tadqiqotda ratsional tafakkurning alohida estetikasi mavjud bo'lib, badiiy-adabiy tafakkur estetikasiga o'xshash bo'lmaydi. Shubhasiz, ilmiy bilish ishining boshqa shakllariga qaraganda, tarixiy bilishda obrazlilik yanada yuqori darajaga ega bo'ladi. Unda alohida o'rinni egallaydi va

o'ta muhim bilish yuklamasini olib boradi. Lekin uning o'ziga xos imtiyozi bo'lmaydi. Uni o'rganish lozim, lekin mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Estetika predmetiga tarix, tarixiy bilimni ham qo'shish mumkin, lekin bundan ular san'atga aylanmaydi. Epistemologiya bilish vaziyatlari va san'atdagi jarayonlarni tadqiq qilishi mumkin, lekin bunda u fan ko'rinishiga ega bo'lmaydi.

Tayanch iboralar: *Tarixiy manba, tasvirlovchi manba, belgilovchi manba, dalil, maishiy mazmundagi manbalar, L. Danilevskiy, normativ mazmundagi manbalar, daliliy mazmundagi manbalar, ko'rgazmalli tasvir, turkumlash, empirik qurilma, epistemologiya, tarixiy bilish, kasbiy estetika, obyektiv tarixiy amaliyot, tarixiy dalil, Fixte, aprior, adabiy mukammallik, ma'rifatparvarlik davri, Karl Yaspers, obraz va tasvir, N. Toporov, analitik dalillar, konfigurativ dalil, differentsiatsiya.*

Takrorlash uchun savollar:

1. Tarixiy manba to'g'risida tushuncha bering.
2. Tarixiy manbalarni turkumlang.
3. Tasvirlovchi manba nima?
4. Belgilovchi manbaga izoh bering.
5. Metodologik xillashirishning eng oddiy varianti tarixiy dalillarning qanday xilini ajratishdan iborat?
6. A. Y. Gurevich tarixiy dalil tushunchasini qanday ta'riflaydi?
7. Tarixiy dalil tushunchasi.
8. Tarix fanini o'rganishda tarixiy dalil, obraz va tasvirning ahamiyati.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tarixiy manba tushunchasi.
2. Tarixiy manba to'g'risidagi asosiy metodologik qarashlar.
3. Tarixiy tadqiqotlarda manbalarning o'ri.
4. Tarixiy manbalarda dalil muammosi.
5. Tasvirlovchi manba tabiati.
6. Tarixiy bilimning estetik xususiyati va tarixni estetik tushunish.
7. Tarixiy tasvirda tarixiy obrazlar.
8. Tarix fani metodologiyasida tarixiy dalillarning namoyon bo'lishi.
9. Tarixiy tasvirda obrazlilik muammosi.

14-MAVZU.

METODOLOGIYADA TARIXIYLİK TAMOYILI

1. *Tarixiy omillarning o'rganish tamoyillari.*
2. *Tarixiylik tamoyili.*
3. *Tarixiylik va istoritsizm.*

1. Tarixiy omillarning o'rganish tamoyillari. Tarixiy bilimning xolisliyligi ilmiy tamoyillar asosida ham amalga oshiriladi. Tamoyilni asosiy qoida deb qarash mumkin. Tarixdagi barcha voqea-hodisalarni o'rganishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

1. Asosiy ilmiy tamoyillardan biri — tarixiylik tamoyili barcha tarixiy dalillar, voqea-hodisalarni aniq tarixiy vaziyatga mos ravishda, ularni o'zaro aloqada va o'zaro shartlanganida ko'rishni talab qiladi. Har qanday tarixiy voqelikni taraqqiyot holatida o'rganish lozim: u qanday paydo bo'ldi, o'z taraqqiyotida qaysi bosqichlarni bosib o'tdi va oxir-oqibatda u nima bo'ldi. Voqea yoki shaxsni bir vaqtda yoki mavhum vaqtini hisobga olmay ko'rish mumkin emas.

2. Xolisliyluk tamoyili dalillarga tayanishni, ularni soxtalash-tirilgan va bir qolib ichiga solinganiga emas, ularni haqiqiy mazmunida ko'rishni mo'ljallaydi. Bu tamoyil har bir voqelikni ko'p xillikda va qarama-qarshilikda, ijobiy va salbiy tomonlarining mosligida qarashni talab qiladi. Xolisliyluk (obyektivlik) tamoyilini ta'minlashda tarixchi-tadqiqotchining nazariy qarashlari, metodologik madaniyati, kasbiy mahorati va sofdilligi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

3. Ijtimoiy yondashuv tamoyili tarixiy-iqtisodiy jarayonlarni aholi turli qatlamlarining manfaatlari, ularning jamiyatga ko'rinishini hisobga olgan holda qarashni shartlaydi. Bu tamoyil (u yana sinfiy, partiyaviy deb ataladi) sinfiy va tor guruhiiy manfaatlarning

umuminsoniy manfaatlariga mos bo'lishini talab qiladi. Bu yerda hukumatlar, partiyalar, shaxslarning amaliy faoliyatidagi subyektiv (holat) lahzada hisobga olinadi.

4. Muqobillik tamoyili obyektiv voqeliklar va imkoniyatlarni tahlil qilish asosida u yoki bu voqea, hodisa, jarayonlarni amalga oshish darajasi ehtimolini belgilaydi. Tarixiy muqobillikni tan olish har bir mamlakatning yo'lini yangicha belgilashga imkoniyat beradi. Jarayonning foydalanilmagan imkoniyatlarini ko'rishga va ulardan kelajak uchun saboq chiqarishga yordam beradi. Faqat barcha tamoyillar va metodlarni birlikda ko'rib, ularga rioya qilinsagina, o'tmish tarixni o'rganishda qat'iy ilmiylik va haqiqiylik ta'minlanishi mumkin.

2. **Tarixiylik tamoyili.** Tarixiylik — voqelikni vaqt bo'yicha o'tmish, bugun va kelajak holatdagi yaxlit birlik sifatida rivojlanishi bo'lgan falsafiy-dialektik tamoyil. Bu tamoyil quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- a) tadqiqot obyektining hozirgi zamonaviy holatini o'rganish;
- b) o'tmishni rekonstruksiya qilish — o'tmishning paydo bo'lishi, uning tarixiy harakatining asosiy bosqichlari paydo bo'lishi — genezisni ko'rib chiqish;
- d) kelajakni ko'ra bilish, predmetning keyingi rivojlanish an'analarini ko'ra bilish.

Tarixiylik nafaqat ma'lum predmetning tarixini o'rganishni, balki uning taraqqiyotining o'zgarishini ifodalaydigan tushunchalar tarixini o'rganishni talab qiladi. Hozirgi davrda tarixiy yondashuv ilmiy bilishda keng tarqaldi. Nafaqat tabiat va jamoat to'g'risidagi fanlarda, notarixiy fanlar (mexanika, fizika, kimyo)da ham keng qo'llanila boshlandi.

Shu sababli tarixiylik tarix va boshqa fanlarning muhim tomonidir. Bu holatni ta'kidlab, taniqli fizik V. Vayskopf shunday degan edi: «...fizikaning fundamental muammolari kosmos bilan koinot, kenglik va vaqtning muammolari bilan bog'langan. Bu bizning zamonaviy fanning qiziqarli xususiyati — uning tarixiy jihatiga olib keladi. Bu holat fundamental tadqiqotlarga alohida ahamiyat beradi.

Tarixiy taraqqiyot o'tmishdan bugunga va kelajak tomon harakat qiladi. Amaliy tarixni nazariy ko'rib chiqish esa, aksincha, o'tmishdan yoki taraqqiyot jarayonining tayyor natijalarini o'rga-

nishdan boshlandi. Tadqiqotchi oldiga taraqqiyot jarayoni o'tmishni o'zida qamrab olgan hozirgi kun shaklida namoyon bo'ladi. Ma'lum rivojlanayotgan yaxlitlikning bugungi borlig'ini o'rganishda subyekt — bu o'tmishning natijasi, xulosasidir. Subyekt «olingan» (chunki u izziz yo'qolmaydi) ko'rinishda va bir vaqtda unda shakllanayotgan kelajak kurtaklari yo'nalishida rivojlanadi.

— Tadqiq qilinayotgan yaxlitlikning tarixini o'zining qonuniyatli bo'g'iniga konstruktiv-tanqidiy, ijodiy yondashuv lozim.

— Rivojlanayotgan predmetning o'ziga xos xususiyatlari bu yerda «sof» holda chiqishi uchun bugunning (albatta, mumkin bo'lsa) to'la yetuk va mumtoz shaklda yondashuvi zarur.

— Bugunning tahlilini va uning immanent ziddiyatlarini aniqlash uchun taraqqiyotni kuzatib borish, ularni hal qilish mumkin bo'lgan yo'llarni aniqlash.

Bugunga tayanib, kech ko'rinishda ko'rilayotgan tizim to'g'risida boshlang'ich tasavvur (sxemali tizimning haqiqiy borlig'ini o'rganib, bilish subyektidan, jumladan, quyidagi metodologik xatolardan qochish) hosil qilish:

1. Bugunning «taraqqiyot cho'qqisi» sifatida tasvirlab, tayyor natijaga, qat'iy tuzilmaga, qotib qolgan yaxlitlikka, unga notanqidiy yondashishi.

2. Ma'lum yaxlit tizimga xos bo'lgan qarama-qarshiliklarni mensimaslik, yashirish («notanqidiy pozitivizm», apologetika).

3. Bugun to'g'risidagi bilimning, mexanik ravishda, o'tmishdagi ko'rinishini har qanday tuzatishlarsiz, uning ixtiyoriy modernizatsiyasini (prezentizm) amalga oshirish, o'tmishni sun'iy ibtidoiylashtirishga yo'l qo'yish mumkin emas. O'tmishni haddan tashqari «tuzatish» obyektiv bilishga xalaqit beradi.

4. Aniqlik yaxlitlikning o'tmishi, buguni va kelajagini haddan tashqari yaqinlashtirish yoki aksincha, o'ta uzoqlashtirish.

5. Ma'lum tizimning o'tmishi, keyin esa kelajagini «zamon virusisiz» o'rganishga urinish yoki bugun to'g'risida ma'lum bilimlarsiz o'tmishni bilishga urinish.

O'z-o'zidan rivojlanadigan yaxlitlik — o'tmishni ko'rib-chiqish, o'z navbatida, ikki bosqichga ajraladi — bu yaxlitlikning genezisini (paydo bo'lishi) aniqlash va uning rivojlanish bosqich-

larini aniqlash. Predmet genezisini biluvchi subyekt uchun quyidagilarni bilish zarur:

1. Predmetning genezisi, takomillashuvi va keyingi rivojini o'rganish predmetning o'zi, uning sifat xususiyatlari, asosiy mazmuni, o'zi to'g'risidagi tushunchaga ega bo'lish lozimligini aniqlashi kerak.

2. Bu predmetning shart-sharoitlari, ularning turlari va ko'p xilligi, uning paydo bo'lishi jarayonida o'zaro harakat mexanizmini tahlil qilish lozim. Shart-sharoitlar — bu unsurlar, jarayonlar, hodisalar va boshqalarning to'plamidir. Ularni undan mustaqil ravishda o'zaro harakatlari asosida paydo bo'ladigan o'ziga xos mahsulot sifatida tahlil qilish. Ulardan biri ma'lum yaxlitlikning tomonlari, lahzalari bo'lib assimilatsiya qiladi. Uning borligining natijalari uning hayot faoliyatini aniq qayta ishlanadigan shakli bo'ladi. Boshqalari esa uning tarkibiga, mazmuniga bevosita kirmaydi, lekin uning paydo bo'lishiga (qarshilik qiladi) yordam beradi.

3. Ma'lum bir xolisiy mezonlarga asoslanib, predmetning boshlanishining yaxlit tizimi sifatida yoki o'sha boshlanish nuqtasidan uning sifat va miqdori tomonidan (uning mutlaq va nisbiy yoshi) uning haqiqiy tarixi boshlandi. Predmetning boshlanishining eng umumiy mezonlari (ularning birligida qo'llaniladigan), bu yaxlitlikning sifat jihatidan o'ziga xos ichki mustaqil tizimi ularning unsurlari bo'ladi.

4. Paydo bo'lgan predmetning «tizim yaxlitligi shakllanishi» yuz berayotgan paytda o'sha maxsus bosqichini tadqiq qilish. Bu shakllanish o'z ichida tarkibiy qismlarga bo'linmagan yaxlitlikning o'z xossa va lahzalari mazmunining ko'p xilligida va o'ziga xosligi bilan qo'shilgan to'la yaxlitlikka o'tishdir. Eskidan yangiga murakkab va aniq o'tish, yangining o'sishi va mustahkamlanishi yuz beradi. U bu yerda yetakchi qarama-qarshilik va butun yaxlitlikning tabaqalashuvi bo'ladi.

5. Barcha jarayonlar asosida yotadigan ma'lum bir (birinchi navbatda, asosiy) qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va hal bo'lishini ko'rib chiqmasdan ma'lum tizimning

(oldingi doirada) shart-sharoitlarini yaratish, uning boshlanishi, shakllanishi va keyingi rivojlanishini tushunish mumkin emas.

Predmetning genezisini o'rganish jarayonida bilish subyekti quyidagi metodologik xatolardan xoli bo'lishi lozim:

1. Predmetning paydo bo'lishini aniqlashdan oldin hech bo'lmaganda uning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy sifat tavsifini bilmaslik va bu qanday predmet, degan savolga javob bermaslik.

2. Har xil turlarni aralashtirish, ularning har birining xususiyati va ularning predmet genezisini farqlamaslik. Har bir yaxlitlikning paydo bo'lish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaslik.

3. Biror-bir aniq tizimning boshlang'ich genezisining yuzaga kelishi va qonunlarini o'xshash tizimning yuzaga kelish shart-sharoiti va takror genezisi qonunlari bilan aralashtirib yuborish.

4. Ma'lum tizimlarning alohida unsurlari, «parchalari», komponentlarini butun bir yaxlit tizim, tarix va yuzaga kelish qonunlari bilan va rivojlanayotgan tizimning o'zini yangi tashkilot-tuzilma sifatida o'xshatish.

5. «Hech narsadan», hech qanday shart-sharoitsiz yuzaga keladigan hodisalar bo'lishi mumkin deb taxmin qilib, predmetning yuzaga kelish shart-sharoitlarini hisobga olmaslik.

6. Ma'lum yaxlitlikni shakllanish qonuniyatlarini butun tarixga, uning rivojlanishining keyingi bosqichlariga mexanik tatbiq qilish.

7. Ma'lum predmetning haqiqiy tarixini, uning tarixi arafasi bilan kengaytirish va predmet tarixiga uning yaratilish shart-sharoitlarini kiritish.

8. Predmet genezisi va uning keyingi evolutsiyasi asosida taraqqiyot, keskinlashuv va ziddiyatlarni hal qilish (eng avvalo, asosiy ziddiyat) yotishi dalilini inkor qilish.

9. Tizimning ziddiyatlari rivojini tan olish, lekin ularning yechimini tan olmaslik yoki uni noto'g'ri tushunish.

Predmet taraqqiyoti bosqichlarini tahlil qilganda bilish subyekti uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

1. Ma'lum yaxlitlik taraqqiyotining barcha sifat, o'ziga xos bosqichlarini imkoniyat darajasida o'rganib, ularning ichida asosiy va zaruriylarini aniqlash, ular o'rtasidagi aloqa va farqlarni tadqiq

qilish. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos tuzilmaga ega, o'z «asos», unsurlar va aloqalari bilan, lekin boshqa tartibdagi o'z taraqqiyot bosqichlariga ega ma'lum bir yaxlit tizim sifatida qarash.

2. Predmetning o'z tarixini davrlashtirish asosida bir yoki bir necha belgilarni qo'yish mumkin. Bu predmet hodisa darajasida (formal davrlashtirish) qaraladi va uning asosiy qarama-qarshiligi (mohiyat) dialektik davrlashtirish darajasida o'rganiladi.

Birinchi empirik darajadan ikkinchi nazariy darajaga o'tishda formal davrlashtirish to'la olib tashlanmaydi, «olingan» ko'rinishda dialektik davrlashtirishga bo'ysundiriladi. Shundan kelib chiqib, predmet «amalga oshayotgan» qarama-qarshilik jarayoni sifatida tasvirlanadi. Bu qarama-qarshilik tarqalishining bosqichlari, bosh shakllari (eng avvalo, asosiysi) ma'lum yaxlitlikning o'zining rivojlanishi bosh bosqichlari, uning tarixining zaruriy fazalari bo'ladi.

3. Ma'lum predmet tarixining barcha bosqichlarida amal qiladigan, uning butun tarixiga xos umumiy qonuniyatlarni o'rnatish.

4. Ma'lum voqelik-hodisaning rivojlanishining har bir bosqichiga xos alohidaliklarni topish, asosiy e'tiborni ularni o'rganishga qaratish. Chunki aynan ular ma'lum bosqichning mohiyati, tabiatini bildiradi.

5. Predmet tarixining barcha bosqichlariga xos bo'lgan umumiylik va uning bosqichlarining bir-biriga xos bo'lgan yakkalikning ichki birligini ochib berish va ularning chuqur immanent dialektikasini aniqlash bevosita bo'g'inlarning barcha zanjirini topish, ular orqali umumiylik va yakkalikning o'zaro o'sib o'tishi yuz beradi. Natijada ular o'rtasidagi ziddiyat yechiladi.

6. Ma'lum yaxlitlikning tarixini nafaqat tashqi, yuzaki, balki uning tarixiy taraqqiyotida, ichki mazmuniy tartibida, o'zining shakllanishida yo'naltirib, mantiqiy qayta ishlab chiqarish, butun bir tasodiflar orqasidan zaruriy mohiyatni aniqlash.

Aniq predmetning rivojlanish bosqichlarini o'rganib, bilish obyekti quyidagi metodologik xatolardan xoli bo'lishi lozim:

1. Davrlashtirishning formal (alohida belgilar bo'yicha) darajasida «cheklanib» qolish, predmetning uning dialektik davrlashtirish asosi sifatida asosiy ziddiyatini topishgacha ko'tarilmaslik.

2. Formal davrlashtirishning ahamiyatini to'la inkor qilish yoki aksincha, o'ta ko'tarish, mutlaqlashtirish.

3. Predmet tarixining asosiy, zaruriy davrlarini ikkinchi darajali, tasodifiy hollar bilan almashtirish, tasodifni birinchi darajaga ko'tarish.

4. Ma'lum yaxlitlikning oliy (aniq) bosqichlari, qonuniyatlarini, uning quyi (mavhum) bosqichlari qonuniyatlariga taqab qo'yish.

5. Taraqqiyotning quyi fazalarining rivojlanish tamoyillarini oliyga mexanik almashtirish, oliy bosqichning qonunlarini mensimay, ularni oliy bosqichlarni tushuntirish uchun bevosita qo'llash.

6. Hodisaning taraqqiyoti, qaysidir bosqichi, uning tarixini barcha davrlarga xos bo'lgan umumiylikni mensimasdan, qonuniyatlarni uning butun tarixiga yoki uning boshqa bosqichlariga ko'chirish.

7. Ma'lum yaxlitlikning (misol uchun, insoniyat sivilizatsiyasi) tarixiga xos qonuniyatlarni uning taraqqiyotining barcha bosqichlari bo'yicha faqat uning bir bosqichiga tegishli deb, u bilan cheklanib qolish. Shu bosqichning o'ziga xos qonuniyatlarini nazarga ilmaslik.

8. Ma'lum yaxlitlikning (misol uchun, biror-bir mamlakat tarixi) tarixiy taraqqiyotida umumiylik va ayrimlikni bog'laydigan qator oraliq bo'g'inlarni ko'rmaslik, umumiy qonunlarni maxsus qonunlarga singdirib yuborish yoki aksincha, ularga aralashtirish va ularni mutlaqo mustaqil, bir-biriga qaram bo'lmagan holda harakat qiladi, deb hisoblash, u yoki bu qonuniyatni mutlaqlashtirish yoki aksincha, tan olmaslik.

9. Ma'lum yaxlitlikning taraqqiyot bosqichlarini quyidagi tushunchalar bilan: mantiq bilan tarixdan mexanik nusxa olish, o'ylamasdan notanqidiy «ko'r-ko'rona»lik bilan bu aniq tarixiylik deb yuzaki kuzatiladigan, o'rganilayotgan yaxlitlikni tarixiy o'z-o'zidan rivojlanishda, deb xom xayolga borish.

10. Turli daraja va tartiblarni aralashtirib yuborish, jumladan, o'tish davrining shakllanishi qonuniyatlarini butun tarixiga mexanik tarqatish.

Kelajakni ko'ra bilish — mantiqiy tahlil zanjiridagi uchinchi bo'g'in va undan oldingi ikki bo'g'in bugunning tahlili, o'tmishning

tadqiqini tashkil qiladi. Kelajakni tahlil qilganda tadqiqotchi quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. Kelajak o'tmishning va bugunning natijasi deb tushunish, insoniyat tarixining o'tmish va hozirgi holati chuqur va har tomonlama o'rganilgan taqdirda va uning o'zgarish qonuniyatlarini yaxshi bilish orqaligina ma'lum darajada uning kelajagini oldindan ko'rish mumkin.

2. Barcha mavjud an'analar, insoniyat (ma'lum jamiyat, millat, davlat, mamlakat, ijtimoiy tuzum va h. k.) keyingi taraqqiyoti yo'lini tahlil qilish, ularning ichidan asosiy an'anani ajratish, uni amalga oshirishga yordam berish, uning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

3. Aniq yaxlitlikning rivojlanish an'alarini aniqlashda ma'lum yaxlitlikni (yoki uning bosqichi) uning ichki o'ziga xos ziddiyatlari bilan ajralmas birlikda olish. Ularning ichida eng asosiysini ajratish, uning va boshqa barcha qarama-qarshiliklarning namoyon bo'lishi va yechilishini kuzatish lozim. Chunki rivojlanishning yangi, yuqori shakli ana shunday paydo bo'ladi.

4. Eng umumiy ko'rinishda taraqqiyotning aniqlangan qonunlariga mos ravishda fikran ma'lum tizimning (jamiyat) konturi, maketi, obrazini bugungi kunda mavjud kurtak, unsur, parchalari, shart-sharoitlari bilan fikran qurish lozim.

5. Borliqning rivojlanish jarayonida bugunning borliqdagi shakli, birinchi mavjud tizimdagi o'zaro harakat, ayrimlikda bo'ysunuvchi o'sha unsurlar ikkinchi shakllanayotgan bo'lg'usi tizimda yalpi, zaruriy, bu tizimni belgilovchi-yetakchi «qiyofasi» bo'lib shakllanadi.

6. Kelajak ekstrapolyatsiyasida bugun va kelajak jarayonlari (bu jarayonlarning anglangan qonunlari asosida) ruxsat etilgan chegaralarni hisobga olish zarur, uning doirasida ko'rsatilgan qonunlarning kelajakdagi tasviri, bu chegaralarning o'zgarish mumkin bo'lgan, ularning sathidagi an'alarini tasvirlash mumkin.

7. Ma'lum jamiyat rivojining muqobil variantlarining kelajak ko'rinishini ishlab chiqishga yordam berish, ulardan eng optimallarini aniqlash va istiqbolli tomonlarini asoslash.

Predmet taraqqiyoti an'analarini tadqiq etishda biluvchi subyekt, xususan, quyidagi metodologik xatolardan qochishi lozim:

1. Bu yaxlitlikning kelajak taraqqiyot an'analarini bilishga urinib, uning o'tmish tarixi (o'tmishi va buguni) va o'zgarish qonunlarini bilmaslik.

2. Ma'lum predmetning kelajak taraqqiyot an'analarini aniqlashga urinib, uning kelajakka chiqaradigan barcha ziddiyatlarini aniqlashtirmay, tahlil qilmay yoki predmetdagi obyektiv mavjud ziddiyatlarni ma'lum bir usullar yordami bilan yashirish, bo'yab ko'rsatish, «tugatish».

3. Predmetning kelajagi to'g'risida mushohada qilib, uning hozirgi holatining tahlilini xolisona amalga oshirmaslik, uning hozirgi borlig'ini tadqiq etishdan bosh tortish (chunki bugungi holat kelajak uchun shart-sharoit yaratadi, kelajakning kurtak, unsur, parchalari bugunda yuzaga keladi), eng avvalo, barcha ziddiyatlar va taraqqiyot qonunlaridan ko'z yumish.

4. Fan qonunlarining taqiqlovchi jihatlarini mensimaslik va ma'lum yaxlitlikni kelajak holati doirasida paydo bo'lishi mumkin bo'lmagan holatni chiqarishga urinish.

5. Aniq predmetning kelajagini (ayniqsa, uzoq o'tmishini) faqat uning umumiy belgilarida emas, uning eng kichik detallarida, har tomonlama batafsilligida, qochib bo'lmaydigan cheklanganlikni tushunmay, kelajakni har qanday ko'rish chegaralarining orqasidan tavsiflash utopiyaga: quruq bo'shliq, asossiz fantaziya va uydirmaga olib keladi.

6. O'tmishga o'ta cho'mib ketish, zamonaviy amaliyotdan uzoqlarga tiqilib qolish, «jonli hayotning» zamonaviy dolzarb tahlili zarariga mavhumlashtirishga qolish, uning kelajakka o'sib ketish yo'llari va shakllarini izlashdan uzoqlashish.

7. Amaliy voqelikni asossiz, uydirma chizmalar ostiga va uning kelajak taraqqiyoti formulalariga to'g'ri keltirish va bu o'ylab chiqarib qurilgan, o'ziga tortadigan obrazni hayotga tiqishtirish, kelajak bugunning mavjud ziddiyat, qarama-qarshiliklardan o'sib chiqishining dalilini mensimaslik.

Tarixiylik tamoyilini metodologik jihatdan tadqiq qilish asosiy ilmiy muammolardan biri. Tarixiy tadqiqotda konsepsiyalash

o'rganilayotgan obyektning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradigan alohida belgilarga ega. Tarixiy konsepsiyalash har bir alohida holatda metodologik tarixiylik va tegishli tarixiy vaqtga tayansa samarali bo'ladi. Chunki barcha tarixiy jarayonlar vaqtinchalik jarayonlardir.

Tarixiylik tamoyili fanda shakllantirilgan. Tarixiylik obyektiv qonuniyatlar asosida barcha voqealar rivojlanayotgan jarayon sifatida ilmiy tafakkurning tamoyilidir. Umumiy taraqqiyotni tan olishda hech qanday xususiy tarixiylik mavjud emas. Tarixiylik tamoyili amaldagi tarixiy jarayonlarning dialektikasini ochib berishni talab qiladi. Chunki jamiyat hayotidagi har qanday hodisalarni o'zgarmas holda emas, balki uning tarixiy o'zaro aloqadorligida, uning genezisi, taraqqiyotining o'tmishi va kelajagi qarashidan qarashni zarrm deb hisoblaydi. Tarixiy hodisalarning barcha aloqalarining paydo bo'lishi va shakllanishini hisobga olish, aniq ko'rib chiqish talabi — tarixiylik tamoyilining o'zgarmas belgisi. Bu tamoyil tarixiy tadqiqotning metodologik qoidasidir.

Tarixiylik tamoyilining metodologik tushunchasi falsafada va yangi davr fanida to'rt bosqichni bosib o'tdi. Mexanik yoki naturalistik **birinchi bosqich** karteziyan (Dekart ismining lotincha aytilishi) ratsionalizmiga borib taqaladi. R. Dekart tabiatdagi taraqqiyotni tan olib, jamiyat taraqqiyotini tan olmadi va unga ilmiy bilish metodini qo'llamadi. Keyinchalik uning izdoshlari metodologiyada bu kamchilikni tuzatishga urinib, jamiyat taraqqiyotini tabiat taraqqiyotining xususiy varianti sifatida yoki naturalistik deb qaradilar. Jamiyat alohida mexanizm yoki agregat sifatida tushunildi. Uning tadqiqot metodlari esa obyektning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan ba'zi o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan tabiatshunoslik metodlaridan kelib chiqishi lozim edi. Ayni shu davrda tabiat va jamiyat taraqqiyotida «bir xillik», «umumiylik» yoki «o'xshashlik» g'oyasi mavjud edi.

Ikkinchi bosqich nemis klassik falsafasining taraqqiyoti bilan bog'liq. Tarixiylik tamoyilining idealistik dialektika doirasida eng to'la ishlab chiqilishi G. Gegel asarlarida o'z aksini topdi. Uning tushunchasida tarixiylik quyidagilarga bog'lanadi:

Jamiyat rivojlanayotgan tarixiy hodisa sifatida o'zgarayotgan tizimdir. Lekin uni rivojlanmaydigan tabiatga qarama-qarshi qo'yish

va birgina shu uchun tarixiy emas; tarixiylik ruhning taraqqiyoti bosqichi yoki alohida shakl, aynan o'zini anglaydigan jamiyatlar va ularga tegishli madaniyatlarning izchil almashuvida amalga oshadigan xalqlarning ruhi deb tushunish; tarixning qonuniyatli, takrorlanmaslik xususiyatini tan olish, bunda takrorlanish faqatgina qisman, spiral halqalari shaklida amalga oshadi.

Tarixning boshlanishi va nihoyasini tan olish, oqibatda tarixni insoniyat taraqqiyotidagi ana shunday bosqichlaridan biri sifatida tan olish, unga tarixgacha bo'lgan bosqich o'tdi. Undan so'ng tarixdan keyingi bosqich ozodlik, ruhning o'z-o'zini qondirishi, uning o'zi bilan to'la qo'shilishi bosqichi boradi.

Shaxslarni va umuman tarixiy batafsilliklarni qiziqarli tarqatuvchi sifatida tarixning ruhi, uning qonuniyatlarini tadqiq qilish zarur. Tarixiylik bu shaklda umumfalsafiy dunyoqarash tamoyili, keng ma'noda metodologik qoida sifatida chiqadi.

Tarixiylik tamoyilining metodologik ko'rinishdagi shakllanishining uchinchi bosqichi XIX asrning birinchi yarmi tarixshunosligining rivojlanishi bilan bog'liq (Ranke maktabi, XIX asr o'rtalari nemis tarixshunosligi, Restavratsiya davri fransuz tarixshunosligi). Tarixiylik tarixchi-tadqiqotchining ishchi tamoyili sifatida ishlab chiqildi. Bu bosqich uchun quyidagi yo'riqnomalar xos:

— Tarixiy tadqiqot empirik bo'lishi, oqibatda butunlay aniq manbalarga tayanishi lozim. Tarixning maqsadi — nima qanday sodir bo'lganini hikoya qilishdir;

— Manbalarning haqiqiyliги va ulardan olingan ma'lumotlar yordamchi tarixiy fanlar ishlab chiqadigan maxsus metodlar tizimi bilan kafolatlanadi;

— Tarixiy qissa, manbalardagi vaziyatlar, voqealar va jarayonlarni tasdiqlaydigan tasvirlar yuqori darajada to'la bo'lishi lozim;

Tarixiy qayta tiklash (rekonstruksiya)ning bosh maqsadi — tarixiy personajlarning maqsad va niyatlarini qayta tiklashdir. Bunda tadqiqotning bosh figurasi shaxs bo'ladi.

Ikkinchi va uchinchi bosqichlarni tavsiflovchi unsurlarning ikki guruhi bir tizimga turlicha birlashtiriladi va tarixiylik tamoyilining turli talqinlarini hosil qiladi.

Tarixiylik tamoyilining metodologik yo'l-yo'riq sifatida shakllanishining to'rtinchi bosqichi tadqiqotlarning maqsad va yo'nalishlarini tashkil etish qoidalari sifatida dialektik metod asosida XIX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirildi. Dialektik metod asosida tarixiylik tamoyilining shakllantirilgan asosiy nuqtalari quyidagilar bo'ldi:

1. Tarix fanining obykti insoniyat taraqqiyotining o'tmishi deb tushuniladigan tarix bo'ladi. Bu taraqqiyot alohida obyektiv qonunlarga bo'ysunadi.

2. Jamiyat taraqqiyoti tabiat taraqqiyotidan farq qiladi. Tabiat odamning irodasi, ongi va maqsadlaridan mustaqil ravishda o'z xususiy qonunlari bo'yicha rivojlanadi. Tarixiy taraqqiyot, eng avvalo, odamlarning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatining butun rivojidir. U iroda, hissiyotlar, anglangan yoki intuitiv maqsadlar shaklida chiqib, tarixning muhim omili bo'ladi.

3. Ongning barcha shakllari, ko'rinishlari oxir-oqibatda odamlarning ijtimoiy ongi bilan belgilanadi. Ma'lum sharoitlarda ijtimoiy ong va uni amalga oshiradigan muassasalar nisbatan mustaqillikka ega bo'ladi.

4. Tarixiy bilishning empirik asosini tarixiy va arxeologik manbalarning ilmiy-tanqidiy tadqiqotlari asosida quriladigan dalillar tashkil etadi. Tarixiylik tamoyili tarixiy tadqiqot vazifa qilib qo'ygan muammoni yechish uchun imkoniyat darajasida ko'proq dalillarni aniqlash va tasvirlashni talab qiladi.

5. Tarixiy borliqning voqealari, vaziyatlari va jarayonlari saba-biyatli shartlangan.

6. Tarixiy voqelikning vaziyatlari, voqealari, jarayonlari funksional bog'langan.

7. Barcha tarixiy voqealar, vaziyatlar va jarayonlar, ularning tarixiy taraqqiyotdagi ahamiyati, hissasi bo'yicha darajasi farqlanadi. Ahamiyatlilik mezonini sifatida ma'lum hodisaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tuzilmalari, ularning taraqqiyoti jarayoni uchun munosabati bo'yicha yordam berishi, to'siqlik qilishi yoki neytral qolishini aniqlash bilan beriladi.

8. Tarixiy hodisalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va yo'q bo'lishi xolis vaqt va kenglikda yuz beradi. Tarixiy taraqqiyot jarayoni

o'ziga xos tarixiy shaklda dialektik ravishda yuz beradi. Tarixni nazariy bilish — tarixning konsepsiya-chizmalari va ilmiy qonunlarini shakllantirish uchun dalillarga tayanib, jamiyatda harakatda bo'lgan sababli va funksional aloqalarni qayta ishlab chiqaradi, qayta tiklaydi va tushuntiradi.

Tarixiylik tamoyili faqat tarixiy bilimga qo'llanilib qolmaydi, balki undan barcha ijtimoiy fanlar, aniq ijtimoiy tadqiqotlarda jamiyatni bilish uchun foydalaniladi. Tarixiylik tamoyili insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyotini ilmiy tahlil qilish va bilishga qaratilgan alohida metodologik yo'riqnomadir.

3. Tarixiylik va istoritsizm. Tarixiy tamoyil — bu tarixchilar, metodologlar, sotsiologlar, qisqasi, u yoki bu darajada jamiyat o'tmishini ilmiy bilishga qiziqqanlarni ikki murosasiz guruhga ajratadigan chegaradir.

Tarixiylik tamoyilining metodologik qoidalariga qarshi tanqidiy ratsionalizm yo'nalishi rahbari K. Popper qarshi turadi. Aynan u tarixiylikning tanqidchilari ichida eng obro'lisi bo'lib, uning qarashlari jiddiy tahlil qilishga arziydi. K. Popper o'zining «Ниспета историзма» («Istoritizm qashshoqligi») asarida tarixiylikka qarshi o'zining asosiy e'tirozini shakllantiradi. Bu e'tirozning mohiyati shundan iboratki, jamiyat taraqqiyoti bilimlarning o'sishiga bog'liq. Bu bilimlar xususiyatini oldindan aytish mumkin emas. Shuning uchun kashfiyotni oldindan ko'rish mumkin bo'lmaganidek, kelajakni ham ko'rib bo'lmaydi.

Buning tarixiylikka qanday aloqasi bor? Popper tarixiylik va istoritsizmni ajratadi. Tarixiylik tushunchasiga u shunday yondoshadi: ijtimoiy ta'limotlar — agar ular taraqqiyot qonunlari va an'alarini to'g'ri aks ettirsa, «ijtimoiy tabib» vazifasini bajarib, unga yordam berishlari mumkin. Jamiyatning konservativ kuchlarining qarashlari taraqqiyotga qarshilik ko'rsatishlari, sekinlatishlari yoki uning ko'rinishini o'zgartirishlari mumkin. Shu bilan birga u yoki bu ijtimoiy ta'limotlar, nazariyalarni tegishli sinflar va guruhlarining manfaatlari bilan ijtimoiy shartlangani to'g'risidagi ta'limotni Popper bilish sotsiologiyasiga kiritadi. Istoritsizm ijtimoiy fanlarda shunday yondashuvki, ularning asosiy maqsadi tarixiy bashorat qilishdir va tarix evolutsiyasi asosida yotadigan «ritmlar»,

«namunalar», «qonunlar» yoki «an'analarni» ochib, bu maqsadga erishish mumkin.

Bunday interpretatsiyada istoritsizm va u bilan birga tarixiylik ilmiy tadqiq qilishning markaziy metodologik tamoyili emas. Ijtimoiy bashorat qilish kelajakni oldindan aytishning metodologik va falsafiy asosi bo'lib, istoritsizmning qandaydir unchalik ahamiyatsiz parchasidir. Istoritsizmga asoslangan kelajakni oldindan ko'rish jarayoniga Popper bashoratchilik sifatida qaraydi. Popper istoritsizmni tanqidiy inkor qilish maqsadida mohiyati bo'yicha quyidagi savollarga javob berishi kerak edi:

1. Tarix nima?
2. Jamiyatga yaxlitlikda qarash mumkinmi?
3. Umuman ijtimoiy taraqqiyot qonunlari va tarix qonunlari bo'lishi mumkinmi?
4. Kelajakni oldindan ko'rishning asoslari qanday?
5. Amalda istoritsizmdan kelib chiqadigan insonning kelajakka munosabati qanday?

Bu savollarga Popperning qisqacha javoblari quyidagicha ko'rinadi:

1. Tarix — bu mohiyati bo'yicha siyosiy va ijtimoiy voqealarning xronikasidir.

Tarixchilar ba'zi umumiy vaziyatlar, an'analar, shunga o'xshashlar bilan qiziqishlari mumkin bo'lsa-da, lekin amalda ular individual va noyob voqealar bilan qiziqadilar, deb turib oladi Popper. Asosiy omil manfaat bo'ladi. Uning kelib chiqishi Popper tomonidan tadqiq etilmaydi va umumiylikka qiziqishning mumkinligining o'zi oddiy istoritsizmga tan berish sifatida qaraladi.

2. Birinchi javobni asoslashni Popper «jamiyatga qandaydir yaxlitlikda qarash mumkin emas» degan tasdiqda beradi. Chunki xolestik (endi tizimli deb aytishimiz mumkin) yondashuv metodologik jihatdan mumkin emas. Inson tafakkuri alohida unsurlar, an'analar va ular o'rtasidagi qisman aloqalarni ochishi mumkin. Lekin murakkab tizimli yaxlitlikni bilishi mumkin emas. Shuning uchun alohida voqealar va jarayonlarning tarixiy bilish natijalari butun jamiyatga, buning ustiga, uning kelajagiga tarqalishi mumkin emas.

3 Bu uchinchi savolga javobni olib keladi. Tarix qonunlari, tabiat qonunlari to'g'risida gapirilganidek, ma'noda mavjud bo'lmaydi. Istoritsizm vakillari (Popper ularga Kont va Millni ham kiritadi) tarix qonunlari deb aytiladigan tushuncha taraqqiyot yo'nalishlari va an'alarini tasvirlashgan, xolos. Fan qonunlari abadiy va o'zgarmas aloqalarni belgilashi lozim.

Ana shundagina obyektiv dunyodagi o'zgarishlarni tasvirlash va tushuntirish uchun ulardan foydalanish mumkin. Agarda qonunlarning o'zi o'zgarsa, ularning yordami bilan o'zgarishlarni tushuntirish mumkin emas. Qaysiki, bu holatda o'zgarishlar mo'jiza sifatida qaralishi kerak.

Tarix qonunlarining o'zi davrdan davrgacha o'zgarishi mumkin, deb istoritsizm tan oladi. Lekin shunda Popperring aytishi bo'yicha aynan ma'noda ular qonunlar bo'lmaydi. Bu xulosa Popperring tarixning noyob takrorlanmaydigan individual voqealarning to's-to'poloni deb tushuntirishini kuchaytiradi. Unda hatto statistik muntazamlik, buning ustiga, o'zgarmas abadiy qonunlarni topish mumkin emas.

4. Bundan kelib chiqadiki, tarixiy taraqqiyot qonunlari asosida kelajakni ko'ra bilish mumkin emas. Chunki, birinchidan, bunday qonunlar yo'q, ikkinchidan agar ular bo'lganda edi, ko'zda tutilmagan ijtimoiy o'zgarishlar oqibatida ular o'z kuchlarini yo'qotishlari mumkin edi. Bu javobda ayrim mantiqiy halqa mavjud. Uni sezmagani holda Popper qizg'in munozara natijasida istoritsizm tarafdorlarida mumkin bo'lgan o'zgarishlarni oldindan ko'rish uchun tasavvur yetishmaydi. Shuning uchun istoritsizm qashshoqligi — bu tasavvur qilish qashshoqligidir. Shu tarzda qonunlarga asoslangan ilmiylikda kelajakni oldindan ko'ra olish mumkin emas.

5. Odatda, kelajakni oldindan ko'ra bilish deb aytiladigan tushunchalarni ikki sinfga bo'lish mumkin: 1) bashoratchilik. 2) texnologik bashoratlar. Bashoratchilikka Popperring fikricha, meteorologning yaqinlashib kelayotgan tayfun xabarini aytish — mumkin. Bu tayfunning oldini olish mumkin emas. Texnologik oldindan aytish — bu qanday boshpana va qanday materiallardan qurish lozimligi. Bu tayfunning tazyiqini qaytara olishi, odamlar va texnika uchun boshpana sifatida xizmat qilishi mumkin. Jamiyatga

nisbatan qo'llaniladigan bashoratlar utopiya, faqat texnologik oldindan aytish tabiat va iqtisodiyot qonunlariga asoslanishi mumkin. Bundan Popper quyidagicha xulosalarni chiqaradi: kelajakda tarixiy qonunlarning ekstrapolyatsiyasiga ishonadigan va bashoratchilik ko'rsatmalariga amal qiladigan odamlar tashabbusni bostiradigan, boshqaruvning o'ta murakkablashuvi, boshqa odamlar ustidan nazorat bilan bog'langan umumiy ijtimoiy loyihalashtirishga moyil bo'ladilar. Aksincha, xato va sinovlar metodologiyaga asoslangan qisman texnologik loyihalashtirish ijtimoiy taraqqiyotning umumiy qonunlarini bilishni talab qilmaydi. Va kichik o'zgarishlar, islohotlar vositasida kichik ijtimoiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Demak, Poppening bu xulosasi yirik hajmlarda ijtimoiy bashoratning mumkin emasligini metodologik asoslashdir. U yirik hajmlarda ijtimoiy bashoratlar bo'lishi mumkin emasligini metodologik asosladi. Haqiqatan ham ijtimoiy amaliyot markscha ijtimoiy yirik hajmda qilgan ijtimoiy bashorat (Kapitalizmning halokati, kommunizmning muqarrar g'alabasi) asossiz ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Ayrim tarixchilar, misol uchun, Fevr va Shpengler tarixning bosh vazifasi deb insoniyat kelajagini oldindan aytib berish, degan tushunchani ilgari suradilar. Ma'lumki, tarixiy voqelikni tarix fani o'rganadi. Tarix fani o'tmishni maxsus metodlar orqali o'rganadi. Tarixiy bilimning alohida afzalligi shundaki, u ma'lum voqea, jarayonlarni o'sha davr zamondoshlari bilimlari bilan qiyoslagan holda o'tmishni o'rganadi. Aynan shu tushuncha tarixiy voqelikni amaliyot tamoyiliga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarix fani o'tmish tarixni maxsus metodlar bilan bizdan vaqt bo'yicha uzoqlikda o'rganish qobiliyatiga ega. Bunday oraliqning bo'lishi salbiy dalil emas, balki ilmiy bilishning zaruriyatini oqlaydi.

Tarixiy bilishning alohida afzalliklari uni ma'lum voqea, jarayonlarga nisbatan zamondoshlar ega bo'lgan bilimlar bilan taqqoslashda aniqlanadi. Bu afzalliklar quyidagilarga taqaladi:

1. Manbalarga suyangan holda tarixchilar voqealarni ichki va tashqi tomondan o'rganadilar. Zamondoshlar voqealarning bevosita ishtirokchilari yoki chetda turib kuzatish asosida bevosita taassurotlarga ega bo'ladilar. Faqat juda oz kishilargina o'z shaxsiy

dunyoqarashlari, manfaatlaridan yuqori turgan holda o'zlari guvohi bo'lgan o'z zamondoshlari voqea va jarayonlarining haqiqiy, xolisona manzarasini yoritishlari mumkin.

2. Zamondoshlarning axborotlari cheklangan. Ko'pgina hujjatlar maxfiylashtirilgan. Shaxsiy arxivlarda saqlanadigan xususiy yozishmalardan ular foydalana olmaydilar.

Mafkuraviy, etnik, diniy va til to'siqlari, ko'pincha, ishtirokchilarga u yoki bu voqealarni nafaqat tushunish, hatto belgilashga ham xalaqit beradi. Tarixchilar uchun bu to'siqlar qisman yoki to'la bartaraf qilinadi yoki kam ahamiyatga ega bo'ladi.

3. Tarixchi o'rganiladigan voqea-jarayonlarning nafaqat sabablari, balki oqibatlarini, odatda, vaqtning katta oraliqlarida kuzatib borish imkoniyatlariga ega. Zamondoshlar uchun bu deyarli mumkin emas, ayniqsa, oqibatlariga nisbatan F. Engels Gegelning fiknini davom ettirgan holda, odamlar orzularining alohida ko'p holda qarama-qarshi maqsadlarini ko'zlab, ko'pincha, mutlaqo kutilmagan va birdaniga ko'rilmaydigan, kutilmagan natijaga keladilar.

4. Zamondoshlar, odatda, har xil ijtimoiy-psixologik affektlar, irimlar, aqidalar, xayollar hokimiyati ostida bo'ladilar. Shuning uchun o'z davrlari, o'z faoliyatlari o'z-o'zlarini noto'g'ri qabul qiladilar va baholaydilar. Tarixchilarda bunday adashishlar darajasi nisbatan kam bo'ladi. Shuning uchun ular o'tmishning xolisona manzarasini tasvirlash uning taraqqiyotining qonuniyatlari va haqiqiy an'analarini shakllantirish va tushunish imkoniyatiga egadirlar. Bu tarix fanining mavjudligi, uning muammolarining dolzarbligini to'la oqalaydi va uning majburiyatlari doirasiga uning asosiy vazifasi sifatida kelajakni o'rganishni qo'yish kerak emas.

Hozirgacha hech kim tarixiy va arxeologik manbalarga asoslangan holda tarixiy bilish metodlaridan foydalanib, kelajak tarixini yozish sharafiga muyassar bo'lgani yo'q. Albatta, bu aytilganlar kelajakning ilmiy bashoratlarini tuzish va kelajakni ilmiy ko'ra bilish uchun tarixiy bilim kerak emas yoki ortiqcha, degan ma'noni bildirmaydi, lekin bunday bashorat qilish va oldindan ko'ra bilish tarix fanining o'z vazifalariga kirmaydi. Poppoerning istoritsizm tanqidining eng asosiy kamchiligi «Hozirgi zamon tushunchasini

to'la mensimasligidir». Chunki tarixiy vaqt o'tmish, bugun va kelajakni o'z ichiga oladi. Tarixiylik (dalil) hodisani uning taraqqiyotida qabul qilishdir. Hodisani o'z rivojida qabul qilish nima ma'noni bildiradi? Bu hodisaning o'tmishida (genezis) va bugun bilan uni boshqa hodisalar bilan aloqada qarab chiqish demakdir. Har qanday voqea, dalilni oddiygina aytishda tarixiylikdan asar ham yo'q. Voqealarni sanab o'tishda ham tarixiylik yo'q. Tarix va voqealar xronikasi har xil tushunchalardir.

Tarix fanining asosiy vazifalaridan biri o'tmishni tushuntirish asosida hozirgi zamonni tushunishdir.

Yuqorida aytilganlarga asosan quyidagi ikkita xulosani chiqarish mumkin:

1. Tarixiylik istoritsizm emas; tarixiylik, tarixiy bilish uning zaruriy shart-sharoitini yaratsa-da, ijtimoiy bashorat qilish yoki oldindan ko'ra bilish texnologiyasi emas.

2. Tarixiy konseptuallash va tarixiy tamoyil o'rtasida chuqur aloqa mavjud.

Tayanch iboralar: tarixiylik tamoyili, istoritsizm, Popper, metodologik qoida, ratsionalizm, «Istoritsizm qashshoqligi», ijtimoiy «akusher», ritm, an'analar, interpretatsiya, ijtimoiy bashorat, siyosiy va ijtimoiy voqealarning xronikasi, tarixiy bilish, Kont, Mill, statistik muntazamlilik, ijtimoiy fanlar, tarix evolutsiyasi, texnologik bashorat, tayfun, konseptual.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tarixiylik tamoyili tushunchasiga izoh bering.
2. K. Popper «Istoritsizm qashshoqligi» asarida, asosan, qanday fikrni shakllantiradi?
3. Kelajakni oldindan ko'ra bilish deb ataladigan tushunchalarni nechta sinfga bo'lish mumkin va ular qaysilar?
4. Tarixiylik va istoritsizm tushunchalarini izohlab bering.
5. K. Popperring tanqidini tushuntirib bering.
6. Voqea va jarayonni tushuntirib berishning zamondosh va tarixchi o'rtasidagi farqini ayting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Tarixiylik tamoyili va istoritsizm.*
2. *Poppning istoritsizm tanqidi.*
3. *Tarixiylik tamoyili metodologiyasining bosqichlari.*
4. *Gegel asarlarida idealistik dialektika.*

15-MAVZU.

TARIXIY TUSHUNTIRISH

1. *Tarixiy tushuntirish.*
2. *Hozirgi zamon tarix metodologiyasida tarixiy tushuntirish.*
3. *Oqilona tushuntirish konsepsiyasi.*
4. *Tasvir ilmiy bilish tizimi sifatida.*
5. *Matn.*

1. Tarixiy tushuntirish. Tarixchi fizik, matematik yoki geologga qaraganda, kundalik til amaliyoti bilan bog'langan. Chunki tarix fanining tili hozirgacha to'la formallashtira olinmagan. Bundan tashqari, tarixchi o'rganadigan jarayonlarning boyligi va turli xilligi bu jarayonlarni har qanday sun'iy til tizimida bayon qilish mumkin emasligini ko'rsatadi. Tabiiyki, «tushuntirish» atamasini tarixchilar, ko'pincha, tabiiy tilda qabul qilinganidek ishlatadilar. Tarixchilarga tushuntirish tartibini nafaqat tarixiy bilim obyektlarini ko'rib chiqishda, balki tadqiqot obyektlarini maxsus tahlil qilish jarayonida qo'llashga to'g'ri keladi.

Y. Topolskiy tarixiy tushuntirishlarning quyidagi turkumlarini taxmin qiladi:

1. Tasvirlash vositasi bilan (diskripsiya);
2. Genezisni o'rnatish vositasi bilan (genetik);
3. Tuzilmada o'rinni topish vositasi bilan (tuzilmali);
4. Aniqlash vositasi bilan (definitiv);
5. Sabablarni aniqlash vositasi bilan (deskripsiya)

Tarixchi manbalarining kelib chiqish tarkibi va tuzilishini tushuntirishi lozim. Unga uch turdagi tushunchalar va til tuzilmalarini tushuntirishga to'g'ri keladi:

- tarixchining o'zi foydalanadigan tushunchalar;
- manbalarni tuzuvchilar foydalangan tushunchalar;
- manbalardagi tushunchalar;

— tarixiy shaxslar o'zlari foydalangan tushunchalar.

An'analar tarix qonunlari emas. Ko'p hollarda ularni qonunlar bilan adashtiradilar. Eng avvalo, ilmiy qonun — bu universal tasdiq bo'lib, uning umumiy shakli : «Har qanday obyekt uchun haqiqat (to'g'ri), agar bu obyekt «a» xossasiga ega bo'lsa, u «b» xossasiga ham ega». An'analar to'g'risidagi fikrlar universal emas, ekzistensial bo'ladi. An'analar belgilangan vaqtda, belgilangan joyda ayrim yo'naltirilgan o'rganishlar holatida mavjud bo'ladi. Agar qonun hamma vaqt va hamma joyda mavjud bo'lsa, an'ana aniq vaqtda shakllanadi va uning yashash muddati cheklanadi.

Ayтайlik, insoniyatning aholi o'sish an'anasi yuz yillar, hatto ming yillar davomida saqlanib qoldi. Lekin u sanoqli o'n yilliklarda o'zgarishi mumkin. Texnik progress so'nggi uch o'n yillikni qamrab oladi. Ammo ma'lum bir noqulay holatlar natijasida uning yutuqlari bir avlodning hayoti davomida yo'qotilishi mumkin. Qonundan farq qilgan holda an'analar hamma vaqt shartlangan. U ma'lum bir sharoitlarda paydo bo'ladi va sharoitlar yo'qolgan paytda o'z hayotini tugatadi.

Bir davrda aniq ko'zga ko'ringan an'analar boshqa davrda umuman ishtirok etmasligi mumkin. Misol uchun, Qadimgi Yunon shaharlaridagi demokratiya eramizdan avvalgi IV asrdan boshlab mavjud emas edi.

An'analar nafaqat paydo bo'ladi, balki o'lishi ham mumkin. Hozirgi aniq ko'ringan an'analar o'tmish va kelajakda o'zini umuman ko'rsatmasligi mumkin.

2. Hozirgi zamon tarix metodologiyasida tarixiy tushuntirish. Tarixiy tushuntirishning asosiy metodlari olim I. S. Konning «Tarixiy tushuntirishlar mantiq'i» (Popper-Gempel chizmasi va uning tanqidi), «Tarix fanining falsafiy muammolari», U. V. Skvortsovning «Tarix va antiistoriya», E. Loonening «Hozirgi zamon tarix falsafasi» kabi asarlarida beriladi. Tushuntirish o'z mantiqiy tuzilmasiga ko'ra, oldindan aytish bilan o'xshash qilinadi. Bu ikki bilish jarayoni (o'tmish va kelajakka tegishli bo'lgan va obyektlarning mavjudligi yoki yo'qligi) bilan bog'langan bo'ladi. Shu bilan birga ilgari mavjud bo'lgan, tasviri hozirgacha saqlanib qolgan obyekt hamda tushuntirish berilayotgan vaqtdagi obyekt mavjud deb hisoblanadi.

Mantiqiy pozitivizm yetakchilari ishlab chiqqan aynan bu model tushuntirish va oldindan aytish simmetriyasi to'g'risidagi ta'limot asosida yotadi.

Ushbu modelga ko'ra, tushuntirish chizmasi shunday bo'ladi. Tasvirlashning ikki guruhi mavjud. Ulardan biri kuzatilayotgan sabab va oqibatlarni tasvirlaydi, boshqasi qonunlar to'plamidan iborat yoki Gempel aytganidek, ma'lum predmet sohasida farazlarni qamrab oladigan «universal»lardan iborat va bu sohadagi mumkin bo'lgan barcha voqea-hodisalarni tushuntirishning zaruriyati bilan lozim. Tushuntirish jarayoni quyidagi tarzda ko'rinadi: To'plamda tasvirlangan voqea-hodisalarning universal farazlar sababi bilan olingan (qonunlar bilan qamrab olingan) mantiqan ayrim ko'pchilik oqibatlar chiqariladi. Agar bu oqibatlar amaldagi tarixiy voqealarga to'g'ri kelsa, ular tushuntirilgan hisoblanadi. Tarixiy tushuntirish holatida bunday jarayonni mutlaqo qat'iy bajarish mumkin emasligi tushunarli. Buning uchun katta miqdorda universal farazlar va tarixiy dalillar, ma'lumotlar zarur.

Tushuntirish sketchlari deb ataladigan takliflarni kiritib, Gempel mantiqiy qat'iylikda o'z talablarini yumshatdi. Bu modelning yumshatilgan varianti bo'lib mantiqiy talablar yaqinroq amalga oshadi, qat'iy ko'rsatmalarni detallashtirib bajarish majburiy emas. Hatto shunday tuzatish bilan bu konsepsiya ko'p yillar tanqid ostiga olindi. Bu tanqidning asosiy argumentlarini quyidagi qoidalarda keltirish mumkin:

1. Nihoyasiz (amaldagi) ko'pchilik individual tarixiy voqealarni universal farazlarning ma'lum miqdori yordami bilan tushuntirish mumkin emas. Chunki tabiiy hodisalarga qaraganda tarixiy voqealar farazni shakllantirishga kiradigan o'zgaruvchan o'xshash hodisalar guruhlariga birlashtirilishi mumkin emas. O'zgaruvchan o'xshash hodisalar guruhlariga birlashtirilishi mumkin emas.

2. Nafaqat nihoyasiz, balki oddiy universal farazlarning juda katta soni tushuntirishning tegishli tizimini qurishda amaliy qo'llash mumkin emas. Tarixiy tushuntirishda obyektlarning murakkabligi sababli bunday farazlarning nisbatan uncha katta bo'lmagan soni bilan cheklanish mumkin.

3. Tarixning adekvat obyektiv qonunlari umuman mavjud emas. Umume'tirof etilgan mavjud qonunlar iqtisodiyot, psixologiya, lingvistika, texnologiyaga tegishli bo'lib, tarix fanining mulki emas. Qisqacha qilib aytganda, tushuntirishning bunday xili zaruriy qoidalarni boshqaradigan va xulosalarning ishonchlilikligi va mosligini kafolatlaydigan universal faraz va nazariyalarning tarixiy bilishda mavjud emasligi uchun mumkin emas.

4. Tarixiy tushuntirishning maqsadi — takrorlanmaydigan vaziyatlarda ayrim takrorlanmas shaxsning individual faoliyati va qarorlarini bilishidir. Tushuntirish tartibi oqilona tartib sifatida bu maqsadni amalga oshirishga yaramaydi. Chunki o'ziga xos qoidalar, o'ziga xos vaziyatlar, o'ziga xos harakatlar va ularni qamrab oladigan umumahamiyatli obyektiv qoidalarni tan olishga suyanadi. Ularning barchasi tarixiy individuallikni yetarlicha to'liq aks ettirishga qodir emas. Bu e'tirozlar mohiyatan qamrab olinadigan qonunlar konsepsiyasi tarixiy tushuntirishlar va tarixiy bilishlar o'ziga xosligini hisobga olmaydi.

3. Oqilona tushuntirish konsepsiyasi. Bu konsepsiya oqilona tarix-tarix motivlariga asoslanib, u olim Drey nomi bilan bog'liq. U tarixchining maqsadi g'oyatda individual, xatti-harakatlar va faoliyatlarni tushuntirish shart emas, deb hisoblaydi. Ijtimoiy muassasalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi sabablari, ijtimoiy o'zgarishlarni tushuntirish bundan ko'ra muhimroqdir. O'tmish to'g'risidagi ma'lumotning taqchilligi va qarama-qarshiligi sababli, tarixchi ma'lum bir qiyinchilikni his qilganligi sababli tushuntirish muammosi paydo bo'ladi. U ziddiyatli vaziyatni bartaraf qilish uchun tarixiy personajlar ma'lum bir to'la oqilona maqsadlar, motivlar va qaror-qoidalarga asoslangan holda o'z qarorlarini qabul qiladi va o'z faoliyatini amalga oshiradi. Tarixchi zamonaviy odamning tafakkuri bilan o'xshash metoddan foydalanib, bu maqsadlar va motivlar qoidalarni qayta tiklashi lozim. Shu bilan birga har qanday, ayniqsa, tarixiy o'xshashliklarning cheklangani to'g'risida unutmashligi lozim.

Misol uchun, qandaydir bir hukmdorning qo'shini jangda yengildi va uning yengilishiga olib kelgan qandaydir harakatlarni amalga oshirish qarori endi bizning fikrimizcha xato bo'lib ko'rinadi.

Bu o'sha vaqtda qabul qilingan qaror oqilona emas edi, deyish mumkin emas. U o'sha vaziyat, harbiy strategiya va taktika to'g'risidagi ma'lum bir tushunchalarga asoslanib, o'zi olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga suyanib, to'la oqilona maqsadlarni ko'zlab, o'ziga to'g'ri bo'lib ko'ringan aniq harbiy hisob-kitoblarni qo'llagan bo'lishi mumkin. Butun murakkab mexanizmni qayta tiklash uchun agar ozgina bo'lsa ham asos bo'lsa, ma'lum hukmdorning xatti-harakati u aqlan noto'g'ri edi, degan oddiy fikr bilan qolmay, aynan ana shu oqilona motivlarni ko'rsatish va tarixiy voqelikni asoslashni bildiradi.

Yana bir konsepsiya — intuitiv tushunish tarixiy personaj obraziga psixologik kirish konsepsiyasi mavjud. Bu konsepsiya tushuntirishning maxsus tarixiy shakli sifatida germeneytikaning Shleyermaxerdan Diltey va Zimmelgacha rivojlanishi bilan bog'langan. Nemis faylasufi bizga oqilona metodologik maslahat beradi: tarix falsafasini o'rganishda «ayniqsa, aql harakatsiz bo'lmasligi kerak, qaror ilmiy bo'lishi lozim bo'lganda fikrlash zarur; kim dunyoga aqlan qarasa, dunyo ham unga shunday qaraydi; u va boshqasi bir-birini shartlab keladi...»

Tarixning turli konseptual modellarini o'rganish va qiyoslashda metodologik shubhaning muhimligini boshqa nemis faylasufi Fixte ham ta'kidlagan edi. U tarix bilan shug'ullanadigan tadqiqotchi «Unga har qanday tarixsiz ochiq bo'lgan umumdunyo rejasi apriori bilan rahbarlik qiladi» deb uqtiradi.

Ko'pincha, bu modellar natijasida tarix hamma vaqt bugunning o'tmish ustidan tantanasini namoyon qiladi: U yangidan qayta tiriladi, ilgari noma'lum bo'lgan qirralarni ochib, o'tmishni hozirgi zamon uchun qayta tiklaydi.

Ular qachonlardir loqayd zamondoshlar tushunmagan, unutilgan yangi-yangi dalillarni olib chiqadilar. Kelajakka xizmat qilishga majbur qilib, o'tmishning kutilmagan obrazlarini yaratadilar. Mashhur ingliz faylasufi R. J. Kollingvud aytganidek: «Tarix g'oyasini yaxlitlikda uning ongining unsuri sifatida har bir kishiga tegishli va u tafakkur qilish nimaligini anglashni boshlashi bilan uni o'zida kashf qiladi».

4. Tasvir ilmiy bilish tizimi sifatida. Tarix fanida tarixiy tasvirlar tabiati e'tibordan chetda qolib keldi. Bu muammo faqat ayrim olimlarning (A. I. Uvarov, V. N. Toporov) tadqiqotlarida kulturologik qarash jihatidagina yoritiladi. Tarixiy tasvirlarni tabiiy-ilmiy qiyoslab tahlil qilish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Bu vaziyatda quyidagi masalalarni yechish talab qilinadi:

1) Ilmiy bilish tuzilmasida tasvirlarning xususiyatlari va bilish funksiyalarini aniqlash;

2) Aniq namunalar asosida tarixiy tasvirlarning funksiyalarini oydinlashtirish;

3) Tabiatshunoslik va tarix fanida qiyosiy tasvirni amalga oshirish;

4) Tarixiy bilish tizimida «nazariy bilim» va «empirik bilim», «dalil» va «tasvir» tushunchalarining o'zaro munosabatlarini tadqiq qilish.

/Tarixiy tasvir, dalil va manba asosida tarixiy hodisa va tarixiy jarayonni gavdalantirish mumkin./Biror-bir tarixiy voqeaning unsuri turli usullar bilan tasvirlanadi. Bunda o'lehovlarning turli to'plami, vaqt, xossa, munosabat yoki vaziyatlar belgilanadi.

Tarixiy tasvirning farqlanadigan belgisi unda vaqtinchalik lahzaning albatta belgilanishidir. Misol uchun, Jaloliddin Manguberdining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashi tarixiy tasvirda turli tarixiy manbalar, zamondoshlar, asosan, An-Nasafiyning tasvirlaridan yaxlit shakllantiriladi. Shu bilan birga yaxlit tasvirlash oddiy sintez emas, balki bu buyuk sarkardani Xorazmshohning boshqa o'g'illari, sarkardalaridan ajratishni talab qiladi. Qisman yoki yakka tasvirlar bir-biriga ziddiyatli bo'lishi mumkin. Ularni tanlash, baholash, tizimga solish va sintez alohida bilish vazifasini tashkil qiladi.

Tarixiy tasvir orqali o'tmish tarix to'g'risida tushuncha hosil qilinadi. Biz ko'pgina tarixiy manba va dalillarda tarixiy tasvirlarni uchratamiz. Qadimgi Sharq tarixidan bizgacha qator tarixiy manbalar turli ko'rinish va shakllarda yetib kelgan. Ularni bir-biridan ajratish va tahlil qilishning tushunchasiga ega bo'lish tarix o'qituvchisining asosiy vazifasidan biri bo'lishi lozim. Tarix o'qituvchisi tarixiy matn, dalil va manbalarda uchraydigan tarixiy tasvir to'g'risida atroflicha tasavvur hosil qila olish qobiliyatini

o'zida shakllantira olishi lozim. Misol uchun, bizgacha Qadimgi Misr va Qadimgi Osuriya tarixiga oid turli yozma manbalar yetib kelgan. Bu yozma manbalar o'ziga xos tarixiy tasvirlardan iborat.

Matnlar tahlil qilinganda, ularning o'zaro o'xshashligi va farqlari ko'zga tashlanadi. Ularning barchasi ma'lum bir vaziyat, tarixiy voqea, amaldagi tarixiy-ijtimoiy, siyosiy voqelik jarayonlarining tasviridan iborat. Ba'zi muallif yoki tasvirlangan voqealarning tashabbuskorlari tasvirlanayotgan voqealarning ishtirokchilari bo'lgan. Shu sababli ular ko'p hollarda har qanday detalni belgilashlari mumkin edi. Ko'pgina matnlarda yakka tartibdagi tavsiflar ko'proq. Tarixiy guvohliklar nisbatan kambag'al, ko'rinishidan bu matnlarning ijodlari tasvirlanayotgan hodisaniing unsurlarini tanlab, ularni tahlil qilgan holda qandaydir maqsadlarni ko'zlab tasvirlaganlar. Ba'zi matnlar to'la siyosiy yo'naltirilgan. Ularning vazifasi ma'lum bir siyosiy, harbiy holatlarni belgilashdir. Qadimgi Osuriya, Xett matnlari harbiy tasvirlar bilan to'la, ularda raqiblarni qo'rqitish, hukmdorning kuch-qudratini tashviqot qilishga urinish ko'rinadi. Matnlar asosiy geografik nuqtalar (shaharlar, viloyat, mamlakatlar nomi) to'g'risidagina juda katta masshtabda va vaqt juda uzilgan oraliqlari to'g'risida ma'lumotga ega.

5. Matn. Bu yerda tarixiy matnning falsafiy mohiyati to'g'risida qisqacha to'xtalamiz. Tarixiy bilishda obyekt va subyektning o'zaro aloqasi murakkab va juda nisbiylashgan. Bu o'ziga xoslikni Baden maktabining yangi kantchilari aniq belgiladilar. Tarixiy manbalarda markaziy o'rinni xronika-yilnomalar, hujjatlar, xatlar va h. k. lar egallaydi. Tarixiy tadqiqotning obyekti ko'rsatilgan manbalar bo'ladi. Chunki tarixiy voqelik tarixchilardan o'tib bo'lmaydigan vaqt to'sig'i bilan ajratilgan.

M. M. Baxtin ta'kidlagan edi: «Odamning ruhi, ong tafakkuri taraqqiyotchilar oldida matnlar shaklida chiqadi». Busiz ijtimoiy bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki odam o'zining xususiyatiga ko'ra doimo o'zini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, matnni yaratadi. Bu matn shunday fikrlar va kechinmalarning bevosita birligi bo'lib, undan ijtimoiy bilish, tafakkur kelib chiqadi. Agar tabiiy fanlar buyumlar, ularning xossa va munosabatlariga

qaratilgan bo'lsa, gumanitar fanlar ahamiyat, mazmun, qadriyat xos bo'lgan matnlarga qaratilgan. M. M. Baxtin matn — «Har qanday gumanitar fanning ilk ma'lumligi (borlig'i)» deb hisobladi. Matnlarni gumanitar (ularni turli xillari va kelib chiqishi) bilishda «matn tabiati» unga xos alohidaliklardan biri bo'ladi. Jumladan, V. G. Kuznetsov gumanitar bilishni voqelikning aks etishini o'ziga xos shakli ekanini hisoblab, jamiyat va uning tarixi, tabiiy til, adabiyot, san'at va matnlar insonning boshqa ijodi yordamida ifodalangan uning obyekti bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi. Gumanitar bilimning bevosita predmeti «mazmuniy ma'lumot» tashuvchisi qobiliyatiga ega bo'lgan har qanday belgili tizim matn deb ataladi va til tabiatiga ega. Shu munosabat bilan obyekt va subyektning dialektikasi muhim o'rin tutadi. Jumladan, aks etishning matn bilan shartlangani ularda muallifning va «ikkilamchi» subyekt — interpretatorning kiritilganidir. Bunday yondashuv asosida ijtimoiy-gumanitar bilish ijtimoiy voqelikning ikkilamchi aks etishidir. Chunki bu jarayon matnlar bilan vositalangan.

Matnni ma'naviy madaniyatning buyumlashgan ifodasi deb tushunib, matnlarda obyektlangan subyektiv mazmunlarni buyumlashtirish, «ular orqali odamlar ovozi eshitish» va ular yordamida o'tgan davrlar, begona madaniyatlar «ruhiga» kirish, matnni tushunish tarixiy bilimning metodologik muammosidir.

Shunday qilib, **birinchidan**, har qanday matn uni turlicha tushunish va talqinlarning manbasidir. Ular muallif tomonidan to'liq tushunilishi kerak. Shu munosabat bilan fransuz strukturalisti R. Bart asar bir necha mazmunni o'zida saqlaydi, deb ta'kidlagan edi. Uning ramziyligi ana shundadir: ramz — bu obraz emas, buning o'zi mazmunlarning ko'pligidir.

Ikkinchidan, mazmunlarning ko'pchiligi qo'qqisdan va birdan ochildmaydi. Chunki mazmuniy hodisalar yashirin holda mavjud bo'lishi mumkin va faqat bu taraqqiyot uchun qulay bo'lgan keyingi davrlar mazmuniy-madaniy kontekstlarda ochiladi.

Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida matn mazmuni o'zgaradi. Har bir davr, ayniqsa, buyuk asarlarda nimadir yangilikni o'zini qilib ochadi. Yangi tushunish eski mazmunni «olib tashlaydi», uni qayta baholaydi.

To'rtinchidan, matnni tushunish — bu tayyor natija emas. Dialektik jarayon, turli madaniy dunyolarning muloqoti «o'ziniki», «begona» mazmunlarning to'qnashuvi matnlar muloqotidir.

Beshinchidan, begona madaniyatning matnini tushunish — bu zamonaviy madaniyatimizda paydo bo'ladigan savollarga javob topishdir.

Tayanch iboralar: I. S. Kon, K. Popper, E. Loone, pozitivizm, simmetriya, universal, sketch, Gempel, R. Bart, M. M. Baxtin, adekvat, konsepsiya, intuitiv, Baden maktabi, personaj, obraz, Diltey, Zimmel, R. J. Kollingvud, matn, madaniyat.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tarixiy tushuntirish nima?
2. Y. Topolskiy tarixiy tushuntirishlarni qanday izohlaydi?
3. Uch turdagi tushunchalar va til tuzilmalarini tushuntiring.
4. Tarixiy tushuntirishning maqsad va vazifalarini ko'rsating.
5. Gempelning tushuntirish sketchlari nima?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tarixni tushuntirishning konseptual modellari.
2. Tarixiy tushuntirishning maqsad va vazifalari.
3. Oqilona tushuntirish konsepsiyasi.
4. Mantliqiy pozitivizm yetakchilarining ta'limotlari.
5. Tarixiy tasvir.
6. Matn mohiyati.

16-MAVZU.

TARIX FANI METODOLOGIYASI VA TARIX FANINI OLIY O'QUV YURTIDA O'QITISH MUAMMOLARI

1. *Tarix fanini o'qitishning nazariy muammolari.*
2. *Tarixni o'qitishning metodik muammolari.*
3. *O'zbekiston tarixi fanini o'rganishning ayrim metodologik asoslari.*

1. **Tarix fanini o'qitishning nazariy muammolari.** Hozirgi kunda tarixchilarning tadqiqotlarida o'tmish sho'rolar davri to'g'risidagi haqiqatning keng qamrovli yoritilishi tarix faniga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Shu bilan birga tarixning ishonchliligiga shubhalar paydo bo'ldi. Keyingi yigirma yil ichida «Jahon tarixi» fanida murakkab nazariy-ilmiy muammolar ko'tarila boshlandi. Ko'pgina sobiq sho'ro respublikalari, jumladan, bizning respublikamizda ham tarix ta'limining yangi konsepsiya asoslari aniqlandi. Bu konsepsiya intensiv fundamental o'qitishni ko'zda tutadi. Tarix mantig'i o'quv predmeti tarix fani mantig'iga, ilmiy bilimlar harakati mantig'iga to'g'ri kelishi lozim. Shuningdek, tarixning o'z vataniga sodiq vatanparvar fuqaroni shakllantirishdek tarbiyaviy vazifasi o'z ustuvor ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shu bilan birga oliy o'quv yurtlarida tarix fanini o'qitishning asosiy maqsadi talabalarning bilim, ko'nikma va uni o'rab turgan dunyoga mos erkin yo'nalish qobiliyatini shakllantirishdir.

Bugungi kunda tarixni o'rganishning maqsadlaridan biri — shaxsning madaniy-tarixiy muhitga kirishi, vaqt-makonda o'zini erkin his qila olishini shakllantirishdir. Tadqiqotchilarning fikricha, oliy maktab talabasi tarixiy dalillarni emas, balki tarixning mazmun-mohiyatini (tarix falsafasini) o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ular voqeaviy tarixni o'rta maktabda, litsey va kollejlarda o'tiladigan tarix kursida o'rganadilar. Tarix falsafasi tafakkurning

mustaqilligini shakllantirishga yordam beradi, insoniyat jamiyati taraqqiyotining asosiy yo'llarini tavsiflab, dunyoqarashni kengaytiradi, ancha darajada real tarixiy kenglikni tartibga soladi. Oliy maktabda tarix fanini o'qitishda eng asosiysi — bu talabada tafakkurning tarixiyligi rivojidir. Tafakkurning tarixiyligi — madaniyatning, o'qimishli zamonaviy odamning qobiliyatlarini, voqealarning nihoyasiz dalillar qatorida mos baholash qobiliyati tavsiflaydigan eng muhim madaniy ko'rsatkichlaridan biridir.

Shaxs dunyoqarashida tarixiy ong, tarixiy xotirani shakllantirish shaxsda tarixiy ongning rivojiga olib keladi. Tafakkurda tarixiylarning mavjud emasligi o'tmish voqealarini bugungi kun o'leholari bilan baholashda ko'rinadi. Aksincha, yana tayyor tavsifa-ko'rsatmalar bermaydigan o'tmishda zamonaviy muammolarni yechish izlanadi.

O'qitish jarayonida tafakkur tarixiyligini shakllantirish uchun bu fanning metodologik asoslarini ko'rib chiqish va ijtimoiy taraqqiyotni tushunish, haqiqatga yaqin bilimga yanada ko'proq yaqinlashishga e'tiborni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixni qayta tiklashning o'ziga xosligi sababli tarixni to'la hajmda bilish mumkin emas.

Sho'rolar davrida tarqalgan markscha nazariyaga ko'ra, umum-jahon tarixiy jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning birin-ketin almashuvi jarayoni deb tasavvur qilish qabul qilingan edi. Lekin markscha-lenincha nazariya tarixiy jarayonni tadqiq qilishning yagona nazariyasi sifatida tez orada sho'rolar davrining ilmiy tadqiqotlariga to'siq bo'ldi va mamlakatda tarix fanining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilmadi. Markscha-lenincha metodologiya mamlakatlar, xalqlar taraqqiyotining turli xilligi va murakkabligini inobatga olmay, o'tmishni sxemalashtirdi. Asosiy e'tiborni esa sinflar — antagonistlarga qaratdi. Inqiloblarni mutlaqlashtirdi va tadrijiy taraqqiyotning ahamiyatini pasaytirdi. Xalqlarning mehnat darajasi ahamiyatiga e'tibor bermadi. Formatsion yondashuv sotsializm qurish amaliyoti va nazariyasi doirasidan chiqishga yo'l qo'ymadi. Bu davrda milliy respublikalarning tarixini o'rganishga yo'l qo'yilmay, milliy madaniyatlarning rivojlanishiga **tabu (taqiqlash)** e'lon qilindi.

Markscha qarashlardan voz kechib, yangi metodologiyani izlashga olib keldi. Lekin bu jarayon hali tugamadi, hozirgi vaqtda

tarix fani to'plagan tajribani qayta mushohada qilish davom etmoqda. Chunki universal metodologiya hozirgi kungacha ham mavjud emas.

XX asrning 80-yillaridan formatsiyaviy yondashuvning o'rniga boshqa nazariya keldi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotida sivilizatsiya qarashidan yondashuv konsepsiya sifatida targ'ib qilina boshlandi. Bu nazariyaga ko'ra, insoniyat jamiyatining taraqqiyoti alohida mustaqil rivojlanadigan ijtimoiy tizimlar — sivilizatsiyalarning rivojlanish sikllari yig'indisidir.

Sikllar konsepsiyasi yangi bo'lmay, balki qadimgi Geraklit, Aflotun, Arastu, hind falsafasida mavjud edi. Biz bilamizki, hozirgi kunda siklik taraqqiyot mumkin emas. Chunki u to'la ichki yopiqlikni talab qiladi. Hozirgi dunyoda globallashuv, integratsiya jarayonlari kuchayib, xalqlar, mamlakatlarning bir-biri bilan ko'p qirrali aloqalari kuchayib borishi sharoitida biror-bir sivilizatsiya tashqi dunyodan ajralgan holda yashashi mumkin emas. Bundan tashqari, yonma-yon yashaydigan sivilizatsiya yangi sivilizatsiyaning paydo bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi Yunon va Rim sivilizatsiyasiga, ular, o'z navbatida, o'rta asr sivilizatsiyasiga, o'rta asr sivilizatsiyasi esa zamonaviy sivilizatsiya va dunyoning shakllanishiga ulkan madaniy ta'sir ko'rsatdi. Tarix sikli yopiq emas, u insoniyat tarixiy taraqqiyotining olg'a tashlashini yaxlitlikda inkor qilmaydi.

Bu nazariyani o'z vaqtida J. Viko, O. Shpengler, qisman A. Toynbi, F. Brodel hamda N. A. Danilevskiy, L. N. Gumilyov va boshqalar ishlab chiqdilar. Shpengler o'zi ajratgan sivilizatsiyalarning har birining o'ziga xosligini ko'rib chiqdi. A. Toynbi tarixni unifikatsiya qilish dalillarini qo'pol soxtalashtirish va tarixiy dunyoqarashning torayishiga olib kelishini anglab, insoniyatning umumiy harakatini, alohida sivilizatsiyalarning o'ziga xos takrorlanmasligini ochib berdi. F. Brodel shunday deydi: «Har bir sivilizatsiya... ma'lum bir unga qo'shni va uzoq sivilizatsiyalar taktif qilgan ma'lum bir qadriyatlarni qabul qildi va o'z chegaralaridan tashqarida o'zining qadriyatlarini tarqatdi».

Sivilizatsiyalar nazariyasida XX — XXI asrlar oralig'ida formatsiyaviy yondashuvni faol almashtiradigan universal paradigma sifatida qarala boshlandi. U avvalgidek ma'rifiy-tarbiyaviy funktsiya-

larni bajardi. Chunki milliy an'analarni o'rganishga, milliy g'oyaning qaror topishiga, ta'lim va tarbiyaning asosiy an'alarini saqlashga asoslangan edi. Uning yordami bilan Vatan tarixi va umumiy tarixni tushuntirish mumkin, deb hisoblandi. Albatta, sivilizatsiyaviy yondashuv sotsiomadaniy tarix bilan hamohang bo'lgani uchun ulkan afzallikka egadir.

Lekin bu yondashuv bugungi kunda universal hisoblanmaydi, u cheklangan va yetarlicha ishlanmagan. Hatto «sivilizatsiya kategoriyasi»ning o'zi qo'shimcha o'rganishni, yanada ko'proq mushohada qilishni talab qiladi. Hozirgacha sivilizatsiyaning 20 dan ortiq tushunchasiga izoh berilgan va yetarli darajada tahlil qilingan. Bundan tashqari, yana uning 200 dan ortiq tushunchasi mavjud. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, sivilizatsiya katta miqdordagi mezonlar: geografik, tabiiy, diniy va boshqa omillar asosida mezonlarga ajratiladi. Bu hol sivilizatsiyaning mohiyatini tushuntirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqaring, tarixning sivilizatsiyaviy yondashuv asosida «atomlashuvi» umumjahon tarixi doirasida sinxron qiyoslashni o'tkazishga imkon bermaydi. Eng asosiysi, sivilizatsiyalar deb ataladigan jamiyatlar aynan sivilizatsiyalar ekanligi insoniyat taraqqiyotining oddiy turli bosqichlari emasligi isbotlab berilmagan. Shu sababli «barcha mamlakatlar sivilizatsiyalashgan» degan oddiy ma'nodagi so'z bilan sivilizatsiyalashgan mamlakat tushunchasi inkor qilinadi. Umuminsoniy qadriyatlarni milliylikka transformatsiya qilish ko'rinadi. Faqatgina bu emas, har qanday boshqa nazariya hozirgi kunda va uzoq kelajakda barchani qamrab olmagan tarixiy bilimning xususiyati kuchiga qarab universallikka da'vo qilishi mumkin emas. Hatto tarixni progress qarashidan qabul qilish shubha ostiga olinadi. Jahon tarixining olg'a tashlashi va progress g'oyasi tarix fanida chuqur ildizlarga ega. Ular o'z ildizlari bilan ma'rifatparvarlik davriga borib taqaladi. Uni ko'pgina taniqli tarixchilar himoya qilgan edilar. U K. Yaspers va F. Fukuyamaning tarixiy konsepsiyalarida ishtirok etadi. Bu nazariyaga asosan jamiyat progress yo'lidan borishi ko'zda tutilgan va insoniyat jamiyati tarixi olg'a qarab harakat, yomondan yaxshiga, yovvoyilikdan sivilizatsiyaga tomon harakat sifatida qaraladi. A. Y. Guriyevich bu teoriya asosida beshta ketma-ket rivojlanayotgan

davrni ajratdi: arxaik, antik, o'rta asrlar, yangi davr va hozirgi davr. Boshqacha turkumlashni A. A. Ivin taklif qiladi: arxaik yoki ibtidoiy jamoa; qadimgi agrar; o'rta asr agrar sanoat; zamonaviy industrial jamiyat. Agar bu turkumlash postindustrial yoki axborot jamiyati bilan to'ldirilsa, u bugungi kunda tugallangan ko'rinishni oladi va insoniyat jamiyati evolutsiyasini aks ettiradi.

Progress g'oyasi uning tushuntiruvchi apparati, qadriyatlar tizimi va tasavvurlari bilan faqatgina tarix faniga tegishli bo'lib qolmaydi. Balki umum tomonidan qabul qilingan mushohada fikrga kiradi. Ijtimoiy borliqning murakkabligini tushunishda tartib va turkumlashni kiritib, bu nazariya uzoq vaqt insoniyatning hayoti to'g'risida yangi axborotlarning nihoyasiz to'planishini saqlab turadi va jamiyatni harakatga keltiradigan darajada ta'sir ko'rsatadi. Lekin u ham paradigma bo'lishi mumkin emas. Jamiyatning taraqqiyoti to'g'risidagi tarixiy tushuncha bo'lsa, ko'pincha, bu nazariyaning asosiy g'oyasiga mos qabul qilinmaydi. Misol uchun, O'zbekiston tarixi misolida bu savdogar-hunarmandlarning ahvolidagi ko'rinish. Qaysiki, ularning ahvoli asrdan-asrga yomonlashib bordi, lekin umumiyqtisodiy progressning ahamiyatli omillari ma'lum darajada ko'rindi. Progress nazariyasini barcha tarixchilar ham qo'llab-quvvatlamaydilar.

Tarixni progress ruhida qabul qilishni A. B. Kosminskiy inkor qildi. U tarixni turli xil muammo va qarama-qarshiliklarni doimiy ravishda bartaraf qilish jarayoni sifatida ko'rishni taklif qiladi. Qarama-qarshiliklarni yechish tajribasini esa ahamiyati yo'q bo'lmaydigan tarixiy tajriba asosi sifatida ko'rishni taklif qiladi. Tarixga bunday yondashuv «halokatli ong»ni bartaraf qilishga yordam beradi, deb ta'kidlaydi u. Lekin ilgari mavjud bo'lgan nazariyalar aynan shunday ongni shakllantirdi, deb qabul qilish mumkin emas.

Bizning fikrimizcha, progress nazariyalari va lokal sivilizatsiyalarning sintezi ko'p darajada mos sivilizatsion ongni shakllantiradigan metodologiyani qurish imkoniyatini oshirdi. Tarixiy jarayonni bu asosda qabul qilish dunyo nihoyasiz ko'p xillikda taraqqiy etishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Aynan shuning uchun ziddiyatsiz yashash mumkin emas. Progressiv taraqqiyotning obyektivligi va ehtiyoji kompromisslarni izlash, insoniyatning tolerant taraqqiyotini belgilaydi. Aytilgan yondashuvlardan tashqari, zamonaviy tarix metodologiyasining rivojlanishi uchun siyosatshunoslik yondashuvi jiddiy to'ldirishdir. Bu yondashuv siyosiy tizimlarni qiyoslash, tarixiy va siyosiy jarayonlar to'g'risida obyektiv xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'z navbatida mentalliklar nazariyasi tarixiy manbalarning mutlaqo yangi doirasini ilmiy aylanishga kiritishga yordam beradi. Odamlarning kundalik hayotini aks ettiradigan, ularning fikrlari, his-tuyg'ularini bu o'tmishda yashovchi odam orqali o'tmishni mosroq qayta tiklaydigan tarixiy manbalar talabada to'la miqyosdagi tarixiy mushohadaning rivojlanishiga yordam beradi.

Sinergetik yondashuvga ko'ra, murakkab ijtimoiy tashkilotlarning dinamikasi rivojlanish jarayoni va jadallashuvining davriy almashuvi bilan tuzilmalarning qisman yemirilishi va qayta yaratilishi, ta'sirning markazdan chekkaga davriy almashuvi bilan bog'liq. Yangi sharoitlarda madaniy va tarixiy an'analarga qisman qaytish sinergetik konsepsiyalarga ko'ra murakkab ijtimoiy tashkilotni qo'llab-quvvatlab turishning zaruriy sharoitidir. Sinergetik yondashuv tarixni tushunishda «chiziqli» yondashuvlarga sezilarli to'ldirish bo'ladi. Nochiziqli dinamika konsepsiyalaridan foydalanishni talab qilish hozirgi vaqtda tarixiy muqobilliklarni va ijtimoiy tarixning o'tish davrlarini o'rganish uchun poydevor bo'ladi.

Jahon tarixi fanida murakkab ijtimoiy tizimlarning to'liqinsimon xususiyatiga e'tiborni jalb qiladigan to'liqinsimon yondashuv ma'lum. U insoniyat jamiyati taraqqiyotining muqobil variantlari bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Taraqqiyot vektorining almashuvi mumkinligi, lekin jamiyatning yana ilk holatiga qaytishi mumkin emasligi an'analar ishtiroki bilan modernizatsiya yo'lida uning harakat qilishi yoki oldinga siljishi mumkinligini ko'rsatadi. Tarixiy-antropologik, fenomenologik va hatto istoriosofiya yo'nalishlari muhim ahamiyatga ega. Istoriosofiya yondashuvi tarixiy jarayonning mazmun va mohiyatini ochish vazifasini belgilaydi. Yuqorida sanab o'tilgan yondashuvlar bir-biriga nisbatan o'zaro bir-birini

to'ldiruvchi funksiyasini bajaradi. Tarixiy jarayonni o'rganish uchun turli yondashuvlarni bilish va tushunish tarixni o'rganishda bir tomonlilikni bartaraf qilishga imkon beradi. Ongning qotib qolishiga yo'l bermaydi, tarixiy jarayonning tafakkur taraqqiyotini ilmiy tushunishga yordam beradi.

2. Tarixni o'qitishning metodik muammolari. Tarix fanida mukammal shakllantirilgan tarixiylik tamoyili qoidalarini to'la o'zlashtirish, ularni puxta egallash va ularga amal qilish tarixiy bilimni puxta egallashga yordam beradi. Metodologik madaniyatning shakllanishi talaba yoki magistrantning tafakkur mustaqilligining rivojlanishiga yordam beradi. Metodologik plyuralizm (g'oya va fikrlarning ko'p xilligi) asosida tarixning o'rganish predmetini tarix falsafasi yo'nalishida o'rganish talabalarda gumanitar dunyoqarashning shakllanishiga olib keladi. Zamonaviy axborot jamiyati sharoitlarida tolerantlik va o'zaro bir-birini tushunishning rivojlanishiga yordam beradi.

So'zsiz tarix fani metodologik plyuralizm asosida falsafiy ko'rinishni qabul qilib, jiddiy murakkablashadi. Lekin aynan umumiy tarixiy manzaralar asosida sintezlashtiriladigan va aniq-lashtiradigan nazariyalar tufayli talabalarning ijtimoiy jarayonni ilmiy tushunishlariga erishiladi. Hatto bir xil voqeani turlicha interpretatsiyalarda ko'rib chiqish tarixiy bilimning xususiyati sifatida qaraladi. Bir vaqtning o'zida uning ilmiyligi tasdiqlanadi. Chunki o'tmishning muqobil qiyofasiz talqin qilinishi haqiqiy tarix fani bilan hech qanday umumiylikka ega emas.

Metodologik plyuralizmga asoslangan holda fanni bayon qilish muammoli o'qitish asosida qurilishi lozim. Shunda tarixiy jarayonning muhim belgilari, uning eng ahamiyatli an'analarini ko'rsatish muhimdir. Bunday holatda birgina global muammo bilan cheklanish mumkin. Misol uchun, o'zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish yoki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modernizatsiya qarashidan ochib berish; tafakkur tarixini tarixiy hodisalar tug'dirgan g'oyalar tarixi sifatida yoritish; jamiyatning so'roqlariga shartlangan reaksiya sifatida yoki hokimiyat va jamiyat munosabatlariga e'tiborni to'plash shular jumlasidandir.

Tanlangan jarayonning barcha murakkabligini ko'rsatish muhimdir. Bunday holatda nafaqat sanalar, dalillarga, balki tarixiy jarayonning tizimli tahliliga e'tibor beriladi. Bu talabalarni o'z voqeaviy bilimlarini qayta tiklash va to'ldirish uchun o'quv qo'llanmalarga murojaat qilishlarini rag'batlantiradi. Barcha muammolarni qabul qilish samarasi kamroq, chunki bu oqibatda tarixni an'anaviy bayon qilishga olib keladi.

Bugungi kunda talabani faqatgina daliliy materialni bilishga yo'naltiradigan tarixni o'qitish metodi mustaqil fikrlaydigan, e'tiqodli yosh kadrlarni tayyorlashda juda katta zarar yetkazadi. Eng muhimi, talabalarga bugungi kunda tarixni o'quv fani sifatida amalga oshirish — ilmiy bilimlarni o'zlashtirish. O'quv fani sifatida tarixning maqsadi talabalar ongiga ilmiy bilimlarni egallash tushunchasini singdirishdir. Tarixiy muammolarni shunday asosda ko'rib chiqish talabalarga qiyosiy tahlil qilishni o'rgatadi. Bundan tashqari, qo'yilgan muammoli savollarga javob topish uchun ma'lumotlarni mustaqil izlashni faollashtiradi. Haqiqatga yaqinlashtirilgan bilimlarni olish uchun talabalar turli xil tarixiy adabiyotlardan foydalanishlariga to'g'ri keladi. Bu muammoli o'quv vazifalarini yechish uchun shaxsiy ijodiy yondashuv unsurlaridan biridir. Bunday holda talabalar ijtimoiy hayotning dalillarini tahlil qiladilar va tanqidiy baholaydilar. Ularga tarixiylik, metodologik, aksiologik va gnoseologik plyuralizm qarashidan yaqin kelishga urinadilar.

Talabalarga muammoli masalalarni yechish — dalil va oddiy xotirada qoldirishdan, xronologiyalarni bilishdan ko'ra mustahkam bo'lgan yangi bilimlarni egallashga shart-sharoit yaratadi. Aynan muammoli o'qitish mazmunli va motivatsiya xususiyati bilan tavsiflanadi va ko'p darajada bo'lg'usi mutaxassisga zarur bo'lgan analitik-tadqiqotchi sifatini va talabada metodik amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratiladi. Talabalar tarixni o'rganishning bunday jarayonida fikrlar to'qnashuvidan qochib bo'lmashligini tushunishga, boshqa qarashlarni hurmat qilishga o'rganadilar.

Tarixni o'rganishning bosh maqsadi talabani mustaqil fikrlash va haqiqatni izlash, har qanday manbalar, har xil fikrlarga analitik yondashish, boy daliliy materialni sabab-oqibatli aloqalar qarashidan tahlil qilish, metodologik va gnoseologik plyuralizmga

o'rgatadi. Yangi yondashuvlardan foydalanish, tarixiy jarayonning u yoki bu muammolarini yechishda haqiqatni izlash talaba ongining mustaqil rivojlanishiga yordam beradi. Talabaning dunyoqarashlar kengligida erkin o'z-o'zligini belgilashga sharoit yaratadi. Natijada uning ongidagi mumkin bo'lgan og'ishlar bu ong bilan manipulyatsiya qilinishi mumkin bo'lmay qoladi. Shuningdek, talabada hissiy potentsialning kengayishiga yordam beradi. Ijtimoiy-madaniy namunalar misolida umummadaniy layoqatlilikni shakllantirishga va shu bilan keyingi kasbiy faoliyat davrida uning mutaxassis sifatida mustaqilligini ta'minlaydi.

Oliy o'quv yurtida tarix fanining o'qitish samarasiga ta'sir qiladigan omil — bu zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalari, nazariy metodologik yoritilgan adabiyotlar bazasini yaratishdir. Oliy o'quv yurti talabasi zamonaviy tarix metodologiyasi qarashlari, konsepsiyalari, maktablari bilan tanish bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda boshqa fanlar kabi tarix fanini o'qitishda ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish keng tus oldi. Bu o'qitishda tizimli jarayonga aylanib bormoqda. O'qitishning bunday usuli tarix ta'limi samarasining o'sishi uchun qulay omil bo'lmoqda.

3. O'zbekiston tarixi fanini o'rganishning ayrim metodologik asoslari. O'quv yurtlarida O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonida metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Tarix fanini o'qitishda xolislik tamoyiliga asoslanish har bir o'qituvchining burchi bo'lib qoladi.

XX asrning 80-yillarining so'nggi 10 yilligidan boshlab Vatan tarixining dolzarb muammolarini chuqur tahlil qilish davri boshlandi.

«Xalqimiz tarixini bu qadar soxtalashtirishga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor, — deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo'lgan totalitar tuzumning salbiy o'rni katta bo'ldi», deb ta'kidlagan edi prezident I. A. Karimov.

O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan totalitarizm tug'unidan, kommunistik mafkura tazyiqidan ozod bo'ldi. Xalq ta'limi tizimida

tarix fanlarini o'qitish jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan sivilizatsiya qarashidan metodologik asoslarga tayanish uchun keng yo'l ochildi.

Prezidentimiz Islom Karimov 1998-yil tarixchilar bilan uchrashuvida quyidagilarni ta'kidlagan edi: «Ahvol shu darajaga borgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib, birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsliklarini o'qir edik. «SSSR tarixi» deb atalgan darslikda O'zbekistondan mamlakatga bor-yo'g'i uch-to'rt sahifa o'rin berilib, tarixiy voqealar va shaxslar haqida noxolis fikrlar aytilar yoki umuman lom-mim deyilmasdi. Fandagi bunday itoatkorlik, ko'zbo'yamachilikni bugun eng olis qishloqlarda yashayotgan oddiy fuqaro ham, maktab o'quvchisi ham yaxshi biladi. Endi mustaqillik tufayli yaqqol namoyon bo'layotgan tarixiy haqiqatni bilishga, o'zligini anglashga chanqoqlikning tub sabablari mana shunda, deb o'ylayman».

Mustaqillik yillarida o'zbek olimlari tariximizning muhim sahifalarini, eng avvalo, davlatchiligimiz Temuriylar davri, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi xalqimizning milliy ozodlik kurashi tarixini yangidan kashf etdilar. «Kishilik jamiyati tarixi, tarixiy voqea-hodisalar, ma'naviy hayotni o'rganishning muhim nazariy metodologik asoslaridan biri jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ochib beruvchi dialektik metoddir». Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti dialektik jarayondir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisa-voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi.

Keyingi o'n yillik ichida Vatan tarixini o'qitish metodi va metodologiyasi bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar chop etila boshlandi. Jumladan, Nizomiy nomidagi TDPda M.Tojiboyev, Z. Ilhomovlarning «O'zbekiston tarixini o'qitishning metodologiyasi» o'quv metodik qo'llanmasi (2003-yilda chop etilgan) diqqatga sazovordir. Bu qo'llanmada tarix o'qitishning metodologiyasi mazmun-mohiyati, shu yo'nalishda jahon fani to'plagan ilmiy-nazariy konsepsiya, ilmiy qarashlar va qoidalar to'g'risida yetarli ma'lumot berilgan. Shu bilan birga O'zbekiston tarixini o'qitishning metodologiyasi atroflicha bayon

qilingan. Mazkur o'quv metodik qo'llanma oliy o'quv yurtlari o'qituvchi, talabalari uchun zarur bo'lgan uslubiy adabiyot vazifasini o'taydi. Kasb-hunar kolleji, akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham bu qo'llanmadan O'zbekiston tarixini o'qitishda foydalanish mumkin. Bu sohada hozirgacha bunday o'quv metodik qo'llanma mavjud emas edi.

Fan metodologiyasi uchun metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday metodlardan biri dialektik metod bo'lib, u juda uzoq tarixga ega. Uning bilish nazariyasi sifatida shakllanishi va rivojlanishida Geraklit, Arastu, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Ulug'bek, Spinoza, Gegel, Gersen kabi olimlarning xizmati kattadir. Ularning ilmiy qarashlari natijasida tabiiy va ma'naviy dunyoni yaxlit bir jarayon shaklida, ya'ni ularni uzluksiz harakat qilib, o'zgarib, taraqqiy qilib turadigan holda, taraqqiyotni ichki bog'lanishda olib o'rganish metodologiyasi — dialektik metodologiya shakllandi. «Dialektik metodologiya har qanday mamlakat, shu jumladan, O'zbekiston xalqlari tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Negaki, har bir xalq milliyligi, o'ziga xos betakror xususiyatlari bilan birga butun insoniyat taraqqiyotida umumiy bog'lanishdadir».

O'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayoti, avvalo, Markaziy Osiyo xalqlari, qolaversa, bashariyat tarixi, ma'naviy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog'langan. Qadim zamonlardan yaqin yillargacha Vatanimiz Afg'oniston, Eron, Shimoliy Hindiston kabi mamlakatlar bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib keldi. Bu katta hududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o'zaro ta'sir va aloqada bo'lganlar, qo'shilish jarayonini boshdan kechirganlar. Ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Shu sababli Vatan tarixini ushbu qo'shni hududlar tarixi bilan bog'liq holda o'rganish zarur. Shu boisdan qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg'on, hind, arab va boshqa xalqlar tarixi, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotini qanchalik yaxshi bilsak, u O'zbekiston xalqlari tarixini shunchalik chuqur, har tomonlama o'rganishga imkon yaratadi va ko'maklashadi.

O'zbekiston tarixi fanini o'rganish, tahlil etish va yoritishda xolisona, haqqoniy yondashuv muhim metodologik qoidadir.

Xolislik qoidasi tarixiy voqea-hodisalar, ma'naviy-ma'rifiy hayotni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlar, dalillarning hech bir istisnosiz butun majmuyini birga olib tekshirish aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishni talab qiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda, o'zaro aloqada va munosabatda deb tekshirish lozim. «Sho'rolar davrida tarixni bir yoqlama yoritish «tajribasini» o'ziga asos qilib olgan tadqiqotchilar oldindan maqsadi, istagini belgilab, tarixiy dalillar orasidan o'z maqsadlariga mos keladiganlarini tanlab oldilar. Natijada tarixiy voqealarning asl mazmunini soxtalashtiruvchi «asarlar», qo'llanmalar va darsliklar hosil bo'ldi».

Masalan, ma'lum bir davlat tarixini tarixiylik nuqtayi nazardan turib o'rganmoqchi bo'lsak, birinchidan, u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi? Ikkinchidan, u o'z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o'tdi? Uchinchidan, u halokatga uchragan bo'lsa, uning sabablari yoki mavjud bo'lsa, u hozir qay ahvolda, qanday bo'lib qoldi? degan savollarga aniq javob berish zarur bo'ladi.

«Tarix metodologiyasi xalqning o'tmishiga hozirgi zamon va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida qarab, o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qarashni talab qiladi». Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, farovon turmush qurmoqchi bo'lgan biz avlodlar tarix fani orqali o'z o'tmishimizni yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamon; mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur qilamiz. O'zbek davlatchiligi tarixini yoritish, tahlil etishda ijtimoiy yondashuv metodologiyasi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy jarayonlar, aholining barcha tabaqalari manfaatlarini hisobga olgan holda o'rganishni taqozo etadi. Sababi: insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida urug'chilik tuzimi yemirilib, xususiy mulkechilik kelib chiqqach, urug' jamoalari turli ijtimoiy tabaqalarga bo'linib ketdi, tarixiy voqea va hodisalar ana shu tabaqalarning manfaati bilan bog'liq holda kechadigan, har

bir ijtimoiy toifa o'z manfaati nuqtayi nazaridan harakat qiladigan, ularning manfaati bir-biri bilan to'qnashadigan, g'alayonlar, qo'zg'olonlar ko'tariladigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyatda sodir bo'lgan voqea va hodisalarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotni o'rganishda ijtimoiy yondashuv qoidasiga rioya etish zarur bo'ladi.

Tarixiy voqea va hodisalarni alohida bir ijtimoiy tabaqa — kambag'allar, yo'qsillar yoki mulkdor, boylar qarashidan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondashuv bo'lib, u to'g'ri xulosalarga olib kelmaydi. Shohlar, amirlar, beklar faoliyati, g'oyaviy qarashlarni yoritishga sivilizatsiyaviy (taraqqiyot) qarashdan yondashmoq kerak. Ularni boy tabaqalardan chiqqan katta mulkdor bo'lgani uchungina qoralash, badnom qilish tarixiy haqiqat emas. Mamlakat yurtboshisiz, davlat organlarisiz, boshqaruvchilarsiz, amaldorlarsiz bo'lmashligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Shunday ekan, barcha davlat arboblari va amaldorlarini yoppasiga qoralash ham to'g'ri emas. Vatanimizning ko'hna tarixi ham ular orasida xalqparvar, ma'rifatparvar, adolat bilan siyosat yuritgan mashhur yurtboshchilar, arboblar bo'lganligidan guvohlik berib turibdi.

Ijtimoiy yondashuv tamoyili — davlat arboblari, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, yo'lboshchilarning tarixiy taraqqiyotga ko'rsatgan ijobiy yoki salbiy ta'sirini, jamiyatning u yoki bu yo'ldan rivojlanishidagi o'rnini bilib olishda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston tarixini o'rganishda milliy qadriyatlar, xalq an'analari va urf-odatlari, islom dini tarixi, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilish, yoritishda madaniyat qarashidan yondashish zarur. Insoniyatning ming yillar davomida yaratgan ma'naviy madaniyati va axloq mezonlarini ikkiga: ekspluatatorlar hamda ekspulatatziya qilinuvchilar madaniyati va axloqiga bo'lib, birinchisini qoralab, ikkinchisini oqlab tasvirlash sinfiylik nuqtayi nazaridan qarashdir. O'tmish tarixiga bunday yondashuv ma'naviy qashshoqlashuv, milliy qadriyatlar, urf-odatlarning oyoq osti qilinishiga, ko'pgina olimlar, ma'rifatparvar ziyolilar, ruhoniylarning qatag'onlari

fojiasiga olib keldi. Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakatini o'rganishda, avvalo, metodologik jihatdan muhim bo'lgan ayrim masalalarga aniqlik kiritish lozim. Bunday muammolar sirasiga mintaqamizdagi milliy ozodlik harakatlarining xronologik chegaralarini aniqlash, harakatning asosiy davrlarini belgilash, kurashning shakl va mazmuniga ko'ra har bir davrni xolisona tiklash kabilar kiradi.

Milliy ozodlik tarixi bo'yicha manbalarni o'rganish bo'yicha tarixchilarimiz tomonidan juda katta ishlar, ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ana shu natijalarni umumlashtirish va uni uzluksiz e'lon qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek xalqi va Markaziy Osiyodagi boshqa qardosh xalqlar tarixiy tadqiqotining yana bir muammosi — milliy ozodlik harakatlari boshlanishi va nihoyasi chegaralari aniq belgilanishi muhim masaladir. Yaqin kunlarga «Sho'rolar davrida xalqimizning milliy istiqlol uchun olib borgan kurashi 1917-yil oktabr voqealari bilan yakunlandi, degan qarash ustuvor edi». Bu tarixning markscha metodologiyasiga mos bo'lib, tarixiy haqiqatdan yiroq edi. Mazkur masala bo'yicha so'nggi yillarda olimlarimiz xolisona tarixiy haqiqatni aytdilar: Mintaqamiz xalqlarining istiqlol uchun olib borgan kurashi 1991- yilda Markaziy Osiyo respublikalarining davlat mustaqilligi e'lon qilinishi bilan nihoyasiga yetdi. Milliy ozodlik harakati qachon va qayerda boshlangan, degan savol esa hanuz o'z yechimini kutmoqda. Tadqiqotchilarimiz bir ovozdan milliy ozodlik harakatining boshlanishini rus istilosi bilan bog'laydilar. Ammo bu harakat aniq nechanchi yildan va qaysi voqeadan boshlanadi? degan savollarga turli xil javoblar berilmoqda. Rossiyaning O'rta Osiyoga tomon siljishi, bu hududga nisbatan ekspansiyasining boshlanishi Rossiyada Pyotr I davridan boshlanganini tarixiy manbalar bilan isbotlash mumkin.

Muhim metodologik ahamiyatga molik bo'lgan yana bir muammo milliy ozodlik harakati tarixini davrlashtirish masalasidir. Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakati tarixi hozir ko'pchilik tarixchilar e'tirof etadigan quyidagi besh davrga bo'linadi:

1. 1868-yildan XIX asrning oxirigacha.

2. XX asrning boshlaridan 1917-yil oktabr to'ntarishigacha.

3. 1917-yil oktabr to'ntarishidan 1924—1925-yillargacha.

4. 1925-yildan 1985-yilgacha.

5. 1985-yildan 1991-yilgacha.

Metodologik muammolardan yana biri yuqorida ko'rsatib o'tilgan har davrning mohiyatini to'g'ri idrok etish va shu asosda ularni to'g'ri nomlashdir. Bu, asosan, 1918—1924-yillarda sodir bo'lgan va ilgari «bosmachilik» deb atalgan uchinchi davr e'tiborga molikdir. Hozirgi adabiyotlarda bu davr «istiqlolchilik harakati» deb nomlandi. Uning tarixini yoritish tarixiylik-xolisiylikning tiklanishi deb xulosaga kelish mumkin. Ayrim tadqiqotchilar bu davrga nisbatan «milliy ozodlik kurashi», «Vatanparvarlik harakati», «Qarshilik harakati», «Milliy qo'zg'alish harakati» singari iboralarni qo'llashni taklif etmoqdalar.

O'zbekiston tarixini yangicha tadqiq etish va xolisona yoritishda, milliy asarlar, risolalar yaratishda, o'rganishda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov asarlarining nazariy, metodologik ahamiyati juda katta bo'lib, ayniqsa, «O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asar sho'rolar davrida O'zbekistonda yuritilgan mustamlakachilik siyosatining mohiyatini ochib berishga ko'maklashadi. Islom Karimovning «O'zbekiston bozor munosabotlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asari sho'rolar davrida yuritilgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy siyosat, o'lkani markazga qaram qilish, xomashyo bazasiga aylantirish masallalarining nazariy va amaliy jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Yurtboshimiz I. Karimovning barcha asarlari, ma'ruza va nutqlari O'zbekiston tarixini o'qitishda muhim metodologik asos vazifasini o'taydi. Uning «Tarixiy xotirasiz — kelajak yo'q», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli asarlari O'zbekiston tarixini tadqiq qilishda muhim o'ringa ega. O'zbekiston Prezidentining xorijiy mamlakatlarga qilgan safarlari chog'ida so'zlagan nutqlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining sessiyalari, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining yig'ilishlarida qilgan ma'ruzalari, chet ellik va mahalliy jurnalistlar bilan uchrashuvlarda

soʻzlagan nutqlari, ularning savollariga berilgan javoblari Oʻzbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati, uning asosiy tamoyillari va yoʻnalishlari, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga qoʻshilish jarayoni, xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarning yoʻlga qoʻyilishi va rivojlanib borishi kabi qator masalalarni oʻrganishda muhim manba rolini bajaradi.

Oʻzbekiston tarixini oʻrganishda quyidagi metodologik masalalarga jiddiy eʼtibor berish maqsadga muvofiq:

Oʻzbekiston tarixini davrlashtirishda markscha tarix metodologiyasining qoldiqlaridan voz kechilishi kerak. Davrlashtirishga tarix fanida hozirgi kunda mavjud boʻlgan ijtimoiy, sivilizatsiyaviy yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Uni oʻrganishda jahon tarixi metodologiyasining umum eʼtirof etilgan metodlari, konsepsiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbekiston tarixi manbashunosligi metodologiyasini yangi bosqichga koʻtarish, jumladan, manbalar tahlili metodlarining xilma-xilligini taʼminlash uchun har bir davrning mazmun-mohiyati sivilizatsiya nuqtayi nazardan yoritilishi lozim. Sabab: ijtimoiy yondashuv tamoyili. Davlat arboblari, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ularning yoʻlboshchilarining tarixiy taraqqiyotga koʻrsatgan ijobiy yoki salbiy taʼsiri, jamiyatning u yoki bu yoʻldan rivojlanishdagi oʻrnini bilib olish muhim ahamiyatga egadir.

Xolislik tamoyili tarixiy voqea-hodisalar, maʼnaviy-maʼrifiy hayotni oʻrganayotganda, ular bilan bogʻliq boʻlgan barcha holatlar, dalillarni hech bir istisnosiz, butun majmuyini birga olib tekshirish aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishni talab qiladi. Oʻzbekiston tarixini oʻrganish, tahlil etish va yoritishda xolis yondoshuv muhim metodologik qoidadir.

Oʻzbekiston madaniyati tarixini atroflicha oʻrganish uchun ulkan moddiy va maʼnaviy-madaniy manbalar, adabiyotlar yetarli. Mavjud boy manbalar asosida qadimiy madaniyatimizning yangi tahrirdagi tarixini yaratish muhim vazifadir. Oʻzbekiston madaniyati va sanʼati tarixi boʻyicha qator taniqli olimlar (Renpel, Pngachenkova va boshqalar)ning qator monografiyalari, ilmiy-nazariy maʼruzalari, risolalari mavjud. Toʻplangan mavjud ilmiy tadqi-

qotlar natijasida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslangan mazmunan boy madaniyatimizning barcha qirralari ochib berilgan. Madaniyatimiz tarixini yozish, yaratish va uni e'tiborga havola qilish dolzarb vazifalardan eng muhimi hisoblanadi.

Tayanch iboralar: Metodologik plyuralizm, sinergetik, antropologik, fenomenologik, «halokatli ong», A. A. Ivin, to'liqsimon yondashuv, transformatsiya, tafakkur tarixiyligi, interpretatsiya, modernizatsiya, aksiologik va gnoseologik plyuralizm, manipulyatsiya, materialist, mifologiya, dialektika, kosmologik spekulyatsiya, «Vatanparvar harakati», «Qarshilik harakati», «Milliy qo'zg'alish harakati», ma'naviy jasorat.

Takrorlash uchun savollar:

1. Hozirgi kunda tarix fanini o'qitishning metodologik muammolarini ko'rsating.
2. Oliy o'quv yurtlarida talabalarning zamonaviy tarixiy ta'lim olishidagi asosiy vazifasi nimada?
3. Tarix fani predmetini talabalarning tarixiy ongini shakllantirishdagi muammolari haqida gapiring.
4. Tafakkurda tarixiylilikning mavjud emasligi nimada ko'proq ko'rinadi?
5. Yaqin o'tmishdagi tarix metodologiyasining zaif tomonlarini ko'rsating.
6. XX asrning so'nggi o'n yilligida yuzaga kelgan tarixiy konsepsiyalarni tushuntirib bering.
7. O'zbekiston tarixini o'rganishda qaysi metodologik masalalarga e'tibor berish lozim?
8. Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakati tarixini qanday davrlarga bo'lish mumkin? O'zbekiston tarixini xolisona yoritishda nimalarga e'tibor berish zarur deb hisoblaysiz?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Oliy o'quv yurtlarida tarixni o'qitishning yangi mazmuni, metodikasi va texnologiyalari.
2. XXI asr boshlarida tarix fanini o'rganishda metodologik plyuralizm.

3. Zamonaviy tarix metodologiyasining bo'lg'usi mutaxassis tafakkurini rivojlantirishdagi muammolari.

4. Yurtboshimiz Islom Karimov asarlarining tarixni o'qitishdagi ahamiyati.

5. O'zbekiston tarixini davrlashtirishda yangicha yondashuv.

6. I. Karimovning «Tarixiy xotirasiz — kelajak yo'q» asari O'zbekiston tarixini o'qitishda muhim metodologik manba.

7. O'zbekiston madaniyati tarixini yaratish asoslari.

8. O'zbekiston tarixi manbashunosligining dolzarb muammolari.

GLOSSARIY

Aqida — arab. «bilish, biror narsaga ishonish» ma'nolarini bildiradi.

An'ana — lot. *traditio* — «uzatish» ma'nosini bildiradi.

Aprior — tarixni sxema tarzida tasavvur qilish.

Axloq — lot. *moralis* — «xulq atvorga, urf-odatga taalluqli» ma'nolarini bildiradi.

Bilish — inson faoliyatining ijtimoiy-tarixiy jarayoni.

Diaxron metodi — davrlashtirish metodi.

Epistemologiya — ilmiy bilish tadqiqotining muammo va yechimlari to'plamini belgilovchi atama.

Epos — doston.

Gumanizm — insonparvarlik.

Ideografiya — yakka takrorlanmaydigan voqealar, vaziyatlar va jarayonlarni tasvirlaydigan fan.

Ibtido — boshlanish.

Intiqo — tugallanish.

Istoriyosofiya — tarixiy jarayonning mazmun-mohiyatini ochish vazifasini belgilaydi.

Istoritsizm — kelajakni bilishning metodologik va falsafiy asosi yoki tarixni ilmiy tadqiq qilishning markaziy metodologik tamoyili.

Irratsionalizm — lot. «ongsizlik, noma'lumlik» ma'nosini bildiradi.

Informatsiya — lot. *information*-tushuntirish, bayon qilish ma'nolarini bildiradi.

In'ikos — aks ettirish.

Inkor etish — biror narsaning shu narsa emasligini ta'kidlovchi hukm.

Individual ong — insonning sezishi, idrok etishi, yon atrofni bilishni bildiradi.

Imkoniyat — har bir narsa hodisadagi taraqqiyot yoʻnalishini ifodalovchi tushuncha.

Ijod — kashfiyotchilik, ixtirochilik.

Ideal — fransuz. «ideal», lot. «ideal» soʻzidan olingan, «qiyofa, mezon, mukammallik» degan maʼnoni bildiradi.

Jarayon — muayyan vaqt oraligʻida boʻlib oʻtgan oʻzgarishlar, voqea-hodisalarning davomiyligi.

Kontinentlar tarixi — mamlakatlar va xalqlar tarixining umumiy maʼnosi.

Kuzatish — bilishning narsa va hodisalar xossalari va ular oʻrtasidagi bogʻlanishini oʻrganish.

Kortej — dunyo tarixi (bu kortej).

Metod (uslub) — faoliyat usullarini boshqaradigan qoida, norma, mezonlar.

Mifologiya — yonon. *mif* — afsona, doston, qissa. *Logos* — taʼlimot.

Mesopotamiya — ikki daryo oraligʻi.

Metodologiya — yunon. soʻz boʻlib, «tahlil qilish, idrok etish usullari» maʼnotlarini bildiradi.

Madaniyat (kultura) — «parvarish qilish, ishlov berish» maʼnosini bildiradi.

Monarxiya — yakka hokimlik.

Millat — lot. *namio* soʻzidan *millat* soʻzi kelib chiqqan.

Mavjud — lot. *exsisto* — «mavjudman».

Mafkura — arab. *qarashlar va eʼtiqotlar tizimi majmuyi* degan maʼnoni bildiradi.

Nomotetik fan (Tabiiy fan) — oʻrganiladigan obyektning umumiy qaytariladigan, muntazam xossalarni oʻrganadi, ahamiyatli boʻlmagan yakka xossalardan mavhumlashadi.

Os — tayanch.

Paradigma — andoza.

Plyuralizm — gʻoya va fikrlarning koʻp xilliligi.

Strukturalizm — XX asr ijtimoiy-gumanitar bilimidagi yoʻnalishlarning umumiy nomi boʻlib, madaniyatning koʻpxillik hodisalari asosida obyektiv mavjud mantiqiy tuzilmalarni izlash bilan bogʻliq.

Sinxron metod — jamiyatda yuz berayotgan voqealarni bir vaqtda o'rganish.

Sivilizatsiya — eng oliy ko'rinishdagi madaniy birlik.

Substansiya — lot. «Mohiyat».

Sakral — kundalik turmushda ado etiladigan diniy qadriyatlar.

Tarix sikli — tarix yo'li.

Tarixiylik — tarixiy taraqqiyotning an'ana va qonunlarini aks ettiradigan ijtimoiy ta'limot.

Tarix — mohiyati bo'yicha siyosiy va ijtimoiy voqealarning xronikasi.

Tarixiy ratsionallik — tarixga rioya qilish.

Tahlil qilish — manbalarni qiyoslash.

Voqelik — lot. *realis* so'zidan olingan, «haqiqiy, mavjud» ma'nolarini bildiradi.

Xronologiya — lot. *xronos* — vaqt, *logos* — fan. Vaqt birligida tarixiy materiallarni bayon qilish.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Karimov I. A.* Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, T.: «O'zbekiston», 1996.
2. *Karimov I. A.* Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, T.: «O'zbekiston», 1996.
3. *Karimov I. A.* Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild, T.: «O'zbekiston», 1996.
4. *Karimov I. A.* Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-jild, T.: «O'zbekiston», 1997.
5. *Karimov I. A.* Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild, T.: «O'zbekiston», 1998.
6. *Karimov I. A.* Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, T.: «O'zbekiston», 1998.
7. *Karimov I. A.* Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni moderinizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston», 2005, 96-b
8. *Karimov I. A.* Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008.
9. *Karimov I. A.* Tarixiy xotirasiz — kelajak yo'q. T.: «O'zbekiston» 2008.
10. *Бердяев Н. А.* Смысл истории. — М.: «Мысль», 1990.
11. *Гумилев Л. Н.* Этногенез и биосфера Земли. 2-е изд. — Л.: изд-во ЛГУ, 1989.
12. *Дьяконов И. М.* Пути истории: От древнейшего человека до наших дней. — М.: «Восточная литература», 1994.
13. *Кириллин В. А.* Страницы истории науки и техники. — М.: «Наука», 1886.
14. *Сорокин П. А.* Человек, Цивилизация, Общество. — М.: Политгиздат, 1992.

15. *Поппер К.* Открытое общество и его враги. — М.: Междунар. фонд «Культурная инициатива», 1992. — Т. 1. Чары Платона; Т. 2. Бремя лжепророков: Гегель, Маркс и другие оракулы.

16. *Карл Ясперс.* «Смысл и назначение истории»: Пер. с нем. — М.: Политиздат, 2001 г.

17. *Карл Ясперс.* «Духовная ситуация времени» 2001 г. Перевод М. И. Левина.

18. *А. С. Лаппо-Данилевский.* «Методология истории» Москва, издательский дом «Территория будущего», 2006.

19. *Е. Е. Вяземский, О. Ю. Стрелова.* «Теория и методика преподавание истории», Москва, «Владос», 2003 г.

20. *Ивин А. А.* Философия Истории. — М., 2000 г.

21. Философия Истории. под редакцией д.ф. наук, проф. *А. С. Панарина.* Гардарики. М., 1999 г.

22. Историческая наука в XX веке. Историография истории нового и новейшего времени стран Европы и Америки. Под редакцией проф. *А. И. Патрушева.* М., «Простор», 2002 г.

23. *N. Shermuhamedova.* Falsafa va fan metodologiyasi. Toshkent. 2005-y.

24. Философия и методология науки. Под редакцией проф. *В. И. Купцова.* М. 1996 г.

25. *В. П. Кохановский.* Философия и методология науки. Для студентов вузов. М. 1999 г.

26. С сайта ru.wikipedia.org

27. С сайта <http://ido.tsu.ru> «Использование проблемного метода обучения в преподавании истории» (статья).

28. *Тукфатулина Султана Гильмидиновна.* Исторические и социально-политические взгляды Карла Ясперса как мыслителя своей эпохи: Дис. ... канд. ист. наук: 07.00.03: Владикавказ, 2004, 189 с. РГБ ОД, 61:04-7/660.

29. *Крупнова А. С.* Реферат по отечественной истории Тема: Функции исторического познания. Методология истории Калининград, 2007.

30. Философия XX века. — М., 1997.

31. Философская энциклопедия. — М., 2001.

МУНДАРИЖА

Kirish	3
1-mavzu. Tarix fanining metodologik asoslari fanining predmeti, maqsad va vazifalari	5

Birinchi qism.

Tarixiy bilishning genezisi va taraqqiyoti

2-mavzu. Tarixiy ong tushunchasi. Tarixiy ong va milliy o'zlikni anglash	21
3-mavzu. Tarix fanining rivojlanish bosqichlari	50
4- mavzu. Tarix fani metodologiyasining shakllanish tarixi	71
5-mavzu. Madaniy antropologiya. Tarixiy informatika	96

Ikkinchi qism.

Tarix fanining nazariyasi va metodi muammosi

6-mavzu. Tarixiy taraqqiyot jarayonining ilmiy talqinlari	112
7-mavzu. Tizimli yondashuv. Tarixiy jarayon. Tarixiy bilim va mafkura	127
8-mavzu. Tarix fani nazariyasi. Tarixiy vaqt muammosi	140
9- mavzu. Tarixiy bilim obyekti, predmeti va subyekti	167
10- mavzu. Tarixni o'rganish metodlari. Strukturalizm	182
11-mavzu. Matematik statistika metodlari	202
12-mavzu. Tarix qonunlari mavjudmi? Aniq tarixiy bilimga erishib bo'ladimi?	210

13-mavzu. Tarixiy manba va tarixiy dalil muammosi.

Tarixiy dalillarni metodologik xillashtirish

14-mavzu. Metodologiyada tarixiylik tamoyili

15-mavzu. Tarixiy tushuntirish

16-mavzu. Tarix fani metodologiyasi va tarix fanini oliy

o'quv yurtida o'qitish muammolari

Glossariy

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

.. 222
.. 242
.. 261

.. 270
.. 288
.. 291

RAVSHAN RAJABOV

TARIX FANINING METODOLOGIK ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
SAII0601 – tarix o'qitish metodikasi mutaxassisligi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent — «Istiqlob» — 2013

Muharrir S. Xo'jaahmedov

Musavvir H. Yoqubov

Musahhah N. Ataboyeva

Sahifalovchi S. Po'latov

halq bu nol sen, sen

bi sen sen bu nolning

orga sda emas oldida bsl.

Andaygular Olimjon

Qayilovich. 22.11.2010-y

Лицензия рақами АИ №217. 03.08.2012-й. Bosishga ruxsat etildi 11.02.2013-y.
Tayms Tad garniturasi. Bichimi 60×84 1/16. Shartli bosma tabog'i 18,5 b.t. Ofset
qog'ozi. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 5.

«ISTIQLOL NASHRIYOTI» Toshkent sh., 100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Tel: 244-94-36, fax 244-51-98. El.pochta: roipoligraf71@yahoo.com.

«ISTIQLOL NASHRIYOTI» matbaa bo'limida chop etildi. Toshkent sh.,
100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

ISBN 978-9973-308-54-1



9 789943 308541